

D.Urakov, A.Xolliyev, S.Gabrielyan,
R.Tursunov, O.Maxmudov, A.Rozakov,
A.Biykuziyev, B.Xaynazarov, R.Djurayev,
Kenjayeva.

JAHON TARIXI

(1-TOM, 1-JILD)



33M(07)

U-16

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI


D.J. Urakov, A.G.Xolliyev, S.I. Gabrielyan, R.N.Tursunov,
O.A.Maxmudov, A.A.Rozakov, A.A.Biykuziyev,
B.B.Xaynazarov, R.X.Djurayev, N.Kenjayevo, D.X.Ziyayevo,
G.K.Otarbayeva, J.E.Turekulova

JAHON TARIXI

BIRINCHI TOM

Birinchi qism

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik



Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2020

33 M(07)

UDK: 930.1

BBK: 63.3.0

J 18

J - 1E

D.J. Urakov

**Jahon tarixi / A.G.Xolliyev, S.I. Gabrielyan, R.N.Tursunov,
O.A.Maxmudov, A.A.Rozakov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov,
R.X.Djurayev, N.Kenjayevo, D.X.Ziyayevo, G.K.Otarbayeva,
J.E.Turekuiova / darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 260 bet.**

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu “Jahon tarixi” darsligi jahon tarixining Qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiya o'choqlarining vujudga kelishi, qadimgi davlatchilik an'analarining shakllanishi, rivojlanishi va tanazzuli bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur darslik jahon tarixshunosligida so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning umum e'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan avvalgi o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

A.S.Sagdullayev

Tarix fanlar doktori, professor, akademik

Taqrizchilar:

O.P.Kobzeva

Tarix fanlar doktori

F.Ismatullayev

Tarix fanlari nomzodi

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6791-2-2

© D.J. Urakov va boshq., 2020.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

SO‘ZBOSHI

Mustaqillik yillarida oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos ravishda Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari ishlab chiqildi. Shu jihatdan oliy ta’limda ilmiy adabiyotlarni yangi avlodini yaratish hozirga qadar dolzarb sanalib, bu borada vatanimiz olimlari ham qator ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi tahsinga sazovordir. Shunga qaramay, “Jahon tarixi” fanidan jahon tarixshunosligida erishilgan yutuqlarni ilmiy muomalaga kiritish borasida qator vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda. Mazkur darslik O‘zbekiston Milliy universiteti “Jahon tarixi” kafedrasida jamoasi tomonidan tayyorlangan bo‘lib, unda jahon tarixshunosligida so‘nggi vaqtda erishilgan yutuqlar va ilmiy bilimlardan keng foydalanildi. Xususan, “Anglo-sakson maktabi”, fransuz “Annallar maktabi” va “Berlin akademiyasi” ilmiy maktablari tomonidan tayyorlangan ilmiy materiallar tanqidiy tahlil etildi.

Mualliflar jamoasi darslik yuzasidan berilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradi.

Darslikda keltirilgan rasmlar wikipedia.org, wikimedia.org, yemek.ru, lifeglobe.net, alik-morozov.livejournal.com, uritsk.livejournal.com saytlaridan va Великие памятники древних цивилизаций (Коротя С.Г. Великие памятники древних цивилизаций. – М.: 2011, - 328 с.) asaridan olindi. Mualliflar jamoasi ushbu materiallar uchun minnatdorchilik bildiradi.

1-mavzu. Qadimgi Sharq tarixiga kirish: Manbashunosligi va tarixshunosligi

Reja:

- 1. “Qadimgi Sharq” tushunchasi.**
- 2. Yozma manbalar.**
- 3. Arxeologik tadqiqotlar tarixi**
- 4. Tarixshunoslik**

Qadimgi dunyo tarixi qadimgi sivilizatsiyalar tarixi bo'lib, mazkur davrda erishilgan yutuqlar insoniyat tarixining keyingi rivojlanishini belgilab bergan.

Qadimgi Sharq tarixi – bu yer yuzida eng qadimgi sivilizatsiyalar o'chog'i hisoblanadi. Aynan shu ilk sivilizatsiyalarga insoniyatdagi muhim madaniy yutuqlar tegishli bo'lib, keyinchalik ushbu yutuqlar insoniyat rivojlanishi xarakterini shakllantirdi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar sanaladi:

Yozuvni ixtiro qilinishi, bu ixtiro yordamida insoniyat chegarasiz ma'lumotga ega bo'ldi. Bu ixtiro natijasida insonlar ma'lumotlarni yig'ishga, keyinchalik esa, saralab turli shaklga ajratishga o'tishdi.

Jamoa mehnat tajribasi asosida qo'rg'onlar, yirik inshootlar barpo etiladi. Kollektiv mehnat asosida yirik irrigatsiya tizimi yaratildi, ulkan ibodatxonalar, saroylar, shahar devorlari barpo etildi. Ushbu jarayonda loyihalashtiruvchilar, tashkilotchilar, boshqaruvchilar kabi yangi mutaxassislar paydo bo'ldi. Ushbu prinsip harbiy sohada ham to'ntarishga olib keldi. Ya'ni, tarqoq yakka mushtlashish o'rniga tartibli saf tortgan qo'shinlar yaratildi, harbiy kuchni bir necha baravar oshirib, yangi kasb – jangchi va qo'mondon paydo bo'ldi.

Qadimgi Sharqda turli shakldagi siyosiy tizimlar vujudga keldi (fuqarolar jamoasi, turli davlat tizimi, podsho hukumati), ushbu tizim keyinchalik butun dunyoga tarqaldi.

“Sharq” tushunchasi Yevropada dastlab antik davrda vujudga kelgan. Aynan qadimgi yunonlar G'arb va Sharq tushunchalarini izohlaganlar. “G'arb” deganda ular demokratiya mavjud bo'lgan polislarni nazarda tutgan bo'lsa, “Sharq” esa Ahamoniylar imperiyasi va boshqa despotik davlatlar hududi sifatida tilga olinadi. Sharqning chegaralari an'anaviy G'arbiy Yevropa fanida Osiyo va Shimoliy Afrika xalqlariga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Sharq va G'arb

o'rtasidagi madaniy chegaralar doimiy o'zgaruvchan bo'lganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Qadimgi Sharq davlatlari hududining iqlimi yozi issiq, qishi mo'tadil kechar edi. Bu yerdagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Nil (tax. 6671 km.), Frot (tax. 2700 km.), Dajla (tax. 1900 km.), Hind (tax. 3180 km.), Gang (tax. 2700 km.), Xuanxe (tax. 4850 km.) va boshqa daryolar muhim o'rin egallagan. Ushbu daryolar eng yirik suv manbalari hisoblanib, uning vodiylari sug'orma dehqonchilikka qulay hududlarda joylashgan. Shu bilan birga, irrigatsiya tizimi ham yaxshi rivojlangan edi. Bu yerlarda suv omborlari qurish ham mumkin bo'lgan. Insonlar katta mehnat evaziga dehqonchilikni rivojlantirib, uni o'zlarining hayotlari uchun foyda keltiradigan kasbga aylantirishgan.

Bu yerlarda turli xil irqqa (negro-avstroloidlar, yevropoidlar va mongoloidlar) mansub bo'lgan insonlar yashaganlar. Qadimgi Sharqning ayrim hududlarida barqaror til oilalari ham shakllangan edi. Bularga somiy, afroosiyo va boshqalar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, Kavkaz oilasiga kiruvchi xurrit va urart, gutti, protoxett tillari ham ushbu hudud aholisining muloqot vositasi bo'lgan. Qadimgi Hindiston aholisi esa dravid tillar oilasida so'zlashishgan. Qadimgi Xitoy qabilalari sino-tibet, tibet-xitoy tillar oilasiga kiruvchi tillarda so'zlashganlar. Ammo, Shumer (Janubiy Mesopotamiyada yashagan aholi) va kassitlarning tili qaysi til oilasiga mansubligi masalasi fanda munozarali bo'lib kelmoqda.

Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi tushunchasi XIX asr o'rtalarida fan tariqasida Yevropada yuzaga kelgan. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligida hujjatlar ikki turga (asosiy manbalar va ikkilamchi) bo'lib o'rganiladi. Fransiya arxeolog olimlari hamda Buyuk Britaniya mutaxassislari rahbarligida soha manbashunosligi ilk bor o'rganila boshlandi. Ular tomonidan manba turlari va ularni o'rganish metodikasi ishlab chiqilib, yil sayin mukammallashib bormoqda. Qadimgi yozma manbalar sfragistika va numizmatikasiga ham ahamiyat berilib, Qadimgi Misr tarixini tadqiq etish taraqqiy etmoqda. Yevropaning qator yirik shaharlarida iyerogliflarni o'qish markazlari yuzaga kelgan. Bunda asosiy maqsad nafaqat Misr balki, Mesopotamiya, Xett, Finikiya, Eron, Xitoy, Hindiston sivilizatsiyalarini o'rganishga qaratilmoqda. Arxeologik manbalarni yozma manbalar bilan qiyosiy solishtirib, uning

xronologiyasini belgilash Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligida muhim o‘rin tutadi.

Qadimgi Misr me‘moriy yodgorliklarida bitik toshlar tarzida yozilgan manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Misr manbashunosligi ilk bor S. de Sassi, J.F. Champoleon va boshqalarning tadqiqotlarida ilk bora tilga olinadi. Shu bilan birgalikda G.Karterning arxeologik izlanishlari va Tutanxamon maqbarasining ochilishi olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan.

Qadimgi Misr arxeologiyasi, tarixshunosligi va manbashunosligini o‘rganuvchi ilmiy maktablar orasida AQSH olimlarining faoliyatini ham alohida ta’kidlash lozim. Jumladan, R.Michel, J. Assman, I.Edvarts, B.Braen (Xopkins universiteti), A.Vallis, D.Rosalie, V.Devis (Kaliforniya universiteti), K. Bart (Boston universiteti) va boshqalar o‘zlarining sermahsul ilmiy faoliyati bilan boshqalardan ajralib turadi.

Ingliz misrshunosligi maktabi vakillaridan Ya.Shou (Liverpool universiteti), J.Taylor (Britaniya muzeyi), L.Edmund (Buyuk Britaniya va Irlandiya Antropologiya instituti), A. Rudolf, A. Dodson, D. Xilton, N. Revis kabi olimlarni ta’kidlab o‘tish mumkin. Ularga qadar yirik misrshunos olimlar N. Devis, X. Farmer, V. Simpsonlar ham faoliyat olib borganlar.

Germaniya misrshunosligi maktabi vakillaridan dastlab L.Klebs, M. Burxard, X. Buxxols va hozirgi kunda S.Xendriks va S.Saydlmayer kabilarning ilmiy izlanishlari tahsinga sazovordir.

Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya) manbashunosligi va tarixshunosligi ham XIX asr ikkinchi yarmida ilk bor o‘rganila boshlandi. Yozma manbalar asosan sopol taxtachalarda bitilgan bo‘lib, mixxat yozuvining yorqin xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan. Qadimgi qonunchilikka oid “Shulgi qonunlari” va “Xammurapi qonunlari” yozib qoldirilgan bo‘lib, ularning aksariyati bazalt toshga mixxat yozuvida bitilgan. Shuningdek, tarixiy manbalar orasida Shumer - Akkad hukmdorlari ro‘yxati e‘tiborga molikdir. Qadimgi Bobil podshosi Xammurapi qonunlari Bobil va Qadimgi Sharq huquqshunosligi haqidagi eng muhim manbalardandir.

Mil. avv. II ming yilliklardagi Bobil ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida eng to‘liq ma’lumotlar aks etgan qonunlar davlat rolini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ularni o‘rganish orqali Qadimgi Bobilning xo‘jaligi, (qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va

sudxo'rlik) ijtimoiy tuzumi (yerga egalik shakllari, qulchilik, jamoa, oila, huquq va boshqalar) haqida nihoyatda boy va ahamiyatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Shimoliy Mesopotamiya va Suriyaning tarixiy taraqqiyoti bevosita bir-biriga bog'liq. Akkad va keyinchalik Ossuriya tarixining ko'hna mixxat yozuvlarida yoritilishi e'tiborga loyiqdir.

Hozirda, Qadimgi Mesopotamiya tarixi va manbashunosligi bilan AQSH va Buyuk Britaniya Universitetlari olimlaridan Y. Bottero, J.Kuper, S.Dalli, S.Bauer, V.Lambert kabilar faol ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Natijada Qadimgi Mesopotamiya tarixi xronologiyasiga muhim o'zgarishlar kiritildi.

Chikago instituti arxeolog olimlari R.Beydvud, L.S.Breydvud, B.Xaular Mesopotamiya tarixiga oid qator yangi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdilar. Unga ko'ra Al-Ubayd keramikasi Ur va Eredu madaniyatidan nisbatan farq qiladi.

Qadimgi Kichik Osiyo manbashunosligi XIX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlandi. Shu tariqa olimlar Xett sivilizatsiyasi bilan ilk bor tanishishgan. Chatal Guyuk, Troya kabi mashhur manzilgohlar G.Shlmann, D.Mellard, B.Grozniylar tomonidan keng o'rganilgan.

Mil. avv. XIII asr oxirida "dengiz xalqlari" hujumidan inqirozga uchragan Xett davlati haqidagi tarixiy ma'lumotlar XX asr boshlarigacha ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan. To'g'ri ushbu davrgacha Kichik Osiyo va Suriyaning shimolidan qadimiy mixxat yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. Ammo, ularni davrlashtirish va xronologiyasini belgilash o'sha davr uchun muammoli hisoblangan. 1887-yilda arxeologlar Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarni tarjima qilganlarida Xett podshosining Misr bilan diplomatik aloqalar olib borgan haqida ma'lumotga ega bo'ldilar. Bu esa Kichik Osiyoda qadimda yana bir ulkan davlat bo'lganini ta'kidlar edi.

Keyinchalik 1906-yilga kelib mashhur germaniyalik olim Y.G. Vinkler Bogazkyoy (Bo'g'ozqoya) degan joyda (hozirgi Turkiya Respublikasi) Xett davlati poytaxti Xattusani arxeologik izlanishlar natijasida topishga muvaffaq bo'ladi. Natijada Yaqin Sharq tillarida (akkad, xurrit, arsava va boshqa) yozilgan o'n minglab loy taxtachalardan iborat mixxat yozuvlar hamda Xett davlati bilan Misr podsholigi o'rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasining mixxat shakli

topildi. Chexiyalik olim B. Grozniy (keyinchalik yirik xettshunos) 1915-yilda uzoq tadqiqotlardan so'ng, qadimgi xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansubligini isbotlaydi. Taniqli tadqiqotchi olim A. Getse 1933-yilga kelib Xett davlati tarixini dastlab umumiy o'rganishga harakat qiladi. Shu bilan birga, olim 1933-yilda Kichik Osiyo tarixini ilmiy asosda yozishga kirishdi. Muallif Xett davlatining harbiy ish va sulola tarixiga asosiy e'tiborini qaratdi. U Qadimgi Xett jamiyatining ijtimoiy-siyosiy muassasalari o'xshashligiga (yer-mulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib, xettlarning ijtimoiy tizimini chuqur o'rganadi. Taniqli lingvist va arxeologlar xett madaniyati asoslarini yaratishda xattilarga (protoxetlar) xurrit qabilalarining ta'sirini tadqiq etdilar.

Qadimgi Xett podsholigi tarixini o'rganishda sovet xettshunoslik maktabi faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Ular orasida B.Y. Aleksandrov, V.G. Ardzinba, A.V. Volkov, N.N. Nepomnyashiy, G.G. Giorgadze, G.I. Dovgyalo, V.V. Ivanov, A.Y. Nagovitsin va boshqalarning ilmiy faoliyati e'tiborga molikdir.

Qadimgi Suriya, Falastin, Finikiya manbashunosligi va tarixshunosligi bevosita Misr tarixi bilan bog'liqdir. Yozma manbalar orasida Tavrot va Bibliya (Injil) asosiy muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki Yevropa olimlari XIX asr 2-yarmida Mesopotamiyadagi manzilgohlarni aynan diniy, mafkuraviy omillar asosida o'rganib, arxeologik manzilgohlarni topishga intilishgan. Ammo, bu har doim ham ijobiy natijalarni bermagan.

Qadimgi Elam markazi Suza shahrida arxeologlar qora bazalt toshga bitilgan qonunlar to'plamini topishga muvaffaq bo'ldilar. Toshbitik elamlklarning Shumerga yurishlari vaqtida o'lja sifatida Suzaga olib kelingan. Mazkur bitiktoshda Bobil hukmdori Xammurapi adolat homiysi va quyosh xudosi Shamashdan olinayotgan vaqt tasvirlangan. Mutaxassislar ushbu qonunlarni ikki yuzdan ortiq moddalarga bo'lganlar. Garchand qonunlar juda shafqatsiz bo'lsada, o'sha zamon quldorlik jamiyati ruhiga mos edi.

Qadimgi Eron manbashunosligiga oid qator ma'lumotlar Naqsh-e Rostam, Behistun qoyatosh bitiklari va Persopoi saroyidan topilgan. Shuningdek, o'troq dehqonchilik madaniyati asosida paydo bo'lgan arxeologik manzilgohlardan Jarmo, Suza, Shaxtepa, Marlik, Ekbatan, Persopollar moddiy madaniyat markazlari hisoblangan.

Ahamoniylar davlati haqida muhim manba sifatida Qadimgi Eronning podshosi Doro I ning Behistun bitiklari, Gerodotning 9 kitobdan iborat "Tarix" asarida keltirilgan ma'lumotlar ahamiyatlidir. Behistun qoya toshiga podsho Doro I ning buyrug'i bilan mixxat yozuvida Kir II ning o'g'li Kambiz II ni taxtga kelishi vaqtinchalik taxtni kohin Gaumata egallagani, Doro I ning uni hokimiyatdan chetlashtirilgani haqida so'z boradi. U 20 dan ortiq satraplikni qayta birlashtirganligi haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Taniqli tarixchi Ksenofont asarlarida Ahamoniylar davridagi harbiy islohotlar hamda Suza shahrida saroy qurilishi haqidagi ma'lumotlar qoldirilgan. Shu bilan birga, Eron hukmdorining Ioniya hokimi Gadatga yozgan xatida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, qadimgi davr olimlaridan Aristotel, Arrian, Aristobul, Strabon, Esxil, Mark Porsiy Katon, Pliniy, Chjan Szyan, Sima Syan, Ban Gu va boshqalarning asarlari muhim manba hisoblanadi.

Qadimgi Hindiston manbashunosligi Moxendja-daro, Xarappa, Lotxai, Kalibangan, Pataliputra, Taksiladan topilgan arxeologik yozma va moddiy manbalar muhimdir. Manu qonunlari, Artxashastrada Braxmanlar jamiyati borasida mulohazalar berilgan.

Qadimgi Xitoy manbashunosligiga qiziqish XIX asrdan boshlandi. Qadimgi Xitoy tarixiga oid yozuvlar Shan va Chjou davlatlari davrida (taniqli olim O.Frankening fikricha) dastlab uy hayvonlari suyaklari, toshbaqa toshlari va bronza idishlarga bitilgan. Mil. avv. VII asrdan boshlab xitoyliklar ipak matoga va bambuk taxtachalar iyerogliflarni yozganlar. 1957 yil Sinyanda (hozirga Xenan) Chu davlati hukmdori qabridan o'nlab bambuk taxtachali kitoblar topilgan. Yozma manbalar Shidszi, Xanshu, Xouxanshu, Veysuda Qadimgi Xitoy manbashunosligida o'z aksini topgan. Anyan, Loyan, Sin-Shi Xuandi maqbarasidan moddiy manbalar topilib o'rganilgan. Anyan yozma manbalari asosan ijtimoiy hayotga oid ma'lumotlarda keltirilgan. Shuningdek, Sima Szyan solnomasi ham muhimdir.

Qadimgi Xitoy tarixi haqidagi ma'lumotlarni Ban Chyao, Ban Chjao, Sima Szyan va Fan E asarlarida, Xan imperiyasi tarixiga oid solnomalardan topishimiz mumkin. Ushbu asarlarda Sya, Shan-In, Chjou, "Chunsu" davri (Ko'p podsholiklar), "Chjango" davri (Kurashayotgan podsholiklar) va Sin davlatlari tarixi haqidagi

qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, "Shitszi", "Xanshu", "Xouxanshu" tarixiy solnomalarining ahamiyati borasida so'z boradi.

Umuman olganda, Qadimgi Sharq tarixini o'rganish o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungu kunda ham tarixchi olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Misr manbashunosligi qaysi yozma manbalarga tayanadi?

2. Qadimgi Mesopotamiya tarixshunosligi va manbashunosligining asosini tashkil etuvchi omillarni ko'rsating?

3. Qadimgi Kichik Osiyo tarixshunosligi va manbalari haqida ma'lumot bering?

4. "Ipuser" papirusi muhim manba sifatidagi rolini izohlang.

5. Xammurabi qonunlari va uning Qadimgi Mesopotamiyani o'rganishdagi o'rni.

6. Telepinus qonunlari va uning Qadimgi Xett jamiyatiga ta'sirini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Сост. и коммент. А.А. Вигасина. – М., 1997.

2. Кузишин В.Н. Историография Древнего Востока. – М., 2009

3. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003

4. Коротя С.Г. Великие памятники великих цивилизаций. – М.: Эксмо, 2011.

5. Древний Египет. Сказания. Притчи / Пер. с древнеег. И.С. Кацнельсона и Ф.Л. Мендельсона. – М., 2000.

6. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.

7. Васильев К.В. Истоки китайской цивилизации. – М., 1998.

8. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.

9. Assmann, Jan. *The Mind of Egypt: History and Meaning in the Time of the Pharaohs*. Trans. Andrew Jenkins. New York: Henry Holt and Company, 2002.
10. David, A. Rosalie. *Religion and Magic in Ancient Egypt*. New York: Penguin Books, 2002.
11. Bryce T. *The Kingdom of the Hittites*. 2nd ed. Oxford, 2005.
12. I.E.S. Edwards. *The Cambridge ancient history Part I*. Cambridge. 2008.
13. I.E.S. Edwards. *The Cambridge ancient history Part II*. Cambridge. 2008.
14. I. Shaw *The Oxford History of Ancient Egypt*. Oxford. 2003.

QADIMGI MISR

2-mavzu. Qadimgi va Ilk podsholik davrida Misr

Reja

- 1. Qadimgi Misrning tabiiy geografik o'rni va iqlimi.**
- 2. Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari.**
- 3. Qadimgi podsholik davrida Misr**
- 4. Qadimgi Misr podsholigining inqirozi**

Qadimgi Misrning tabiiy geografik o'rni va iqlimi. Qadimgi Misr hududi Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, iqlimi nisbatan issiq, sug'orma dehqonchilikka qulay bo'lib, uning bag'ridan Nil daryosi oqib o'tadi. Mazkur daryoning uzunligi 6671 km.ni tashkil etadi. Daryo qirg'oqlari turli joylarda o'rtacha 10-20 kilometr ga yaqin vodiylarni tashkil qilgan. To'yingan unumdor tuproq Afrikaning ekvatorial qismidan shiddatli Nil to'lqinlari orqali shimolga oqizib chiqariladi. So'ngra, Misr hududida mavsumiy toshqin (odatda iyundan-noyabr oyigacha) oqibatida daryo qirg'oqlarida tinib, hosildor vodiylarni tashkil qilgan. Shimolda Nil irmoqlarga bo'linib, Deltani (uchburchak) tashkil qilgan va O'rtayer dengiziga quyilgan. Ushbu dengizni qadimgi misrliklar "Uadj-Ur" (buyuk yashillik) deb ataganlar. Qadimda Nil deltasida botqoqliklar ko'p bo'lgan. G'arbda Misr, Liviya cho'llari, shimoli-sharqda Yaqin Sharq hududi va janubda Nubiya (Shimoliy Sudan) bilan o'ralgan. Sharqiy qirg'oqlari Qizil dengizga tutashgan, uni qadimda misrliklar "She-Iaru" (Iaru ko'li) deb nomlaganlar. Qizil dengiz qirg'oqlarini "Ta-Nuter" sifatida tilga olganlar.

Misr zamini mis, oltin, qo'rg'oshin va yarim qimmatbaho ma'danlariga boy maskan hisoblangan. Misni asosan Sinay yarim orolidan qazib olganlar va tosh bilan birga ziroatchilik hamda chorvachilikda keng qo'llashgan. Ohaktosh, granit va kvars Misrda ko'p uchragan. Ma'danga boy rudalar Barka tog'idan qazib olingan.

Misr iqlimi nisbatan mo'tadil bo'lganligi va Yaqin Sharq iqlimiga yaqin ekanligini olimlar (L.S. Berg va K.V. Butser) ta'kidlab o'tganlar. Nil qirg'oqlari qamish, papirus va boshqa o't-o'lanlar bilan qoplangan edi. Daryoda ko'plab baliq turlari mavjud bo'lib,

baliqchilikka qulay hisoblangan. Barakali daryo bo'ylarida o'rdak, g'oz, ibis va boshqa qushlar ko'p uchragan. Unumdor tuproqda bug'doy, arpa, tarvuz, qovun, va turli xil sabzavotlar (piyoz, bodring, sarimsoq, sabzi va boshqalar) yetishtirilgan. Bularning barchasi Misrni inson yashashi uchun qulay maskan bo'lganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, moddiy va yozma manbalarning umumiy tahlili hamda tarix fani sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlar Qadimgi Misr davlatchiligini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

Misrning qadimgi tarixi besh davrga, ya'ni Ilk podsholik (mil. avv. 3100-2648-yy), Qadimgi podsholik (mil. avv. 2648-2250-yy), O'rta podsholik (mil. avv. 2040-1783 -yy), Yangi podsholik (mil. avv. 1550-1069-yy), So'nggi podsholik (mil. avv. 664-332-yy)ga bo'lib o'rganiladi. Bu orada Misr 3 ta o'tish davrini ham boshdan kechiradi. Ammo, uning xronologik chegaralari borasida hozirga qadar misrshunoslar orasida munozarali fikrlar mavjud.

Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari. Qadimgi Misr tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish mil. avv. V ming yillikda, Nil vohasini o'zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. "Sulolagacha bo'lgan davr" deb yuritiluvchi mazkur davr Misr tarixida ikkiga bo'linib, ya'ni "Amrat"(Negada I) va "Gerzey" (Negada II) madaniyatlari sifatida o'rganiladi. Ushbu madaniyatlar Qadimgi Misrda irrigatsiyaning o'sishi va chorvachilikning ovchilikdan ustun kela boshlashi haqida ma'lumot beradi. Hunarmandchilik o'z navbatida dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqdi va natijada Qadimgi Misr jamiyatida mulkiy tabaqalanish jarayoni yanada o'sib boradi. Aynan mana shu davrda Nil daryosi qirg'oqlarida ilk davlatchalar ("sepat" yoki "nom") paydo bo'ladi. Shu tariqa ilk davlatchilik paydo bo'lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratildi.

Nomliklar soni Nil bo'yi aholisining o'sishi bilan bevosita bog'liq edi. Ularning hududiy chegaralari doimiy tusga ega bo'lmagan. Har bir nom dastlab mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosat yurgizgan. Nil bo'yi davlatchalari "nomarx"lar tomonidan boshqarilgan. Nomlik o'z gerbi, diniy va siyosiy markaziga hamda harbiy qismlariga ham ega edi.

Natijada ichki urushlar (misrshunoslikda “nol sulolasi”) davrida har bir nomarx oliy hukmronlikka intildi. Umumiy 42 ta nomlik ikkiga ya’ni, Yuqori Misr va Quyi Misr davlatiga birlashadi. Madaniy jihatdan ushbu davlatlar bir-biridan farq qilgan deb bo’lmaydi. Ammo, diniy va siyosiy mafkurasida sezilarli tafovut bo’lgan. Qadimda iyerogliflarda misrliklar mamlakatini “Ta-kemet” yoki “Ta-ui” deb ataganlar. Shu tariqa, harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillar mazkur hududda davlatchilik tizimini shakllanishiga imkon yaratdi.

Ilk podsholikni Misrning Tinis nomligi (Abidosdan uncha uzoqda bo’lmagan hududdan chiqqan Menes (Axa yoki Mina) tuzadi va birlashtiradi. Ayrim manbalarda uni Narmer deb ham atashadi. Poytaxt sifatida Nil bo’yidagi yangi shahar Memfis tan olinadi. Dastlabki 1-sulolaga asos solinadi. Shunday bo’lsada, Quyi Misr nomliklari o’ziga xos muxtoriyatni saqlab turgan. Ilk podsholik davrida misrliklar hayotida urug’chilikni ta’siri hali kuchli bo’lgan va ular asosan tosh, mis mehnat qurollaridan ko’proq foydalanishgan, bronza esa kam edi. Nomliklar orasidagi separatizmni fir’avnning siyosiy mavqei muvozanatda ushlab turgan.

Ilk podsholik fir’avnlari Jer (mil. avv. 2970-2923-yy), Uadji (mil. avv. 2922-2915-yy), Den (mil. avv. 2915-2910-yy), Adjib (mil. avv. 2910-2900-yy), Semerxet (mil. avv. 2900-2890-yy)lar davrida Misr davlatchiligi asoslari mustahkamlandi. Misr fir’avnlari Den va Adjiblarni yuzlab qullari narigi dunyoga “kuzatib” qo’yish uchun ular bilan birga dafn etilganlar. Oddiy misrlik aholi vakillari esa, odatda cho’lda yuzi sharqqa qaratib qumga ko’milgan.

\ Hukmdor Adjib o’ziga “Nesu-bit” podsholik unvonini qabul qiladi. “Nesu” tushunchasi yuqoridan, hokimiyatni otadan o’g’ilga o’tishi va “bit” fir’avn o’limidan so’ng, ham boshqaruvni tutib turuvchi ma’nolarini anglatar edi. Ya’ni, bunda hukmdor o’z o’g’lida qayta gavdalanishiga ishora qilingan.

1-sulolaning so’nggi podshosi Kaa (mil. avv. 2890-2864-yy) Abidos yaqinida Umm al-Kaab nekropoli yonida o’ziga mahobatli mastaba qurdirgan.

Fir’avn Kaa o’limidan so’ng, 2-sulolaga Xotepsexemui asos soladi. Davlat boshqaruv tizimi din bilan ajralmas tusga ega bo’lgani uchun, ijtimoiy tabaqalanishning qonuniylashuvi rivojlanib bordi. Xotepsexemuidan so’ng, Raneb, Ninecher, Veneg, Sened, Nubnefer, Paransin va boshqa fir’avnlr Misrni boshqardilar. Ularning

hukmronligi xronologiyasi borasida hozir ham misrshunoslar orasida qarama-qarshi fikrlar mavjud.



Ilk podsholik (Narmer stellasi)

2-sulolaning so'nggi fir'avni Xasexem (taxminan. mil. avv. 2686-2648-yy) o'z podsholigini Deltadagi (Quyi Misr) qo'zg'olonni bostirishdan boshladi. Natijada 48205 nafar kishi o'ldirildi va 47209 tasi asir olinadi. So'ngra, Yuqori va Quyi Misr yagona davlatga yana birlashtirildi. Birlashish jarayonida Misr davlati ilk bor fuqarolar urushini boshdan kechiradi. Endi markaziy hokimiyatning o'rni avvalgiga qaraganda ancha oshdi. Nubiyaga harbiy yurishlar qilindi va boy o'ljalar olib kelindi. Butun mamlakat bo'ylab ichki va tashqi savdo-sotiq (ayniqsa Yaqin Sharqdagi Bibl shahri bilan) qayta tiklandi. Natijada Misrning iqtisodiy qudrati oshadi. U Quyi Misr malikasi Nematapni xotinlikka oladi va separatizmga chek qo'yishga harakat qiladi. So'ngra, fir'avn o'z ismini Xasexemui (Ikki hokimiyatni mujassamlashtiruvchi) deb o'zgartiradi.



**Fir'avn
Xasexem**

Uning Abidosdagi mahobatli maqbarasi oldida avvalgidek xizmatkor va qullar qatl etilmagan. Chunki uning davrida bo'lib o'tgan fuqarolar

urushi fir'avn boqiy va o'lmas degan tushunchani vaqtinchalik yo'qqa chiqargan edi. Insonlarni inson uchun qurbon qilish odati tugatiladi. Shu tariqa Qadimgi Misr tarixida Ilk podsholik davri o'z nihoyasiga yetadi.

Qadimgi podsholik davrida Misr. Mil. avv. XXVII-XXIII asrlar, ya'ni qadimgi podsholik davrida Misr kuchli unitar davlat bo'lib, unga mis konlariga boy bo'lgan Sinay yarim oroli qo'shib olinadi. Fir'avn Joser u yerga harbiy ekspeditsiya uyushtiradi. Ko'p o'tmay Falastinning ayrim hududlari va Shimoliy Nubiyani (Sudan) o'z ta'sir doirasiga oladi. Misrliklarning fikricha, mamlakat taraqqiyotining eng yuqori o'sish davri qadimgi podsholik asoschisi Joser davriga to'g'ri keladi. Podsho mamlakatda tinchlik va osoyishtalik timsoliga aylangan edi. Joserning "xeb-sed" deb atalgan marosimda yugurayotgan holdagi tasviri yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Joser va 2-sulola vakillari xom g'ishtdan qurilgan mastabalarda dafn etilishni istamadi. Fir'avn o'z maqbarasini birinchi marotaba zinapoyali ehrom shaklida toshdan qurdiradi. G'arb



olimlarining fikricha (S.Bauer) podshoning zinapoya shaklidagi ehromi loyihasini vazir Imxotep yaratgan bo'lishi mumkin. Aynan Imxotep ishtirokida yangi taqvim joriy etilgan. Unga muvofiq mavsumiy hosil yig'im-terimi astronomik izlanishlar bilan bevosita bog'landi. Natijada hosildorlik oshib, Misr aholisi soni o'sdi va bu yerga qo'shni davlatlardan savdogarlar (tamkarlar) ko'p kela boshladi. Imxotep haykali ostida fir'avn unga taqdim etgan unvonlar birin-ketin sanab o'tiladi. Jumladan, u "podshoning Quyil Misrdagi g'aznachisi", "Yuqori Misrda podshodan keyin birinchi", "Saroy boshqaruvchisi" va "Geliopolisning oliy kohini" sifatida tilga olinadi. **Fir'avn Xufu haykali**

Ko'p o'tmay uni tabobat xudosi sifatida ilohiylashtiradilar. G'arb olimlarining fikricha 3-sulolaning so'nggi fir'avni Xuni davrida

Meydum ehromi qurila boshlaydi. Ammo, sakkiz zinapoyali qilib qurilishi kerak bo'lgan ehrom oxirigacha bitmay qoladi. Uni yangi fir'avn Snefru yoki Snofru (taxminan mil. avv. 2613-2589-yy) bitirishga muvaffaq bo'ladi hamda to'rtinchi sulolaga asos soladi.

Qadimgi podsholik davrida qo'shinda yollanma askarlarni xizmat qilishi nisbatan o'sdi. Ya'ni, liviyalik va nubiyaliklar harbiy xizmatga olina boshladi. Keyingi fir'avnlar davrida ulkan ehromlar qurilishi davlatning diniy mafkurasi miqyosidagi ishga aylandi. Xeops (taxminan mil. avv. 2589-2566-yy) podsholigi davrida balandligi 147 metrga teng bo'lgan ulkan ehrom qurildi. Qadimgi misrliklar tilida fir'avnning to'liq ismi Xnum-Xufu (Xeops) yani "Xnum meni himoya qilmoqda" degan ma'noni anglatgan. Ma'lumki, misrliklar tasavvurida Xnum xudosi Nil homiysi va insonlarni kulolchilik charxida loydan yaratadi degan tasavvur mavjud bo'lgan. Xeops davrida Nil daryosi qirg'oqlarida ko'plab qishloqlar quriladi va mamlakatda hosildorlik oshadi. U bunyod ettirgan ehromlar 2,5 tonnaga yaqin ohaktoshdan qurilib, granit toshli plitalar bilan qoplangan. Ushbu mahobatli qurilish inshoatini bunyod etilishi uchun yuz minglab odamlar mehnat qilishga majbur edilar. Tarixchi Gerodot Xeopsni shafqatsiz hukmdor sifatida tilga oladi. Shunday bo'lsada, Xeops Misr aholisini doimiy ish bilan band qiladi. Ustalar va ishchilar qurilish yaqinidagi shaharchada istiqomat qilganlar. Ularga ovqat, non, pishloq, baliq, pivo va boshqa taomlar doimiy yetkazilgan. Ehromlar yonidan tandirlar, oziq-ovqat omborlari va o'choqlar qoldiqlari topilgan. Ehrom qurilishi jarayonida oddiy quruvchidan usta darajasigacha yetish mumkin edi.

Fir'avn Xafra ("Turin papirusi"ga muvofiq taxminan mil. avv. 2558-2532-yy) davrida Misr ibodatxonalarini yopganlar hamda yangi umumdavlat Quyosh xudosi Raga sig'inishni joriy qiladilar. Misrda qadimgi podsholikning yuksalgan davrida fir'avn hokimiyati qudrati oshib boradi. Fir'avnning qo'lida ulkan yer zaxirasi, dehqonlar (ishchi kuchi) to'plangan edi. Fir'avnlar "Quyosh o'g'li" unvonini qabul qiladilar. Misr davlatining qonuniy podshosi (Quyosh xudosi)ni yerdagi ayol bilan yaqinligidan dunyoga kelgan degan fikr mavjud edi. Hech kimga fir'avn ismini aytish mumkin emas edi. Zero, misrliklar e'tiqodiga ko'ra, uni nomini aytish podshoga ziyon yetkazish bilan barobar bo'lgan. Shuning uchun, uning ismini boshqacha "ulug' xonadon", "katta uy" deb atashgan. Odamlar orasida fir'avn tirik iloh deb tasavvur qilingan. U tog'lar xudosi Gorning

qiyofasi, quyosh xudosi Raning o'g'li, hamda o'limidan keyin xudo Osiris sifatida ulug'langan va unga sig'inish uchun ehromlar yonida ibodatxonalar bunyod etilgan. Fir'avn bosh kohin sifatida ham gavdalangan. Qadimgi podsholik fir'avnlari ilohiy "Ra" bilan qondosh ekanligiga ishonganlar va o'zlarini samoviy hukmdor deb e'tirof etganlar. U dunyoviy va diniy hokimiyat timsoli bo'lib hisoblangan.

Qadimgi podsholik davrida 42 ta nomliklarning mustaqilligi deyarli tugatildi. Nomarxlar markaziy hokimiyatga qaram bo'lib, bir nom (yoki sepat)dan ikkinchisiga almashtirib turiladigan davlat amaldorlariga aylantirildilar. Separatizmga yo'l qo'ymaslik uchun nomliklar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar ham davlat nazoratida bo'lgan.

Keyingi fir'avnlar ulkan qurilishlarni to'xtatadilar, quyosh xudosi (Ra)ga sig'inish markazi sifatida Geliopol (hozirgi Baolbek) shahri ulug'landi. Kohinlar davlatdan yangi ekin maydonlarini oladilar. Ularning ta'siri yanada ortib bordi. Yozma manbalarga ko'ra, (Gerodot) fir'avn Menkauraning o'g'il farzandi bo'lmaganligi tufayli taxtga Menkauraning jiyani Userkaf (mil. avv. 2494-2487- yy) keladi va 5-sulolaga asos soladi. Undan so'ng, fir'avnlr Saxura (mil. avv. 2487-2475-yy), Neferirkara Kakai (mil. avv. 2475-2465-yy), Shepseskara (mil. avv. 2465-2460 -yy), Neferefra (mil. avv. 2460-2458 -yy), Niusera (mil. avv. 2458-2422- yy), Menkauror (mil. avv. 2422-2414-yy), Djedkara Isesi (mil. avv. 2414-2375-yy) va boshqalar ketma-ket hukmronlik qiladi. Ushbu sulola davrida misrliklar Sinay va Nubiyada o'z ta'sirini yo'qotmadilar. Liviyada urushni davom ettirdilar va savdo-sotiq uchun imkoniyat kengaydi. Fir'avn Isesi davrida misrlik savdogarlar uzoq Punt (Somali) o'lkasiga sayohat qiladilar. Mil. avv. XXIV-XXII asrlarda Misrda tashqi siyosat yanada faollashdi. Uning podsholari Falastinga yurish qildilar. Finikiyaning Bibl shahri Misr qo'shinining tayanch punktiga aylanadi. Misr chegarachilari bu yerda doimiy yashar edilar. Ularning madaniyatiga Misr madaniyati chuqur ta'sir qiladi. Nubiyadan misrliklar oltin va fil suyagini olib kelishadi. Garchi Misrning iqtisodiy qudrati o'sganligiga qaramay, beshinchi sulolaning so'nggi fir'avni Unis kichik ehromga dafn etilgan. Maqbarasida "O Ra, bu podsho Unis seni o'g'ling, yoningga bormoqda" degan so'zlar bitilgan.

Qadimgi Misrda hududlardagi davlat boshqaruv tizimi uch bo'g'indan iborat bo'lib – markaziy, nom, qishloq-jamoalariga

bo'lingan. Nomlar(sepat) boshqaruvi markaziy boshqaruvning kichikroq ko'rinishidagi shakli bo'lgan. Ko'p hollarda nomarxlar separatizmi mavjud bo'lgan. "Jad-jad", "Kanbet" atamalari jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug'orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada ichki sud ishlarini ham amalga oshirar edilar. Oilalar jamoa kengashlariga, ular esa o'z navbatida yuqori hokimiyatga bo'ysundirilgan. Ammo, mansabdor odamlar tizimi markaziy hokimiyatga bog'liq edi. Qadimgi podsholik davlat boshqaruvi tizimi fir'avnning yagona va cheklanmagan hukmronligiga asoslangan edi. Misr fir'avnlarning yaqin maslahatchisi va yordamchisi "chati" (bosh vazir) bo'lgan. U hukumat amaldorlariga boshliqlik qilganligi borasida tarixiy manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, chati mamlakatdagi sun'iy sug'orish ishlarini va hosil yig'imini ham nazorat qilar edi. Mamlakatdagi chorvachilik ishlarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy tayyorgarlik, soliqlarni yig'ish, diniy miqyosdagi qurilishni boshqarish ham bosh vazirning zimmasida edi. O'z navbatida hatto kichik lavozimdagi saroy amaldori ham bir vaqtning o'zida qo'shin qo'mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrni boshqaruvchisi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajarganligi tarixdan ma'lum. Fir'avn o'zini oddiy xudo emas, balki "ulug' iloh" deb ulug'lagan.

Oltinchi sulolaning birinchi fir'avni Teti davrida Misrda markaziy hokimiyatga bo'ysunish kuchsizlanadi. Ayrim nomlar podshoni nomigagina yoki marosimiy shaklda tan olganlar, xolos.

Oltinchi sulola fir'avnlari davrida podsho hokimiyati zaiflashgan vaqtda ham Misr podshosi barcha xudolardan ko'ra, ulug'roq deb tan olingan. Uning o'zi mamlakat boshqaruvining qonuniylik timsoli edi. Yuqori va kichik amaldor zodagonlar yuksak lavozimlarni egallagan bo'lsalar-da, hunarlarni egallashdan uyalmaganlar. Ular hatto ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Qadimgi podsholik davrida Misrda harbiy ishlar rivojlanadi. Qo'shinning asosiy quroli o'q-yoy bo'lgan. Qurol-aslaha va o'q-yoy zaxirasi yaratilib, maxsus joylarda saqlangan. Sinay yarim oroli va Efiopiya (Nubiya) chegaralarida chegara harbiy qismlari mavjud bo'lgan. Ko'ngilli qo'shinga alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Davlat qo'shini asosan erkin ziroatkor va chorvador

misrliklardan tashkil etilgan bo'lib, o'q-yoy, nayza, kalta bronza chopqi bilan qurollangan piyodalardan iborat bo'lgan. Shimoliy va janubiy chegaralarda garnizonlar turgan. Qo'shin asosan ko'ngillilardan iborat piyodalar bo'lib, fir'avning vakolatli odami va harbiy bo'lmagan mansabdor shaxslar boshchiligidagi yurishga chiqqan. Kambag'al jangchilar oddiy kamon va o'qlar bilan qurollanganlar. Jang aravalari va otlardan foydalanilmagan.

Misr aholisining yashash joylari ham oddiy va sodda bo'lgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo'lib, papirus novdalari, xom g'isht va loydan qurilgan edi. Yetishtirilgan hosildan soliq sifatida undirilgan g'alla maxsus davlat omborlarida saqlangan. Bu davrda misrliklarning uylarini poli somonli loy bilan suvalganligi arxeologik ma'lumotlarda keltiriladi. Dehqonlar o'z uylarida don mahsulotlarini asosan xumlarda saqlaganlar. Qadimgi devoriy tasvirlarda kambag'al ziroatkorlar bellarini bir parcha mato bilan o'rab yurganliklari tasvirlanadi. O'sha davrda oddiylik misrliklarga xos xususiyat edi. Misrlik ovchi va baliqchilar g'aydani beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashg'ulotlari shunga bog'liq edi. Tez oqar Nil daryosi mamlakat uchun muhim savdo va strategik kommunikatsiya bo'g'ini hisoblangan.

Ayniqsa, bu davrda (Qadimgi podsholik) Quyi Misrda bog'dorchilikka, poliz ekinlarini yetishtirishga, uzumchilikka katta e'tibor qaratilgan. Yuqori Misrda asosan bug'doy va arpa yetishtirilib, Nil daryosi bo'ylab shimolga Quyi Misrga olib borilganligi tarixdan ma'lum. Ammo, soliqlar tizimini mukammal deb bo'lmas edi. Keyinchalik misrliklar asalarichilik bilan ham shug'ullanib kelganlar.

Qadimgi podsholik davrida podsho xo'jaligi, ibodatxona (kohinlar) xo'jaligi va xususiy xo'jalik, qishloq-jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lgan. Zodagonlarning katta yerlari serunum joylarda joylashgan. Misrning ko'pchilik aholisi zodagonlarning katta-katta ekinzorlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlaydigan yollanma va qaram ishchilar edi. Ularni o'z xo'jaligi bo'lmay, o'z mehnatlari uchun oziq-ovqat ulushi olganlar va o'z ixtiyorlari bilan ish joyini tashlab keta olmas edilar. Oddiy ziroatkorlarda qaram qullar kam bo'lgan. Amaldorlarning aksariyat xizmatlari uchun ish haqini mahsulotlar bilan olar edilar. Qadimgi podsholik davrining so'nggida yirik mansabdorlarga davlat hisobidan katta yerlar uzoq muddatga berilgan. Bunday mulklar ko'pincha unvon bilan birga, otadan

o'g'ilga meros bo'lib o'tib turgan. Davlat yerlari hukumatning doimiy nazorati ostida bo'lganligi manbalarda keltirilgan. Aholi davlat tomonidan majburiy hashar tarzida irrigatsiya inshootlari, qurilish va boshqa ishlarga safarbar etilishi mumkin edi.

Shu bilan bir qatorda Misrda qishloq-jamoa yerlari ham saqlanib qolgan edi. Qishloq-jamoa a'zolari fir'avn odamlari hisoblanib, turli soliq va majburiyatlarni to'lab kelganlar. Bunday kishilar va hunarmandlar "nesu" yoki "xentiushi"; fir'avn, zodagonlar va ibodatxona ishchilari "meret" yoki "xemu" deb atalar edi. Erkak qullar "bak", cho'rilar esa "baka" deyilgan. Buning tarjimasini "tirik murdalar" deb atalgan. Aksariyat qullarni urushlarda asirlikka tushganlar yoki qarzini to'lay olmagan kambag'al aholi tashkil qilgan edi. Ular mulk sifatida bozorlarda sotilgan va sotib olingan hamda garovga qo'yilgan. Ammo, Qadimgi podsholik davrida qullar hali kam sonli bo'lganligi Misrshunos arxeologlar tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda.

Yirik misrlik aslzodalar, nomlarning noiblari (nomarxlar) fir'avn hokimiyatini kuchayishidan norozi bo'lib, ko'p hollarda markaziy hokimiyat, fir'avn siyosatiga qarshi chiqar edilar. Shu sababli, ularni qarshiligini sindirish uchun fir'avnlardan tomonidan markaziy boshqaruvga mahalliy va xizmat zodagonlari jalb qilinib, diniy siyosat ham o'zgardi. Din mafkuraning asoslaridan biri hisoblanib kelingan. Masalan, quyosh xudosi Raga bag'ishlab ibodatxonalar qurish kuchayib bordi. Bu esa mamlakat hayotida Yuqori Misr ilohlarining o'rnini o'sishi bilan bevosita bog'liq edi. Endi fir'avnning ilohiyligi uni xudo Radan bevosita kelib chiqqanligi g'oyasi bilan uqtirildi. Bu jihat Quyi Misr nomliklarida norozilikning o'sishiga olib kelishi mumkin edi. Afsuski, Yuqori Misr dini va madaniyati keyinchalik Quyi Misrning diniy mafkuraviy g'oyasiga zid kela boshladi.

Fir'avn Teti hukmdorligi davrida o'zini "Sexetseptavu" (yani, ikki yerni tinchlantiruvchi) deb atashi, mamlakatni yana Yuqori va Quyi Misrga bo'linib ketganligidan dalolat berar edi. Tetining o'g'li Piopi I (mil. avv. 2310-2260-yy) saroy a'yonlari ta'siriga tushib qoladi. Markaziy hokimiyat esa sezilarli darajada kuchsizlanib qoladi. Piopi II davriga kelib, Misr nomliklarga bo'linib keta boshlaydi. Darhaqiqat, aynan Piopi II Qadimgi podsholikning so'nggi fir'avni sifatida aksariyat g'arb mutaxassislari tomonidan e'tirof etiladi. Garchand

Memfis shahri poytaxt maqomini saqlab tursa-da, uning siyosiy mavqeyi yo'qolgan edi.

Qadimgi Misr podshohligining inqirozi. Mil. avv. XXIII asrda nom (yoki sepat) va davlat xizmatidagi zodagonlarning mavqei oshib bordi. Aksariyat amaldorlarning ko'pchiligi soliq majburiyatlardan ozod bo'lganlar. Davlat qudrati kuchsizlandi (6-7-sulolalar davridan), lekin mahalliy hokimlar – nomarxlar katta moddiy boyliklarga ega bo'ldilar. Memfisdagi fir'avnlarning hokimiyati joylarda nomigagina tan olinar edi. Misr zaiflashib, mamlakatda siyosiy anarxiya hukm surar, davlat esa bir-biriga dushman nomlarga bo'linib ketadi. Qaroqchilik va ehromlarni talon-taroj qilish oddiy hol bo'lib qoldi. Qadimgi podshohlik davrida yagona davlatning yemirilishi bilan Misr tarixidagi birinchi O'tish davri (mil. avv. 2250-2050-yillarning oxiridan) boshlanadi. Davlatning zaiflashuvi keskin tabiiy o'zgarishlar cho'llarni kengayishi bilan bevosita bog'liq edi. Nil daryosining suvi keskin pasayib bordi. Mutaxassislarning fikricha, hosilning kamayishi, ochlik va ijtimoiy norozilikning kuchayishi pirovardda davlat tizimining yemirilishiga sabab bo'ldi.

Mil. avv. XXII asr boshlarida Yuqori Misrning markazi bo'lgan Memfisda 8-sulola bilan bir vaqtning o'zida Nil vodiysining o'rta qismida yangi 9-sulola hukmronlik qila boshladi. Unga mil. avv. 2120-yilda fir'avn Axtoy asos soladi. Fir'avning misrcha to'liq ismi Uaxkara Xeti (yoki Xeti I) bo'lib, Gerakleopol shahri atrofida mamlakatni birlashtirishga urinib ko'radi. Yangi hukmdor deyarli butun Misr ustidan o'z nazoratini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, Gerakleopol fir'avnlari Germopol, Fiva va bir necha nomlarning avtonomiyasini yo'qota olmadilar.

Ayniqsa, Yuqori Misrning muqaddas shahri Abidosni Gerakleopol fir'avnlari tomonidan talon-taroj etilishi natijasida, Siut va Germopol nomlari ularni qo'llab-quvvatlamay qo'ydilar. Bunga javoban ular nomlarni to'la o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi. Axtoy Osiyo ko'chmanchilariga qarshi urush olib bordi. Mil. avv. III ming yillik oxirida Misrning xo'jalik ahvoli mamlakatni birlashtirishni talab etardi. Irrigatsiya tizimi tushkunlikka uchradi, aholi orasida ochlik oddiy hol bo'lib qoldi. Asrning oxirida Fiva nomining hokimlari mamlakat janubini o'z hokimiyatlari ostida birlashtirib, fir'avn unvonini (11-sulola) oldilar va shimol podshohlarining jiddiy raqibiga aylandilar. Gerakleopollik (10-sulola) fir'avnlardan Xeti III

(mil. avv. XXI asr o'rtalari) Siut nomarxi Tefeb bilan ittifoqda Fivaga qarshi uzoq urush olib boradi va ulardan Abidosni tortib oladi. Ittifoqchilarning Nil daryosidagi floti, ularga strategik ustunlikni berdi. Ammo, Fiva nomarxi Iniotef II (mil. avv 2118-2069-yy)ni to'liq yengib bo'lmadi. Natijada ikki o'rtada sulh tuzildi. Fir'avn Xeti III o'z o'g'li Merikaraga, Fiva nomligiga nisbatan hurmatda bo'lishni nasihat qilgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sulolagacha bo'lgan davrda Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
2. Ilk podsholikni yuzaga kelishi shart-sharoitlarini izohlang.
3. Qadimgi Misr podsholigining Nubiyadagi siyosati oqibatlari haqida ma'lumot bering.
4. Fir'avn Josearning tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
5. Qadimgi Misr tarixida kohinlar tabaqasining o'rni.
6. Qadimgi Misr podsholigi xo'jaligining o'ziga xos jihatlarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Ассман Я. Египет: теология благочестие ранней цивилизации / Пер. снем. Т. Баскаковой. – М., 1999.
2. Берлев О. Д. Общественные отношения в Египте эпохи Среднего царства. – М., 1978.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007.
4. История Востока. В 6 т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
5. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
6. David, A. Rosalie. Religion and Magic in Ancient Egypt. New York: Penguin Books, 2002.
7. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company, 2007.
8. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

9. I.E.S. Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.


10. I. Shaw The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.

3-mavzu. O'rta podsholik davrida Misr

Reja

1. Gerakleopol va Fiva o'rtasidagi raqobat.
2. O'rta podsholik davrida Misrning ichki va tashqi siyosati.
3. O'rta podsholikning inqirozi sabablari.

Gerakliopol va Fiva o'rtasidagi raqobat. Birinchi o'tish davrida (mil. avv. 2250-2055-yy) Misr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz iskanjasida edi. Mamlakat siyosiy anarxiya natijasida parchalanib, har bir nomarx o'z yerida hukmronlik qilar va Gerakleopoldagi markaziy hokimiyatni deyarli tan olmas edi. Mil. avv. XXII asr Gerakleopol va Fiva nomlari o'rtasida doimiy raqobat va kurash davri sifatida tarixda qolgan. Yuqori Misrning qudratli nomlaridan biri Ineotef



Kattaning o'g'li Mentuxotep I (mil. avv. 2133-2117-yy.) Fivada 11-sulolaga asos soladi. Garchand u fir'avn unvonini qabul qilmagan bo'lsada, Fiva nomligining Yuqori Misrda gegemonligiga yo'l ochdi.

Fir'avn Mentuxotep II (Luvr muzeyi)

Gerakleopol hukmdorlari Quy Misrga ham ta'sir o'tkazib, mamlakat

shimolini tashqi dushmandan muhofaza qila oldilar. Ammo, Fivani bo'ysundira olmadilar. Chunki "Turin papirusi" ma'lumotlariga ko'ra,

podsholar ro'yxati ichida Gerakleopol hukmdorlari bilan bir qatorda Fiva nomarxlarining ham ismlari keltiriladi.

Ichki urushlar Fiva nomarxi Nextnebtetpnefer Intef III (mil. avv. 2063-2055-yy)ning vorisi Nebxepetra Mentuxotep II (mil. avv. 2055-2004-yy) va Gerakleopol hukmdori Merikara o'rtasida kurash bilan tarixda qolgan. Hukmronligining 39-yili Mentuxotep II Yuqori va Quyi Misrni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Misr yana yagona davlatga aylandi. U Deyr-Al-Baxridagi ibodatxonada dafn etilgan. Fir'avn Mentuxotep III o'z otasining siyosatini davom ettirdi, Amon va Montu (Fiva shahri ilohi) xudolariga atab ibodatxonalar bunyod qiladi. Mil. avv. 1992-yil fir'avn Mentuxotep III vafot etadi va orada yetti yil Mentuxotep IV (hukmron sulolaga umuman aloqasi yo'q kishi) mamlakatni boshqaradi.

Mentuxotep III ning saroyida chati (vazir) lavozimida ishlagan Amenemxet I ham podsho naslidan emas edi. Shunday bo'lsa-da fir'avn vafotidan so'ng, aynan u podsholik taxtiga chiqdi. Amenemxet I (mil. avv. 1976-1956-yy) fir'avn bo'lgach, 12-sulolaga asos soladi. Afsonaviy Narmerga ixlos qilib, poytaxtni Memfisdan taxminan 20 mil (30-32 km) janubda joylashgan Iti-Tau (Ikkala yerni birlashtiruvchi) shahriga ko'chiradi. Yangi poytaxt Yuqori va Quyi Misrni muvozanatda ushlagan holda boshqarish uchun tanlangan edi.

Amenemxet I hattotlariga o'zi haqida bashorat (Neferti bashorati) shaklidagi afsona yozishni ham buyurdi. Shuningdek, qo'shinlarni Nil deltasiga yuborib, qal'a va mudofaa devorlarini (Hukmdor devori) qurdirdi. Osiyolik ko'chmanchilarning Misrga kirib kelish to'liqini nazoratga olindi. Iti-Tau shahri yaqinida o'zi uchun kichik ehrom ham bunyod ettirdi. Afsuski, Amenemxet I fitna natijasida o'z soqchilari tomonidan o'ldiriladi. Bu hodisa haqida keyinchalik uning o'g'li Senusert I yozma ma'lumot qoldirgan.

Senusert I (mil. avv. 1956-1911-yy) hokimiyatga kelishdan oldin otasining buyrug'i bilan Nubiya va Liviyaga harbiy yurishlar qiladi va katta o'ljalari olib kelgan. Fir'avn Amenemxet I o'ldirilgan paytda, shahzoda Liviyada harbiy yurishda bo'lgan. Poytaxtga qaytgach, otasining qotillarini jazolaydi va taxtni qo'lga kiritadi. So'ngra, saroyda unvonlar tizimini tartibga soladi. Mamlakat iqtisodiyotini tiklaydi hamda Fayum vohasini o'zlashtirishni kengaytirgan. Uning davrida vazirlik(chat) lavozimlarida Antefoker, Sobekxotep va Mentuxotep kabi amaldorlar faoliyat ko'rsatishgan.

Tashqi siyosatda Senusert I ko'proq e'tiborni qo'shni Nubiyani zabt etishga qaratadi. Uning harbiy unvonlari orasida "Iuntiuni mahv etuvchi" va "Nubiyaliklar chegarasiga chiquvchi" kabilar e'tiborga molik. G'arb olimlarining fikricha, "Iuntiu" atamasi o'sha vaqtda aynan Nubiya qabilalariga nisbatan ishlatilgan.

Nubiyaga uyushtirilgan yurishlar dastlab talonchilik uchun qilingan bo'lsa, keyinchalik bosib olish xususiyatini o'zida aks ettirdi. Mil. avv. 1929-yil fir'avn Senusert I Nubiyaga yana bir katta harbiy yurishni amalga oshiradi. Bu safar misrlıklar Nil daryosining 2-pog'onasidan o'tib, Kush mamlakatiga kirib keladilar. Ammo, Senusert I ning asosiy maqsadi Nubiyaning harbiy salohiyatini o'rganib chiqish edi.

Misrlıklar Finikiyaning Bibl va Ugarit shaharlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. Nil daryosi Nubiya bilan savdo vositasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda Egey dengizi orollari xalqlari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatildi.

O'rta podsholik davrida Misrning ichki va tashqi siyosati.

Ichki siyosatda mahalliy nomliklar o'z mustaqilligini nisbatan saqlab qoldilar. Nomlik hududi ichida nomarxlar cheklangan qo'shinlariga ham ega bo'lishgan. Mahalliy ilohlar va kohinlar, markaziy hokimiyat tomonidan tan olingan. Nomarxlik otadan bolaga meros tariqasida o'tgan, fir'avn uni faqatgina tasdiqlagan.

Fir'avn Senusert I davrida Misrni konfederativ shakldagina markazlashgan davlat sifatida ko'rish mumkin. Hayotining so'nggida Senusert I o'z hokimiyatini o'g'li Nabkori Amenemxet II (mil. avv. 1911-1877-yy) bilan bo'lishib boshqardi. Bu esa hokimiyatni tinch yo'l bilan meros qilib berish hamda ichki urushlarni oldini olish demakdir.

Amenemxet II otasidan qudratli iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli davlatni qabul qilib olgan edi. Uning hukmronlik yillarida deyarli 30 yil yirik urushlar bo'lmadi. Misr bilan chegaradosh barcha davlatlar savdo-sotiq aloqalarini o'rnatgan edilar. Krit, Suriya, Kichik Osiyo va Mesopotamiyadan tamkarlar (savdogarlar) mamlakatga kelishgan. Natijada Misrga osiyoliklarning ko'chib o'tishi kuchaygan.

Mil. avv. 1877-yil taxtni Amenemxet II ning o'g'li Senusert II (mil. avv. 1877-1870-yy) egallaydi. Uning hukmronligi yillarida Fayum vohasi irrigatsiyasi tartibga solinib, qishloq xo'jaligida katta qurilish ishlari amalga oshiriladi. Shu yerda fir'avn o'z ehromi (xom g'ishtdan qurilgan) va Xotep-Senusert (Senusert mamnun) shaharini **Fir'avn Senusert III haykali**



ham qurdirgan. Shaharning zodagonlar yashaydigan qismi va podsho saroyi alohida mustahkam devor bilan o'rab olingan. Butun shahar alohida mudofaa istehkomiga ega edi. Yangi yerlar o'zlashtirildi va dehqonchilikka katta e'tibor qaratildi.

Senusert II vafotidan so'ng, taxtga uning o'g'li Senusert III (mil. avv. 1870-1831-yy) keladi. Hukmronligining 6-, 8-, 10-, 16-yillarida Nubiyaga qator harbiy yurishlar uyushtiradi. Misrliklar mamlakatni talab vayron qiladilar va mahalliy aholini shafqatsiz qirg'in qilib, quduqlarini zaharlab ayollar hamda bolalarni qullikka olib ketadilar. O'sha davrda Misr chegaralari janubga, ya'ni Nil daryosining 2-pog'onasidan ham o'tib ketgan edi. Fir'avn buyrug'i bilan chegara qal'alari qurilib, bojxona tartibga solindi. Endi Misrga maxsus ruxsatsiz kirib kelish (savdodan tashqari) cheklab qo'yildi. Daxshurda Senusert III ning buyrug'i bilan 12-sulolaning eng katta ehromi bunyod etiladi. Uning vorisi Amenemxet III (mil. avv.1831-1786 -yy) davrida O'rta podsholik madaniyati yuqori cho'qqisiga yetdi. Memfisdagi Ptax ibodatxonasi kengaytiriladi va Biaxmuda (shimoli-g'arbiy Fayum atroflari) ibodatxona quriladi.

12-sulola fir'avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Ular faol ichki va tashqi siyosat yuritib, Misrni kuchli davlatga aylantirdilar. Fayum vohasini o'zlashtirish davom etdi. Nubiyadagi boy oltin konlari ishlatila boshlandi. Nubiyada yangi qal'alar qurilib, bu yerga Misrdan aholi ko'chirilib keltirildi. Nilning har ikki qirg'og'ida, ikkinchi pog'onasida Semna va Kumna nomli mustahkam qal'alar qurildi. Nubiyaning katta qismi amalda Misrning viloyati


bo'lib qoldi. Sharqiy O'rtayer dengizi hududlaridan kumush, qurilish yog'ochi (asosan kedr yog'ochi) olib kelinadi. Finikiyaning bir necha shaharlari Misrga qaram bo'ldi.

O'rta podsholik davrida katta suv ombori qurilib, kanal bilan Nil daryosiga qo'shildi. Fayum vohasida tarmoqlangan sug'orish tizimi barpo qilindi. Janubiy delta, Fayum va uni atroflarini obod qilinishi 12-sulola fir'avnlarning poytaxtni Fivadan yangi qurilgan shahar Ittaun («Ikkala yerni birlashtiruvchi») shahriga ko'chirishlariga sabab bo'ldi. Mehnat qurollari takomillashdi. Sinay yarimorolida mis xomashyosi qazib olish ko'paydi. Shimoliy Nubiyada oltin va mis xomashyosini qazish yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligi yuksalib, yangi qulay omoch paydo bo'ldi. Ilk bronza qurollar keng o'zlashtirildi. Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'oqlari bronza qurollarni bundan ancha oldinroq qo'llay boshlagan edilar. Misrning bu sohada qoloqligining sababi Nil va uning atrofida mazkur xomashyoning kam uchraganligida edi. Boshqa yutuqlardan biri shishaning kashf etilishi bo'lgan. Iqtisodiyotning jonlanishi metallarga, kumush, qurilish yog'ochiga ehtiyojni kuchaytirdi. Bu chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarini faollashuviga olib keldi. Misr savdo karvonlari Nil, Suvaysh orqali Kichik Osiyo va Bobilga chiqdilar. Bu vaqtda janubiy Nubiya va Punt dan oltin olib kelindi.

O'rta podsholik davrida yirik xo'jaliklar o'rniga o'rta xo'jaliklar yetakchi o'rin egalladi. Ular foyda keltiradigan barqaror xo'jalik edi. Bozor bilan bog'lanish va qo'l mehnatidan foydalanish kuchaydi. Kichik xo'jaliklarning soni oshdi. Moddiy boylikning asosiy yaratuvchilari ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollaridan mahrum bo'lgan “xemuu-nesut” – “podsho odamlari” deb atalgan ishchilar bo'lgan.

Ular podsho, ibodatxona, zodagonlar yerida ishlab, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana olganlar. “Podsho odamlari” yoshlik paytidan aholi ro'yxatidan o'tkazilib, ma'lum hunarlarga taqsimlanar edilar. Misrda o'sha zamonga mos qat'iy huquqiy tartib o'rnatildi.

12-sulola vakillari kuchli qo'shinga tayanib, bosqinchilik siyosatini olib borganlar. Ayniqsa, Nubiya va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga nisbatan istilochilik hujumlari kuchayadi. Mamlakatga ko'plab qullar keltirila boshlandi. Oqibatda Misrda boshqa millat va etnoslarni ko'rish mumkin edi.



O'rta podsholikning inqirozi sabablari. Fir'avn Amenemxet IV vafoti bilan mamlakatda 12-sulolaning erkak vakillari qolmadi. Garchand uning o'gay singlisi Nefrusebek fir'avn sifatida taxtga

ko'tarilsa-da, Misrda ichki nizolar ortib bordi. Mil. avv. 1786-yil 12-sulola o'rniga 13-sulola vakillari keldi. Ushbu sulola vakillaridan Sebexxotep II va Amenemxet V davrlarida siyosiy inqiroz avj ola boshladi. O'rta podsholik yana nomliklarga bo'linib ketdi.

"Turin papirusi" ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. 1675-yil Quyi Misrga Osiyodan ko'chmanchi giksos qabilalari kirib keladilar va Deltani egallaydilar. Giksoslar, Misrga Shimoliy Arabiston, Falastin va Suriya yerlaridan kirib kelganlar. Giksoslar sardori Xian fir'avn maqomini qabul qilib, 15-sulolaga asos soladi. Ular Quyi Misrni 100 yildan ko'proq (ayrim manbalarda 108 yil) boshqardilar. Ammo, Yuqori Misr nomligi Fiva shahri boshchiligida mustaqillikni saqlab qoldi. Giksoslar Avarisni poytaxt qilib, u yerdan Deltani boshqardilar. Ko'chmanchilarni g'alabasini jangovar aravalar ta'minlab berdi. Misr qo'shini piyoda jang qilishga ko'nikkan edi. Yuqori Misrning ayrim nomliklari giksoslarga o'lpon to'laydigan bo'ldilar.

Giksos fir'avnlaridan Xian va Apepilar (hukmronlik yillari munozarali) davrida Quyi Misr kuchaydi, ammo butun Yuqori Misr hududini butunlay egallay olmadilar. Ular Abidosga qadar o'z ta'sir doiralarini saqlab tura olishlari mumkin edi.

Natijada bir oz vaqt o'tib, Yuqori Misrliklar Fivada 17-sulolaga asos soldilar. Fiva nomligi tez orada Yuqori Misr nomliklarini Kamos boshchiligida birlashtira oldi. Nil daryosida harbiy flot tuzildi, qo'shin tartibga solindi.

Avaris hukumati, giksos fir'avni Apopi boshchiligida Kush podshosiga maktub yozadi va Fiva nomligini bo'lib olishni taklif qilgan. Fiva nomarxi Kamosning 1-2-tosh bitiklarida keltirilishicha, elchi yo'lda qo'lga tushib qoladi va Kamos giksoslarga qarshi urishni boshlaydi. Keyinchalik urushda to'liq g'alabaga Kamosning ukasi Yaxmos erisha oladi va giksoslarni Misrdan quvib yuborishga muvaffaq bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Gerakleopol va Fiva qarama-qarshiligi davrida Misr nomliklarining o'zaro aloqalari qanday bo'lgan?

2. Fir'avn Axtoy davrida Misrdagi ichki siyosatning dolzarb masalalari haqida ma'lumot bering?

3. Fiva nomligini yuksalishi va fir'avn Mentuxotep davrida Misr davlatining ichki siyosatidagi o'zgarishlarni izohlab bering?

4. Oʻrta podsholik firʻavnlarning tashqi siyosatidagi oʻzgarishlarni qaysi yoʻnalishlarga ajratish mumkin?

5. Shimoliy Nubiyani zabt etilishini izohlab bering.

6. Qadimgi Misr Oʻrta podsholik meʼmorchiligi va sanʼatini yoritib bering.

7. XII-XIII sulola davrida Misrning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti qaysi jabhalarga ajratilishini izohlab bering?

8. Oʻrta podsholik davrida Qadimgi Misrning ichki siyosatini yoritib oʻting.

Mavzu boʻyicha adabiyotlar:

1. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.

2. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.

3. Берлев О. Д. Трудовое население Египта эпохи Среднего царства. – М., 1972.

4. Берлев О. Д. Общественные отношения в Египте эпохи Среднего царства. – М., 1978.

5. Древний Египет. Сказания. Притчи / Пер. с древнеег. И.С. Кацнельсона и Ф.Л. Мендельсона. – М., 2000.

6. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

7. I.Shaw The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.

8. David, A. Rosalie. Religion and Magic in Ancient Egypt. New York: Penguin Books, 2002.

4-mavzu. Yangi va Soʻnggi podsholik davrida Misr

Reja

1. Yangi podsholikni yuzaga kelishi shart-sharoitlari.

2. Misr saltanatining ichki va tashqi siyosati.

3. III oʻtish davrida Misr va Soʻnggi podsholik.

Yangi podsholikni yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Fiva firʻavni Kamos (mil. avv. 1554-1549-yy) otasi Taa II Sekenenraning siyosatini davom ettirib, giksoslar bilan urush olib bordi. Kamosga Nil daryosining 1-pogʻonasidan 14-nomlikning Kus shahrigacha boʻlgan yerlar boʻysunar edi. Hukmronligining 3-yilida Kamos kengash

chaqirib, giksoslar va kushliklar bilan hokimiyatni boshqa bo'lishib olmasligini ta'kidlab o'tdi. Uning qo'shinlari Nil daryosiga tushirilgan kemalarda, shimolga giksoslar nazoratidagi hududlarga kirib bordilar. Kamos (yoki Kamesu) o'zining yirik g'alabalari haqida mashhur tosh bitigida (1-2-"Kamos stellasi") ma'lumot berilgan. Ammo, ko'p o'tmay Kamos halok bo'ladi va Fivada uning xotini Yaxxotep (regent) taxtga keladi. Shunday bo'lsada, Giksoslar bilan urush davom etadi. Bir oz vaqt o'tib (taxminan 8 yil) hokimiyatga Yaxmos I chiqadi hamda Misr tarixida 18-sulolaga asos soladi.

Yaxmos I (asli kelib chiqishi Fiva nomligidan bo'lmagan) giksoslarni poytaxti Xat-uarit (Avaris)ni egallashga muvaffaq bo'ladi va Misrdan ularni haydab chiqarib, Finikiyada mamlakat ta'sirini qayta tikladi. U hozirgi G'azo yaqinidagi Sharuxen qal'asini olti yil qamal qiladi va egallaydi. Misrliklar kamonchilar, piyodalar va jangovar aravalardan (giksoslardan o'rganganlar) unumli foydalanib, imperiya tuzishga kirishadilar. Yaxmos I davlatni boshqarishda xotini Yaxmos-Nefertari bilan birga idora qiladi. Yaxmos-Nefertari turmush o'rtog'idan keyin o'g'li Amenxotep I va fir'avn Tutmos I davrida ham hayot bo'lganligi tarixdan ma'lum. Shu tariqa Yangi podsholik (mil. avv. 1570-1075-yy) davri boshlanadi.


Arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra, Yaxmos I ning o'g'li Amenxotep I (mil. avv. 1525-1504-yy) Osiyoda hech qanday urush olib bormadi. U faqat Nubiyani qayta bo'ysundirib, otasining g'alabalarini mustahkamlaydi. Amenxotep I dan keyingi fir'avn Tutmos I (mil. avv. 1504-1492-yy) Yaxmos I ning qizi Yaxmesga uylangan edi. Tutmos I asli kim bo'lganligi borasida hozirga qadar olimlar munozarali fikrlar bildiradilar. Uning otasi haqida ma'lumotlar yo'q, lekin onasini ismi Reniseneb, deb ta'kidlangan. Fir'avnning Misrcha ismi Dxauti-masi, ya'ni "Tot xudosidan tug'ilgan" – degan ma'noni bildiradi. Taxtga keliboq, Tutmos I Nubiyadagi qo'zg'olonni bostiradi, isyonchilar sardorini o'ldirib, tanasini Nil bo'ylab suzuvchi kemaga osib qo'yadi. So'ngra, Nilning 3-pog'onasiga qadar o'z kemalarida kirib boradi va Dongola viloyatigacha bo'lgan yerlarni Misrga bo'ysundiradi. Nubiyada bir-necha o'nlab qabilalar qulga aylantiriladi. Janubdagi g'alabalaridan so'ng, Tutmos I Falastin va Suriyaga talonchilik yurishlarini uyushtiradi. Misr qo'shinlari Frot daryosigacha chiqib, u yerda Naxarina (Mitanni)liklarni mag'lub etadilar. Suriya knyazliklari katta qarshilik qilmadilar. Misr askarlari

o'ljalar bilan yurtlariga qaytadilar. Tutmos I davrida Misr Yaqin Sharqning eng katta davlatlaridan biriga aylandi. Misr Mitannidan shimoliy Suriyani tortib olib, o'z nazorati ostiga oldi. Nubiyada misrliklar Nilning uchinchi pog'onasida ilgari mustaqil bo'lgan Kush davlatining poytaxti Kermani egalladilar.

Tutmos I ning vorisi, uning kichik xotinidan bo'lgan o'g'li Tutmos II (mil. avv. 1492-1479-yy) bo'lajak mashhur malika Xatshepsutga uylandi. Taxtda uzoq o'tirmasa-da, ammo Nubiya va Falastindagi qo'zg'olonlarni bostirishga muvaffaq bo'ladi. Misr qo'shinlari Nubiyadan isyonchilar sardorining o'g'lini garovga olib qaytadilar. Tutmos II vafot etgach, malika Xatshepsut o'z o'gay o'g'li Tutmos III ni davlat ishlaridan chetlashtirishga harakat qildi. Vaqt o'tishi bilan malika yodgorliklarda o'zini mustaqil fir'avn sifatida tasvirlay boshladi. Malika erkak fir'avn kabi o'z hokimiyatining to'laqonligini ta'kidlash uchun gavda tuzilishini erkaklarga o'xshatib, soqol qo'yilgan holda tasvirladi. Malika Xatshepsut fir'avn-jangchi unvoniga da'vo qila olmas edi. Shunga qaramasdan, u Puntga (Eritreya) katta ekspeditsiya tashkil qildi. Malika davrida Karnakda "Xed-sed" bayrami sharafiga katta ibodatxona va Dayr-al-Bahrda o'zi va otasi Tutmos I ga atab ibodatxona barpo qiladi. Bu inshootlarning yaqinida Xatshepsut davrida oliy kohin, me'mor Senemutning sag'anasi qad ko'tardi. Senemut fir'avn Xatshepsut davrida uning eng yaqin kishisi sifatida davlatni boshqarishda qatnashadi.

Ammo Xatshepsut vafotidan so'ng, Tutmos II ning Isida ismli kanizagidan tug'ilgan o'g'li Tutmos III taxtga keladi va o'gay onasidan qolgan barcha yodgorliklardan uning ismini o'chirtirib tashlaydi. Ayol fir'avn Xatshepsut davlatni boshqargan bo'lsa-da, ammo rasman taxtda Tutmos III o'tirar edi. Lekin u 20 yilga yaqin qo'g'irchoq podsho hisoblangan. Keyinchalik tabiatan lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo'lgan fir'avn qo'shinni qayta tuzib, harbiy yurishlarga tayyorgarlik ko'radi.

Tutmos III (mil. avv. 1479-1438-yy) istilochilik urushlari olib bordi. G'ayratli sarkarda Tutmos III Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ini Misr ta'siri ostiga o'tishi uchun uzoq harbiy tayyorgarlik ko'rdi. Tutmos III Falastinga ko'p sonli qo'shin tortdi. Megiddo shahri yonida Suriya va Falastinning shahar-davlatlari Kadesh shahri boshchiligidagi birlashgan qo'shinlari Tutmos III armiyasi bilan uchrashdi.



Qonli jang misrliklar g'alabasi bilan tugadi. Dushman askarlarining qoldiqlari Megiddo devorlari ortiga berkindilar. Shahar yetti oy qamal qilinadi va Kadesh shahri hukmdori o'z ittifoqchilari bilan birga misrliklarga taslim bo'ladi. Natijada Misr Suriya va Falastinning katta qismini egallab oldi. Mitanni o'z qo'shinlarini Frot ortidan chaqirib oldi va Misrga Suriya, Finikiya va Falastin hududlarini yon berishga majbur bo'ldi. Misr askarlari Frot

daryosidan o'tib mitanniliklarni ta'qib qilganliklari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Fir'avn Tutmos III ning yurishlari Suriya knyazliklari (Kadesh va keyinchalik Tunip) ga qarshi qaratilgan edi. Sakkizinchi yurish paytida esa Mitanni chegarasini (Frot daryosi) ham buzib o'tishga muvaffaq bo'ladi. Tutmos III umuman hayoti davomida o'n besh marta harbiy yurish qilib, Frot daryosigacha bo'lgan hududlarni bosib oldi. Frot daryosi bo'yidagi Karxemish shahrini ham egallaydi. Bu esa o'z navbatida Misr qo'shinini Kichik Osiyo chegarasigacha chiqishiga olib keladi. Janubda Misr Nilning o'srtinchi ostonalarigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga oldi.

Misr saltanatining ichki va tashqi siyosati. Tutmos III ning istilochilik urushlari natijasida Misr mil. avv. XV asrda Old Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Old Osiyoning Mitanni, Xett va Bobil kabi kuchli davlatlari Misrning kuch-qudrati bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar. Ular Misr bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qildilar. Bu to'g'risida o'sha davrdagi ko'pgina yozma manbalar ma'lumot beradi.

Mil. avv. 1386-yilda taxtga Tutmos IV ning o'g'li Amenxotep III o'tiradi, uning davrida Misrda tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Garchand Nubiyaga yurish uyushtirilgan bo'lsa-da, bu **Fir'avn Exnoton (Luksor muzeyi)** harbiy kompaniya



ikkinchi darajali xarakterga ega bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyoti izga tusha boshlaydi. Mitanni davlati bilan do'stlik aloqalarini tiklaydi. Mitanni podshosi Shutarna II fir'avnga xotinlikka malika va 317 ta xizmatkorni yuboradi. Zero, Amenxotep III ona tomondan Mitanni podshosi Artadamning nevarasi edi. O'z navbatida qo'shnisini kuchsizlantirish maqsadida, Mitanni vassali Ashshur podshosi Ashshur-nadin-axxe II bilan yashirin aloqalar olib boradi.

Mashhur Amenxotep IV Exnaton (mil. avv. 1375-1336-yy) davrida Misrning tashqi siyosiy ahvoli yomonlashadi. Uning diniy

islohoti (Aton xudosini ulug'lash) mamlakat mafkurasini ikkiga bo'lib yubordi. Eski din kohinlari quvg'in qilindi va ibodatxona boyliklari davlat hisobiga musodara qilindi. Exnaton ajdodlari kabi Nil daryosi qirg'oqlaridagi irrigatsiyani rivojlantiradi. Savdo hajmi oshib boradi, ammo Mitanni Janubiy Suriyaning katta qismini bosib oladi. Osiyoda yana bir raqib Xett davlati urushga tayyorlana boshladi.

Exnatonning o'g'li Tutanxamon (mil. avv. 1336-1327-yy) davrida ahvol o'zgarmadi. Tutanxamon 10 yoshidan fir'avn taxtiga o'tiradi va bir yil o'tmay otasi qurgan shahar Axetatondan chiqib ketadi. Fiva yana diniy markazga aylanadi. U eski xudolar (Amon, Ptax, Tot, Gor,



Osiris va Anubis)larga sig'inishni qayta tikladi. Quvg'inga uchragan kohinlar uni qo'llab-quvvatladilar. Tutanxamon vafotidan so'ng, Eye hokimiyatga keladi, ammo ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarmaydi. Taxtga Tutanxamonning qarindoshi lashkarboshi Xoremxeb (mil. avv. 323-1295-yy) kelgach, u 19-sulolaga asos soladi. Asli kelib chiqishi Yuqori Misrning 18-nomligidan (Xa-nislik)bo'lib, qobiliyatli siyosatchi va sarkarda edi.

U Misr armiyasini ikkiga ajratib (shimoliy va janubiy), Nubiyani nazorat qilish maqsadida janubiy va Osiyodagi mulklarni nazorati uchun shimoliy qo'shinlarni javobgar qilib qo'ydi.

Mil. avv. 1295-yilda Xoremxeb olamdan o'tadi va fir'avnlik taxtiga Ramzes I (ayrim olimlarning fikricha, u 19-sulola asoschisi hisoblanadi)keladi. Yangi hukmdor Misr qo'shini tarkibidagi yollanma askarlar sonini oshiradi

Fir'avn Tutaxamon oltin niqobi

hamda fir'avnni qo'riqlash uchun maxsus qismlarni joriy etadi. Biroq, xetlar bilan Suriya masalasida vaziyat

keskinlashadi. Ramzes I bir yil hokimiyatda o'tiradi. So'ngra, kelib chiqishi otasi Ramzes I kabi Quyi Misrdan bo'lgan Seti I ("Set xudosiga tegishli") fir'avn bo'ladi. Uning davrida Falastin va Suriyaga harbiy yurish qilinadi.

Seti I ning o'g'li Ramzes II (mil. avv. 1279-1213-yy) davrida xetlar bilan Suriyani nazorat qilish uchun urush olib borildi. Ramzes II ibodatxonalar boyliklarini ham urushga sarfladi. Kadesh yonidagi jangda Xett podshosi Muvatalis bilan to'qnashdi. Fir'avn g'alabaga erishdi, ammo jangda halok bo'lishiga oz qolgan edi. Misrliklar halok bo'lgan xetlarning qo'llarini chopib olib, o'z fir'avnlariga keltirdilar.

Mil. avv. 1279 yoki 1270-yillar atrofida Xett podshosi Xattusili III tashabbusi bilan Misr va Xett podsholigi o'rtasida tinchlik shartnomasi tuziladi. Shartnomalarda davlatlar o'rtasidagi chegaralar kelishib olingan, ularni buzmaslik, birovning hududida yangi shaharlarga asos solmaslik va biror tomonning shunga o'xshash urinishlariga yo'l qo'ymaslik kabi majburiyatlar belgilangan. Har ikki tomon uchun qaram bo'lgan podsholar bilan uchinchi tomon ittifoq tuzishi man etilgan. Agarda Xett podshosi urushga kirgan paytda, u bilan shartnoma tuzgan tomon o'z "betarafligi" ni e'lon qilsa, Misr xetlar dushmani bilan maxfiy aloqalarda bo'lgan deb, hisoblangan. Tuzilgan tinchlik bitimining moddalarida ichki va tashqi dushmanlarning har qanday hujumiga qarshi birgalikda chiqish ta'kidlanadi. Birinchi da'vatning o'zida kontragent (shartnoma tuzgan har ikki tomonning biri) o'zining qo'shinlari bilan yordamga kelishi lozim edi. Ushbu bitimning ayrim bandlari faqat bir tomon uchun taalluqli bo'lishi mumkin edi. Kelishuvda aytib o'tilgan shartlarning to'liq bajarilishi nazorati har ikki tomondan mingta yaqin guvoh - xudolar haykalchalari bilan belgilandi.

Xett mamlakatining tashqi siyosatida sulolaviy nikohlar muhim o'rin egallagan. Shu jihatdan Xett podsholarining qizlariga bosh xotin, ya'ni mamlakat malikasi maqomini kafolatlovchi shartlar ilgari surildi. Misr qo'l ostida Falastin, Finikiyaning katta hududi va janubiy Suriyaning bir qismi qoldi. Bu mamlakatlar shimolidagi barcha hududlar xetlarning mulki hisoblandi. Tinchlik shartnomasi bilan birga, o'zaro yordam berish majburiyatiga asoslangan ittifoq shartnomasi ham tuzilgan. Shunga ko'ra, nikoh diplomatiyasi qo'llanilib, Ramzes II Xattusilining qizlaridan biriga uylanadi.

Keyingi fir'avnlr Merneptax (mil. avv. 1212-1202-yy), Amenmes (mil. avv. 1200-1194-yy), Saptax (mil. avv. 1194-1188-yy) davrlarida Misr o'z qudratini saqlab qoldi.

Mil. av. 1185 yili Misr taxtiga Ramzes III chiqadi. U fir'avn Setnaxt va malika Tii-Merenisetlarning o'g'li edi. Manbalarda

ta'kidlanishicha Ramzes III hokimiyatni o'ttiz yoshdan oshib qabul qilib, 31 yil boshqargan. Taxtga chiqishining 5 yili ibodatxonalar mulklaridan tushadigan mablag'larni taftish qiladi. Keyinchalik liviyaliklar (chexenu) isyon ko'tarishadi va sardor Termer boshchiligida Quyi Misrga kirib keladi. Liviyaliklarining meshvesh, libu, seped va boshqa urug'lari Quyi Misrga bostirib kirishadi. Bu haqida Madinat Abu yodgorligidagi yozma manbalar xabar beradi. Tomonlar o'rtasidagi hal qiluvchi jang misrliklarning Xesef-Txamxu qal'asi yonida bo'lib o'tadi. Qonli kurashda Misr qo'shinining qo'li baland keladi. Jangda 12535 liviyalik halok bo'lgani haqida yozib qoldirilgan. Misr qo'shini tarkibida yollanma askarlar ham bo'lganligi devoriy suratlarda ko'rsatilgan.

Ammo bu bilan misrliklar yurtlarini yangi bosqindan saqlab qola olmadilar. Fir'avn Ramzes III ni podsholigini 8-yili Quyi Misrga shimoldan "dengiz xalqlari" xavf sola boshladi. Bundan avval ushbu noma'lum qabilalar Xett, Arsava, Irsa (Kipr), Kedi (Suriyaning Shimoli g'arbi) kabi davlatlarni tugatib yuborgan edilar. Manbalarda "dengiz xalqlari"ni shekelesh (sikullar), shardana (sardiniyaliklar), danuna (danaylar) va ueshesh(?) deb nomlashgan. Ularning ayrimlari dengiz orqali, boshqalari esa quruqlik orqali bolalari bilan Quyi Misrga kirib kelganlar. Ramzes III mamlakat sharqida chegarani mustahkamlab qo'ygani uchun va dengiz flotini kuchaytirgani sababli dushmanlarini to'xtatib qoldi. Misr qo'shini Djaxi (Finikiya)da dushmani quruqlikdan kelayotgan qo'shinini tor-mor keltirdi. Shu yili misrliklar Roxaut yonida "dengiz xalqlari" ning flotini ham tor-mor qildilar. Ko'p dushman askarlari halok bo'ldi. Ayrimlari asir olinib, qulga aylantirildi.

Shunday bo'lsa-da, ayrim "dengiz xalqlari" pelask va zakaralar Janubiy Finikiyada qolib, filistimliklar degan nom ostida qolib ketdilar. Ular fir'avnning ruxsati bilan Askalon, Akkarona, G'azo, Gata va Ashdod shaharlarini qurib joylashdi.

Ramzes III ni podsholigining 11-yili Liviya tomondan "mashauash" qabilalari hukmdor Meshesh boshchiligida Misrga tegishli Xacho qal'asini qamal qilishadi. Fir'avn qo'shini ularni jangda yengib ikki mingdan ortiq kishini qatl qilishgan va shunchaga yaqin kishi asirga olinadi. Ammo, fir'avn liviliklarni bu bilan to'liq yenga olmadi. Liviya tomondan xavf misrliklarni Quyi Misrdagi

shahar va ibodatxonalarni (Tot va Germopol ilohlari ibodatxonalari) baland mudofaa devorlari bilan mustaxhamlashga majbur qilgan.

Fir'avn Ramzes III o'z qo'shinlarini Edom (O'lik dengizning janubi) yerlaridagi ko'chmanchi "shasu" qabilalari bilan ham urush olib borgan. Fir'avn Suriya yerlariga kirib borishga muvaffaq bo'lgan. Misr garnizonlari Falastinni nazorat qila boshlaydi. Ammo, bu misrliklarning oxirgi tajovuzi edi.

Mil. avv. 1168 yili Ramzes III ni buyrug'i bilan Pont o'lkasiga ("Xudolar mamlakati") savdo uchun dengiz ekspeditsiyasi uyushtiriladi. Natijada pontliklar bilan savdo-sotiq aloqalari o'rnatiladi.

Fir'avn Misrdagi ibodatxona yerlarini askarlikka chaqirilish majburiyatidan ozod qiladi. Kohinlarga iqtisodiy imtiyozlar yaratib berilgan. Ramzes III podsholigi davrida fir'avn ibodatxonalaga 107 ming kishini ishchi sifatida berib yuboradi. Bu Misr aholisning qariyb 2% ni tashkil qilgan edi. Shu bilan birga, podsho mamlakatning 15% sug'oriladigan yerllarini ham kohinlar nazoratiga topshirgan. Oqibatda Misr qo'shinida yollanma liviyalik va filistimlik askarlar soni ortib borgan. Natijada mamlakat g'aznasi vaqt o'tishi bilan bo'shab qoldi.

Mil. avv. 1156 yil davlat g'aznasi shu qadar qashshoqlashadiki Deyr al-Madinadagi quruvchilarga maosh ham to'lay olmay qolgan edi. Natijada ular isyon ko'tarishgan. Misr chatisi (bosh vazir) Ta esa, fir'avn Ramzes III bilan mamlakat safarida bo'lgan. Hukumat ishchilarga kech bo'lsa-da maoshlarini to'lab berishga majbur bo'ladi.

Mil.av. 1153 yili fir'avn Ramzes III ga qarshi o'z xotini malika Tiya, 22 nafar saroy zodagonlari bilan til birlashtirib fitna uyushtiradi. U Misr taxtiga qonuniy valiaxd Ramzes IV ni chiqishini istamas edi. Aksincha o'z o'g'li Pentaurni Misr taxtida ko'rishni istar edi. Oqibatda Ramzes III xanjar bilan o'ldiriladi. Ammo, fitnachilar maqsadlariga erisha olmaydilar. Ular qo'lga olinib sudga beriladi va o'z jazolarini oladilar. Hokimiyatga Ramzes IV (mil. avv. 1153-1147 yy) chiqariladi. Garchand yangi fir'avn otasining yo'lini davom ettirishga urinsa-da bo'shab qolgan davlat g'aznasi bilan ichki va tashqi siyosatda ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Undan keyin taxtga chiqqan Ramzes V (mil. avv. 1147-1143 yy) ham uzoq hukmronlik qila olmadi. Keyingi fir'anlar Ramzes VI (mil. avv. 1143-1135 yy), Ramzes VII (mil.av.1135-1128 yy) davrida saroyda kohinlarning ta'siri ortib boradi. Bu esa Misrning iqtisodiy qudratiga putur

yetkazadi. Fivada Amon kohinlarining ta'siri shu darajada ortib ketgan ediki, xatto fir'avn Ramzes IX (tax. mil. avv. 1120 yy) davrida ularni tasviri podshoning bo'yi basti bilan teng qilib ko'rsatilgan edi. Ayniqsa Amon ibodatxonasi oliy kohini Amenxotep fir'avnga katta ta'sir o'tkazar edi. Bu esa XX –sulolaning inqirozidan dalolat berar edi.

Yangi podsholik davrida sun'iy sug'orish inshootlarini bunyod etish, ta'mirlash va tartibga solish, yangi o'zlashtirilgan yerlarga suv chiqarish fir'avnlarning nazoratida turgan. Serunum Fayum vohasida yangi yerlar o'zlashtirilib, voha asta-sekin Misrning bug'doy omboriga aylangan. Eski irrigatsiya inshootlari tozalanib borilgan. Nil daryosining suvlarini chiqishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan.

Nil vodiysida uzumchilik, bog'dorchilik va asalarichilik rivojlanib borgan. Yangi podsholik davrida Misr iqtisodiyotida ziroatchilik va chorvachilik yetakchi soha hisoblanib, mahsulotlarni hatto chetga ko'plab yetkazib bergan.

Mil. avv. 1140-yilda Misr o'zining chegaralarini tashqi dushmandan himoya qila olmay qoldi. Mamlakatga Liviya yerlaridan ko'chmanchilarning kirib kelishi kuchaydi. Ularni Misr qo'shiniga yollash kengaydi.

Yangi podsholik davrida yagona davlatning yemirilishi bilan Misrda III O'tish davri (mil. avv. 1075-656-yy) boshlandi. Bu davrda Misrda rasman yagona podsho hokimiyati mavjud bo'lsa-da, siyosiy tarqoqlik o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Nomlar o'rtasida kuchli ziddiyatlar mavjud edi. Dastlab mil. avv. 943-yilda asli meshauashi (liviyalik) lardan bo'lgan Sheshonk (mil. avv. 943-922-yy) 21-sulolaning so'nggi vakili Psusennes II o'limidan so'ng, hokimiyatga keladi va 22-sulolaga asos soladi. Poytaxtni Nil deltasining sharqidagi Per-Bastet (yunoncha Bubastis) shahriga ko'chiradi. O'z o'g'li Osorkonni sobiq podshoning qizi Maatkaraga uylantirib, taxt vorisligi tizimini o'z foydasiga hal qilishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa, Misr tarixida Bubastislar, ya'ni liviyalik fir'avnlarning boshqaruv davri boshlanadi. Fir'avnlr Osorkon mil. avv. 922-887-yy), Sheshonk II (mil. avv. 887-885-yy), Takelot (mil. avv. 885-872-yy), Osorkon II (mil. avv. 872-837-yy), Sheshonk III (mil. avv. 837-798-yy), Sheshonk IV (mil. avv. 798-785-yy), Pami (mil. avv. 785-778-yy) va boshqalar davrida Misr taraqqiyoti avvalgidek emas edi. Mil. avv. 760-yili Yuqori Misrga Nubiyaning Napata shahridan Kashta (mil. avv. 760-

752 y-y) ismli podsho qo'shin tortib keladi. Shu tariqa, efioplar taxtga o'tirib, 25-sulolaga asos soladilar. Misr tarixida mil. avv. 760-656-yillar efiopiyalik fir'avnlr davri hisoblanadi. Mamlakat yana ichki nizolar oqibatida kuchsizlanadi. Ushbu sulolaning yirik namoyondalaridan Pianxi va Shabakalar davrida Yuqori va Quyi Misr efioplar sulolasiga (mil. avv. 715-yilda) bo'ysundirildi. Ammo, mil.avv. 674-yilda Misrga Ossuriya podshosi Asarxaddon bostirib keladi. Mamlakat 10 yildan ziyod ossurlarga qaram bo'lib qoladi.

III o'tish davrida Misr va So'nggi podsholik. Mil. avv. VII asrning o'rtalarida Sais nomarlari (Quyi Misr) Misrni birlashtirishga kirishdilar. Sais shahri Nil deltasning yirik nomlaridan biri edi. Dastlab, Psammetix I (misrcha Psamtik) efioplar sulolasiga qarshi kurashda ossuriyaliklardan foydalanadi. Hatto, Ossuriya podshosi Asarxaddonga ham xizmat qilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Sais nomligida taxminan mil.avv 665-yildan boshlab Psammetix I hokimlik qiladi. Psammetix I (mil. avv. 655-610-yy) asli liviyalik zodagonlardan edi. U dastlab efioplarga qarshi Ossuriyaning yordamiga tayanadi. Chunki yangi podsho Ossuriya podshosi Ashshurbanipalning tarafdorlaridan biri edi. Aynan u Misr tarixida 26-sulolaga asos soladi va mamlakatni qaramlikdan olib chiqadi. Mil. avv. 653-yilga kelib, Lidiya podshosining yordamida Misr suverenitetini qayta tiklaydi va Sais shahrini mamlakat poytaxtiga aylantiradi.

Sais sulolasining yorqin vakili fir'avn Nexo II (misrcha Nexao) skiflar hujumidan xavfsirab, parchalanib borayotgan Ossuriyani qutqarib qolishga intildi. Ossur podshosi Ashshur-ubalit II bilan Karxemish shahri yonida birlashishga kelishib oladi. Quddus (Ierusalim) shahridan Yahudiy podshosi Iosiya unga qarshi chiqadi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab halok bo'ladi. Fir'avn yahudiyalar dushmanlari hisoblangan ossurlarga yordamga ketayotgan edi. Nexo II g'alaba nashidasini surishga ham vaqti yo'qligini yaxshi tushungan. Misr-ossur qo'shini Xarran qal'asini qamal qiladi. So'ngra, u yerdagi Bobil garnizonini qilichdan o'tkazadilar. Bu orada Nexo II sobiq isyonchi Quddus shahrini qayta egallaydi hamda podsho Iosiyaning o'g'li Ioaxazni Misrga asirlikka olib ketadi.

Misrlilar Yangi Bobil podsholigi bilan raqobatlashib Falastin va Suriyani Misr ta'siriga olishga harakat qiladi. Mil. avv. 605-yilda Bobil podshosi Navoxudonosor II Misrdan Suriya va Falastinni tortib

oladi. Endi Yahudiya yangi bosqichilarga qaram bo'lib qoldi. O'z navbatida Misr Yahudiyani Bobilga qarshi kurashda qo'llab turdi. Aslida Misr, kuchayib borayotgan Bobilga nisbatan Yahudiyadan qalqon hudud (bufer zona) sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Keyingi fir'avn Apriy Sidon shahri (Finikiya) flotini jangda yengadi. Misr yahudiylarni Bobilga gij-gijlash maqsadida (mil. avv. 586-yilda) Quddus tomon o'z qo'shinini yuboradi. Ammo, Bobil tomonidan qat'iy choralar ko'rilgach, o'z askarlarini qaytarib chaqirib oladi. Misr davlati kuchayib ketgan Bobilga qarshi chiqa olmaydi.

Ushbu sulola davrida Misr o'z qudratini nisbatan oxirgi marta tiklashga muvaffaq bo'ladi. Ichki urushlar va ossurlarning talonchiligidan charchagan Misr o'z sarhadlarini qo'shni davlatlardan himoya qilish uchun kerak bo'lgan katta qo'shinni doimiy ta'minlay olmaydigan davlatga aylandi. Shuning uchun misrliklar yunonlardan askarlar yollay boshladilar. Fir'avn Psammetix I davridayoq yunonlar Misrga (asosan Nil deltasiga) kirib kela boshlagan edi. Hatto mashhur tarixchi Gerodot yunon savdogarlari, yollanma askarlarining Misrga kirib borganligi to'g'risida fikr bildirgan. Nil deltasida yunonlarning Navkratis savdo koloniyalari tuzilib, tez sur'atlarda o'sib borgan. Natijada Yunon madaniyati ta'siri kuchayadi.

Sais sulolasi fir'avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar, Misr kohinlari va yunon savdogarlari bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yadilar. Ular Misrning nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, mustaqillikka ega bo'lishni da'vo qilib kelayotgan ko'p hokimlarga qarshi kurash olib bordilar.

Fir'avnlar Uaxibra va Yaxmos II (yunoncha Amasis) lar asosan Misrning ichki iqtisodiy qudratini oshirishga intildilar. Misrliklar yunonlarga madaniyatning ayrim sohalarida taqlid qilganligi tarixdan ma'lum. O'z navbatida Misr aholisi o'rtasida norozilik kuchayib bordi.

Fir'avn Yaxmos II yunonlar bilan do'stona munosabatda bo'lib, ulardan ko'mak ola boshladi. Bu ma'lumot Bobil mixxtat yozuvlarining birida o'z aksini topgan. Ammo, bu davr Misr davlati erkinligining oxiri edi. Bu vaqtda yangi tashkil topgan Eron saltanati chegaralari Misrga qadar yetib kelgan edi. Fir'avn Amasis podsholigi yillarida (mil. avv. 570-526-yy) Misrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat og'ir holatda edi. Ahamoniylar podshosi Kambiz II mil. avv. 525-yilda Misrga bostirib keladi va Pelusiya yonidagi jangda Misr

qo'shinini (asosan yunon yollanma askarlari) mag'lubiyatga uchratadi. So'ngra, misrliklar Memfis shahri tomon chekinadilar va tez orada shahar qamalda qolib, yengiladilar. Fir'avn Psammetix III hokimiyatdan chetlatilib, Kambiz II Misr fir'avni sifatida taxtga keladi. Gerodotning ta'kidlashicha, fors elchisini o'ldirilishi evaziga fir'avnni o'g'li va 2000 ga yaqin misrlik yosh zodagonlar qatl etiladi. Kambiz II Misrda 27-sulolaga asos soladi. Shu tariqa, Misr Ahamoniylarning satrapliklaridan biriga aylanadi. Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy Misrga yurish qiladi va uni o'z davlatiga kiritadi. Ma'lum bir vaqt ushbu ulkan mamlakat tarkibida mil. avv. 221 yilgacha bo'lgan.

Ptolomeylar davrida Misr

Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng, diodoxlar hokimiyat uchun urush boshlaydilar. Misr taxtni Iskandar lashkarboshilaridan Ptolemey egalladi. U diodox Perdikkani Nil bo'yida maglub etadi. Perdikka tarafdorlari Ptolemey tomoniga o'tib ketishadi uning o'zi 321 yil Pifon boshliq fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Misrni alohida davlat sifatida Iskandar imperiyasidan uzil-kesil ajratib oladi. Ptolemey I Soter (mil. avv. 305–282) tashqi siyosat sohasida o'zini iste'dodli hukmdor va malakali siyosatchi sifatida ko'rsata oldi. Ma'lumki, u o'z o'limi bilan vafot etgan yagona diadoh edi. Ptolomey o'z davlatining chegaralariga yaqin hududlarni bosib olish uchun jiddiy choralar ko'rdi. Bu nafaqat istalgan yunon hukmdoriga xos tajovuzkor maqsadlarda, balki O'rtayer dengizidagi davlatlar xavfsizligini ta'minlash istagida ham namoyon bo'ldi. Makedoniya namunasiga ko'ra tashkil etilgan makedoniyaliklar va yunonlardan tashkil topgan kuchli armiya uning tashqi siyosatidagi harakatlarining asosiy tayanchi edi. U, shuningdek, yunon yollanma askarlarini ham jalb qildi, ammo mahalliy misr aholisi vakillari muntazam qo'shinda xizmat qilmadilar, chunki ular Yunon dunyosida qabul qilingan namunaga ko'ra o'qitilmagan edilar. Faqatgina vaqt o'tishi bilan bu holat biroz o'zgardi, Biroq, bu ancha keyinroq yuz berdi.

Diadohlar urushi davridayoq Ptolemey buyuk, ammo mustahkam bo'lmagan Aleksandr davlatining qulashi muqarrarligini birinchi bo'lib tushunib yetgandi. Misrda mustahkamlanib olgach, u Aleksandr tomonidan bosib olingan Kirenaikani (hozirgi Liviyaning shimoli-

sharqiy qismi) hokimiyatiga bo'ysundirib, Suriya va Finikiyaga bostirib kirdi va yo'l-yo'lakay mis va yog'ochga boy Kiprni bosib oldi.

Ptolemey I Soterning o'g'li Ptolemey II Filadelf (mil. avv. 283--246 yillar) va nabirasi Ptolemey III Everget (mil. avv. 246--221)lar ham o'sha siyosatni davom ettirib, o'z hokimiyatlarini Kichik Osiyo va Egey dengizidagi bir qator shaharlarga yoyishdi. Mil. avv. III asr oxirlarida Misr eng kuchli dengiz floti bo'lgan va yunon davlatlari tizimida yetakchi o'rinni egallagan davlat edi. Ptolomeylarning asosiy raqiblari Makedoniya va Salavkiylar davlatining hukmdorlari, shuningdek, Kichik Osiyodagi kamroq ahamiyatga ega ellin davlat birlashmalari (masalan, Pergam, Bitiniya va boshqalar) edi.

Ptolemey II Filadelf davrida Salavkiylar davlati bilan munosabatlar keskinlashdi. Daromadlar oqimini ta'minlash istagi Ips jangidan keyin, Ptolemey I tomonidan qo'lga kiritilgan Kolesuriya (janubiy Suriya va Finikiya hududlari), shuningdek, bu yerda joylashgan savdo va strategik bazalarni mustahkamlash masalalari bir necha marta yuz bergan Suriya urushlariga sabab bo'ldi. Antiox I Salavk tomonidan qo'llab-quvvatlangan Birinchi Suriya urushi (mil. avv. 274--271-yillar) Kirenaikadagi g'alayon bilan boshlandi. Ptolemey II ushbu harakatni to'xtatib, tashabbusni qo'lga oldi va Suriya va Kichik Osiyodagi bir qator g'alabalarni qo'lga kiritdi. Makedoniyaning ellin hukmdori Antigona Gonatning Antiox I tomonida urushga kirishi vaziyatni o'zgartirdi va Ptolemey tinchlik sulhi tuzishga rozi bo'ldi. Uning shartlariga ko'ra, Misr o'zining oldingi hududlarini saqlab qolish bilan birga Kichik Osiyoning janubiy sohillaridagi bir qator shaharlarni ham oldi. Shu bilan birga, Ptolemey II bir qator orol va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining fuqarolari bilan ittifoqchilik bitimlarini tuzib, ularni o'z tomoniga og'dirdi.

Ikkinchi Suriya urushi (mil. avv. 258--253-yillar) sulolaviy nikoh bilan yakunlandi. Ptolemey II o'z qizini Antiox I ga berdi, unga ikki o'rtada tortishuvlarga sabab bo'lgan bir qator hududlarni ham taqdim etdi. Bu Ptolemeyning harbiy harakatlarda muayyan muvaffaqiyatsizliklarga uchraganidan dalolat beradi. Bunga qo'shimcha ravishda, Ptolemey II va Antigona Gonat flotlarining Ptolemey mag'lubiyati bilan tugagan Kosadagi dengiz jangi uni yanada tinch yo'l bilan harakat qilishga undadi. Bu

muvaqqiyatsizliklarga qaramasdan, Ptolemey II o'z kuch-qudratining yuksalgan davrida Kireniya, Kipr, Pamfiliya, Likeya, Kelesuriyalarga egalik qilib, Kiklad orollari konfederatsiyasi siyosatiga ta'sir ko'rsatdi. Bu hukmdor Bolqon Yunonistonidagi vaziyatni ham e'tiborsiz qoldirmadi, bu yerda antimakedonlarni faol qo'llab-quvvatladi. Natijada, Misr floti Xremonid jangida (mil. avv. 267 – 262-yillarda) muvaqqiyatsiz bo'lsa-da, ishtirok etdi. Attikaga o'rmasish va makedoniyaliklar tomonidan qamal qilingan afinaliklarga yordam berishga urinish ham muvaqqiyatsizlikka uchradi.

Davlat boshqaruvi Ptolomeylar sulolasi davrida yunon tilida olib borilgan. Amaldorlar mahalliy kishilardan ham tayinlangan. Yirik lavozimlarni yunonlar egallashgan. Podsho "jurnali" asosida amaldorlar tayinlangan. Ularning ichida "birinchi do'stlar", "Birinchi do'stlarga teng do'stlar", "do'stlar", "vorislar" qatlami kiritilgan. Bosh vazir lavozimi Dioiket deb atalgan. Ushbu so'z boshqaruvchi degan ma'noni anglatgan, moliya ishlarini nazorat qilib, g'aznaga kiruvchi kirim-chiqim masalalari uning nazoratidan o'tgan. Ptolomey II davrida deyarli barcha ishlarni mashhur Dioiket Appoloni bajargan. Shaharlar polis deb nomlangan. Misr viloyatlari "xoru" deb nomlanib, xorlar o'z navbatida "nomlarga" bo'lingan. Nomlar esa "toparxiya"ga bo'lingan. Toparxiyalar "kom"larga bo'lingan. Yuqori va quyi Misr tushunchalari mavjud bo'lib, nomarxlar strategy deb atalgan. Har bir nomlikda podsho kotiblari bo'lgan. Shunga o'xshash kotiblar toparxiya va komlarda ham mavjud bo'lib, ular o'z hududlaridagi soliqlar tushumini nazorat qilgan. Ularni dioiket tayinlagan. Nomliklardagi bosh iqtisodchi "ekonom" deyilgan. Ularni taftishi nazoratchi tomonidan amalga oshirilgan. G'aznachi "trapeza" deyilgan bo'lsa "trapezitom" bankir vazifasini bajargan.

Sud tizimi ellin va mahalliy misr urf odatlar asosida tuzilgan edi. Mil.avv. 257 yil "O'lponlar to'g'risidagi nizom"ga muvofiq yunon hamda misrlik o'rtasidagi kelishmovchiliklar ikki sudya tomonidan birgalikda hal etilgan.

Fir'avnlr Ptolomey IX (mil.av.116-107 y) va (mil.av. 89-81 y), Ptolomey X (mil. av.107-89) davrlarida mamlakat kuchsizlanadi. Shundan so'ng, Rimni ta'siri oshib boradi. Ptolomey XII Neos, Dionis (mil.av. 80-51) davrida ichki nizolar kuchayadi. Armaniston hukmdori Tigran II Suriyaga xavf sola boshlaydi. Pont podsholigi ham Arman

podsholigining ittifoqchisiga aylanadi. Soʻngra, Ptolomey XIII (mil.av.51-47 y) Misrda fuqarolar urushi boshlanadi. Bu urushga Yuliy Sezar aralashadi va Kleopatra VII ni taxtga oʻtqazadi. Soʻngra, Kleopatra Sezar vafotidan keyin Mark Antony bilan birga Misrni idora qiladi. M.a. 30-yilda Misr Oktavian Avgust qoʻshini tomonidan ishgʻol etilib, Rim provinsiyalaridan biriga aylantiriladi. Misrning birinchi prefekti etib Gay Karneliy Gall tayinlanadi. Yuqori Misr uning davrida egallanadi. U Arabiston yarimoroliga ham yurish qiladi. III proconsul Gay Petroniy davrida esa Misrning irrigatsiya tizimi tartibga solinadi. Shu tariqa Misr Rimning “bugʻdoy ombori” ga aylantiriladi.

Qadimgi Misr madaniyati.

Mil. avv. IV ming yillikda Qadimgi Misr aholisi Nil qirgʻoqlarini oʻzlashtirish paytida qaysi tilda soʻzlashganliklari hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlarga sabab boʻlmoqda. Gʻarb mutaxassislarini fikricha, qadimgi misrliklarning ilk soʻzlashgan tillari afro-osiyo tiliga (yoki Chad xalqlari tiliga) yaqinligi taʼkidlanib oʻtiladi. Keyinchalik boshqa etnoslarning Misrga kirib kelishi natijasida mahalliy til yanada boyib va sayqallanib borgan. Ilk podsholik davriga qadar misrliklar iyeroglif yozuvni ixtiro qilganlar. Har doimgidek ilk iyeroglif yozuvlar diniy timsol va mulkiy tabaqalanishni belgilovchi omil boʻlib xizmat qilgan. Har bir iyeroglif maʼlum bir soʻz yoki maʼnoni anglatar edi. Iyerogliflar soni masalasida hozirga qadar taniqli olimlar munozarali fikrlar bildirmoqdalar, lekin doimiy ishlatiladigan yozuvlar va belgilarning soni 750 taga yaqinligi taʼkidlanadi. Qadimgi Misrda maktablar (mirzolar maktabi) boʻlib, u yerda tarbiyaviy va taʼlim intizomiga katta eʼtibor berilgan. Tartibni buzgan, yalqov oʻquvchilar hatto tan jazosi bilan ham jazolanar edi. Misrda taʼlim va tarbiya doimiy bogʻliqlik asosida amalga oshirilgan. Maktablarda oʻquvchilar asosan iyerogliflarni sopol sathiga va papirusga yozib oʻrganishgan. Misrda oʻrta va oliy maktablar boʻlib, bunday taʼlim maskanlarida firʼavniar, zodagonlar, kohinlar va moliyaviy imkoniyati bor barcha kishilarning farzandlari tahsil olganlar. Ilk bor Qadimgi Misr iyerogliflarini fransuz olimi J.F.Shampolon 1822-yilda oʻqishga muvaffaq boʻladi. Iyerogliflarda xoʻjalik ishlari qaydnomalari, savdo-sotiq bitimlari, mamlakat tarixi va siyosiy kelishuvlarga oid yozuvlardan keng

foydalanilgan. Misrliklar yozuvida 1 sonidan tortib, millionni bildiruvchi alohida belgilar ham bor edi. Bu esa o'z navbatida, matematik bilimlar yuqori darajada o'qitilganini bildiradi. O'ltov birligi sifatida podsho "tirsagi", "barmog'i" va "kafti" umumdavlat standarti vazifasini bajargan.

Shu bilan birga, Qadimgi Misr adabiyotida ham iyerogliflarning ahamiyati katta edi. Bunda turli xil janrdagi tasviriy san'at usullari keng qo'llanilgan. Qadimgi podsholik davrida dafn marosimlarida diniy madhiyalarni yozib qoldirilganligi yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Hattotlar katta mahorat bilan bo'lib o'tgan marosimlarni tasvirlashga harakat qilganlar. Ammo, qadimgi misrliklarning 1% gina savodli bo'lib, qolganlari dehqonlar, hunarmandlar va doimo hattotlar xizmatiga muhtoj bo'lgan savdogarlardan iborat edi. Shuning uchun hattotlik kasbini egallash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. hattotlar asosan qamishdan yasalgan qalam bilan papirusga iyerogliflarni yozishgan. Ular asosan kohinlar tomonidan ibodatxonalarda o'qishga va yozishga o'rgatilgan. Shu bilan birga, mohir hattotlar fir'avnlarning harbiy yurishlarini s'Faroy va ibodatxonalar tosh devorlarida tasvirlab yozishgan.

1798-yilda Napoleon Bonapartning Misr kompaniyasi davrida Rozetta toshi stellasi topilgan bo'lib, unda 3 ta matn parallel tarzda yozilgan. Ularning bittasi piktogramma usulida, ikkinchisi demotik yozuv (Misr yozuvining stenografiya usuli), uchinchisi yunon tilidagi yozuv edi. Aynan shu yozuvlar Qadimgi Misr belgilarini tushunishga kalit bo'ldi. Bu hujjat paydo bo'lganidan so'ng, qadimgi misrliklar yana "gapirishni" boshladilar va ularning yozuvi deshifrovka qilingani sari bu millat o'zining buyukligi va go'zalligini ochib berdi. Misr iyeroglifik yozuvining kodini Fransiyaning buyuk iste'dodli olimi J.F. Shampolon 31 yoshida ochib berdi.

Qadimgi Misr adabiyotining yorqin na'munalaridan "Podsho Xeops saroyi haqida ertak", "Gapga chechan dehqon", "Aka-uka haqida ertak", "Unu-Amonning sayohati" , "Ajali yetgan shahzoda haqida ertak", "Sinuxe hikoyasi" va boshqalar hisoblanadi. Ular orasida O'rta podsholik davrida vujudga kelgan "Sinuxe hikoyasi" alohida o'rin tutadi. Mazkur hikoya syujeti misrliklar va ko'chmanchi badaviylar turmush-tarzi, urf-odatları farqlanishi asosiga qurilgan. Sinuxe saroy amaldorlari hiyla-nayranglari natijasida Osiyodagi badaviylar orasiga ketishga majbur bo'ladi. U aqlliligi va jasurligi

tufayli ko'chmanchilar orasida katta obro'ga ega bo'ladi. Biroq, yurt sog'inchi uni doimo qiynab keladi. Shunda Misr fir'avni Senusert I uni avf etib, vataniga qaytishga ruxsat beradi. Ushbu hikoyada jasurlik va vatanparvarlik g'oyalari keng targ'ib etilgan.

O'rta podsholikning notinch davr ijtimoiy qarama-qarshiliklari "chiroyli so'zlovchi ko'chib kelgan haqida qissa" da namoyon bo'ladiki, unda adolatsiz kamsitilgan qissa qahramonining haqiqatni himoya qilishga yo'naltirilgan nutqi katta qiziqish uyg'otadi.

Yangi podsholik davrida, ayniqsa gullab-yashnagan badiiy tarixiy adabiyot podsho yilnomalari va yirik amaldorlar "tarjimai-hollari" bilan ifodalangan.

Qadimgi Misr allaqachon dramatik san'at bilan tanish edi. U dramalashtirilgan janoza va ibodatxona marosimlari yoki afsonaviy syujetli diniy dramalar sifatida namoyish qilingan. Ba'zida bunday "spektakllar" faqatgina diniy ma'no kasb etmagan, balki siyosiy yoki targ'ibot yo'nalishiga ham ega bo'lgan.

Boy she'riy adabiyot orasida - xudolar va podsholarga bag'ishlangan madhiyalar, muhabbat lirikasi, maqtov qo'shiqlarini e'tirof etish mumkin. She'r ritmi zarbli bo'g'inlarga asoslangan, zarbsiz bo'g'inlar soni esa muhim bo'lmagan.

Sevimli adabiy usullar-parallelizm (barcha she'rlar ikki parallel iboralardan iborat) va alliteratsiya nasriy adabiyot uchun ham xos bo'lgan. Turli xil adabiy janrlar ko'pincha hikoyachining nutqi orqali ifodalangan, "chegara" ichiga olinib, u muqaddima va xulosani tashkil qilgan.

Misrliklar so'z o'yinini juda ham yoqtirishgan, ammo bu usulni baholaganda shunga e'tibor berish kerakki, so'z misrliklar uchun alohida ma'noga ega bo'lgan. Afsonaga ko'ra, Atum-Ra insonlarni o'z ko'z yoshlaridan yaratgan, ammo bu holat faqatgina so'z o'yini emas ("ko'z yoshi" va "insonlar" so'zi misrliklar tilida ohangdosh), balki jism va so'z o'zaro uzviy bog'liqlikka ega ekanligiga ishonchning namoyishidir.


Qadimgi Misr tarixini o'rganishda muhim tarixiy ma'lumotlar beradigan manbalar kamchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu manbalarning aksariyati papirusda yozilgani bois, ulardan faqat ayrimlarigina bizgacha yetib kelgan. Ular orasida "Ipuver nasihatlari" nomli manba ham papirusga yozilgan. Papirus matnida Misrda ro'y bergan yirik ocharchilik, qurg'oqchilik, Misrdan qullarning katta mol-

mulk bilan qochib ketishlari, “qul va quldorning o‘rnini almashib qolishi” va butun Misr bo‘ylab o‘lim dahshatining yopirilgani hikoya qilinadi. Mazkur papirus Ipuver (ba’zi adabiyotlarda Ipuser) nomli mahalliy donishmand tomonidan yozib qoldirilgan. Ushbu manbaga ko‘ra, muallif Misrdagi halokatlarning guvohi bo‘lganini tushunish mumkin. Papirusda Misr podshohligining tanazzuli, Misr zodagonlarining ayanchli ahvoli xususida aniq ma’lumotlar keltirilgan.

Qadimgi Misrda ibodatxonalarda dastlabki teatr ko‘rinishidagi diniy dramalar doimiy ravishda qo‘yilgan. Misrliklar musiqa va raqs sa’atidan xabardor xalq hisoblanadi. Qadimiy devoriy suratlarda torli musiqa asboblari tashqari nay, urib chalinadigan do‘mbira va boshqalar tasvirlangan.

Qadimgi Misr arxitekturasini Gizadagi mahobatli ehromlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ehromlarning dastlabkisi qadimgi podshohlik davrida Sakkara shahrida fir’avn Joser tomonidan bunyod etiladi. Uning arxitektori sifatida Imxoteb tilga olinadi. Eng mashhur ehrom Xufu (Xeops)ga tegishli bo‘lib, balandligi 146 metrni tashkil etadi. Unda og‘irligi 2,5 tonnali 2 milliondan ortiq tosh bo‘laklari ishlatilgan. Shuningdek, Giza shahridagi Xafra (Xefren), Menkaura (Mikerin) ehromlari ham juda mashhur sanalgan. V sulola davridan boshlab, ehromlar ichidagi bino devorlariga iyerogliflarda “ehrom matnlari” bitila boshlangan. Shu bilan birga, Karnak va Luksordagi ulkan ibodatxonalar kishilar e’tiborini tortadi.

Amarnadagi saroylar xarobalari qadimda Misr fir’avnlarning qudratidan dalolat beradi. Misr fir’avnlari ko‘kka bo‘y cho‘zgan baland monolit (yaxlit tosh) yodgorliklarni ham toshdan yasatganlar. Misr arxitektorlari oddiy mehnat qurollar yordamida toshdan ulug‘vor binolarni qurganlar. Ular orasida Tutanxamon maqbarasi 1922 yilda Luksor shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Shohlar vodiysida topilgan. Topilma XX asr qadimgi dunyo tarixi fanida katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi, chunki fir’avn Tutanxamon maqbarasi o‘g‘irlanmagan, o‘zining dastlabki ko‘rinishida topilgan shoh dahmalari ichida yakka-yu yagona hisoblanadi. Undagi qimmatbaho narsalar shu qadar ko‘p ediki, ularni o‘rganib va tavsiflab, Misr muzeyiga eltish uchun rosa besh yil ketdi.



Karnak ibodatxonasi xarobalari

Muzeyda uchta tobut qo'yilgan, ulardan birining og'irligi 110 kilogramm bo'lib, sof oltindan quyilgan. Yosh Tutanxamonning oltin niqobi endilikda butun dunyoga mashhur. U 18 yoshida vafot etgan bu yosh fir'avnning chehrasini ishonchli tarzda qayta gavdalantiradi. Yana bir bebaho buyum – Tutanxamonning qimmatbaho javohirot bilan bezatilgan oltin taxtidir. Dastalari ilon shaklida ishlangan, o'rindiqning har ikki biqinida arslon boshlari o'rnatilgan. Taxt suyanchig'ida o'zining sevimli xotini bilan fir'avnning o'zi tasvirlangan. Shuningdek, Luksor atrofida ham qator ibodatxonalar hozirga qadar saqlanib qolgan. Luksordan 67 km uzoqlikda Dender shahridagi Xatxor xudosiga bag'ishlangan ibodatxona, undan shimolroqda fir'avn Seti I tomonidan Osiris sharafiga bunyod etilgan ibodatxona yoki Esna shaharchasida xudo Xnum sharafiga barpo etilgan ibodatxona (Qadimgi Misr afsonalarida ushbu xudo kulolchilik charxida dunyo va odamlarni yaratgan deb, hisoblaydilar) shular jumlasidandir.

Haykaltaroshlik Qadimgi Misrda san'at darajasiga ko'tarilib, haykallar asosan ohaktosh va granitdan yasalgan. Ilohlar va fir'avnlr tasviriga alohida e'tibor berilgan. Qadimgi Misr xudolari va fir'avnlarning ulkan tosh haykallari aholi ko'rishi uchun tashqariga joylashtirilgan. Misol uchun fir'avnlr Amenemxet III, Tutmos III, Amenxotep IV, Tutanaxamon, Ramzes II va boshqalarning ulug'vor haykallari e'tiborga loyiqdir. Haykaltaroshlik san'ati Misrda qadimgi podsholik davridayoq yuksak darajada bo'lgan. Qimmatbaho diorit toshidan yasalgan va hozirgi kunda Qohira muzeyida saqlanayotgan Xafraning bosh haykali dunyodagi eng nodir asarlaridan biridir. Bu asarda fir'avnning boshi bilan yelkasi tasvirlangan. Uning yasama sochi, orqasidagi homiysi xudo lochin Xoryusning qanotlari orasiga yashiringan. Portretida birorta keraksiz egri, ortiqcha chiziq larni topish qiyin. U yuksak darajada mahorat bilan ishlangan. Bu darhaqiqat, qudratli siymodir. Savlatli yelkalar haqiqatan ham shohlarga xos buyuklikni sezdirib turadi. U ham shoh, ham xudo hisoblangan. Qadimgi podsholik davridagi haykallarning ko'pchiligi shunga o'xshash sifatga ega bo'lgan. Keyingi sulolalar davrida san'at ko'proq vatanparvarlik yo'nalishida bo'lgani bilan u hech qachon qadimgi podsholik davridagi singari ta'sirchanlik darajasiga ko'tarilgan emas. Haykaltaroshlikda sfinks lar ham alohida o'rin tutadi. Dastlabki sfinks qadimgi sulola vaqtida tayyorlangan. U yerda yotgan sherni aks ettiruvchi qoya bo'lgan. Eng mashhur sfinksni yuz qiyofasini keyinchalik Napoleon Bonapart askarlari uning Misr yurishlari davrida vaqtichog'lik uchun o'qlar otib buzishga harakat qilishgan. Keyinchalik sfinks lar ibodatxonalar oldida ko'plab barpo etiladi.

Qadimgi misrliklar turli xil ilohlarga sig'inganlar. Ularning dinida ko'p xudolik alohida ahamiyatga ega edi. Masalan: Ptax ilohi yaratuvchi timsolida gavdalangan, unga Yuqori va Quyi Misrda ham ibodat qilganlar. Ra – quyosh hudosi, Osiris-hosildorlik va marhumlar dunyosida sudyalik qiluvchi xudo, Isida -onalik ilohasi, Set -urush va o'lim xudosi, Anubis -marhumlar xudosi, Tot -donolik va oy xudosi, Xor -tog'lar va osmon xudosi, Bastet -go'zallik va hursandchilik ilohasi, Maat -adolat va haqiqat ilohasi, Montu -urush xudosi, Sebek -daryolar va ko'llar xudosi, Seshat -yozuv, hisob-kitob va xotira ilohasi, Xapi -Nil xudosi va boshqalar. Umumiy hisob bilan Qadimgi Misr tarixida mingga yaqin xudolar bo'lgan. Qadimgi Misrda o'z xudolarini yarim inson va yarim hayvon qiyofasida tasvirlaganlar va

inson o'limidan keyin uning boqiy ruhi mavjud deb hisoblaganlar. Fir'avnlarni ko'mishdan oldin uning tanasi kohinlar tomonidan mumiyolangan. Bu jarayon 70 kun davom etgan. Mumiyolash orqali fir'avn tanasini saqlab, tosh tobut "sarkofag"ga qo'yishgan. Qadimgi misrliklarning tasavvurida har-bir inson "Ka" deb nomlangan ilohiy quvvatga ega bo'lib, o'limidan keyin ushbu quvvat yashashni davom ettirishiga ishonganlar.

Qadimgi Misrda ilm-fan sohasida, ayniqsa, geografiya, geometriya, matematika, astronomiya, tibbiyot yaxshi rivojlangan edi. Masalan, Geliopol va keyinchalik Sais shaharlarida kohin tabiblarni tayyorlaydigan ta'lim dargohlari bor edi. Ular bemorlarni davolashda hatto jarrohlik amaliyotidan ham foydalanishni bilganlar. Chunki, misrlik kohin tabiblar mumiyolash jarayonini yaxshi bilgani uchun, inson a'zolarining ichki tuzilishidan xabardor bo'lganlar. Shu bilan birga, shifobaxsh o'simliklar yordamida odamlarni davolay olganlar. Yillar davomida Imxotepni hunarmandlar homiysi ma'bud Ptax va ma'buda Sekxmetning farzandi sifatida ardoqlab keldilar va Ptolemeylar davrigacha unga sig'indilar. Ilohiylashtirilgan Imxotep sharafiga Karnak va Sakkarda ehromlar bunyod etildi. Sakkardagi ehrom Asklepeyon, kasalxona deb atalar edi, bu yerda Imxotep bemorlarni davolardi. Aynan Imxotep sharafiga keyinchalik yunonlarda tabiblik ma'budi Asklepiy, rim mifologiyasida esa, ma'bud Eskulap paydo bo'ldi.

Yuz yildan ortiq umr ko'rib, Imxotep yorug' olanni tark etadi. Uning shogirdlari o'z ustozlarini tangri tiriklay osmonga olib chiqib ketganiga ishonar edilar, zero u mo'jizaviy tarzda g'oyib bo'lgan va uning jasadi qayerda ekanini hech kim bilmas edi. Bu rivoyat hali-hamon yashab kelmoqda.

Qadimgi misrliklar quyosh kalendarini kashf etib, astronomiya faniga ulkan hissa qo'shganlar. Unga ko'ra, bir yil uch faslga bo'linib, har bir fasl 4 oydan iborat bo'lgan. Bir oy esa, 30 kunni tashkil qilib, u dekadaga (10 kunlik) bo'lingan. Shunda bir yil 36 dekadani tashkil qilgan. Qolgan besh kun bayram sifatida nishonlangan. Demak, qadimgi misrliklar hisobi bo'yicha bir yil jami 365 kundan iborat bo'lgan. Astronomiya bilan asosan kohinlar shug'ullanganlar. Ularning hisobiga ko'ra, bir sutka 24 soatni tashkil qilgan. Astronomlarni kuzatuviga muvofiq, erta tongda Nil toshqinlarini yuz berishi yaqinlab turuvchi Sirius yulduzining paydo bo'lishi bilan

to'g'ri kelgan. Bu jarayon yillar davomida kuzatilganiga qaramay, misrliklar o'z taqvimlariga o'zgartishlar kiritishmagan. Chunki, ularning taqvimida kabisa yili bo'lmagan. Shuning uchun har to'rt yilda Sirius yulduzini paydo bo'lishi yangi kirib kelgan yil bilan bir kunga farqlangan. 120 yil o'tib, bu xato bir oyni tashkil etgan. Ushbu xatoni bartaraf etish loyihalari bo'lishiga qaramay, unga o'zgartirish kiritilmagan.



Abu Simbel (hozirgi ko'inishi)

Vaqt o'lchovida misrliklar kunduzi quyoshni soyasiga qarab soatni aniqlashgan. Tunda esa, vaqtni aniqlash uchun suv soatlardan foydalanganlar. Shuningdek, xo'jalik ishlarida qum soatlari ham keng qo'llanilgan. Davlat boshqaruvida ish yuritish hamda xo'jalikni rivojlanishi matematika fani taraqqiyotiga turtki beradi. Ular ehromlarning umumiy uzunligi, yuzasi va aylanasini hisoblashni bilganlar. Ijtimoiy fanlar orasida tarix fani o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Qadimgi davrdan boshlab Misrda podsholar dinastiyasi va muhim tarixiy voqealar yozib borilgan. Umuman Qadimgi Misr madaniyati, insoniyat sivilizatsiyasini rivojlanishida muhim o'rin tutgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Misr-giksos urushi. Fir'avnlar Kamos va Yaxmos faoliyati haqida ma'lumot bering ?
2. Misr-Xett munosabatlaridagi o'zgarishlar tizimini yoritib o'ting ?
3. Yangi Misr podsholigining Yaqin Sharqdagi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering ?
4. Fir'avn Ramzes II ning tashqi siyosatini izohlang ?
5. Qadimgi Misr tarixida koinlar tabaqasining o'rni va ahamiyatini izohlang.
6. Yangi Misr podsholigi xo'jaligidagi o'zgarishlarni O'rta podsholik davri iqtisodiyoti bilan taqqoslang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М.: Эксмо, 2004.
4. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – T. Fan va texnologiya, 2009.
5. S. W. Bauer-The History of the Ancient World__ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.
6. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
7. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.
8. I.Shaw.The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.
9. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka. "World history: patterns of interaction". Oxford University Press. England 1994.
- 10.David, A. Rosalie. Religion and Magic in Ancient Egypt. New York: Penguin Books, 2002.
- 11.Assmann, Jan. The Mind of Egypt: History and Meaning in the Time of the Pharaohs. Trans. Andrew Jenkins. New York: Henry Holt and Company, 2002.

QADIMGI IKKI DARYO ORALIG'I

5-mavzu. Qadimgi Mesopotamiya

Reja:

1. Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasining yuzaga kelishi
2. Shumer shahar davlatlari
3. Akkad davlatining yuksalishi

Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasining yuzaga kelishi.

Mesopotamiya (qadimda yunoncha “Ikki daryo oralig’i”) geografik jihatdan janubda Fors qo’ltig’i, g’arbda Arabiston, shimolda Suriya va Armaniston hamda sharqda Zagros tog’lari bilan chegaralangan. Iqlimi sug’orma dehqonchilikka qulay hisoblanadi. Bu yerda unumdor tekisliklar ko’p bo’lgan. Shu bilan bir qatorda bog’dorchilikka ham qulay hudud bo’lganligi tarixdan ma’lum.


Mil. avv. VI ming yilliklarda Dajla va Frot daryolarining vodiylariga aholi ko’chib kela boshlaydi. Tell-al-Ubeyd madaniyatini yaratgan xalq aynan ushbu davrda, Janubiy Mesopotamiyada istiqomat qilgan. G’arb olimlarini fikricha, bu yerning odamlari (subariylar) qadimda protodajla tilida (yoki “banan tilida”) so’zlashganlar. Tog’li hududlarda termachilik, chorvachilik va keyinchalik ziroatchilik unsurlari paydo bo’la boshladi.

Mil. avv. VI ming yillik o’rtalariga kelib, Mesopotamiyada qadimiy Tel-Xassuna madaniyati taraqqiy etadi. Bu yerdan o’roqlar, tosh boltalar, tosh tegirmonlar, sopol qoldiqlari va xonakilashtirilgan hayvonlar suyaklari topib o’rganilgan. Shu bilan birga, sig’inish tumori hisoblangan ayollar haykalchalari arxeologlar tomonidan topilgan. Qabrlarda mayit oldiga sopol idishlarda ovqat qo’yib dafn etish odatini mavjudligi, qadimda Tel-Xassuna aholisi orasida diniy tasavvurlar bo’lganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. IV ming yillik oxirida Jamdat-Nasr (yoki Uruk III) madaniyati davrida toshdan tashqari mis va bronza mehnat qurollari ishlatila boshlandi. Jamdat-Nasr Janubiy Mesopotamiyaning ilk bronza davriga oid manzilgohi hisoblanadi. Dastlab ushbu manzilgoh 1926 va 1928-yillarda mashhur olimlar Stiven Lengdon hamda Genri Fildlar tomonidan o’rganilgan. 1988-1989-yillarda esa Rodjer Metyus

tomonidan qayta tadqiq etiladi. Jamdat-Nasr, Qadimgi Shumerda ilk sulolaviy davrga o'tishning so'nggi bosqichi hisoblanadi.

Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiya janubida shumerlar, Dajla va Frot (qadimda akkadcha "pu-rat-tu") daryolarining o'rtasida akkad qabilalari, shimolda asosan xurritlar istiqomat qilganlar. Mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmida Mesopotamiya janubida mulkiy tabaqalanishni o'sishi bilan qator shahar-davlatlar: Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Kish, Nippur, Umma, Shuruppak, Adab, Girsu va boshqalar paydo bo'ladi. Shimolda esa, yirik shahar-davlatlar: Ashshur, Mari, Nineviya, Eshnunna, Tutub, Sippar va boshqalar yuzaga keladi. Sug'orma dehqonchilikka mos hududlarda hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanadi. Mis va bronzadan mehnat qurollarini quyishning yangi usullari o'zlashtiriladi. Qimmatbaho metallardan chiroyli zargarlik buyumlari ham yasalgan. Savdo-sotiqning o'sib borishi, uni hunarmandchilikdan ajralib chiqish jarayonini tezlashtiradi. Qadimgi Mesopotamiyada maxsus savdogarlar-tamkarlar tabaqasi paydo bo'ladi. Bu esa, Shumer shahar-davlatlarining o'sish tezligini oshiradi.



Frot va Dajla daryolarining janubiy qirg'oqlaridagi irrigatsiya tizimini kengayishi, aholi orasida mulkiy tabaqalanishning o'sib **Shuruppak sopol taxtchasi** borayotganligidan dalolat berar edi. Tez orada yerni sotish va sotib olish tushunchasi yuzaga keladi. Qulchilik munosabatlari paydo bo'lib, rivojlanib

boradi. O'zaro urushlar qulchilikning asosiy omili edi. Qadimgi Mesopotamiyada qullardan xo'jalikda, chorvachilik va hunarmandchilikda keng foydalanilgan. Asosan qo'l mehnati uy xo'jaligida ishlatilganligi manbalarda ta'kidlanadi.

Qadimgi Shumerning ilk sulolaviy tarixi xronologik jihatdan uch davrga (garchi munozarali bo'lsada) bo'lib o'rganiladi:

I-ilk sulolaviy davr (mil. avv. 2750-2615-yy.)

II-ilk sulolaviy davr (mil. avv. 2615-2500-yy.)

III-ilk sulolaviy davr (mil. avv. 2500-2315-yy.)


Yuqorida ta'kidlanganidek, Shumer sivilizatsiyasiga aloqador jamiyatda xo'jalikning turli xil shakllari o'sha davr uchun mos

bo'lgan qonunlar asosida rivojlanib borgan. Iqtisodiyoti sug'orma dehqonchilikka asoslangan patriarxal jamiyatda qulchilik tizimini qaror topishi uchun barcha sharoitlar mavjud edi. Qadimda Shumer jamiyatida, yeri bo'lmagan yoki yeridan mahrum bo'lgan, boshqa joylardan kelgan kambag'al oilalar, ibodatxonalariga qaram bo'lgan odamlar ham bor edi. Qaram kishilar ibodatxonalariga tegishli yerda va alohida xususiy xo'jaliklarda ishlaganlar. Qadimgi Shumer shahar-davlatlarining hukmron qatlami quldorlar bo'lgan. Ularga urug' zodagonlari, kohinlar, davlat amaldorlari kirgan. Ziroatkorlar qatlamini unchalik katta bo'lmagan yer ulushiga ega oilalar va katta patriarxal oilalarga birlashgan jamoachilar tashkil qilgan. Asosan ziroatkorlik va chorvachilik uchun ajratilgan yer egaligi esa, ikki qismga bo'linib, jamoa va ibodatxonaga tegishli mulklardan iborat bo'lgan.

Qadimgi Shumerda, shahar-davlatlarning hokimlari-"ensi" ibodatxona kohinlaridan bo'lgan. Ibodatxonalar, shumerliklar ilohlarining mulki hisoblangan bo'lib, kohinlar unga tegishli yerlarni idora qilganlar. Ayrim yerlar ijaraga berilgan bo'lsa, qolgani qaram kishilarga, ibodatxonadagi xizmatchilar va bu yerga tegishli savdogar-hunarmandlarga foydalanish uchun bo'lib berilgan. Ibodatxonalar o'z mulklarini himoya qilish niyatida harbiy bo'linmalar ham tuzganlar. Bunday yerlardan tushadigan yirik mablag'lar diniy marosimlar va bayramlarni tashkil qilishga hamda boshqa Shumer shahar-davlatlari bilan mahsulot ayirboshlashga yo'naltirilgan. Hosilning ma'lum bir qismi zaxira qilib olib qo'yilgan. Ibodatxona yerlaridan tushadigan daromad doimiy hisoblab borilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shahar ustidan nazorat "En" (janob) oliy kohin tomonidan amalga oshirilgan. Uning hokimiyati oqsoqollar kengashi yoki xalq yig'ini bilan cheklangan. Ayrim hollarda u shahar-davlatning qo'shiniga ham boshchilik qilgan. Shahar "Eni" ning asosiy vakolati kohinlik, ibodatxona yerlari va ma'muriyatini idora qilish, ibodatxona va shaharda yirik qurilishlarni tashkil etishdan iborat bo'lgan. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi uchun irrigatsiya tizimini bunyod qilish va shahar iqtisodiyotini tartibga solish ishlari bilan ham shug'ullanar edi. So'ngra, mil avv. III ming yillik o'rtalarida "En" unvoni o'rniga "Ensi" ("kohin-quruvchi" shahar boshqaruvchisi) paydo bo'ladi. Shahar-davlat "ensi"si jamoa va ibodatxona mulklarini boshqargan, soliqlar yig'imini nazorat

qilgan. Ayrim hollarda ibodatxonalarga tegishli askarlarga boshchilik qilgan.



Qadimgi Shumerda shaxsni tasdiqlovchi hujjat

Bundan tashqari “Lugal”(“ulug’ odam”, yoki “katta odam”, akkadcha “sharru”) lavozimi ham mavjud edi. Dastlab xalq yig’ini tomonidan Shumer shahar-davlatlarida saylab qo’yiladigan harbiy sardorlik lavozimi bo’lgan. Uni faqatgina favqulodda holatlarda vaqtinchalik saylab qo’yishgan.

Keyinchalik “Lugal” lik umrbod, so’ngra meros tarzida o’ta boshlagan. Aholi orasida tabaqalanishni o’sishi oqibatida shahar-davlatlarda xalq yig’inining mavqei sezilarli darajada tusha boshlaydi. Hukmdorning iqtisodiy-siyosiy obro’yi esa o’sib boradi. Armiya lugallarga xizmat qiladi.

Shumer shahar davlatlari. Qadimgi Shumer shahar-davlatlari daryo bo’yidagi unchalik katta bo’lmagan sug’oriladigan yerlarda joylashgan edi. Uning atrofida shaharga tegishli qishloqlar bo’lgan. Shahar-davlatlar bir-biridan uzoq joylashmagan bo’lib, ular orasida doimiy savdo va madaniy aloqalar mavjud edi. G’arb olimlarining fikricha, Qadimgi Shumerning eng qadimgi shahri Eredu hisoblangan.


Shunday bo’lsa-da, “buyuk to’fondan keyin” Kish shahri Shumerda gegemonlikni qo’lga kiritadi. Ikki daryo oralig’ida Kishning ilk podshosi sifatida afsonaviy Gaur ismli shaxs tilga olinadi. So’ngra, taxtga Gulla-Nidaba-Annapad kelishi manbalarda ta’kidlanadi. Ularning hukmronligi davri borasida hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlar mavjud. Ayniqsa, I Kish sulolasining o’n uchinchi podshosi Etana davrida Kish shahri yuksaladi. Shumerda siyosiy barqarorlik yuzaga keladi. Rivoyatlarga

ko'ra, hukmdor Etana, xudolar oldiga "tug'ilish maysasi"ni olish va merosxo'r voris tilab osmonga ko'tarilganligi ta'kidlanadi. Qadimgi Mesopotamiyada "Kish lugali" unvoni uzoq vaqt katta obro'ga ega bo'lgan. Keyinchalik bu maqom, Shumer shahar-davlatlarida taxtga da'vogar podshoning hokimiyatni qonuniylashtirish timsoliga aylanib qolgan.

Kishning zaiflashuvi Urukning yuksalishi bilan boshlangan. Mil. avv. 2675-yillar atrofida Kish shahrini lugali Aggi (yoki Agga) Uruk shahrining eni Gilgameshga urukliklar bilan irrigatsiya ishlarida qatnashishni talab qiladi. Gilgamesh esa, Kish lugaliga rad javobini beradi. Shundan so'ng, Aggi Urukni o'z qo'shini bilan qamal qiladi. Ammo, tez orada mag'lubiyatga uchraydi. Gilgamesh Kish ustidan g'alabaga erishadi. So'ngra, Shumer yerlarini birlashtiradi va uning shaxsi ilohiylashtiriladi. Urukning I-sulolasi vakillari Urnungal, Utulkalama, Labashum, Ennuntaraxana (hukmronlik yillari hozirga qadar munozarali) va boshqa podsholar davrida Uruk Shumerda gegemonlikni saqlab turdi.

Keyinchalik Ur shahar-davlati Janubiy Mesopotamiyada ustunlikni qo'lga kiritdi va Urning I-sulolasi podsholari gegemonligi boshlanadi. Mil. avv. 2563-yili Ur shahrida taxtga lugal Mesanepada chiqadi. U "Kish lugali" unvoniga ham ega bo'lib, butun Shumerda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Ur shahar-davlati o'z rivojlanishining yuqori cho'qqisiga yetadi. Bu yerda lugallar uchun hashamatli binolar quriladi. Keyinchalik siyosiy qarama-qarshiliklar kuchayishi natijasida Ur shahar-davlati zaiflashib, Lagash shahri ustunlikka erishadi. Lagashning Shumerda gegemonlik uchun kurashida, asosiy dushmani Umma shahri edi. Mil. avv. 2450-yilda Eanatum, Lagash shahrining lugali unvoniga sazovor bo'ladi. So'ngra, Umma shahar-davlati eni Ushni jangda yengadi. Ummaliklar, Lagashda ehtiromli hisoblangan Ningisu va Nanshe (baliqchilik ilohasi) xudolari ibodatxonasi foydasiga, bug'doy bilan o'lpon to'laydigan bo'ldilar. U deyarli barcha Shumer shaharlarini (Nippurdan tashqari) bo'ysundirib, mamlakatni elamliklar bosqinidan asrab qoladi. Vaqt o'tib, Lagash podsholari Enannatum I, Entemena, Enannatum II, Enentarzi, Lugalanda va boshqalar davrida Lagash shahar-davlati Shumerda ustunlikni saqlab turadi. Mil. avv. 2319-yilda Lagashda Urukagina (yoki Uruinimgin) hokimiyatga keladi.

Yangi hukmdor ijtimoiy qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun islohotlar yo'lini tanlaydi. Ibadatxonalarning oliy kohinlari soliqlardan ozod qilinadi. Lugal Urukagina (mashhur tarixchi I.M.Dyakonovning fikricha) zodagonlar va kohinlar tabaqasi vakili sifatida, davlat amaldorlarining ibodatxona yerlarini nazorat qilishiga qarshi kurashadi. Ibadatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot to'lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Soliqlar tartibga solinib, bevalar va yetimlar davlat himoyasiga olinadi. Soliq yig'uvchilar va mansabdor shaxslar sonini kamaytiradi. Jamoalarning o'z-o'zini boshqarish tizimi tiklandi. Lekin ichki nizolar Lagashni kuchsizlantiradi.



Ur shahrining qayta tiklangan maketi

Bu orada podsho Lugalzagisi (mil. avv. 2336-2311-yy) boshchiligida Umma va Uruk shahar-davlatlari birlashadi. So'ngra, Lugalzagisi Lagashni bosib olib, Shumerda uzoq vaqt gegemonlik qiladi. Umma shahar-davlati nazoratidagi hudud O'rtayer dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar kengayadi.

Akkad davlatining yuksalishi. Sargon I (mil. avv. 2316-2261-yy) o'zini Akkadda "Sharrum-ken" (asl podsho) deb e'lon qiladi. Podsho bo'lguniga qadar oddiy suv tashuvchining tutingan o'g'li (asl otasi haqida ma'lumot yo'q) bo'lib, o'zi esa, bog'bon bo'lgan edi. So'ngra, Kish lugali Ur-Zababaning xizmatkori (sharob quyuvchisi) bo'lgan. Lugalzagisi Kishni egallagach, shimolroqda Akkadi shahriga

ketadi va kichik shahar-davlatni qudratini oshiradi. Tarixda birinchi marta Sargon I taxminan 5400 askardan iborat yaxshi qurollangan muntazam qo'shin tuzadi. Askarlari podsho hisobidan ta'minlanar edi. U Shumer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi. Umma hokimi Lugalzagisi u bilan uzoq urush olib bordi. Ammo, Sargon I kuchli qo'shin bilan Shumer shaharlarini birin-ketin istilo qiladi. Lugalzagisi esa qatl etiladi va Uruk mudofaa devorlari buziladi. Keyinchalik podsho Sargon I shaxsi afsonalarda ilohiylashtirish darajasigacha ulug'langan edi.

Yangi hukmdor "Kish lugali" maqomiga ham sazovor bo'ldi. Sargon I podsholigi davrida butun Mesopotamiyani o'z davlati qo'l ostiga birlashtiradi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto, uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qildi. Akkad qadimgi dunyoning eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi.

Sargon I davlati Mesopotamiyadagi shahar-davlatlardan farq qilgan holda markazlashgan hududiy davlat edi. Sargon I va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, savdo-sotiq, sun'iy sug'orishga asoslangan ziroatchilik rivojlanadi. Uning yakka hokimlikka (yoki tiraniyaga) asoslangan hokimiyati zodagonlar va oqsoqollar kengashining qarshiligiga olib keldi. U o'z hokimiyatini kuchaytirish uchun xizmatidagi zodagonlar, amaldorlar va ayrim hollarda kohinlarga tayanib ish ko'rdi. Sargon I Akkad shahri homiy xudosi Aba va Kish shahri ilohi Zababalarni ulug'ladi. Shu bilan birga, Nippurdagi Shumerning umumiy xudosi Enlilga ham hurmat bajo keltirdi. Hukmdor ayrim shaharlarning hokimlarini o'zi tayinlar edi. Sargon I tashkil etilgan muntazam qo'shinga doimiy ravishda g'amxo'rlik qiladi. Jangchilarga harbiy xizmatiga qarab yer ajratib beradi. Podsho Sargon I tashkil qilgan davlatda hokimiyat to'la monarxga tegishli bo'lib, keyin uning merosxo'rlariga o'tishi kerak edi. Shumer shahar-davlatlarining hududi Sargon I davlatining viloyatlari bo'lib qoldi. Ularning tepasida turgan ensi yoki lugal podsho noiblari hisoblanar edi. Ibodatxona xo'jaligi va mulklari esa podsho davlat xo'jaligining bir qismi edi. Sargonning qo'lida katta miqdorda iqtisodiy kuch to'planib, uning yordamida ichki isyonlar va faol tashqi siyosat yuritish uchun harbiy qismlarni saqlab turish mumkin bo'ldi.

Podsholar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun merosxo'r "ensi"larni o'z o'g'illari bilan almashtirdilar. Merosxo'r

hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirildi. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suyandi. Kohinlarga ko'plab imtiyozlar berildi. Podsho va uning o'g'illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Sargon davrida yangi kanallar qurildi. Sug'orish inshootlari umumdavlat miqyosida rivojlantirildi. Yagona og'irlik o'lchov birliklari joriy qilindi. Akkad Hindiston va Sharqiy Arabiston bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Sargon I hukmronligining so'nggi yillarida mamlakatda boshlangan ochlik katta g'alayonlarga olib keldi.

Podsho Sargon I vafotidan so'ng, vorisi Rimush (mil. avv. 2261-2252yy.) hokimiyatga keladi. Hukmronligining dastlabki yillarida otasidan meros bo'lib qolgan deyarli barcha davlatlar unga qarshi isyon ko'taradi. Qo'zg'olonning boshida Ur hokimi Kaku turadi. Shu bilan birga, Umma shahri ham isyonchi Kaku tomoniga o'tib ketadi. Ammo, Rimush ularga qarshi qo'shin tortib boradi va jangda g'alaba qozonadi. Minglab qo'zg'olonchilar asir olinadi. So'ngra, podsho Rimush Fors qo'ltig'iga harbiy yurishni amalga oshiradi. U yerda ham isyonlar bostiriladi. Qo'zg'olonlarga chek qo'yish yo'lidagi Rimushning keyingi yurishlarida, isyonchi shaharlar Umma va Darning 13 mingga yaqin aholisi qirib tashlanadi.

Rimush ichki siyosatda kohinlarga tayanishga harakat qilib, ularga ko'p hadyalar qiladi. Elamga bir-necha talonchilik yurishlarni amalga oshiradi. Ammo, Rimush o'z yaqinlarining fitnasi (podsho oldiga qurol bilan kirib bo'lmasligi tufayli uni zodagonlar, tosh muhrlari bilan urib o'ldirganlar) qurboni bo'ladi.

Uning ukasi yangi podsho Manishtusu (mil. avv. 2252-2237-yy) bir nechta isyon va qo'zg'olonlarni bostirishga majbur bo'ladi. U Elamga ikki marta bostirib kirdi va u yerni talon-taroj qiladi. Fors qo'ltig'ining sharqiy qirg'og'i tomon dengiz orqali yurish ham uyushtiradi. U podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun jamoa yerlarini sotib ola boshlaydi, natijada davlat hisobidagi yerlarini kengaytirib oladi. Podsho Manishtushu ham navbatdagi saroy fitnasi natijasida o'ldiriladi. Taxtga uning o'g'li, Sargon I ning nabirasi Naram-Suen (mil. avv. 2237-2200-yy) o'tiradi. U hukmronligining dastlabki yillarida quyi Mesopotamiyaga qo'zg'olonlarni bostirish uchun yurish qilishga majbur bo'ladi. Naram-Suen ham podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, ayirmachi "ensi"lar, urug' zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib boradi. Shu orada Akkadning yuksalishidan norozi bo'lgan janubdagi shahar-


davlatlar qo'zg'olon ko'taradi. Shunday bo'lsada, isyonlar shafqatsizlik va katta qiyinchilik bilan bostiriladi.

Podsho Naram-Suen davrida Akkadning yuksalishi kuzatiladi. Mesopotamiya shaharlari to'la Sargon I sulolasi hukmi ostiga o'tgach, Naram-Suen o'zini "Akkadning qudratli xudosi" deb ulug'lab, toshga o'yib yozilgan tasvirlarda (hozirda "Naram-Suen g'alaba stellasi" nomi bilan Parijning Luvr muzeyida saqlanadi) ilohiylik ramzi bo'lgan shohli bosh kiyim bilan tasvirlanadi. Aholi unga iloh sifatida sajda qilishi kerak bo'lgan. Uni yana "to'rt iqlim podshosi" va "Olam podshosi" deb ham yuksaklarga ko'tarishgan. Shunday bo'lsada, Akkad davlati, Elamni butunlay o'z nazoratida tutib tura olmadi. Naram-Suen hukmronligini so'nggi yillarida Zagros tog'lari tomonidan, Akkad yerlariga ko'chmanchi gutey qabilalalarining dastlabki to'liqini kirib keladi.

Naram-Suendan so'ng, taxtga Sharkalisharri (mil. avv. 2200-2176-yy) o'tiradi. Uning davrida Mesopotamiyaga g'arbdan, kelib chiqishi somiyalardan bo'lgan amoriylar va shimoli-sharqdan esa guteylar xavf sola boshladi. Ammo, hududlarni nazorat qilish muammo edi. Shu bilan birga, doimiy bosqinchilik yurishlari va ichki nizolar, mamlakat iqtisodiyotini inqiroz yoqasiga olib keladi. Akkad davlati kuchsizlanadi va tashqi dushmanga qarshilik qila olmay qoladi. Mesopotamiyadagi Akkad davlati qudratiga Zagros tog'laridan bostirib kirgan tog'li qabilalardan bo'lgan guteylar chek qo'yadi. Mamlakat guteylar tomonidan talon-taroj qilinadi.


Shumer shahar-davlatlari aristokratiyasi ularga o'lpon to'ladilar. Lagash hokimlari guteylar yordamiga tayanib, boshqa shaharlar ustidan ma'lum darajada hukmronlik qildilar. Janubiy Mesopotamiyada Lagashning zo'ravonligi boshqa shahar-davlatlarning noroziligiga uchradi va guteylardan ozod bo'lish vaqtida qo'shni shahar-davlatlar tomonidan Lagash vayron qilinadi.

Guteylar davrida Lagash hokimi bo'lgan Gudea (mil. avv. 2137-2117-yy) o'zining yozuvlari va haykallari bilan mashhur bo'lgan. Uning davrida Ningirsu xudosi ibodatxonasi atrofida yagona ibodatxona xo'jaligi tashkil etilgan edi. Gudea ushbu xudo uchun olinadigan maxsus soliq joriy qiladi va qurilish majburiyatini kiritadi. Podsho Gudea Hind daryosi havzasi viloyatlari bilan savdo qiladi va elamliliklar bilan urush olib boradi.



Guteylar Mesopotamiyada taxminan yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Mil. avv. 2109-yilda guteylar Ur podshosi Utuxengal

tomonidan tor-mor qilinadi. Guteylar hukmdori Tirikan mag'lub etilganidan so'ng, Mesopotamiya Utuxengal boshchiligida birlashtiriladi. Shu bilan birga, u "to'rt iqlim podshosi" unvonini ham qabul qiladi. Shumer va Akkad yerlari yana birlashtiriladi. Ammo, Utuxengal irrigatsiya ishlarini nazorat qilayotganda baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi. So'ngra, Utuxengalning tarafdori Ur-Nammu (mil. avv. 2112-2094-yy) taxtga chiqadi va mamlakatda III-Ur sulolasi hukmronligi boshlanadi. Ur shahri poytaxtga aylanadi hamda guteylar davrida vayron qilingan mudofaa devorlari qayta tiklanadi. Ur-Nammu islohotlar o'tkazib, 57 ta moddadan iborat qonunlarni tuzadi. Ur shahrida ulkan zikkurat qurishni boshlaydi, lekin bitkazishga ulgurmaydi. Keyinchalik guteylar bilan jangda halok bo'ladi. Uning o'g'li Shulgi (mil. avv. 2094-2046-yy) davrida balandligi 10 metrga teng Urdagi zikkurat qurilishi bitkazilib, yangi qonunlar kiritiladi.




Urdagi Zikkurat

Hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yo'lga qo'yiladi. Iqtisodiyotda davlatning o'rni oshadi. Yirik chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklari tashkil qilinadi. Mesopotamiyada ishdan chiqqan sun'iy sug'orish tizimi to'liq qayta tiklanib, yangi to'g'on va kanallar quriladi. Mamlakatdagi asosiy yer zaxirasi podshohniki hisoblangan. Armiyada ham islohotlar o'tkazishga muvaffaq bo'ladi. Podsho Shulgi ibodatxonalar va davlat xo'jaliklariga tegishli yerlarni markazlashtiradi. So'ngra, ular ustidan davlat nazoratini o'rnatadi. Podsho Shulgi davrida Shumerda cho'ri

ayollarning xo'jalikdagi mehnatidan unumli foydalanishgan. Ularni "Ngeme" deb atashgan bo'lsa, qullardan farq qilmaydigan "gurushi" kabi aholi qatlami ham mavjud edi.

Podsho Shulgi, jamoa yerlarida ishlaydigan aholini qashshoqlashuv jarayonini sekinlashtirish uchun bunday yerlarni sotish va sotib olishni bekor qiladi. Ammo, oddiy xalqning yersiz qolishi kuchayib boradi. Kambag'al aholini o'z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun bir oz vaqt o'z ozodligini yo'qotib qulga aylanishi kabi holatlar ko'p uchraydigan bo'lib qoladi. Mamlakatda qullar soni oshib boradi. Ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketadi.

Tashqi siyosatda Shulgi, Elamning katta qismini bosib, u yerga shumerliklarni noib qilib tayinlaydi. Shimolda Ashshur shahrini o'ziga bo'ysundiradi. Lulubey qabilalari bilan ham urush olib boradi.



Ur shahridan topilgan o'yin taxtasi (Britaniya muzeyi, London)

Shu payt Mesopotamiyaga g'arbdan somiy tilli "amoriy" qabilalari kirib kela boshlaydi. Ular shimolda Frot daryosi bo'yidagi Mari shahrini bosib oladilar.

Mil. avv. 2046-yilda podsho Shulgining vafotidan so'ng, taxtga uning o'g'li Amar-Suen (yoki Amar-Sin) keladi. Mamlakat armiyasiga elamliliklar va amoriylardan iborat yollanma askarlar olina boshlaydi. O'ziga qaram shaharlardagi isyonlar bostiriladi. Ammo, keyingi podsho Shu-Suen davrida amoriylar hujumi kuchayadi va podsho o'z shaharlarini himoya qilish uchun ularni mudofaa devorlari bilan o'ray boshlaydi. III-Ur sulolasining so'nggi vakili Ibbi-Suen

mamlakatni ko'chmanchi amoriylardan va elamliklardan mudofaa qila olmaydi. Natijada mil. avv. 2004-yilda Ur, Elam qo'shini tomonidan egallanib, talon-taroj qilinadi va III-Ur sulolasi tugatiladi. Oradan 6 yil o'tib, elamliklar Ur shahridan qo'shinlarini olib chiqib ketadi. Ichki nizolar va tashqi hujumlardan kuchsizlangan Mesopotamiyada hukmronlik I-Issin sulolasi qo'liga o'tadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Shumer shahar-davlatlari qachon vujudga kelgan?
2. III-Ur sulolasining yuksalishi qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
3. Umma va Lagash shahar-davlatlari munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
4. Uttuxengal islohotlarining Qadimgi Mesopotamiya tarixida tutgan o'rnini izohlang.
5. Podsho Naram-Suenning tashqi siyosatini tizimli izohlab bering.
6. Podsho Rimush davrida Mesopotamiyadagi ichki siyosiy vaziyatga oid ma'lumotlarni taqqoslang.
7. Shulgi qonunlarining Ur davlatidagi ahamiyatini yoritib bering.
8. Guteylar davrida Lagash shahar-davlatining yuksalishi sabablarini ko'rsating.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Антонова Е.В. Месопотамия на пути к первым государствам. – М., 1998.
2. Крамер С.Н. История начинается в Шумере. 2 изд. – М., 1989.
3. Крамер С. Н.. Шумеры. – М., 2002.
4. Козырева Н.В. Древняя Ларса. – М., 1988.
5. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
6. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Сост. и коммент. А.А. Вигасина. – М., 1997.
7. Оппенгейм А.Л. Древняя Месопотамия: Портрет погибшей цивилизации. – М., 1990.
8. Якобсен Т. Сокровища тьмы: история месопотамской религии. – М., 1995.

9. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – T. Fan va texnologiya, 2009.
10. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.
11. Leick, Gwendolyn. Mesopotamia: The Invention of the City. New York: Penguin Books, 2001.
12. Leick, Gwendolyn. The Babylonians: An Introduction. New York: Routledge, 2003.
13. Crawford, Harriet. Sumer and the Sumerians. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
14. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
15. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

6-mavzu. Bobil podsholigi

Reja:

- 1. Amoriy qabilalarining Mesopotamiyagi kirib kelishi**
- 2. Xammurapi boshchiligida Bobil podsholigining yuksalishi**
- 3. Yangi Bobil podsholigi**
- 4. Mesopotamiya madaniyati**

Amoriy qabilalarining Mesopotamiyaga kirib kelishi. Mil. avv. II ming yillik boshlarida Mesopotamiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz amoriy qabilalarini shimoldan jadal kirib kelishi uchun sharoit yaratadi. Mil. avv. XVIII asr boshida Mesopotamiyani Larsa, Bobil, Eshnunna, Ashshur, Mari, Issin shahar-davlatlari o‘zaro bo‘lib olgan edilar. Ularning aksariyatida amoriy qabilalaridan chiqqan podshohlar hukmronlik qilar edi. Mil. avv. 1895-yilda amoriylarning yaxrum qabilasi sardori Sumuabum (mil. avv. 1895-1881-yy) Bobil taxtini qo‘lga kiritadi va I Bobil sulolasiga asos soladi. Uning davrida Bobil mudofaa devorlari bilan o‘rab olinadi. Shahar aholisi ehtiyoji uchun kanallar qaziladi. Kish shahri bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatiladi. Sumuabumdan keyin uning jiyani Sumulael (mil. avv. 1881-1845-yy) Bobil taxtiga chiqadi. Bobil o‘sha zamonda hali uncha yirik shahar davlat bo‘lmaganligi manbalarda keltiriladi. U janubiy

Mesopotamiyadagi Marada va Kazallu shahri hokimi Alumbiumu bilan urushlar olib boradi. Ammo, muvaffaqiyatsizlikka uchragach, himoyalaniish uchun u ham Bobilni mudofaa devorlari bilan o'rashga majbur bo'ladi. Mil. avv. 1869-yilda Bobil podsholigi Kish shahrini bosib oladi. So'ngra, Sippar va Uruk shahar-davlatlari bilan ittifoq tuziladi. Hukmronligining so'ngida Sumulael Larsaliklardan mag'lub bo'ladi. Bobil davlati Mesopotamiyada gegemon bo'lishga intilishni vaqtincha qo'ldan chiqaradi.


Podsho Sumulaelning o'g'li Sabium (mil. avv. 1845-1831-yy) davrida Bobil, Yuqori Mesopotamiyani eng kuchli shahar-davlatlari Issin va Larsadan qolishmaydigan harbiy kuchga ega bo'ladi. Shu bilan birga, Bobilda, Marduk ilohi uchun Esagilu ("Baland uy") ibodatxonasini qurdiradi. Keyinchalik Bobil podsholari Apil-Sin (mil. avv. 1831-1813-yy) va Sinmuballit (mil. avv. 1813-1792-yy)lar Bobil hududlarini kengaytiradilar. Mesopotamiyada gegemonlik uchun kurashda ular yirik nomzodlardan biriga aylanadi. Sinmuballit Bobil podsholaridan birinchi bo'lib janubga yurish uyushtiradi. Bobilliklar Uruk, Isin, Rapikum shaharlari va sutiy qabilalari bilan ittifoqda Larsa podshosi Rimsinga (mil. avv. 1822-1763-yy) qarshi chiqadilar. Ammo, mil. avv. 1810-yilda Rimsin ushbu koalitsiyani tor-mor keltiradi. Bobil podsholigi Rimsinga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Natijada Larsaning siyosiy mavqeyi oshib ketadi.

Xammurapi boshchiligida Bobil podsholigining yuksalishi.

Qadimgi Mesopotamiyada amoriylar o'troqlashib bo'lgach, Shumerning ichki nizolarida faollik bilan qatnashadilar. Bularning orasida Bobil shahar-davlatini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ko'hna Bobil shahar-davlatining yuksalishi podsho Xammurapi (mil. avv. 1792-1750-yy) davriga to'g'ri keladi. U Bobil shahrini mudofaa devori bilan o'ragan oromiylar podshosi Sumu-abunning chevarasi bo'lgan. Bobil podsholigi shimoldan Shamshi-Adad I (Ossuriya podshosi), janubda Rimsin (Larsa podshosi) davlatlari bilan chegaradosh edi. Podsho Xammurapi aqlli davlat arbobi, diplomat va mohir sarkarda bo'lgan. Xammurapi har qanday diplomatik kelishuvlarni Bobil manfaatlari bilan mos ravishda o'zgartirib borgan. Hukmronligining beshinchi yili (mil. avv. 1787-yil) Isin shahrini zabt etib, u yerdan Larsa garnizonini haydab yuboradi. So'ngra, Dajla daryosidan kechib o'tib, elamliklarga qarashli Malgium shahrini ham

bosib oladi. Hukmronligining to'qqizinchi yili Ossuriya podshosi Shamshi-Adad I bilan shartnoma imzolaydi.



O'z navbatida, Xammurapi, Larsa podshosi Rimsin bilan to'qnashuvga hali tayyor emasligini yaxshi tushungan. Larsa podshosi Rimsin Markaziy Mesopotamiyada Bobilning kuchayib borayotganidan xavfsirab, Elam podshosi Malgiumga elchilar yuborgan. Xammurapi esa, bu payt Mari shahri bilan ittifoq tuzib, Eshnunna shahrini bosib oladi. Unga xavfli raqib bo'lgan Elamni 10 yillik urushdan so'ng, Mari podshosi Zimrilim qo'shinlari bilan birlashib, mil. avv. 1764-yilda ularni ham yengadi. Xammurapi mil. avv. 1759-yilda o'z ittifoqchisi Mari shahrini ham bosib oladi. Ko'p o'tmay, olti oylik qamaldan so'ng, Larsa egallanadi. Xammurapi,

Larsa podshosi Rimsin vafotidan so'ng, "amoriylar otasi" unvonini meros qilib oladi.

Endi Shamshi-Adad I vafotidan keyin zaiflashib qolgan Ossuriya davlati qolgan edi. Tez orada uning yirik shaharlari Ashshur va Nineviya Babil hokimiyatini tan oladilar. Natijada butun Mesopotamiya Babil davlati boshchiligida birlashtiriladi.

Xammurapining uzoq hukmronligi davrida Babil butun Mesopotamiyani birlashtirgan kuchli davlat poytaxti, yirik siyosiy-- iqtisodiy va madaniy markazga aylangan edi.

Xammurapi qonunlari

Ikki daryo oralig'i davlatlarida huquqning eng qadimgi manbai odat huquqi bo'lgan. Davlatchilik natijasida odob-ahloq qoidalari majburiy mazmun kasb eta boshlagan. Yozma qonunchilikda ibtidoiy jamoa tuzumining belgilari saqlangan. Mazkur mintaqada Lagash podshosi Urinimgin va Ur sulolasidan Ur-Nammu hamda qator hukmdorlarning yozma qonunlari mavjud bo'lgan.

Ular orasida ayniqsa, Mesopotamiyaning eng muhim hujjati-podsho Xammurapi qonunlari qadimgi davr huquqiy qarashlari va huquq tizimining juda katta yodgorligi sanaladi. Xammurapi qonunlari 1901–1902-yillarda fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Qadimgi Elam poytaxti Suza shahrini qazish chog'ida topilgan. Bu qonunlar mixxat yozuvida qora bazalt tosh ustuni sathiga o'yib yozilgan. Xammurapi qonunlarining asl nusxasi Parij (Luvr)da saqlanadi.

Ushbu qonunlar 282 ta moddadan iborat bo'lib, Shumer va Akkad huquqining tajribasi va ko'pgina namunalarini



mujassamlashtirgan. Qonunlar to'plami: 1) kirish; 2) asosiy qism; 3) xulosa kabi 3 qismga bo'linadi:

Kirish qismida qonunlarni o'rnatishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o'rnatishdir, deb ko'rsatilgan. Qonunda podsho o'zining xalq oldidagi xizmatlarini keltirib o'tadi. Bu qonunlarni kelgusida bajaradigan podsholarni hurmatlash, ularni bajarmagan yoki bekor qilmoqchi bo'lgan podsholarni la'natlash lozimligi to'g'risida ham gapiriladi.

Qonunnomaning asosiy qismida sud va sud jarayoni (1–5-moddalar), mulk huquqining buzilishi va unga qo'llaniladigan jazolar (6–120-moddalar), nikoh, oila va meros huquqi (127–195-moddalar), jinoyat huquqi (shaxs hayoti va sog'ligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik, 196–214-moddalar), mehnat va mehnat qurollari (215–282-moddalar) hamda boshqa munosabatlar to'g'risidagi me'yorlar belgilangan. Kodeksni tuzishda qadimgi odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar asos qilib olingan.

Xammurapi qonunlari **Xammurapi qonunlari (Luvr muzeyi)** boshqa sharq qonunnomalaridan farq qilib, o'zida diniy va nasihatgo'ylik elementlarini saqlamaydi. Shunday bo'lsada, unda urug'doshlik tuzumi belgilari saqlangan.

Xammurapi qonunlarida yerga egalikning podsho, ibodatxona, jamoa va xususiy yer egaligi kabi shakllari aks etgan. Amaldorlar va harbiylarga berilgan mulk – ilku mulk deb atalgan. Keyingi davrlarda ham jamoa mulkchiligi saqlanib qolgan.

Qonunlarda shartnomalardan va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bir-biridan ajratib qo'yilgan. Bu davrda shartnoma huquqi keng rivojlangan. Shartnomalarning oldi-sotdi, ijara, ayriboshlash, qarz, yuk tashish, topshiriq, shirkat (ko'pchilik), hadya va boshqa turlari ko'pgina me'yorlar bilan tartibga solingan.

Nikoh yozma tuziladigan shartnomalar asosida rasmiylashtirilgan. Agar kishi xotin olsa va yozma shartnoma tuzmasa, bu ayol unga xotin emas (128-modda). Shartnoma er va xotinning oilasi o'rtasida ham tuzilgan. Qullar va erkin kishilar oila qurishi mumkin bo'lib, tug'ilgan bolalar erkin hisoblangan. Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo'lajak qaynonasiga qalin puli – “tirxatum”, kelinning oila a'zolariga to'y sovg'alari – “biblum”, kelinning otasi qiziga sep-sidrig'a – “sheriktum” berishi lozim bo'lgan. Bir nikohlik amal qilgan

bo'lib, er asosli tarzda ikkinchi nikohga kirishi mumkin edi. Farzand ota-onasini so'ksa tili, ursa barmoqlari kesilgan.

Merosga dastlabki vaqtlarda eng avval o'g'illar, o'g'illar bo'lmasa qizlar, keyinchalik qizlar ham o'g'illar bilan teng meros huquqiga ega bo'lganlar. Agar o'g'il vafot etgan bo'lsa, nevaralar merosxo'r bo'lgan.

Farzandlar va nevaralar bo'lmasa aka-ukalar, ular ham bo'lmasa amakilar merosxo'r sifatida maydonga chiqqanlar. Meros bolalar o'rtasida teng taqsimlangan. Asrab olingan farzand ham teng ulush olgan. Er xotiniga sovg'a – "nudunnum" bergan va u saqlanib qolgan.

Xammurapi qonunlarida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo'lgan qonli qasos olish odati haqida hech narsa tilga olinmaydi. U o'z o'rnini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga to'laydigan haqlariga bo'shatib bergan. Biroq, ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo'lgan boshqa qoldiqlar saqlangan. Jumladan, aybdor noma'lum bo'lsa, butun jamoaning javobgarligi, ota-ona uchun farzandlarning javobgarligi, aybdorning o'z hududidan haydab yuborilishi va h.k. Jazolar birinchi navbatda, Bobildagi quldorlik tuzumini ushlab turishga qaratilgan. Jinoiy jazolar turlariga qo'shimcha sifatida sharmanda qilish, muayyan faoliyat yuritish huquqidan mahrum qilish va mansabidan chetlatish jazolarini ham aytilish mumkin.

Ehtiyotsizlik oqibatida odam o'limiga sabab bo'lish uchun o'lim jazosi belgilangan. Masalan, uy, imorat buzilib, uy egasining o'g'li o'lsa, quruvchining o'g'li ham o'ldirilgan (230-modda).

Agar ayblanuvchi yuqori mavqega ega bo'lsa, jarima to'lagan. Shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida yosh bolalarni o'g'rilash jinoyati ham ko'rsatilib o'tilgan. Albatta, bunda maqsad qul qilib sotish bo'lgan. (14-modda). Qadimgi Bobilda qulni "vardum" deb ataganlar.

Mulkka qarshi jinoyatlarga juda og'ir jazolar nazarda tutilgan. Saroy va ibodatxona mulkini o'g'irlaganlik uchun ayrim hollarda o'lim jazosi, boshqa hollarda 30 baravar miqdorida jarima nazarda tutilgan. Agar aybdor uni to'lay olmasa, o'limga mahkum etilgan. Yong'in paytida o'g'rilik qilgan jinoyatchi o'tga tashlangan. Qulga nisbatan mulk huquqi qattiq himoya qilingan.

Xammurapi qonunlariga muvofiq, sudya ilgarigi qarorini o'zgartirsa, lavozimidan chetlashtirilgan va da'voning 12 baravari miqdorida jarima to'lagan. Tayyorlanilayotgan jinoyat haqida xabar

bermaslik, yolg'on guvohlik berish va tuhmat qilish uchun jinoiy jazolar belgilangan.

Sud qaydnomalari loytaxtachalarga yozilgan. Ularda tomonlarning ko'rsatmalari, qasamlari, guvohlarning ismlari va sud hukmining mazmuni yozib qo'yilgan. Qoida bo'yicha tomonlar bir ishni ikkinchi marta qo'zg'atishlari mumkin bo'lmagan. Qonuning 278-282-moddalarida qulchilikka oid qonunlar belgilab o'tiladi. Masalan, 282-moddada "Agarda qul egasiga uning quli emasligini aytib o'tsa, egasi uni qul ekanligini isbotlasa, unda quldor qulini qulog'ini kesib olishi mumkin", deb ta'kidlanadi. Umuman olganda, Xammurapi qonunlari Qadimgi Babil jamiyatiga xos tartib qoidalarini o'zida aks ettirgan edi.

Xammurapi vafotidan so'ng, taxtga kelgan uning o'g'li Samsuilin (mil. avv. 1749-1712-yy) davrida Babil podsholigida qarama-qarshiliklar kuchayib, aholining ahvoli og'irlashib boradi. Mil. avv. 1742-yilga kelib, Mesopotamiyaga shimoliy-sharqdan kassitlar etnonimidagi hind-yevropa qabilalari (akkadcha Kassu, zamonaviy fanda kassitlarni kasp-kaspiy deb atashadi) Gandash nomli yo'l boshchilari bilan bostirib kiradilar. Shu bilan birga, elamliliklar janubda Shumer shaharlariga hujum qiladilar. Gandash Samsuilin bilan urush olib boradi va Mesopotamiyada kassitlar sulolasiga asos soladi. Undan so'ng, mil. avv. 1726-yilda hokimiyatga Gandashning o'g'li Agum I keladi. Agum I ni aynan Bobilni boshqarganligi masalasi munozarali hisoblanadi. Ammo, kassitlar Mesopotamiya yerlarini tez orada o'zlariga butunlay bo'ysundirganlar. Kassitlar davrida Bobilning siyosiy qudrati kuchsizlanadi. Buning ustiga mil. avv. 1595-yilda xettlar podshosi Mursili I Bobilga bostirib kirib, Bobil sulolasining oxirgi vakili Samsu-ditanani taxtdan ag'darib, shaharni talon-taroj qiladi.

Elam davlati bir necha urushlardan so'ng, mil. avv. 1150-yillar atrofida Bobilda kassitlar sulolasi hukmronligini tugatdi. Lekin bir oz vaqt o'tib, Ninurta-nadin-shumining o'g'li Navuxodonosor I (mil. avv. 1124-1104-yy) II Issin sulolasi davrida Ossuriya bilan urush olib boradi. Ammo, ossur podshosi Ashshur-resh-ishi I uni mag'lub etadi.

Navuxodonosor I Elamliklarni Bobildan haydab yuborishga erishadi, so'ngra Elamga shunday zarba beriladiki, u haqida uch asr yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli keltirilmaydi.

Keyinchalik Janubiy Mesopotamiyaning shaharlari oralig'ida joylashgan oromiy tilida so'zlashuvchi somiylardan bo'lgan xaldey qabilalari kuchayadilar. Ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv. 878-yilda Ossuriya podshosi Ashshurnazirpal II annallarida tilga olinadi. Xaldeylar yarim ko'chmanchi chorvadorlik, ziroatkorlik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Mil. avv. IX asrda xaldey qabilalari Bobilning janubiy qismini bosib oladilar va Bobilning yuksak madaniyatini o'zlashtiradilar. Mahalliy ilohlardan eng mashhuri Mardukka sajda qiladilar. Xaldey aristokratiyasi bobilliklar urf-odatlariga asosan hayot kechira boshlaydi.

Mil. avv. 851-yilda Ossuriya podshosi Salmanasar III xaldeylar Bobilini o'lpon to'lashga majbur qiladi. Xaldey knyazlari Bit-Dakuri, Bit-Amukani va Bit-Yakinlar ossurlar hukmronligini tan o'ldilar. Ammo, Bobil ma'lum bir suverenitetni saqlab qolgan edi.

Ossuriya Bobilni mil. avv. 729-yilda bosib olishga muvaffaq bo'ladi. Mil. avv. 689-yilda (ayrim manbalarda mil. avv. 681-yil) Ossuriya podshosi Sinaxxerib, elamlilarga tayangan isyonkor Bobilni butunlay vayron qilib, so'ngra suvga bostiradi.

Mil. avv. 627-yilda Ossuriya podshosi Ashshurbanipal vafotidan so'ng, Mesopotamiyada kuchlar muvozanati o'zgaradi. Mil. avv. 627-yilda xaldey zodagonlaridan bo'lgan Nabopalasar Ossuriyadagi ichki nizolardan foydalanib Mesopotamiyaning janubida isyon ko'taradi. Uruk shahrini bosib oladi va Nippurni qamal qiladi. Ammo, ossurlar tez orada Nippurga yetib keladilar va Nabopalasar chekinishga majbur bo'ladi. Endi Uruk ossurlar tomonidan qamal qilinadi, lekin qamal paytida shahar garnizoni kutilmaganda hujumga o'tadi. Natijada ossurlar va nippurliklar mag'lubiyatga uchraydilar.

Ko'p o'tmay mil. avv. 626-yilda Nabopalasar Bobil podshosi deb e'lon qilinadi. Ossuriya podshosi Sin-shum-lishir Bobil yerlariga qo'shin kiritadi. Biroq, ossurlar bu yerlarni uzoq vaqt o'z nazoratida tutib tura olmaydilar. Bobil podshosi Nabopalasar dushmani mamlakatdan quvib chiqaradi. Mil. avv. 625-yilda ossurlar yana qaytib keladilar va Sippardan uncha uzoqda bo'lmagan Shallat shahrini egallaydilar. Shu payt Ossuriya armiyasi noma'lum sabablarga ko'ra (olimlarning fikricha midiyaliklar hujumlari sabab) ortga qaytishga majbur bo'ladi. Shallat shahrida ossur garnizoni qoldiriladi. Mil. avv. 625-yilda Nabopalasar Ossuriyaga sodiq qolgan

Nippur shahrini egallashga urinib ko'radi, ammo uning bu yurishi natijasiz chiqadi.

Mil. avv. 623-yilda Nabopalar rahnamoligida ossurlarga qarshi Der viloyatida isyon ko'tariladi. Ossur qo'shini qaytib keladi va xaldealarni Akkad va Bobildan quvib chiqaradi. Shu tariqa, Babil yerlari ossurlar yoki xaldeylar qo'liga navbatma-navbat o'tib turadi. Bu orada ko'chmanchi skiflar butun Mesopotamiyani talon-taroj qilib, Suriya orqali Misr chegaralarigacha yetib boradilar. Misrliklar katta o'lbos evaziga bosqindan qutilib qoldi va skiflar o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Nabopalar kuch to'plab olgach, Nippurni qamal qilishga tushadi.

Mil. avv. 616-yilda Babil qo'shini Ossuriyaning Suxu va Xindanu viloyatiga bostirib kiradi va Kabinu yonidagi jangda ossurlar hamda ularning ittifoqchilari manneylarni yengadilar. So'ngra, katta o'ljani qo'lga kiritib ortga qaytib ketadilar. Bu orada ossurlarga Misr qo'shini madadga yetib keladi, ammo ular Babil hududiga bostirib kirishga jazm qilmaydilar. Shu yili Uruk shahri uzoq qamaldan so'ng, Babil qo'shini tomonidan egallanadi. Bir yildan so'ng, bobilliklar Ossuriya yerlariga yana bostirib kiradilar ammo bir necha g'alabalarga erishsalar-da, (Madanu shahri yonidagi jang) ularning bu yurishi natijasiz chiqadi. Mil. avv. 615-yilda uzoq qamaldan so'ng, ossurlardan madad ola-olmagan Nippur shahri Nabopalariga taslim bo'ladi. Shahar aholisi qamal natijasida shu darajada ochlikdan qiynalgan ediki, odamlar o'zlarini va bolalarini tirik qolishi uchun ularni qullikka sotishga majbur bo'lgan edi.

Mil. avv. 612-yilda Nabopalar midiyaliklar bilan ittifoqda Ossuriyaning poytaxti Nineviya shahrini egallaydilar. Shahar suvga bostirilib, butunlay vayron qilinadi, aholisi qisman qirib tashlanib, qolganlari qulga aylantiriladi. Mil. avv. 611-yili Nabopalar armiyasi ossurlarning tayanch qal'alaridan biri Xarran yerlarida harbiy harakatlarni boshlaydi. Mil. avv. 610-yilda ossurlar va ularning ittifoqchilari bo'lgan misrliklar Xarranni tashlab qochadilar. Natijada Babil va Midiya qo'shinlari yana bir g'alabaga erishadi. Mil. avv. 605-yili ossurlar Misr fir'avni Nexo II bilan ittifoqda Karxemish shahri yonidagi jangda bobilliklardan yengiladilar. Shu tariqa, Ossuriya davlati tarix sahnasidan o'chib ketadi.

Nabopalardan so'ng, taxtga uning o'g'li Navuxodonosor II (mil. avv. 605-562-yy) o'tiradi. Mil. avv. 604-yili Navuxodonosor II

qo'shinlari Yaqin Sharqdagi Askalon shahriga harbiy yurish uyushtiradi. Bu yerning podshosi Adon misrliklarning madadiga tayanib, Bobil podsholigini mintaqadagi gegemoniyasini tan olmagan edi. Shu bois, bobilliklar Askalonni bosib olgach, uni talon-taroj etadilar hamda aholisini asir qilib olib ketadilar. Misr qo'shini vaziyatga to'g'ri baho berib, Yaqin Sharq ishlaridan vaqtincha o'zlarini chetda tutib turadilar. Bir yildan so'ng, Navoxudonosor II Yahudiyaga bostirib kiradi va bu yerning podshosi Ioakim Bobilga qaramligini tan olib, o'lpon to'lashga rozi bo'ladi.

U misrliklarni Yaqin Sharqdan siqib chiqaradi, hatto mil. avv. 601-yilda Misr chegaralariga chiqishga ham muvaffaq bo'lgan. Ammo, misrliklar o'z vatanlarini mudofaa qila oldilar. Mil. avv. 597-yili Navuxudonosor II Yahudiyani bosib olib, ularning podshosi Ioakimni qatl ettiradi. Mil. avv. 591-yildan boshlab misrliklar bilan Yaqin Sharq masalasida qarama-qarshilik boshlanadi. Misr fir'avni Psammetix II yahudiylarni Bobilga qarshi isyon ko'tarishga undaydi. Mil. avv. 586-yilda Quddus (Ierusalim) bobilliklar tomonidan vayron qilinadi. Navuxudonosor II davrida Yangi Bobil podsholigi gullab-yashnaydi. Qadimgi Bobil shahrining aholisi 200 mingga yaqinlashadi. Ulug'vor ibodatxonalar va saroylar bunyod etiladi. Mesopotamiyada irrigatsiya tizimi qayta tiklanadi. Bobil shahri yirik savdo-sotiq markazlaridan biriga aylanadi. Bu orada Midiya bilan munosabatlar salbiy tomonga o'zgarishdan qo'rqan Navoxudonosor II, sharqiy chegaralarda mustahkam mudofaa tizimini yo'lga qo'yadi. Shunday bo'lsa-da, Bobil davlati uning davrida iqtisodiy jihatdan gullab yashnaydi. So'ngra mil. avv. 562-yilda podsho Navuxudonosor II vafotidan keyin taxtga uning o'g'li Amel-Marduk (mil. avv. 562-560-yy) chiqadi. Uni davrida Bobilda zodagonlarning siyosatga ta'siri oshib boradi. Kohinlar bilan munosabati yomonlashadi va mamlakatni diniy qonunlar asosida boshqarishni istamagan edi. Podsho Amel-Marduk yahudiylar podshosi Iexoniyani uzoq yillik zindondan chiqaradi va iltifot ko'rsatadi.

Ko'p o'tmay, mil. avv. 560-yilda u o'z kuyovi Nergal-shar-utsur tomonidan suiqasd uyushtirilishi natijasida o'ldiriladi. Natijada, taxtga Nergal-shar-utsur (mil. avv. 560-556-yy) keladi. Bobilning ittifoqchisi bo'lgan Midiyada uning hokimiyatini qonuniy deb tan oldilar. Uning davrida mamlakat irrigatsiya tizimi tartibga solindi va ibodatxonalar

ta'mirlandi. Tashqi siyosatda Lidiya davlati bilan (g'arbiy Kilikiya masalasida) munosabatlar biroz keskinlashadi.

Bobilda zodagonlar va kohinlarning obro'yi oshib, mamlakatda ichki nizolar boshlanadi. Zodagonlar podsholar tayinlanishida muhim rol o'ynay boshlaydi. Oqibatda Bobil davlatida siyosiy barqarorlikka putur yetadi. Mil. avv. 556-yili kelib chiqishi xaldey bo'lmagan yirik zodagon Nabu-balatsu-ikbining o'g'li Nabonid Bobil taxtini egallaydi. U Yangi Bobil podsholigining so'nggi hukmdori bo'ladi. Mil. avv. 539-yilda oktabr oyida forslar podshosi Kir II tomonidan Bobil bosib olinadi va mustaqilligini yo'qotib, Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritiladi. Mil. avv. 331-yilgacha Aleksandr Makedonskiy davlatiga, so'ngra Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi.

Qadimgi Mesopotamiya madaniyati. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatining dastlabki asoslari mil. avv. IV ming yillikda paydo bo'lgan. Bunda o'troq ziroatkor shumerlarning o'rni kattadir. Aynan ular ushbu hudud madaniyatini bizga yetib kelishi uchun imkon bergan mixxat yozuvining asoslarini yaratganlar.

Yuqorida ta'kidlangan arxaik yozuv asoslari taxminan mil. avv. IV ming yilliklarda janubiy Mesopotamiyada yuzaga kelgan bo'lib, uning dastlabki asosiy vazifasi aholi orasida mulkiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan. Ilk shumerda yaratilgan yozuv piktografik shaklda ekanligi bilan kishilarni e'tiborini tortadi. Mixxatga aylanish jarayoni evolyutsion tarzda amalga oshganligi tarixdan ma'lum. Asrlar davomida sayqallashib, keyinchalik mil. avv. III ming yillikda siyosiy, yuridik va xo'jalik ishlarini olib borishda keng foydalaniladigan bo'ldi.

Akkad tili mixxat yozuvi yordamida diplomatiya tiliga aylana boshladi. Keyinchalik, butun Old Osiyo xalqlari ushbu yozuvni o'zlashtirib oldilar. Yozuvni bitish uchun loy taxtachadan foydalandilar. Mixxat yozuvida 600 ga yaqin belgilar ishlatilganligini arxeologik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Bunday loy taxtachali hujjatlar ko'p hollarda unchalik katta bo'lmagani bizga ma'lum. Keyinchalik mixxatni kichraytirilib, zich holda (ko'proq so'zlar sig'ishi uchun) loy taxtachalarga yozishgan. Ba'zi muhim hujjatlar metall (mis va kumush) taxtachalarga bitilgan. Ayrim hollarda toshga mixxat yozuvini yozish ham ko'p kuzatilgan. Ayniqsa, qora bazalt toshga bitilgan mashhur Bobil podshosi Xammurapi qonunlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Bunday yozuvni o'rganish qiyin bo'lganligi tufayli mixxatni o'qish uchun maxsus ta'lim dargohlari Qadimgi Shumerda paydo bo'la boshladi. O'qishga o'rgatish asosan kohinlar tomonidan amalga oshirilgani uchun dastlabki hattotlar maktablari ibodatxonalar oldida tashkil qilingan edi. Qadimgi Shumerda maktablar "taxtachalar xonadoni" (yoki "edubba") shaklida tilga olingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, bunday maktablarda o'g'il bolalar o'qitilgan va davlat xizmatiga tayyorlangan. Maktablar o'quvchilar ota-onalari hisobidan ta'minlangan. Savdo-sotiq va hunarmandchilik munosabatlarining o'sishi va davlat xizmati uchun kadrlar aynan mana shu o'quv

maskanlarida tayyorlangan. Bu yerda o'qishdan tashqari, hisob-kitob, adabiyot, grammatika, falakiyot ilmi o'qitilgan. Buyuk amerikalik numerolog Syumeel Nol Kramer Nippur sopol taxtachalarning maxsus tadqiqini amalga oshirdi va buning natijasida insoniyat tarixidagi ilk voqea – 39 ta voqealarning matnlarini nashr etdi. Unda maktabda ilk bor



olmani artilishi va huquqbuzarlikdan tortib, birinchi tibbiy ma'lumotnoma va dekorativ bog'dorchilikning birinchi tajribasi yoritilgan. "Ota va bola" lar muammosi bugungi kungidek, to'rt ming yil avval ham dolzarb edi. Kramer topilmalarida ota va quloqsiz o'g'ilning dialogidan bir parcha keltiradi. Otasi o'g'ildan "qayerda bo'lding", deb so'raydi, o'g'li esa "hech qayerda", deb javob beradi. "Agar sen hech qayerda bo'lmagan bo'lsang, demak sen hech nima bilan shug'ullanmaysan, maktabga bor, maktabda ustozing oldida tur va vazifangni gapirib ber, sening katta akang senga yangi taxtacha yozib bersin, vazifani bajarganingdan so'ng, sinf sardori oldida hisobot

berganingdan keyin yonimga qayt va ko'chalarda yurma, nima deganimni tushundingmi?".

Shumer akademik ta'limi qat'iy va zerikarli edi. Butun kun o'qituvchi yoki "katta aka" lar tomonidan jazo olishni kutib o'tar edi. Kramer uncha katta bo'lmagan loy taxtachani tarjima qilishga muvaffaq bo'ldi, unda shumerlik shifokor terapevt o'z retseptlarini yozgan edi. Shumerlik shifokorlar oddiy mineral, hayvon, o'simliklardan olgan dorilarni qo'llar edilar. Xlorli natriy (tuz) va kaliy nitrati (selitra) ko'plab retseptlarda ko'rish mumkin edi. Bundan tashqari, ular orasida ilonlar terisi va toshbaqaning qobig'i ham uchraydi. Ko'p dorilar o'simliklardan tayyorlangan edi, ulardan qilingan har xil kremlar tashqi qo'llash uchun ishlatilsa vino, sharob yoki pivoda eritib tindirilgan o'simliklar ichki davo **Gilgamesh afsonasi yozilgan sopol taxtacha** uchun qo'llanilardi.


Shumer tilining yozuvi shu qadar murakkab ediki, Shumer aholisining faqatgina kichik qismi bu yozuvga ega edi. Bugungi kunda bu yozuv 250 mutaxassisga ma'lum, ammo Mesopotamiyaning tadqiq etilishida yetakchi bo'lgan Pensilvaniya universiteti 1976-yildan boshlab, 27 mingta yozuv ustida ish olib bormoqda. Milliondan ziyod kartochkalar tuzildi, ularni kompyuterlashtirishdi va shumer ramzli yozuvlar ma'nosining 18 jildlik lug'ati yaratildi. Birinchi jild 248 betdan iborat bo'lib, 1984-yilda nashr qilindi, ikkinchisi, 1999-yilda, oxirgi jild esa, bizning asrimizda nashr etilishi lozim. Mazkur yozuvlar atigi 800 ta ramz belgi bo'lgani bilan, ular ko'p ma'nolidir, bu esa, ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Qadimgi Mesopotamiyada "buyuk to'fon" haqidagi afsonalar bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, "Gilgamish haqidagi afsona" Qadimgi Mesopotamiya adabiyotining yorqin namunasi hisoblanadi. Dostonni ilk she'riy namunalari mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmida yaratilgani hozirda olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bizgacha yetib kelgan doston mil. avv. XVIII-XVII asrlarda akkad tilida mixxatda yozilgan. Ushbu epos bir yarim ming yil davomida sayqallanib kelinganligi bilan kishilarni e'tiborini tortadi. Uning birmuncha to'liq nusxasi hozirda Britaniya va ba'zi qismlari dunyoning boshqa muzeylarida saqlanadi. Mazkur doston Nineviyadagi podsho Ashshurbanipalning mixxat kutubxonasini qazish jarayonida topilgan. U 12 ta olti ustunli sopol taxtachalarga mayda mixxat shaklida yozilgan bo'lib, 3000 ga yaqin she'rlarni o'z ichiga oladi. Doston akkad tilida Shumer hikoyalari asosida yozilgan. Dostonning bosh qahramonlari Gilgamesh va

Enkidu hisoblanib, asar do'stlik haqidagi madhiya sanaladi. Asarning qisqacha syujetiga ko'ra, Uruk shahri aholisi ilohlardan o'z hukmdori Gilgameshning chidab bo'lmas fe'lidan qutqarishni so'raydilar. Natijada, Aruru ilohasi loydan Gilgameshga bas kela oladigan yovvoyi odam Enkiduni yaratadi. Enkidu dastlab Urukdan tashqarida hayvonlar orasida yashaydi va mutlaqo madaniyatdan yiroqdagi kishi edi. Bu orada Gilgameshning tushida u do'st topishi ayon bo'ladi. Kunlardan bir kuni Urukka xabar keladiki go'yoki o'rmonda bir kishi insonlarga ov qilishga xalaqit berib, hayvonlarni himoya qilayotgan ekan. Gilgamesh uni oldiga bir ayolni yuboradi, Enkidu ushbu xotinning makriga ishonib Urukka keladi. Bu yerda Enkiduni madaniyatga o'rgatadilar. Keyinchalik Gilgamesh bilan yakkama-yakka olishadi. Ammo, ikkalovi bir-birini yenga olmaydilar va do'st tutinshadi.

Gilgamesh va Enkidu tog'da yashovchi Xumbaba ismli mahluqni yengadilar. So'ngra, Gilgamesh ma'buda Ishtarning muhabbatini rad etadi. Ishtar Gilgamesh va uning do'stiga qarshi buqa shaklidagi mahluqni yuboradi. Biroq, do'stlar uni ham jangda yengadilar. Xumbabaning o'ldirilishi xudolarni qahrini keltirib chiqaradi va natijada, Gilgameshni do'sti Enkidu vafot etadi. Gilgamesh cho'lga qochib borib do'sti uchun qattiq g'am chekadi. O'lim inson taqdiriga bitilgan qismat ekanligini tushunib yetadi. Sayohati chog'ida Gilgamesh odamlar orasida yagona o'lmas kishi Ut-napishtimni uchratadi. U qahramonga buyuk to'fon natijasida yagona tirik qolgan inson ekanligini aytib beradi. Aynan undan Gilgamesh hayot guli haqida bilib oladi va uni topadi. Biroq, uni tatib ko'rishdan oldin daryoda cho'milib olmoqchi bo'ladi. Bu orada ilon sudralib kelib gulni yutib yuboradi va terisini tashlab qayta yosharadi. Shundan so'ng, Gilgamesh Urukka qaytib keladi, o'z safdoshi Urshanabi bilan shahar devorlarini aylanib, avlodlar u qilgan ishlarni eslashiga umid bog'lashini aytib o'tadi. Umuman ushbu doston tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi jamiyatda ham juda mashhur bo'lgan.

Ossuriyaliklar asta-sekin yozuv uchun teri va papirusni ishlata boshlaganlar. Mil. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili diplomatiyada ishlatilishi mixxat yozuvining inqirozini keltirib chiqardi. Oromiy yozuv harfli bo'lib, o'qish uchun qulay edi. Uni o'qish uchun kohin bo'lish shart bo'lmagan.

Qadimgi Mesopotamiya aholisining hayotida diniy e'tiqod asosiy o'ringa ega edi. Qadimgi Shumer shahar-davlatining o'z xudo homiysi bor edi. Ammo, barcha uchun umumiy ilohlar ham mavjud bo'lgan. Bularga osmon suv xudosi Ea, ilohi Anu, zamin ilohi Enlil kabilar kirgan.



Bundan tashqari Qadimgi Bobilda (Babel “Ilohlar darvozasi”) quyosh ilohi Shamash, oy ilohi Sin, Yupiter sayyorasi ilohi Marduk, Venera sayyorasi ilohasi Balit, urush va o'lim ilohasi Ishtarga ham

ibodat qilganlar. Shu bilan birga, turli xil ezgulik jinlari va devlarga sig'inishgan. Davlat ichki va tashqi siyosati din yordamida qonuniylashtirilib, tartibga solingan. Qadimgi Mesopotamiyada yashagan falakiyotchilar quyosh va oy tutilishini oldindan hisob-kitob yordamida bilganlar, kometa va meteorlarning harakatlarini kuzatishgan. O'z kalendarlariga ham ega edilar. Unga ko'ra, har bir oy 29 yoki 30 kunga bo'linib, 1 yil 12 oy, ya'ni 354 kundan iborat bo'lgan.

Arxitekturaning rivojlanishida Qadimgi Mesopotamiya shaharlar hukmdorlari, quruvchi usta va hunarmandlarining o'rni katta hisoblanadi. Qadimda Mesopotamiyada ibodatxonalar barcha xudolar uchun emas, asosan bosh xudolar yoki urug' jamoalarni homiysi hisoblangan ma'bud va ma'budalarga atab qurilgan. Mazkur inshootlar umumiy reja asosida, hovlisining bir tomonida altar, boshqa tomonida qurbonlik amalga oshiriladigan joy bilan bunyod etilgan. Bunday ibodatxonalar asosan yuqori Mesopotamiyaga xosdir. Mintaqaning shimoli va janubida diniy ibodatxonalarning binokorligi 4 usulda qurilgan: 1) Muqaddas ilohiy joyning atrofida qo'shimcha binolarni bunyod etilishi; 2) Sun'iy tepaliklar ustiga bosh ibodatxona barpo etib, unga ikkita ko'tarma yo'laklar qurish hamda tepalik ustiga qavatlar bino etib shu tariqa zikkuratlar tashkil etilgan. 3) Uch qismli ibodatxonalar. Unda markaziy qism, usti ochiq hovli hamda xo'jalik uchun yoki ikkinchi darajali ibodat qurilmalari mavjud bo'lgan. 4) Alohida-alohida bunyod etilgan ibodatxonalar. Qadimgi Ur shahrida podsho Shulgi bunyod ettirgan Zikkurat yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Hozirda biz Qadimgi Ur shahrining obrazini 1922-1932-yillarda Charlz Leonard Vulli yetakchiligida amerikalik va inglizlik arxeologlar tomonidan o'tkazilgan qazish ishlari natijasida tiklay olamiz. Qazishma ishlar davomida Ur shahridagi zikkurat ochilgan.

Shahardagi tepalikning eng qadimgi, yuqori qismini muqaddas maydon egallagan. Aynan shu yerda bizning davrlarimizgacha saqlanib qolgan Buyuk zikkurat joylashgan edi. U "quyi ibodatxona" bo'lib, ya'ni oy xudosi Nanning yerdagi uyi hisoblangan. Qadimgi shumerlar uni Ekishnugal deb nomlashgan va bu yerda turli xil ibodatlar o'tkazilgan bo'lib, bundan tashqari xudolar va podsholarning haykallari joylashgan. Zikkuratning qurilishini, akkadliklar va boshqa qabilalar bosqinidan so'ng, o'z mustaqilligini tiklab olgan Urning uchinchi sulolasi olib borgan. Keyinchalik, u ko'p marotaba qayta

qurilgan va mil. avv. VI asrda sezilarli darajada yangi Bobil podshosi Nabonid davrida kengaytirilgan. Ammo, bu bino faqatgina bir maqsadda ishlatilmay, balki u jamoaviy muassasa, arxiv va podsho qarorgohi vazifasini ham bajargan. Bu yerdan topilgan ishga aloqador va xo'jalik hujjatlarida hattoki podsho Xammurapi (mil. avv. 1792-1750-yy) davrida yashagan alohida oilalarning tarixini ham kuzatish mumkin. Zikkurat 20 metrli g'ishtdan qurilgan bino bo'lib, turli xil enlikdagi platformalarda joylashgan. O'zining asosida u 210 metr bo'lib, uchta qavatdan iborat bo'lgan. Uchta qo'shimcha zinalarga o'xshagan ko'targichlar (bittasi tikka-markaziy va qolgan ikkitasi yonbosh bo'lib tepada birlashishgan) birinchi maydonchaga olib chiqishgan va u yerdan zinalar g'isht binochaga oy xudosi Nanning ibodatxonasi joylashgan imoratga olib chiqqan. L.Vullining fikricha, bu zinapoyalar atrofiga qadimda daraxtlar ekilgan bo'lib, bundan maqsad aholi binoni muqaddas tog'ga o'xshatishi kerak edi. Zikkuratning yuqori maydoni kohinlarga yulduzlarni kuzatish uchun xizmat qilgan. Platformalarni ushlab turgan devorlar ortida rohiblar va ibodatxona ishchilari uchun xonalar joylashgan.

XX asrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Bobil shahrini Frot daryosi g'arbiy va sharqiy qismlarga ajratib turgan. Shaharning umumiy maydoni 10 km.kv tashkil etib, uch qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan holda 8 ta darvozadan iborat bo'lgan. Darvozalar orasida eng chiroyli va go'zal ma'buda Ishtar sharafiga qurilgan darvoza hisoblanadi. Mazkur inshoot podsho Navuxodonosar buyrug'i bilan mil. avv. 575-yilda qurilgan bo'lib, shaharning shimoliy qismida joylashgan edi. Darvoza pishiq g'ishtdan yarim yumaloq shakldagi arka sifatida bunyod etilib, ko'k, sariq, oq va qora ranglar bilan bezatilgan. Hozirda Berlin muzeyida saqlanayotgan Ishtar darvozasi qayta rekonstruksiya qilinib, balandligi 14 metr, kengligi 10 metrni tashkil etadi. Yana bir me'moriy obida – podsho Xammurapi davrida asos solingan, keyinchalik bir necha bor ta'mir etilgan "Bobil minorasi"dir. Uning balandligi 91 metr bo'lib, 7 qavatni tashkil etgan.

Qadimgi Bobilning diqqatga sazovor joylaridan biri-Semiramida bog'lari hisoblanadi. Uning yaratilish tarixi juda qiziq bo'lgan. Podsho Navuxodonosar II va Midiya podshosi Kiaksar o'rtasida bitim imzolaniib, Navuxodonosar II Midiya malikasi Amitasga uylanadi va uni Bobilga olib ketadi. Podsho malikani ko'nglini olish uchun bog'

barpo etishni buyuradi. Bog' piramida shaklida 4 qavatdan iborat bo'lib, har bir qavatni 25 ustun ushlab turgan. Ushbu inshoot doimo yashil tepalik ko'rishida bo'lib, har kuni yuzlab qullar suv ko'tarma g'ildiragini aylantirib, butun bog'ni suv bilan ta'minlab turgan. Ahamoniylar davrida bog' qarovsiz qoladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Babil podsholigi davri necha asr davom etgan?
2. Qaysi Babil podshosi jangda xetlar bilan to'qnashgan?
3. Xammurapi islohatlarining mohiyati nimada?
4. Kassitlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Podsho Xammurapi qonunlarining tarixiy ahamiyatiga izoh bering.
6. Qadimgi Babil va Elam munosabatlarining iqtisodiy ahamiyatini yoritib bering.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Веллард Дж. Вавилон. Расцвет и гибель города чудес. – М., 2003.
2. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
3. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Сост. и коммент. А.А. Вигасина. – М., 1997.
4. Саггс Х. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. – М., 2004.
5. Якобсен Т. Сокровища тьмы: история месопотамской религии. – М., 1995.
6. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003
7. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. - T. Fan va texnologiya, 2009.
8. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.
9. Leick, Gwendolyn. The Babylonians: An Introduction. New York: Routledge, 2003.
10. Leick, Gwendolyn. The Babylonians: An Introduction. New York: Routledge, 2003.

11. I.E.S. Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

12. I.E.S. Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

7-mavzu. Qadimgi Ossuriya

Reja

1. Qadimgi Ossuriya davlatini vujudga kelishi
2. O'rta Ossuriya podsholiklarining ichki va tashqi siyosati.
3. Yangi Ossuriya podsholigining yuksalishi.

Qadimgi Ossuriya davlatini vujudga kelishi. Qadimgi Ossuriya davlatchiligi mil. avv. II ming yillikda Mesopotamiyaning shimoli, ya'ni yuqori Dajla qirg'oqlarida Ashshur shahar-davlati negizida paydo bo'ladi. Dastlab shahar-davlat "alum Ashshur", ya'ni Ashshur jamoasi (yoki Ashshur xalqi) sifatida tilga olinadi. Ossuriyada zirotchilik va savdo-sotiq yetakchi o'rin egallagan. Bu yerga qadimda Arabiston yarim orolidan somiy xalqlari ko'chib kelganlar va mahalliy etnoslar bilan aralashib ketadilar. Ossuriyaliklar Akkad tilining shimoliy lahjasida so'zlashganligi manbalarda keltiriladi. Ossuriya orqali savdogarlar Kavkazortidan Dajla daryosi bo'ylab Janubiy Mesopotamiya va Elamga, so'ngra O'rtayer dengizi qirg'oqlariga chiqqanlar.

Qadimgi Ossuriya jamiyatida evolyutsion ravishda mulkiy tabaqalanish jarayoni quldorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Podsho va ibodatxona yerlarida jamoachilar va qullar mehnat qilishgan. Ossuriyada yerning asosiy qismini jamoa yer egaligi tashkil qilgan.

Boshqaruvda hokimiyatning yuqori organi yirik quldorlardan tuzilgan oqsoqollar kengashi bo'lgan. Kengash a'zolari ichidan bir xil muddatga alohida lavozimli shaxs "*limmu*" tayinlangan, aynan, u shahar xazinasini nazorat qilgan. Yangi yil hisobi uning ismi bilan yuritilgan. Ashshur shahar-davlatida ma'muriy ishlar va sud bilan oqsoqollar kengashi shug'ullangan. Mansabdor amaldor "*ukulluma*" aynan, ular tomonidan tayinlangan. Ashshurda yana *en* ("Ishshiakkum") lavozimi ham bor edi. Uning asosiy vazifasi diniy

marosimlarni o'tkazishdan iborat bo'lgan. Davlat xavf ostida qo'lganda (harbiy bosqin paytida) u harbiy qo'mondon vazifasini ham bajargan.

Mil. avv. XIX asr oxirlarida Terka shahri hokimi Belkabi Mesopotamiyaning shimolida muhim savdo markazlaridan biri bo'lgan Mari shahar-davlatiga egalik qilishga urinib ko'radi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab, o'z yerlariga qaytadi, aksincha, Mari podshosi Yaggid-Lim keyinchalik Terka shahrini egallaydi. Belkabini o'g'li Shamshi-Adad dastlab Ekallatum shahriga qochib ketishga majbur bo'ladi. Bu yerda u 3 yilga yaqin hukmronlik qiladi. Mil. avv. 1807-yili Ashshur shahri hokimi Erishum II ni taxtdan qulatadi. O'zini esa, Ashshur podshosi deb e'lon qiladi. Ko'p o'tmay Nineviya shahri ham zabt etiladi va Shamshi-Adad I davlati tarkibiga kiritiladi. Qadimgi bitiklarida unga Ossuriya ustidan hukmronlikni Enlil xudosi taqdim etganligi alohida ta'kidlanadi.

Shamshi-Adad I ko'p o'tmay, Mari yerlariga ham yurish uyushtiradi va shaharni egallaydi. Mari podshosi Yaxdun-Limni o'g'li Zimrilim Yamxad davlatiga qochishga muvaffaq bo'ladi. Mari shahrini bo'ysundirib, u yerga kichik o'g'li Yasma-Adadni hokim qilib qo'yadi. Karxemish shahri bilan o'zaro ittifoq tuzadi. Buning natijasida, Shamshi-Adad I, Yamxad podshosi Sumu-epux bilan doimiy urush holatiga tushib qoladi. Shunday bo'lsa-da, Shamshi-Adad I Yamxad davlatini O'rtayer dengiziga chiqish yo'lidan ma'lum bir vaqt mahrum qilishga muvaffaq bo'ladi.

So'ngra xurritlardan bo'lgan turrukku (Zagros tog'lari aholisi)larga qarshi yurishlar uyushtiradi. Unga qadar shahzoda Ishme-Dagan turrukkular bilan uzoq urush olib borgan edi. Shamshi-Adad I turrukkular sardorlari Bin-Adad, Vilanum, Liday va Zaziylarni mag'lub qilsa-da, lekin turrukku qabilalarini butunlay yenga olmadi.

Shamshi-Adad I Ashshur shahrini o'zining Yuqori Mesopotamiyadagi davlat markaziga aylantiradi va ikki daryo oralig'ining shimolidagi shaharlarni bosib oladi. Shamshi-Adad I ko'proq katta farzandi Ishme-Daganni taxt vorisi sifatida tarbiyalab boradi. Podsho harbiy yurishlar davomida aksariyat Suriya shaharlarini zabt etishga erishadi. Shundan so'ng, Ashshur g'arb savdosida vositachilikni o'z qo'lga oladi. Davlat boshqaruvida podshoning mavqei kuchayadi. Shamshi-Adad I davlat boshqaruvini bevosita o'z qo'lga olib, mutloq hukmdor sifatida davlat boshlig'i, oliy harbiy boshliq va sudya vazifalarini qo'i ostida birlashtirgan edi.

Biroq, boshqaruvni takomillashtirishga zaruriyat tug'iladi. Mamlakat hududi, aholisi tumanlarga bo'linib, ularni boshqarish uchun podsho hokimlari yuboriladi. Shamshi-Adad mil. avv. 1774-yilda vafot etishi bilan 6 yildan so'ng, Mari shahri shahzodasi Zimri-Lim qaynotasi Yamxad podshosidan ko'mak olib, Yasma-Adaddan taxtini qaytarib oladi. Ashshur podshosi Ishme-Dagan ukasiga yordam ko'rsatmaydi. Mil. avv. 1757-yilda kuchsizlanib qolgan Ossuriya podsholigi Ishme-Dagan davrida Bobilning qudratiga bas kela olmadi. Ashshur bobilliklar podshosi Xammurapi tomonidan zabt etildi.

Mil. avv. 1740-yillar atrofida ko'chmanchi kassit qabilalarining Mesopotamiyaga hujumi davrida Shamshi-Adad I ning avlodlari hokimiyatni yana o'z qo'llariga oladilar. Ammo, tez orada taxminan mil. avv. 1700-yillarda hokimiyatni Adasilar sulolasi egallaydi. So'ngra, Ossuriya, Bobilga keyin Mitanniga qaram davlatga aylanib qoladi.

Mil. avv. XVI asrda Bobilda amoriylar sulolasi quladi va bu hududda kassitlar hukmronligi boshlandi. Mil. avv. 1500-yillar atrofida Mitanni davlati Shimoliy Suriya viloyatlarini bosib oidi va o'z qudratining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Zaiflashib qolgan Ossuriya, Mitannining hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi. Ossuriya qudratli Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqalar o'rnatadi. Ammo, mil. avv. XIV asr o'rtalarida Mitanni podshosi Shaushtatar Ashshurni bosib olib, uni Mitanniga qaram qiladi. Mitanni Ashshurni g'arbga chiqadigan savdo yo'lidan butunlay mahrum qiladi. Ashshur podsholari Puzur-Ashshur III (mil. avv. 1521-1497 yy), Ellil-natsir I (mil. avv. 1497-1484 yy) lar davrida Ashshur shahri Mitanni qo'shinlari tomonidan talon-taroj qilinadi. Natijada Bobil bilan do'stona munosabat o'rnatishga majbur bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, podsho Eriba-Adad I (mil. avv. 1392-1366 yy) Mitanni davlatining vassallaridan biri bo'lgan. Hatto Mitanni hukmdori Shutarna II ga amakisiga qarshi kurashda yordam bergan. Mitanniga qaramlik davrida Ashshur hukmdorlari "*ishshiyakum*" unvonida qolaverganlar. Keyinchalik, Ossuriya o'z mustaqilligini tiklash uchun Bobil podsholigi bilan yaqinlashib, Mitanniga qarshi urush olib bordi.

O'rta Ossuriya podsholigining ichki va tashqi siyosati. Ashshur ishshiyakumasi Ashshurubalit I (mil. avv. 1365-1330 yy) nettlar podshosi Suppiluliuma I qo'shinlari Mitanni poytaxti Vashukannani egallaganidan foydalanib qoldi. U shimoliy

Mesopotamiya yerlarini o'z mulklariga qo'shib olib, Ossuriyani Mitanni ta'sir doirasidan chiqaradi. Shu tariqa, Ossuriya mustaqil podsholikka aylanadi. Ashshurubalit I endi o'zini buyuk podsho deb nomlar edi. Bu esa kassitlardan bo'lgan Bobil podshosi Burnaburiash I ga yoqmadi. Chunki, Bobil davlati Ossuriyani erkin mamlakat sifatida ko'rishni istamas edi. Misr esa yangi tuzilgan Ossuriyani davlat sifatida tan oladi. Ossur savdogarlari va elchilari Misrga hech qanday to'siqsiz kirib borishgan. Oxir-oqibat Burnaburiash I Ossuriya mustaqilligini tan oladi va o'z o'g'li Karaindashga, Ashshurubalit I ning qizini nikohlab, ikki davlat o'rtasida tinchlikni o'rnatadi. Ammo, ko'p o'tmay, ikki davlat o'rtasida harbiy harakatlar boshlanib ketadi. Unda Ashshurubalit I ning qo'li baland keladi. Bobil davlati vaqtincha kuchsizlanadi.

Tez orada ossurlar xetlarni Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqarib, Frot daryosi qirg'oqlariga qadar hududlarini kengaytiradilar. Natijada, oldin Mitanniga qaram bo'lgan Nineviya shahrini bosib oladilar. Janglarda Ossuriya askarlari o'zlarini o'ta beshafqatligi bilan shuhrat qozongan edilar.

O'rta Ossuriya podsholigining yuksalishi podsho Adad-Nerari I (mil. avv. 1295-1264 yy) davriga to'g'ri keladi. Uning davrida Ashshur shahri oqsoqollar kengashining podsho hokimiyatiga ta'siri kamayadi. Hukmdor endi ishshiyakumma unvoni o'rniga o'ziga podsho unvonini berib, hatto "Buyuk podsho" unvoniga ham da'vo qiladi. Shu bilan birga, kassitlardan bo'lgan Bobil podshosi Nazimarut-tashni jangda yengib, Ossuriyaning janubiy chegaralarini mustahkamlaydi. Turrukku va Nigimxi (Zagros tog'lari etaklari) mamlakatlarini bosib olishga erishadi. So'ngra, Mitannini kuchsizlanib qolganidan foydalanib, Tayda, Amasak, Kaxat, Shuri, Nabulu, Shaduxu va Vashukanna shaharlarini bosib oladi. Mitanni taxtiga o'zining tarafdori Shattuar II ni o'tqazadi. Mitanni davlati o'lpon to'lashga majbur bo'ladi.

Adad-Nerari I dan keyin Ossuriya taxtiga Salmanasar I (Shulmanu-asharedu I) keladi. Uning davrida Mitanni yerlari ossurlar tomonidan bosib olinadi. Mitanniliklar tomonida xetlar ham jang qilganligi manbalarda ta'kidlanadi. Natijada, 14 400 ga yaqin dushman askarlari asir olinib, Salmanasar I ning buyrug'i bilan ko'zlari ko'r qilinadi. Bu orada Xett davlati Misr bilan sulh tuzib,

Bobil bilan ittifoqni qayta tiklashga erishadi. Oqibatda, Old Osiyo mintaqasida kuchlar muvozanati tiklanadi.

Ossuriya podshosi Tukulti-Ninurta I (mil. avv. 1233-1197 yy) Bobilga va Kavkazortiga g'olibona harbiy yurishlar uyushtirdi. Xett davlati podshosi Tudxali IV sharqdagi mulklarini himoya qilish uchun Tukulti-Ninurta I ga qarshi qo'shin tortdi. Ammo, yozma manbalarda Tudxali IV o'z qo'shiniga ishonmaganligi ta'kidlanadi. Oqibatda, Ossuriya podshosi Tukulti-Ninurta I Erbil shahri yonida g'alaba qozonadi. Yozma manbalarda Tukulti-Ninurta I jangdan so'ng, xetlardan 28 800 ta kishini asir olgani ta'kidlanadi. Xetlar davlati kuchsizlana boshlaydi.

Bu orada janubda Bobil davlati urushga tayyorlana boshladi. Bobil va Ossuriya harbiy kuchlar jihatidan teng edi. Mil. avv. 1223-yili Tukulti-Ninurta I Bobilga yurish qilib, podsho Kashtiliash IV ni asir oladi va uni kiyimsiz kishanlangan holda Ashshurga olib ketadi. Bobildan, shuningdek, xudo Marduk haykalini ham Ossuriyaga olib ketishga muvaffaq bo'ladi. Podsho Ashshurdan 3 km shimoli-sharqda o'zi uchun yangi poytaxt Kar-Tukulti-Ninurta ("Tukulti-Ninurta savdo qo'nalg'asi") shahrini qurdirdi. Ashshurda Ishtar xudosi ibodatxonasini qayta tiklaydi. Ammo, Ossuriya zodagonlari podshoning Bobil ilohlariga qarshi qilgan shakkokligini bahona qilib, unga qarshi fitna uyushtiradilar. Oqibatda, Tukulti-Ninurta I aqldan ozgan deb e'lon qilinadi va uy qamoqiga olinib, o'ldiriladi. Taxtga fitna ishtirokchisi podshoning o'g'li Ashshur-nadin-apal o'tiradi. U otasidan farqli o'laroq, Marduk xudosi haykalini Bobilga qaytarib yuboradi. Ammo, bu bobilliklarni tinchlantira olmaydi. Ko'p o'tmay Bobilda qo'zg'olon boshlanib, ossuriyalik noib shaharni tark etadi. Kassitlardan bo'lgan zodagonlardan biri shaharni ossurlardan ozod bo'lganini e'lon qiladi.

Keyinchalik, Bobil davlati kuchayib, Ossuriyani bosib olgan hududlarning katta qismini egallab oladi. Mamlakat uzoq tashqi urushlar natijasida zaiflashib, ichki nizolar avj oladi. Ossuriya davlati siyosiy tushkunlikka uchraydi.

Podsho Tiglatpalasar I (taxminan mil. avv. 1115-1076 yy) hukmronligi davrida Ossuriya yana kuchayadi. Bu davrda Xett podsholigi frigiyaaliklar (dengiz xalqlaridan biri) hujumidan halokatga uchragan Misr esa siyosiy jihatdan kuchsizlangan edi. Yirik qo'shni davlatlar Ossuriyaga xavf solmaganidan foydalanib, Tiglatpalasar I

Shimoliy Suriya va Shimoliy Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy-sharqiy qismlariga harbiy yurishlar uyushtiradi. Mamlakat 38 yil davomida qo'shni xalqlar bilan urush olib bordi. Tiglatpalasar I o'z jang aravalarini Kichik Osiyoning tog'li o'lklariga ham boshlab bordi. Bir kun ichida Karxemish shahri ossuriyaliklar tomonidan zabt etildi. Hatto Misr fir'avni Tiglatpalasar I ga sovg'a sifatida timsoh yuboradi.

Tiglatpalasar I Bobil podshosiga qarshi ikki marotaba harbiy yurish qilib, vaqtincha uni kuchsizlantirishga erishadi. Lekin bobilliklar o'z mustaqilligini saqlab qoladi. So'ngra, oromiy qabilalariga qarshi 28 ta yurish uyushtiradi. Ammo, oromiylarni shimoliy Mesopotamiya yaylovlariga kirib borishiga butunlay to'sqinlik qila olmadi. Tiglatpalasar I vafotidan keyin uning vorislari davrida Ossuriya siyosiy tushkunlikni boshidan kechiradi. Ossuriyaning gullab-yashnashiga mil. avv. XI asrlarda Arabistondan ko'chib kelgan chorvador oromiy qabilalari vaqtinchalik chek qo'yadi. Shu tariqa O'rta Ossuriya podsholigi siyosiy jihatdan tushkunlikka uchradi.

O'rta Ossuriya podsholigining so'nggi hukmdori Ashshur-dan II (mil. avv. 934-911-yy) davrida irrigatsiya ishlari tartibga solinadi. Podsho Ashshur-dan II shaharlarni qayta quradi va dehqonlarga mehnat qurollari yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Ossuriya qo'shini podsholar Salmanasar II va Ashshur-rabi II davridagi mavqega erishadi. Ammo, oromiylar bilan siyosiy munosabatlar o'zgaruvchan bo'lgan. Shimoldagi yerlar hanuz oromiylar nazoratida qolgan edi.

Yangi Ossuriya podsholigining yuksalishi. Mil. avv. X asr oxirlarida tarixda "Ossuriya renessansi" deb nom olgan davr boshlandi. Yuqorida ta'kidlanganidek, podsho Ashshur-dan II mamlakat taraqqiyotini qayta yo'lga qo'yadi. Natijada ossuriyaliklar Shimoliy Mesopotamiyada o'z hukmronliklarini qayta tikladilar va faol istilochilik yurishlarini boshlash uchun zamin yaratdilar. Bu vaqtda Ossuriya armiyasi o'zining yuqori darajada tashkil etilganligi, qurollanish darajasi va jangovor qobiliyati bilan Old Osiyoda birinchi o'ringa chiqib oladi. Ossuriya podshosi Ashshurnatsirpal II (mil. avv. 884-859-yy) davrida dastlab shimoliy g'arbga Dajla qirg'oqlariga yurish qiladi. Mil. avv. 882-yilda Xulay boshchiligidagi qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. So'ngra, O'rtayer dengizi qirg'oqlariga

yurish qiladi. O'zining qarorgohini yangi poytaxti Kalxu (Kalax)ga ko'chiradi hamda Bit-Zamani o'lkasi podshosi Ilanu boshchiligidagi qo'zg'olonni bostiradi va ichki nizolarga chek qo'yadi.

Ashshurnatsirpal II podsholigi darida Ossuriya yana imperiyaga aylanadi. U Nineviya shahrini davlatining shimolidagi tayanch nuqtasiga aylantirdi. Dajla daryosi qirg'oqlarida Kalxu shahrini qayta tiklab, poytaxtga aylantirdi. Ashshur shahridan mohir ustalar va bog'bonlar olib kelinib, shahar obodonlashtirildi. Hukumatni ham shu yerga ko'chiradi. Mil. avv. 876-yilda Ossuriya qo'shinlari Finikiya qirg'og'iga chiqdilar. Salmanasar III (mil. avv. 859-824 -yy) Suriyaga yangi harbiy yurishni amalga oshiradi. Bu hududda Ossuriyaning ekspansiyasiga qarshi bir necha shahar-davlatlarning Damashq podsholigi boshchiligidagi ittifoqi tashkil topadi. Suriya, Falastin, Finikiya, Kilikiya va Damashqning birlashgan qo'shinlari ossur qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdilar (mil. avv. 853-yilda Oront daryosi yonidagi jang). Mil. avv. 845-yilda Salmanasar III 120 ming kishilik qo'shin bilan Suriyada yana jang harakatlarini boshladi. Lekin bu harbiy harakatlar ham muvaffaqiyatli chiqmadi. Ossuriyaliklar vaqtinchalik Suriyadan chekinishga majbur bo'ldilar. Ammo, tez orada ittifoqchi shahar-davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklar boshlanib, ossurlar bundan juda yaxshi foydalandilar hamda mil. avv. 841-yilda harbiy harakatlarni qayta boshlab, Suriyada o'z hukmronliklarini o'rnatishga erishdilar. Mil. avv. 840-yildagina Frot daryosi ortiga 16 ta harbiy yurishdan so'ng, Damashq podsholigi bo'ysundiriladi. G'olibona yurishlar boy o'ljalarni qo'lga kiritish imkoniyatini tug'dirdi. Ossuriya hukmdorlari Ashshur va Kalxu shaharlarida ulug'vor saroy va ibodatxonalar bunyod qildilar. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishni yangi bosqichiga chiqadi.

Mil. avv. 824-yilga kelib, podsho Salmanasar III ga qarshi uning o'g'li Ashshur-dan boshchiligidagi Ossuriyaning 27 shahari birlashib, isyon ko'taradi. Ayni shu payt hukmdor olamdan o'tadi. Taxt vorisi etib boshqa farzandi Shamshi-Adad V (Bobil malikasining eri) ni tayinlab ketadi. Ammo, tez orada Ashshur-dan ukasini quvib yuborib, taxtni egallaydi. Shamshi-Adad V Bobil podsholigiga qochib ketadi. Bobil podshosi Marduk-zakir-shumi (qaynotasi) bilan kelishuv imzolab, Ashshurni zabt etdi. Ammo, Bobil rahnamoligida podsho unvonidan pastroq darajadagi unvonga sazovor bo'ladi. Shunday

bo'lsa-da, Ossuriya ichki va tashqi siyosatni mustaqil amalga oshirar edi.

Ossuriya o'zining iqtisodiy, harbiy qudratini qayta tiklab, siyosiy markazlashuv va barqarorlikka erishdi. Istilochilik urushlari natijasida, Ossuriya iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xomashyo (metall va yog'och)ga boy bo'lgan hududlar egallandi. Natijada, qullar mehnatiga ehtiyoj tez o'sa boshlaydi. Ossuriyaning istilochilik urushlari olib borishining yana bir sababi, mamlakat quruqlik va dengiz savdo yo'llari kesishgan hududda joylashgan edi.

Ossuriya Kichik Osiyo va asosan, O'rtayer dengizining sharqiga o'z ta'sirini kuchaytirishga urindi. Bu hududlarda savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi keng yo'lga qo'yilgan, tabiiy boyliklarga boy edi. Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'oqlaridan muhim xalqaro savdo yo'llari o'tgan bo'lib, bu yerda boy savdo – hunarmandchilik markazlari Tir, Sidon, Arvad, Bibl, Damashq va Karxemish kabi shaharlar mavjud edi.


Mil. avv. 783-yili Ossuriya podsho taxtiga Salmanasar IV o'tirib, to'qqiz yil hukmronlik qiladi. Uning boshqaruvi davrida Ossuriya armiyasi avvalgi g'alabalarga erisha olmaydi. Aksincha, tashqi dushmanlardan himoyalanişga majbur bo'ladi. Damashq shahri oromiy davlatining poytaxtiga aylangan bo'lib, kuch-qudrati yanada oshgan edi. Bu davlat hatto Ossuriyaga ham tazyiq o'tkazganligi manbalarda ta'kidlanadi. Ushbu urushlardan birida Ossuriya hukmdori Salmanasar IV Isroil hukmdori Ieroam II bilan ittifoq tuzib, oromiylarga qarshi harakat olib boradi. Ossuriya davlatining shimolida xurritlar va urartlar ham xavf tug'dira boshlashdi. Podsho Salmanasar IV ning vorislari davrida urartuliklar Ossuriyaning katta hududlarini egallashga muvaffaq bo'lishgan. Mil. avv. VIII asrda Ossuriya vaqtincha iqtisodiy tushkunlikka yuz tutadi. Ichki ziddiyatlar, qo'zg'olon va isyonlar boshlanadi. Ossuriya uzoq vaqt olib borilgan urushlar natijasida zaiflashib qoladi.

Ossuriyaning qayta yuksalishi mil. avv. 746-727-yillarda hokimiyatni to'ntarish yo'li bilan olgan Kalxu hokimi harbiy boshliq Pul (taxtdagi ismi podsho Tiglatpalasar III) davrida boshlandi. Kuchli sarkarda Tiglatpalasar III podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun qator islohotlar o'tkazadi. U Ossuriya tarkibidagi o'lkalarni kichik-kichik noibliklarga bo'lib yuboradi. Viloyat hokimlari ustidan

markaziy hokimiyatning nazorati o'rnatilib, noiblarning vakolatlari cheklanadi.

Podsho Tiglatpalasar III davlatdan maosh oladigan kuchli muntazam qo'shin tuzadi va ko'ngillilarni harbiy xizmatga chaqirmay qo'yadi. Ossuriya armiyasiga aholining o'rta va past tabaqalari xizmatga tortiladi. Qo'shinlar bir necha qismlarga bo'lingan edi. Ya'ni, piyodalar qo'shinda ko'pchilikni tashkil qilib, yengil va og'ir qurolli qismlarga bo'lingan edi. Qo'shinda avvalgidek jang aravalaridan foydalanib kelingan. Keyinchalik otliq qismlardan keng foydalanila boshlanadi.

Undan keyin taxtga o'g'li Salmanasar V (mil. avv. 727-722 yy) o'tiradi, uning hukmdorlik davri haqida ma'lumotlar kam keltirilgan. Ichki siyosatda Salmanasar V poytaxt Ashshur aholisiga, boshqa shaharlar qatori turli soliq va majburiyatlarni yuklaydi, bu esa, poytaxt aholisi tomonidan o'z huquqlariga nisbatan hurmatini yo'qotadi. Tashqi siyosatda esa, podsho Salmanasar V besh yil davomida Finikiya shahri Tirni qamal qiladi, shu yillar arafasida o'lpon to'lashdan bosh tortgan Isroil davlatini yo'q qilishga qaror qiladi, lekin hukmdorning o'zi bu urushda halok bo'ladi.



So'ngra Ossuriya taxtini mashhur Sargon II (mil. avv. 722-705 yy) egalladi.

Hukmronligining dastlabki yillarida yangi podsho Babil va Elam ittifoqiga qarshi yurish qiladi. Garchi, bu yurishlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa-da, chegaradagi Der shahri Ossuriya

tarkibida qoladi. So'ngra, Sargon II mil. avv. 721-yilda Isroilga qarshi yurish boshladi va mamlakatni talon-taroj qilib, aholisini Ossuriyaga asir qilib olib ketadi. Yaqin Sharq yerlari ossurlar tomonidan birin-кетин vayron qilinadi.

Shundan keyin Sargon II Suriyaning Xamat shahri hukmdorini asir olgach, uni Ashshurga olib keladi. So'ngra, Karkar shahrini

ishg'ol qilib, talon-tarojdan keyin, shaharga o't qo'yadi. O'rtayer dengizida Kipr orolidagi ioniyalik yunonlarni o'lpon to'lashga majbur qiladi. Nineviya shahri yaqinida o'ziga yangi poytaxt Dur-Sharrun **Sargon II saroyi (Qayta tiklangan nusxasi)** (Sargon shahrini)ni qurdiradi. Mil. avv. 714-yilda Urartuga qarshi urush boshlaydi. U mazkur harbiy yurishga puxta tayyorlanib, Urartu davlatiga sharq tomondan kirib boradi va ularning podshosi Rusa I ni jangda yengadi. Ushbu harbiy yurish olti oy davom etib, Sargon II ning g'alabasi bilan tugaydi. Ushbu g'alaba uning buyukligini yuqori shohsupaga olib chiqadi. Ossuriya hukmdori qarorgohiga Misr, Efiopiya, hatto Arabistondan elchilar tabriklar bilan kelishadi.



Ossurtaf flot qarshisat uchun yug'ock otib burmoqdalar (Lavr muzeyi)

Keyinchalik, Sargon II mil. avv. 710-yili Bobilga yurish boshlaydi. Bu yurishda Sargon II deyarli jangsiz ikki hukmdor xaldeylar podshosi Merodax-baladan va Elam podshosi Shutruk-Naxxunte II ni bo'ysundiradi. Bu voqealardan keyin Sargon II yirik Ossuriya imperiyasini tuzgan ikkinchi Sargon sifatida tarixga kiradi. Bobilni ishg'ol etib, besh yil o'tgach, Sargon II vafot etadi.

Sargon II dan so'ng, taxtga uning o'g'li Sinaxxerib (mil. avv. 704-681 yy) keladi.

Ossuriyaga qaram yerlar ozod bo'lishni istar edilar. Birinchi bo'lib Bobilda zodagon Merodax-baladan rahbarligida qo'zg'olon boshlanib ketadi. Bobilliklar xaldeylar, oromiylar va elamlıklar bilan ittifoq tuzadilar. Birlashgan qo'shin ossurlarga qarshi Kish shahri tomon yurish qiladi. Ammo, Sinaxxerib ularning birlashgan qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi. Merodax-baladan esa, qochishga majbur bo'ladi. Ossur qo'shini Bobilga kirib keladi. Podshoni buyrug'i bilan isyonda qatnashgan odamlarga tegishli ekinzorlar yo'q qilinadi.

Ko'plab asirlar Ossuriyaga olib ketiladi. U poytaxtni Nineviyaga ko'chirdi.


Ko'p o'tmay, Falastinda, Ekron shahri isyon ko'taradi, uning ortidan Finikiyaning Tir va Sidon shahar-davlatlari Ossuriyaga bo'ysunmay qo'yadi. Bu orada Misr yordamiga ishongan Yahudiya podshosi Xizikiya ham Ossuriyaga qarshi chiqadi. Sinaxxerib esa, tezlik bilan isyonlarni bostirishga kirishadi. Yahudiya poytaxti Quddus (Ierusalim) shahri qamal qilingach, Xizikiya ossurlarga 11 tonna kumush va 1 tonnaga yaqin oltin miqdorida o'lpon to'laydi. Sinaxxerib o'z qo'shinlarini misrliklarga qarshi yo'naltiradi, ikki armiya Eltekey yonida uchrashadi. Afsuski, jang natijalari bizga ma'lum emas. Shunday bo'lsa-da Misr qo'shini ortga qaytib ketadi. So'ngra, podsho Sinaxxerib isyon ko'targan Ekron shahrini egallaydi va Quddusni uzoq qamal qiladi. Yahudiya yerlari esa talon-taroj qilinadi. Ammo, ossur qo'shini orasida vabo kasalligi tarqaladi. Natijada Quddus zabt etilmay qoladi. Yangi Ossuriya podsholigining hukmdorlari somiy qabilalaridan, oromiylardan bo'lgani uchun butun davlatda va Mesopotamiyada oromiy yozuvi va tili keng tarqaladi.

Kuchli harbiy qo'shin ossuriyaliklarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan. Agar avvallari har bir harbiy askar, davlat tomonidan ajratib berilgan yerda dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, Yangi Ossuriya podsholigida harbiylar mamlakat xazinasidan maosh olar edi. Ular asosan, temirdan yasalgan qurollar bilan ta'minlanganlar. Shaharlarni qamal qiladigan, qal'a devorlarini buzadigan moslamalar bilan ham qurollanganlar. Ossuriya hukmdorlari harbiy siyosati o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turgan, qarshilik qilgan shaharlar aholisi qilichdan o'tkazilgan. Isyon rahbarlari esa, asirga olinib, qiynoqqa solinib, qatl qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad bo'ysundirilgan xalqlarni qo'rquvda saqlab turishdan iborat edi. Shuning uchun Ossuriya poytaxti Nineviyani "Qonga botgan shahar", deb ta'riflashgan. Agar avvalgi Ossuriya hukmdorlari zabt etgan shahar va hurmat yuzasidan xalqlarni bosh xudolarini sharafiga qurbonliklar keltirishsa, Yangi Ossuriya hukmdorlari aksincha, zabt etilgan xalqlar ibodatxonalarini butunlay vayron qilib tashlab, aholisi boshqa o'lkalarga surgun qilinar edi.

Bunga Sinaxxeribning Bobil va Elamga qarshi urushi yorqin misol bo'la oladi. Masalan Sinaxxerib uzoq qarshilik qilgan Bobilni egallab, uni vayron qiladi va shahar suvga bostiriladi.

Vaqt o'tishi bilan Ossuriya Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qismini ustidan hukmronlikni qo'ldan chiqaradi. Mil. avv. 681-yilda Babilni qamalib, Nabu (xattotlar homiysi) xudosi qurbonlik keltirish orqali qasosini paytida Sinaxxerib ikki kichik o'g'li tomonidan o'ldiriladi.

Podsho Asarhaddon (mil. avv. 680-669 yy) davrida vayron bo'lgan Babil qayta tiklanadi. Babil garchand qaram bo'lsada, Ossuriya bilan ittifoqda bo'lgan alohida podsholik sifatida tan olinadi. Asarhaddon Eron yerlarining shimoliy-g'arbida yashagan skiflar bilan mil. avv. 672-yilda ittifoq tuzadi. Suriya hududi qayta zabt etiladi. Misrga, Nil bo'ylariga harbiy yurish uyushtiriladi va ichki ishlaridan charchagan Misr vaqtincha bo'ysundiriladi. Ossuriya kichik va katta ko'p millatli imperiyaga aylanadi.



Podsho Ashshurbanipalning ovdagi tasviri (Luvr muzeyi)

Ma'muriy jihatdan Yangi Ossuriya hukmdorlari bosib olingan hududlarni mayda ma'muriy birliklarga bo'lib tashlaganlar. Ossuriyaliklarning asosiy maqsadi kelajakda bu hududlarni imperiya tarkibidan ajralib chiqishini oldini olish bo'lgan. Bundan tashqari, ma'muriy birliklarga noib qilib, farzand qoldirish qobiliyatiga ega bo'lmagan saroy og'alaridan hukmdorlar qo'yilgan edi. Asosiy maqsad keyinchalik, yangi kichik hukmdorlar sulolasi paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bo'lgan.

Asarhaddonning vorisi Ashshurbanipal (mil. avv. 669-629 yy) qasosinchilik yurishlari natijasida tashkil topgan ulkan imperiyani qalqab qoladi. U hatto Elamga ham g'olibona yurish uyushtiradi. Ammo, podsho Ashshurbanipal hukmronligining so'nggi yillarida imperiyaning yemirilishi boshlandi. Ashshurbanipal mil. avv. 627-

yilda vafot etdi. Janubda Nabopalar sar boshchiligida xalqlar ishlari ko'rtaradi.

Babil va Midiya podshohlari birgalikda Ossuriyaga qarshi ittifoqda, mil. avv. 614-yilda Ashshurni, mil. avv. 612-yilda Nineviyani zabt etib vayron qiladilar. Mil. avv. 605-yilda Ossuriya davlati butunlay tugatiladi. Uning yerlari Babil va Midiya tomonida bo'lib olinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Ashshur shahrining yuzaga kelishi sabablarini aniqlang?
2. Qadimgi Ossuriya podshohligi qachon paydo bo'lgan?
3. Podsho Tiglatpalasar I ning tashqi siyosati haqida ma'lumot bering?
4. Nineviya shahrining yuksalish davrini to'g'ri ko'rsating?
5. Podsho Sargon II islohotlarining Ossuriya davlati uchun ahamiyatini izohlang.
6. Ossuriya-Urtu urishiga oid yozma ma'lumotlarni taqqoslang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузицина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6 т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток. Греция, Рим. – М: Эксмо, 2004.
4. Сартр Х. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. – М. 2004.
5. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – T. Fan va texnologiya, 2009.
6. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company, 2007.
7. I.E.S. Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
8. I.E.S Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

QADIMGI KICHIK OSIYO

8-mavzu. Qadimgi Xett davlati

Reja:

1. Qadimgi Kichik Osiyoda Xett davlati asoslarining paydo bo'lishi.
2. Yangi Xett podsholigi.
3. Xett madaniyati.

Qadimgi Kichik Osiyoda Xett davlati asoslarining paydo bo'lishi. Mil. avv. III ming yillikda Kichik Osiyoga shimoldan hind-yevropa tilida so'zlashuvchi (B.Grozniyning fikricha yevropoid) xett qabilalari kirib keladi. Taniqli olim S.U.Bauerning ta'kidlashicha, taxminan mil. avv. 2300-yillarda ular Galis daryosigacha bo'lgan yerlarni egallaydilar. Aynan ular temirdan birinchilardan (mil. avv. II ming yillik) bo'lib foydalanishni yaxshi bilganlar. Bu davrda sharqiy Kichik Osiyoda xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimilyatsiya qiladilar.

Xammurapi Mesopotamiyani egallab, uni kuch bilan birlashtirayotgan bir paytda Kichik Osiyodagi hind yevropaliklar qishloqlari mahalliy harbiy boshliqlar boshqaruvidagi uncha katta bo'lmagan podsholikka birlashadilar. Ularni kim bo'lganini aytish qiyin. Shu boisdan bu jarayonni to'liq tasvirlashni iloji yo'q. Faqatgina misrliklar bu podsholik haqida eshitgani va ularning aholisini yagona xalq deb hisoblashganini bilish mumkin. Misrliklar ularni xett so'zi bilan atashgan hamda mazkur xalqning yashash makoni bilan birga – Hatti, ya'ni xetlar deb nomlashgan.

Xetlar yozuvni yaqin hududda yashagan Ashshur savdogarlaridan o'rganganlar. Mil. avv. 1790-yilga kelib xetlar markaziy shahri Kussarda o'z yozuvini yaratganlar. Shu tariqa xetlar tarixga kiradilar.

Kichik Osiyodagi Nesa (Kanes), Puruxanda, Kussar va Xattusa kabi shaharlarni o'z ichiga olgan shahar-davlatlar paydo bo'la boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi mil. avv. XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi. Kussar hokimi Pitxana Nesa shahrini zabt etishi bilan ilk bor xetlarni siyosiy maydonga olib chiqadi. Kussar va Nesa aholisining huquqlari

tenglashtiriladi. Keyinchalik, Pitxananing o'g'li Anitta (mil. avv. 1790-1750-yy) Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi Tuz ko'ligacha bo'lgan hududlarni bosib oladi. Anitta dastlab otasining davrida rasman kuzatuv minorasining boshlig'i sifatida xizmat qilgan. Bu ish undan kichik podsholik chegaralarini qo'riqlaydigan barcha qo'riqchilarning hisobotini eshitishni talab qilardi, xolos. Otasining vafotidan so'ng, o'zini shunchaki "Kussar shahzodasi" deb atagan.


Ammo kelib chiqishi Kussarlik Pitxana va Anitta podsholigi davrida mamlakat Xett deb atalganligi munozarali hisoblanadi. Anitta mahalliy Xatti davlati bilan urush olib borib, ularning podshosi Piyustini jangda yengib, Ullamma va Xarkunu shaharlarini zabt etishga muvaffaq bo'ladi. So'ngra, Salpuva (Qora dengiz qirg'oqlariga yaqin shahar-davlat) ga yurish qilib, podshosi Xutssiyani o'ldirib, u yerdan Siusumma ilohining haykalini Nesaga qaytarib olib keladi. Kussar shahrining ahamiyati Nesa bilan birga oshib boradi. Anitta uzoq vaqt Xattusa shahar-davlati bilan qonli urush olib borib, hatto uni vayron ham qilgan edi. Ko'p o'tmay xettlar Salatvaru shahrini ham egallaydilar, Purusxanda podshosi o'zini Anittaning vassali deb tan olib, unga temirdan yasalgan taxtini (temir hali qimmatbaho hisoblangan) yuborishga majbur bo'ladi. Podsho Anitta o'z davri uchun zamonaviy armiya (1400 kishilik doimiy qo'shin) tuzib, unda 40 ta jang aravalari bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Biroq xett hukmdori Anittaga otasidan Nesa shahri bilan birgalikdagi ikkita shahardan iborat juda kichik podsholik meros qolgan edi.

O'z vaqtida Dajla va Frot yerlarida kurashgan zamondoshi Xammurabi kabi Anitta yangi xalqqa asos soldi. U "Men quyosh chiqadigan barcha yerlarni bosib oldim" deb ta'kidlaydi va o'zini "kayaz" emas, balki "buyuk podsho" deb atay boshlaydi. Anitta o'z davlatida to'liq qirq yildan ko'proq hukmronlik qildi.

Xattusa qayta tiklangunga qadar Anitta tomonidan asos solingan podsholik yana ikki avlod tomonidan Kussar shahri markaz sifatida saqlandi. Xattusa yaqinida yettita kichik daryo bo'lib, uning bo'yidagi yerlar hosildor edi va u yerda qoya bo'lib, oson himoyalangan saroy qurish mumkin bo'lgan.

Podsho Anita vafotidan keyin, mil. avv. XVII asr oxirida boshqa Xett sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlati asoslarini birlashtiruvchi siyosatni saroy a'yonlaridan chiqqan Papaxdilmaning o'g'li podsho Labarna (yoki Tabarna mil. avv. 1680-1650-yy) nihoyasiga yetkazdi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib, Xupisna, Tuvanuva, Nenassa, Landa, Sallara, Puruxxanda va Lusna shahar-davlatlarini egallab, joylarga o'z o'g'illarini hokim etib tayinlaydi. Bu vaqtda Xett davlati o'z chegaralarini "dengizdan-dengizgacha" kengaytirdi. Uning ichki va tashqi siyosatidan kuchli ta'sirlangan va tan bergan keyingi vorislari (masalan, Xattusili va Telepinus va boshqalar) Labarna va uning rafiqasi Tavanna nomlarini o'zlariga unvon sifatida qabul qildilar. Xett davlati davriga oid arxiv hujjatlari mil. avv. 1650-yildan boshlab mamlakat tarixini yoritib boshlagan. Keyinchalik, Qadimgi Xett podsholigi hukmdorlaridan biri Telepinus yozdirib qoldirgan ma'lumotlar o'z aniqligi bilan ajralib turadi. Hukmdor poytaxtni Kussardan Xattusaga ko'chirganidan so'ng, u "Xattusalik sifatida" Xattusili I nomini oldi. Labarna Kichik Osiyodan O'rtayer dengizi shimoli-sharqiy sohillaridagi g'arbiy somiy podsholigiga harbiy yurishlar boshlaydi va bir nechta kichik shaharlarni egallaydi. Anita xett xalqiga asos solgan bo'lsa, Xattusili I bir necha xalqlarni birlashtirgan imperiyani barpo qildi.



Xattusa darvozasi xarobalari

Xattusili I Xett podsholigining eng ko'zga ko'ringan hukmdorlaridan biri bo'lgan. U hukmdorligining birinchi yilidayoq Sanvittaga yurish uyushtiradi. Xettlar bu shahar atrofini talaydilar, ammo shaharga zarar yetkazmaydi. Hududda o'zining garnizon qo'shinlarini qoldirib, Xattusili Salpa (bu Kichik Osiyoning markaziy qismida joylashgan Salpa emas, balki shimoliy Suriya yo'lidagi boshqa Salpa) shahriga qarab harakatlanadi, shaharni egallab uni to'liq vayron qiladi. Xudolarning haykallari va qimmatbaho buyumlar ko'rinishidagi qo'lga kiritilgan o'ljalari Arinnu shahridagi quyosh xudosi Vurunsem, momoqaldiroq xudosi Taru ibodatxonasiga sovg'a sifatida beriladi.

Keyingi yili Xattusili I shimoliy Suriyaga bostirib kiradi. O'zining annallariga ko'ra, Xattusili I Alalax (xett Alalxa) shahrini egallaydi va uni vayron qiladi. Lekin arxeologik qazishmalar Xattusili davrida vayron qilinganini tasdiqlamaydi. Ehtimol, bu yurish talonchilik va o'ljalari qo'lga kiritish maqsadida amalga oshirilgan va Xattusili o'zining oldiga shaharni vayron qilish vazifasini qo'ymagan. So'ngra, Karxemishdan shimolroqda Frot daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan, yaxshi himoyalangan Urshu (xettcha Varsuva) shahrini qamal qiladi. Xettlar Urshuni egallay olmaydilar, ular yaqin atrofdagi hududlarni vayron qilish bilan cheklangan. Ko'p o'tmay, xettlar Igakalish (xettcha Ikakali), Tasxiniya shaharlarini egallaydilar, shuningdek, Urshu, Luxutsanti shahrini ham bo'ysundirganlar. Shimoliy Suriya mil. avv. XVII asr oxirida Kichik Osiyo shaharlariga qaraganda boyroq edi va bu yerda Xattusili I ko'plab boylik hamda boshqa hunarmandchilik buyumlarini qo'lga kiritib, o'zi tomonidan qurilayotgan ibodatxona va saroylarni ular bilan bezatadi.

Xattusili I o'z hukmdorligining 3-yilida Kichik Osiyoning g'arbida joylashgan Arsava mamlakatiga hujum uyushtiradi. Lekin xettlarning qo'shinlari Arsavada urush olib borayotgan bir paytda Xanigalbatdan (Mitanni) xettlar davlatiga yurish qilinadi. Natijada, ko'p joylar xettlar ta'siridan chiqib ketadilar. Xattusili I annallari faqatgina Xattusa shahri unga sodiq qolganini ko'rsatadi. Qadimgi xett manbalaridan birida xurritlarni Ilansur mamlakatiga (Xalpa yo'nalishida Frot dan g'arbida joylashgan) to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun chaqirilgani yoziladi. Jumladan, ushbu manbada "Qachonki biz (ya'ni, xettlar) Ilansurni bosib olmoqchi bo'lganimizda Ilansur hukmdori xurri qo'shinlari shohlari - Uvanti, Urutitti, Arka va

Uvagatsandan yordam soʻrab murojaat qildi va sovgʻa sifatida ularga oltin boʻlaklari joʻnatdi”, degan jumlar keltirilgan. Xurritlar esa, oʻsha paytdagi poytaxt Kussar va boshqa yirik xett shaharlariga hujum qiladi. Balki, bu hujumlar siyosiy va maʼmuriy markazni Kussardan Xattusaga koʻchirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etgandir.

Xattusili I xurritlarning bosqinini bartaraf qiladi va ularning hujumi davrida qoʻzgʻolon koʻtargan qaram hududlarni bostirishga kirishadi. Podsholigining 4-yilidayoq ixtiyoriy ravishda dushmanga darvozalarini ochib bergan Nenassa shahrini boʻysundirishga erishadi. Shundan soʻng, xetlar Ulma shahar-davlati tomon harakatlana boshlaydilar, janglarda qoʻzgʻolonchilarni yengib, mamlakatni talon-taroj qilib, shaharni vayron qiladilar. Xattusili I Ulma yoʻlidan qaytayotib Salaxsuvu shahrini yoqib yuboradi va uning aholisini quiga aylantiradi.

Hukmronligining 5-yilida Xattusili 6 oylik qamaldan soʻng, Sanaxvitta shahrini vayron qiladi. Keyin xetlar Appay va Ummay shaharlarini bosib oladilar, ayniqsa, Ummay toʻliq vayronaga giriftor boʻladi. Soʻngra, xetlarga qarshi ittifoqni boshqargan Parmann shahri podshosiga yurish qiladi, lekin qoʻzgʻolonchilar jangsiz taslim boʻlib, Xattusili I ga shahar darvozalarini ochib beradilar. Soʻngra, Xattusili I Alaxxa shahrini egallab, Xattusaga qaytadi.

Xattusili oʻz mamlakatining sharqiy va janubi-sharqiy hududlaridagi qoʻzgʻolonlarni bostirib, shimoliy Suriyadagi shahar davlatlarga qarshi harbiy harakatlarni qayta boshlaydi. Bu yerda mahalliy gegemoniyani oʻrnatgan Yamxad (poytaxti Xalap yoki Xalpa) shohligi bilan toʻqnashishiga toʻgʻri keladi. Xattusili I hukmronligining 6-yilida Zarunti (xettcha Saruna) shahrini bosib oladi va uni vayron qiladi. Shundan soʻng, xett jangchilari yirik shahar Xashshuga (xettcha Xassuva) yurish boshlaydilar. Xashshuga yordam berish uchun Xalpa podshosi Yarimlim III ikki lashkarboshisi: Zugrashi (xettcha Sukrasi) — “Ukush” otryadi boshligʻi va Zaludi (xettcha Saluti) — “Manda qoʻshinlari” boshligʻi bilan shoshiladi. Adalur togʻlarida (Karxemishdan shimolda) Yarimlim tor-mor qilinadi va chamasi u yerda halok boʻladi. Bu haqda Alalax arxivida, Xalap “Ukush” otryadi yoʻlboshchisi Zugrashi xabar beradi. Xett qoʻshinlari raqibni izma-iz taʼqib qiladi, bir necha kundan soʻng, Purun daryosidan oʻtishadi soʻngra ularni oʻz hududida yengadilar. Xashshu shahri vayron qilinadi va oʻt qoʻyiladi. Xattusili I boʻlsa, shaxsan oʻzi

bu shahar hukmdori o'g'lini boshini tanasidan judo qiladi. Shundan so'ng, xetlar Sippasna shahrini egallaydilar va Xaxxa shahriga (xetcha Xaxxum, zamonaviy Samsat yaqinida) yaqinlashadilar, bu shaharga hujum jarayonida uchta jangda g'alaba qozonib, uni egallaydilar. Xattusili I o'zining annallarida Xaxxaga, hattoki akkadlik Sargon ham o't qo'ya olmaganini xabar beradi. Shu bilan birga, Xattusili I Xaxxani yoqibgina qolmay, Xaxxa va Xashshu shohlarini o'zining aravalariga ho'kiz sifatida qo'shib tahqirlaydi.

Xattusili I annalari faqat hukmronligining dastlabki yillari, aniqrog'i, uning hukmronligining 10 yilini tasvirlaydi, unga ko'ra, xetlar shu yillar ichida Yamxadga sezilarli zarbalar bergan. Yamxadga qarshi yirik harbiy ekspeditsiyalar keyingi yillarda Xalapning shimoliy ittifoqchilari - Karxemish, Zaruar, Xurpana, Ashtatalar tor-mor etilganda ham bo'lgan. Yamxadga qarshi kurash juda beshafqat ko'rinish olgan. Aftidan o'zining harbiy yurishlaridan birida Xattusili I og'ir yaralanadi, uning vorisi Mursili I o'zining yozuvlarida "Xalapdan otasining qoni uchun o'ch olganini" ta'kidlaydi. Oxir oqibat, Xalap bilan tinchlik sulhini tuzadi.

Xattusili I davlati qabilalar konfederatsiyasi shaklida edi. Davlat tashqi jihatdan kuchli ko'rinsada, ma'muriy boshqaruv tizimi kuchsiz bo'lgan. U, hattoki eng muhim davlat amaldorlari va lashkarboshilarga ham har doim tayana olmasdi. Fitna va suiqaesdlar Xattusili I oilasini doimo larzaga solgan. Dastlab, fitnani uning o'g'li Purusxanta shahrining hukmdori Kitsuvas uyushtiradi. Fitna fosh qilinadi va fitnachilar qo'lga olinadi. Keyin "knyazlar qullari" bosh ko'tarib, "knyazlar xonadoni" vakillarini qira boshlaydilar. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida podshoning o'g'illaridan ba'zilari halok bo'ladilar. Xattusili I ning oilasidagi vaziyat, ayniqsa, podsho keksayib, kasal bo'lganida murakkablashadi. Dastlab, Xattusili I ning o'g'illaridan birini taxtga chiqarishni xohlagan Sinaxuva va Ubariya shaharlari aholisi bosh ko'taradilar. Keyin fitnani Xattusili I ning o'g'li Tappasand shahri (Kichik Osiyo janubidagi shahar, Liviyada) hukmdori Xutssiy boshlaydi. Podsho uni mansabidan chetlatadi. Keyin Xattusili I ning qizi va Xattusaning aslzodalari podshoga qarshi poytaxtda qo'zg'olon boshlaydi va mamlakatda fuqarolik urushi kelib chiqadi. Xattusili I urushda g'olib bo'ladi va qizini Kussarga jo'natadi, lekin u yerda ham fitna boshlanadi. Uni qo'lga oladilar va barcha malikalik huquqlaridan mahrum qiladilar. Xattusili I fitnalarga

chek qo'yish uchun singlisining o'g'li yosh Laparnasni taxt vorisi etib belgilaydi. Lekin u ham podshoni o'ldirish maqsadida fitna tashkil qiladi. Xattusili I fitnachilarni qo'lga oladi. Laparnasni barcha huquqlardan mahrum qiladi. Taxt vorisi va kasal Xattusili I ning hamrohi etib podshoni balog'atga yetmagan nevarasi Mursili belgilanadi. Panku (xalq yig'ini), qo'shinlar va yuqori mansabdagi amaldorlar mamlakatning eski poytaxti Kussarda unga sodiqlik haqida qasamyod qiladilar. Bu Xattusili I ning o'g'illarini g'azablantiradi va ular Mursilini o'ldirib, taxtga Laparnas III ni olib chiqmoqchi bo'ladilar. Ular Mursili balog'atga yetganida va keksa Xattusili I kasalligiga qaramasdan, hali uzoq yashashi mumkinligi oydinlashganida bosh ko'taradilar. Biroq, Xattusili I va Mursili I fitnachilarni tor-mor qiladilar. Laparnas III Xattusili I ning o'g'li Salp shahrini (Qora dengiz qirg'og'i) boshqargan hokim Xappi huzuriga qochadi. Xattusili I ning sabr-toqati tugab, fitnachilarni qarindoshlik rishtalariga qaramasdan, qatl ettirishga kirishadi. Xattusili I Laparnas III ni topshirishni talab qiladi, Biroq, Xappis otasiga rad javobini beradi. Mursili Salpga yurish boshlaydi. Xaraxs yaqinidagi jangda Xappis va Laparnas armiyasi tor-mor qilinadi. Qo'zg'olonchilarning qoldiqlari Salpga berkinadilar, lekin ularning baxtiga Mursili Salpga yurish qilmay, janubga qo'shin tortadi. Faqatgina uch yildan so'ng, Xattusili I va Mursili qo'shin bilan yana Salpda paydo bo'ladi. Uzoq qamaldan keyin shahar egallanadi.

Erishgan ko'plab muvaffaqiyatlarga qaramasdan, Xattusili I Xattusada emas, Kussar shahrida vafot etadi. "Vasiyatnoma" nomli Xett hujjatida uning o'limidan oldin nevarasi Mursili I ga murojaatlari qayd qilingan.

So'ngra taxtga Mursili I (taxminan mil. avv. 1620-1594-yy) o'tirgan. Unga yoshligida Xett knyazi Pimpira ustozlik qiladi. U o'z shogirdini shunchaki hukmdor emas, balki adolatli va shafqatli podsho bo'lishini xohlagan. Shu jihatdan xett yilnomalarida uning "Kim och bo'lsa non ber, kim yalang'och bo'lsa kiyim, kim sovuqdan qiynalayotgan bo'lsa iliqlik" degan so'zlari bejiz keltirilmagan.

Mursili I eng janubiy hududlar bo'lgan Kitsuvadnani (zamonaviy Tarsusa, Mersina va Adana) egallaydi, buni arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Tars (zamonaviy Tarsus) shahri vayron qilinadi. Shuningdek, u tomonidan Xarruma va Xassuva shaharlari bosib olinadi.

Shu tariqa, qator Kichik Osiyo hududlarini egallab, Mursili I Xattusili I davrida bergan sodiqlik qasamini buzgan Xalapga qarshi yurish boshlaydi. Xalap Mursili I tomonidan egallanadi va u bu podsholikni butunlay tugatadi (biroq u keyinroq qayta tiklanadi). Keyin Alalax shahrini ham vayron qiladilar (arxeologik qazishmalar buni tasdiqlaydi). Muvaffaqiyatli yurishlarni davom ettirib, Mursili I shimoliy Mesopotamiyada Frotning chap qirg'og'ida yashaydigan xurritlar ustidan g'alaba qozonadi va Bobilni egallash maqsadida o'ziga ittifoqchilar yig'adi.

Xammurapi sulolasining so'nggi shohlari davrida jiddiy kuchsizlangan Bobil xett bosqiniga qarshilik qila olmaydi. Mursili I taxminan mil.avv. 1595-yilda shaharni egallaydi va shoh Samsuditanni taxtdan qulatadi. Xammurapining avlodlaridan bo'lgan hukmdor qarshilik ko'rsatolmaydi. Mursili I ning shaxsiy qaydlariga ko'ra, u shaharni talon-taroj qiladi, odamlarini asir olib, podshosini zanjirband qiladi. Xammurapining so'nggi avlodini yakuniy taqdiri ma'lum emas.

Mursili I Bobilni o'z imperiyasiga qo'shib olish niyatida bo'lmagan. U bobosi kabi dunyodagi eng qudratli bosqinchi ekanligini isbotlashga harakat qilgan, xolos. Sababi, Bobil uzoqda joylashgan bo'lib, Xattusadan uni samarali boshqarish ancha mushkul edi. Buning o'rniga Mursili I shaharni vayrona holatida qoldirdi va poytaxtga g'alaba bilan qaytadi. U yetarli darajada uzoqlashganidan so'ng, tevarak-atrofdagi kassit sardorlari xarobalarni egallab oladilar. Shu tariqa amoriylarning Bobildagi hukmronligi nihoyasiga yetadi.

Mursili I Xattusaga o'zi bilan asirlar va boylik bilan kirib keldi. Lekin poytaxtda unga qarshi fitna tayyorlanayotgan edi.

Fitnani ishonchli kishilardan biri bo'lgan qaynisi, soqiy Xantili uyushtirgan bo'lib chiqadi. Mursili I yo'qligida Xantili podsho nomidan boshqarishga o'rganib qolgan edi; u to'satdan o'zining hukmdorligini cheklanib qolishiga toqat qila olmas edi. Mursili I Bobildan qaytgandan so'ng, tez orada Xantili saroy amaldori bilan birga podshoni o'ldirib, taxtni egallab oladi. "Ular iblisiy qilmishni sodir etdi", deyiladi xetlar yilnomasida.

Podsho Xantili I (mil. avv. 1594-1560-yy) shimoliy Suriyada xattiar hukmronligini mustahkamlashga harakat qiladi va u yerga muvaffaqiyatli yurish uyushtiradi. Ashtat, Xurpan va Karxemish podsholiklarini bo'ysundiriladi. Xantili I ning Tegaram (Toxma

daryosi havzasidagi zamonaviy Gyuryun) shahriga yurishi xurrit qabilalarining Kichik Osiyoga yangi bosqiniga sabab bo'ladi. Yaxshi saqlanmagan matnlarda bu haqda to'xtalib o'tilgan.

Xantili I davrida Kichik Osiyoning shimolida yashovchi kask qabilalari harakatga keladi va Xett podsholigiga hujum boshlaydilar. Ular aynan shu davrda xettlarni Qora dengizdan butunlay uzib qo'yadilar va avvalgi Qadimgi Xett podsholari davridagi "dengizdan-dengizgacha" hukmronligi haqidagi fikrlar endi yangi xett matnlarida takrorlanmaydi. Xantili I darhol Xett shaharlarini, shu jumladan, Xattusani mudofaa devorlari bilan mustahkamlashga majbur bo'ladi.

Xantili I vafot etgach, ichki kurashlar natijasida taxtga Telepin keladi. Telepin yoki Telepinu -Xett podsholigini taxminan mil. avv. 1525-1500-yillarda boshqargan. U malika – tavanna huquqiga ega bo'lgan Xutsi I ning singlisi Istapariyaning eri bo'lgan.

Fitnalar tufayli xotini Istapariya, keyinchalik, o'g'li Ammuna halok bo'lganligi uchun Telepin "podsho hokimiyati vorisligi haqida" yangi qonun chiqaradi. Bu qonunga ko'ra, endilikda faqat podshoning o'g'illari yoshiga qarab taxtga chiqish huquqiga ega edi. Agar bunday bo'lmasa, qizining eri taxtga chiqishi mumkin bo'lib qoldi. Qolgan barcha hukmdor qarindoshlari taxtga da'vogarlik qilishi mumkin emas deb belgilandi. Xalq yig'ini (panku) esa bu qonunga rioya qilinishini kuzatib borishi shart edi.

Podsho hokimiyatini kuchli mustahkamlagan bu vorislik tartibi, keyingi Xett podsholigi mavjud bo'lgunga qadar amal qildi. Telepin panku (xalq yig'ini) hokimiyatini cheklab, unga faqatgina podsho bilan sulola a'zolaridan biri o'rtasida bahs kelib chiqqanda kelishtirish va sud qilish uchun kengash (tuliya) chaqirish huquqini beradi. Panku qolgan davlat ishlariga aralashishi mumkin emas edi.

Telepin Labarna I dan boshlab, Xett podsholigi uyida bo'lgan barcha voqealarni qisqacha tavsifini qoldirgan. Taxminan Telepin davriga kelib Xett qonunlarining dastlabki varianti tuzilganini aytish mumkin.

Telepin Kitssuvadna hukmdori Ishputaxshu bilan do'stona shartnoma imzolab, Kitssuvadnani Xett podsholigidan mustaqilligini tan oladi. Shunga qaramay, shimoliy Suriyaga boradigan yo'lni o'z qo'lida tutib turishga harakat qildi. Xashshu va Lavatsantiyaga yurishlar uyushtiradi. Manda, Sala, Tamalkiya, Xatra, Salpa shaharlari imtiyozlarini bekor qiladi.

Yangi Xett podsholigi. Tutxaliy III (Tutxaliy III yoki Tashmi-Sharri) Xett podshosi bo'lib, mil. avv. 1400-1380-yillarda hukmronlik qilgan.



Uning davrida Xett podsholigi o'zining eng chuqur inqiroz davriga yetib keladi. Tutxaliy III ning uquvsiz siyosati "Xattilar mamlakati" ning dushmanlar xalqasiga tushib qolishiga olib keldi va hattoki dushmanlar tomonidan vayron qilingan edi. Shimoldan kask qabilalari Nenassa shahriga yetib keladilar, g'arbda Arsava podsholigi qo'shinlari, shimoliy sharqdan Atssi mamlakati qo'shinlari bostirib kiradi va xayaslar mamlakat yuqorisini talashadi, so'ngra Kelkit daryosidagi Samuxa shahrigacha harakatlanishadi. Sharqda Isuva (Ishuva) podsholigi qo'shinlari Tegaramni talon-taraj qilishadi, Armatana davlati qo'shinlari bo'lsa Kitssuvadna shohligi chegaralarigacha yetib kelishadi. Shu tariqa Xett davlati hududlarining katta qismini boy beradi va hozirgi Tokat - Anqara - Nigde - Sivas shaharlari orasidagi hududlarni saqlab qoladi.

Bundan tashqari, kasklar Tarikarimma tog'ini egallab oldilar va davlat poytaxti Xattusa shahrini buzib tashlaydilar (unda faqatgina bitta butun bino - xett oqsoqollaridan birining maqbarasigina saqlanib qoladi).

Tutxaliy III davlatining samarali mudofaasini tashkil qila olmaydi. U asosan o'z shaharlarini qo'shnilardan himoya qilish bilan cheklanadi, hattoki biror-bir joyda tashabbusni qo'lga olishga intilmaydi. Shahzoda Suppiluliuma alohida armiyani o'z qo'mondonligiga olganidan keyin mamlakatdagi ahvol birmuncha o'nglana boshlaydi. U Samuxa shahrini xettlar ta'siriga qaytaradi hamda uni kask qabilalari, Atsi va Xayaslar qo'shinlariga qarshi kurashish bazasiga aylantiradi. Suppiluliuma bir necha yil davomida kasklarning yirik armiyasini yengishni va Xayas qo'shinlarini quvib chiqarishni uddalaydi.

Suppiluliuma sharqda kurashayotgan bir paytda Tutxaliy III janubiy g'arbda hujumga o'tishga harakat qiladi. Biroq, uning Masa

(yunoncha Misiya), Xulan **Tutxaliy IV** daryosi va Kasiy yerlaridagi hujumi kasklar va xayaslarning yangi bosqini tufayli barbod bo'ladi. Tutxaliy III harbiy harakatlarni xayaslar hududida davom ettirishga harakat qiladi, lekin xayaslar podshosi Karanni tomonidan tor-mor qilinadi.

Tutxaliy III hukmronligining oxirlarida Suppiluliuma Arsava qo'shinlarining navbatdagi bosqinini bartaraf qiladi.

U vafoti arafasida tojni iste'dodli, o'zini ajoyib ko'rsata olgan Suppiluliumaga emas, balki hech qanday e'tiborga loyiq bo'lmagan Tutxaliy IV kichikka topshiradi. Tutxaliy III ning o'g'li (boshqa manbalarda nevarasi yoki jiyani) bir necha oy hukmronlik qiladi. Mamlakatga barcha taraflardan bostirib kelayotgan dushmanlarga qarshi mudofaani tashkil qila olmaganligi uchun Tutxaliy III ning o'g'li Suppiluliuma va uning lashkarboshilari tomonidan o'ldiriladi. Suiqasd natijasida Tutxaliy III ning oila a'zolari bo'lgan erkaklarning ko'pchiligi halok bo'ldi yoki qamoqqa olindi va surgun qilindi. Shunday qilib ichki ziddiyatlar hamda tashqi bosqinlar natijasida Xett podsholigi tanazzulga yuz tutadi.

Mamlakatda kelib chiqishi xurritlardan bo'lgan zodagonlarning ta'siri oshib boradi. Suppiluliuma I Xett podsholigining yangi hukmdori sifatida davlatni taxminan mil. avv. 1380-1334-yillarda boshqargan. Suppiluliuma I mohir diplomat, qobiliyatli qo'mondon, uzoqni ko'ra biluvchi siyosatchi bo'lgani uchun Misr podsholigi, kassitlar Bobil va Mitanni davlatlarining kuchsizlanishi natijasida Old Osiyoda yuzaga kelgan qulay xalqaro vaziyatdan foydalanib, Xett davlati harbiy qudratini kuchaytiradi.

Suppiluliuma I hukmronligining eng muhim voqealaridan biri sifatida xettlarning Mitanniga qarshi urushlari bo'ldi. Mitannida hokimiyat tepasiga o'ldirilgan shohning ukasi yosh Tushratta keladi. Tushratta yaqinlari orasida Xett podsholigi bilan yaqinlashish tarafdorlari (xususan katta amaldor Tuxi) yetarlicha bo'lsa ham orada tinchlik shartnomasi tuzilmadi. Keyinchalik Tuxi qatl qilinadi va Tushratta Misr bilan ittifoqni qayta tiklaydi. Suppiluliuma I esa Mitanni bilan kurash uchun hali kuchlar kamligini tushunib yetadi.

Nevarasi Xattusili III tomonidan tuzilgan Suppiluliuma I solnomalarida hikoya qilinishicha, Suppiluliuma I hukmronligining dastlabki 20 yilida mamlakatning qayta tiklash va mustahkamlash bilan shug'ullanadi. U otasiga qarshi bosh ko'targan Kurtalissa,

Aravanna, Zazsa (Zazzisa), Kalasma, Timna (Timmina), Xaliva va boshqa qator shahar davlatlarni bo'ysundirishga erishadi.

Suppiluliuma I yangi fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) bilan do'stona aloqalar o'rnatishga harakat qiladi. Fir'avnga yozgan maktubida davlatlar o'rtasida do'stlikni tiklashni taklif qilib, o'zi bilan Amenxotep III o'rtasidagi do'stona aloqalarni eslatadi. Dastlab xetlar bilan Misr o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi va hattoki Suppiluliuma I Kichik Osiyolik savdogarlar guruhini Suriya va Falastindagi Misr qismida joylashtirishga ruxsat oladi. Lekin keyingi tarixiy sharoit sababli Xett podsholigi va Misr o'rtasidagi do'stlik uzoqqa cho'zilmadi.

Fir'avn Tutanxamonning yosh bevasi Anxesenpaton elchilar orqali Xett podshosiga o'g'illaridan birini o'ziga kuyovlik uchun jo'natishini so'raydi, chunki uning o'g'li yo'q edi va Tutanxamonning o'limidan so'ng, Misr taxtiga voris qolmagan edi. Suppiluliuma I qandaydir firibdan xavotirlanib, Anxesenpatonning asl maqsadini aniqlash uchun Xattusatsiti boshchiligidagi elchilarni Misrga jo'natadi va o'zi esa shu paytda Karxemishni qamal qilishga kirishadi. 8 kunlik qamal davomida xetlar bu kuchli shaharni egallaydilar.

Karxemish shahri qilashi bilan Frotan O'rtayer dengizigacha bo'lgan butun Suriya Xett podsholigi ta'sir doirasiga kiradi. Karxemishni hukmdori etib Suppiluliuma I o'g'li Piyassilini (Sharri-Kushux) tayinlanadi. Boshqa o'g'li Telepin Xalap taxtga o'tkaziladi.

Suriyani bo'ysundirib, Suppiluliuma I o'zining poytaxti Xattusaga qaytadi. Roppa-rosa bir yildan so'ng, keyingi bahorda Misrdan uning elchilari qaytadi, ular bilan birga Misr vakili Xani ham keladi. U malikaning podsho o'g'lini o'ziga er qilish haqidagi xohishini tasdiqlaydi. Suppiluliuma I Misrga o'g'li Sannansani yuboradi.

Suppiluliuma I ning Misrga jo'natilgan o'g'li shahzoda Sannansa yo'lda Misrdagi aksilxett guruhleri tomonidan o'ldiriladi. Bu esa, Xett podsholigi va Misr o'rtasida yangi ziddiyatni keltirib chiqaradi. Xett qo'shinlari taxt vorisi Arnuvanda boshchiligida janubiy Suriyaga bostirib kiradilar. Lekin hal qiluvchi jang sodir bo'lmaydi. Xetlar qarorgohida Misr asirlaridan o'lat kasalligi tarqaladi. Yuqumli kasallik Kichik Osiyoga ham kirib keladi va Suppiluliuma I ning o'zi ham shu kasallikdan vafot etadi. O'lat epidemiyasi 20 yil avjida turadi va Xett aholisining katta qismi qirilib ketadi.

Suppiluliuma I davrida Xett podsholigi shimoldan Araks, janubdan Falastingacha va g'arbda Galis daryosi qirg'oqlaridan Ossuriyagacha, sharqda esa Bobilgacha cho'zilgan qudratli mamlakatga aylanadi.

Xett davlatida yer egaligi podsho yerlari, ibodatxona yerlari, jamoa yerlariga bo'lingan. Davlat yerlariga egalik qilish va foydalanish natural (saxan) va mehnat (lussi) majburiyatlarini o'tash bilan bog'langan. Odatda Saxan va lussidan ibodatxona yerlari ozod qilingan. Xett podshosi xizmatida bo'lgan shaxsiy yoki xususiy kishilarning yerlari hamda hukmdordan sovg'aga olingan yerlar ham saxan va lussi bilan bog'langan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkin bo'lgan.

So'nggi Xett podsholari Tutxaliy IV va uning ikki o'g'li davrida mamlakatni axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklar, Kichik Osiyoni g'arbidan kelgan qabilalar hujumini zo'rg'a qaytaradilar. Axey qabilalari tor-mor qilinganidan keyin, Kichik Osiyo g'arbidagi Ilion shahri zabt etiladi. So'nggi Xett podshosi Suppiliuma II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Mil. avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining etnik jihatdan aralash "dengiz xalqlari" Xett davlatini tor-mor qildilar (mil. avv. 1190-yillar). Tarixda bu davr "Bronza kollapsi" deb ham ataladi. Chunki temirdan foydalanish monopoliyasiga chek qo'yilgan edi. Ushbu rudani eritish sirlari Yaqin Sharq davlatlari orasida keng tarqaladi. Dengiz xalqlari haqida Misr iyerogliflarida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Shunday qilib Yangi Xett davlati tarixda tilga olinmay qo'yiladi. Markazlari Karxemish va Melida shaharlari bo'lgan So'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari mil. avv. VIII asr oxirlariga qadar parchalangan holda mavjud bo'lib turadi. So'ngra, Ossuriya tomonidan tugatildi.

Xett madaniyati.

Qadimgi Xett jamiyatining yuksak madaniy taraqqiyotini arxeologik topilmalarga asoslanib tadqiq etilsa, unda Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyatlari ta'siri bo'lganini ko'rish mumkin. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurrit xaqlarining ta'siri kuchli bo'lgan.

Qadimda boshqa dinlarda bo'lgani kabi xetlar e'tiqodi ham o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Ularda mingga yaqin ma'bud va ma'budalar afsona va yozma manbalarda keltiriladi. Ammo, ko'pincha aholining aksariyati oz miqdordagi ilohlarga sig'inishganligi ta'kidlanadi. Mamlakat poytaxti Xattusaning oliy

homiysi chaqmoq xudosi edi. Xurrit xalqlarining chaqmoq xudosi Tesubga (yoki Teshub) ham e'tiqod qilganlar. Shu bilan birga, quyosh va hosildorlik xudosi Telepin va boshqa ilohlarga sig'inganlar. "Rubaum" (Podsho) quyoshga taqqoslab iloh sifatida ko'rilgan. Ular o'z podsholarini "quyoshim" deb ulug'lab, unga xudo sifatida qarashgan. Yozuvda mixxatdan foydalanishgan va bu holat davlat ishlari, diniy marosimlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalar asosini podsholar qoldirgan bitiklar tashkil etadi. Ayniqsa, podsholar Xattusili I, Telepin va Suppilulium I lar davrida yozilgan mixxat bitiklar qadrlidir. Yozma ma'lumotlardan saqlanib qolgan hukmdorlarning "tarjimai-hollari" o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi.

Xetlar arxitekturasi somiy xalqlarining madaniy yodgorliklariga juda o'xshash bo'lgan. Xetlarning poytaxti Xattusani ark qismi (hozirgi Buyuqal'a) tik qoyada joylashgan bo'lib, o'sha davr mudofaa tizimi talablariga mos qilib qurilgan edi. Ark devorlari zich terilgan tosh bloklardan iborat bo'lgan. Shaharga kirishda darvoza chetlarida sherlar tasviri toshdan o'yib ishlangan. Bogaz Koy va Eyuk manzilgohlari ham tabiiy qoyalar yonbag'rida joylashgan bo'lib, u yerdagi devoriy suratlar Xett madaniyatining yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Eyukda mahobatli sfinks haykallari topilgan va shu bilan birga Kichik Osiyo xalqlari madaniyatiga xos ikki boshli burgut tasvirini ham uchratish mumkin. Xattusadan sharqda bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan Yazilik manzilgohi diniy marosimlar maskani hisoblangan.

Xetlarning toshdan yaratgan haykallari garchand Misr va Mesopotamiyadagi kabi haybatli bo'lmasa-da, ammo ulug'vorligi jihatidan ulardan qolishmas edi. Ayniqsa, toshdan qurilgan qal'a inshootlari, mudofaa devorlarini qurish yuksak darajada bo'lgan. Xett davlatini "dengiz xalqlari" halokatga uchratganidan keyingi asrlarda ham ularning madaniy merosi boshqa qo'shni mamlakatlar madaniyatlarida o'z izini qoldirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Kichik Osiyodagi ilk shahar-davlatlar qachon yuzaga kelgan?
2. Qadimgi Xett davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering?

3. Qadimgi xettlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga qaysi xalqlar o'z ta'sirini o'kazgan?
4. Yangi Xett saltanati hukmronligi davrida madaniy hayot haqida ma'lumot bering?
5. Qadimgi Xett podsholigi xo'jaligiga oid ma'lumotlar qaysi qadimgi qonunlarda o'z ifodasini topdan ?
6. Podsho Telepinning islohotlarini izohlang.
7. Misr-Xett urushlari oqibatini yoritib o'ting.
8. Yangi Xett podsholigi inqirozining sabablarini ko'rsating.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузицина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Волков А. В., Непомнящий Н. Н. Хетты. Неизвестная империя Малой Азии. – М., 2004.
4. Гёрни О. Р. Хетты / Пер. с англ. – М., 1987.
5. Гиоргадзе Г. Г. Вопросы общественного строя хеттов. – Тбилиси: 1991.
6. Гиоргадзе Г. Г. Очерки по социально-экономической истории Хеттского государства (О непосредственных производителях в хеттском обществе). – Тбилиси., 1973.
7. Bryce T. The Kingdom of the Hittites. 2nd ed. Oxford, 2005.
8. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.

9-mavzu. Qadimgi Frigiya va Lidiya davlatlari

Reja

- 1. Qadimgi Frigiyaning iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayoti.**
- 2. Lidiya davlati xo'jaligi va siyosiy taraqqiyoti.**

Qadimgi Sharq tarixida Kichik Osiyo hududida sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar jarayonida Frigiya va Lidiya davlatlari muhim o'rin tutadi. Kichik Osiyo hududidan topilgan dastlabki hujjatlar Xett

tilida emas, balki Akkad tilida yozilgan. Ularning aksariyati ko'hn
Kanish (Kanes) shahri o'rnida joylashgan Ko'ltepa manzilgohi
atroflaridagi qazilmalarda topilgan. Bu yerda mil. avv. XIX –XVIII
asrlarda Dajla bo'yidagi Ashshur va shimoliy Suriyadan kelgan somiy
tilli aholi bilan savdo gullab-yashnagan koloniyalar joylashgan.
O'shanda xalqaro savdoda vositachilik rolini aynan shunga o'xshagan
koloniya shaharlari bajargan.

Bu davr uchun o'ziga xos jihat sifatida xususiy savdoning
rivojlanishini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Biroq, xususiy
sarmoya bu hududdagi siyosiy vaziyat xilma-xil va beqaror
bo'lganligi sababli unchalik katta bo'lmagan. Shu sababli savdogarlar
birlashmalarga birlashganlar.

Boshqa koloniyalardagi vatandoshlari va hamshaharlari bilan
mustahkam aloqalarni o'rnatganlar hamda mahalliy hokimiyat,
xususan, Kanish shahri hukmdori tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga
erishganlar. Natijada, qaroqchilikdan himoyalaniish va erkinlik
kafolatini berish evaziga hukumat faqatgina foydaga sherik bo'lmay,
balki sovg'alar va eng yaxshi tovarni tanlash huquqiga ham ega
bo'lgan. Mazkur omillar Frigiya davlatini gullab-yashnashida muhim
o'rin tutadi.



Kanish shahri xarobalari

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikni boshlarida yarim orolning markaziy qismida yirik va boy Frigiya davlati mavjud bo'lgan. Frigiyaliklar Kichik Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismiga mil. avv. II ming yillikda Makedoniya yoki Frakiyadan ko'chib kelganlar. Ularni asosiy xo'jaligini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Biroq, antik mualliflar bu yerda yilqichilik va vinochilik ham rivojlanganligi haqida alohida to'xtalib o'tadilar. Turli xil hunarmandchilik turlari, jumladan, toshga (jumladan, marmarga) va yog'ochga ishlov berish, oltin va boshqa metallarni qazib olish hamda to'quvchilik va gilamchilik gullab-yashnagan.

Frigiyaliklar qo'shni davlat va qabilalar bilan o'zaro aloqada bo'lganlar. Ular mil. avv. XIII asrda yunonlar bilan urushda troyaliklarga yordam berganlar, lekin ittifoqchilarining mag'lubiyatidan so'ng, xetlar bilan birgalikda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, Troyada o'lkasini o'z hududlariga qo'shib oladilar.

Frigiya Xett podsholigini qulashida ma'lum bir rolni o'ynagan. Chunki uning hududini sezilarli qismi frigiyaliklarga tegadi. Frigiyaliklar bir qator qabilalar, xususan, mushklar bilan aralashadi. Shuning uchun ossuriyaliklar o'z qo'lyozmalarida Frigiyani odatda "mushklar mamlakati" ("dengiz xalqlari"dan biri) deb ataydilar. Mil. avv. XII asrda mushklarning sharqqa yurishlari Ossuriya tomonidan Quyi Frot hududida to'xtatib qolinadi. Mil. avv. X-VIII asrlarda Frigiya podsholigi birmuncha gullab-yashnaydi. Shaharlar soni ko'payadi. Frigiyaning poytaxti sifatida Sangariya (zamonaviy Sakarya) daryosining qirg'og'ida joylashgan Gordion shahri shuhrat topadi. Yunonlar unga afsonaviy podsho Gordiya asos solgan deb, hisoblaydilar. Mazkur shahar devorlari tosh va xom g'isht, keng darvozalar va katta qal'a qo'rg'onlardan tashkil topgan qudratli shahar edi.

Yozma ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Frigiyaning yetakchi podshosi sifatida Midas (mil. avv. VIII asr oxiri – VII asr boshlari) tilga olinadi. U hokimiyat tepasiga Gordiyning o'limidan so'ng, yuzaga kelgan shafqatsiz ichki kurashlar natijasida keladi. Bo'lajak hukmdor bir parcha yer va bir juft ho'kizga ega bo'lgan oddiy dehqon bo'lgan bo'lsa-da, kohinning tanloviga ko'ra podsholikka tayinlangan. Dehqon mehnati an'anaviy Frigiya jamiyatida katta hurmat qozongan. Mehnat quroli yoki ho'kizni

o'g'irlaganlar o'limga mahkum qilingan. Afsonalarga ko'ra, uning shohi Midas nimaga teginsa uni toza oltiniga aylantirgan. Rivoyatlarda yana yovvoyi gilos po'stlog'idan tugilgan Gordiy tuguni haqida ham ma'lumotlar berilgan. Kimda kim bu mashhur tugunni yechib tashlasa, Osiyoning egasi bo'lishi aytilgan. Keyinchalik, bu tugunni Makedoniyalik Aleksandr ga ko'rsatishganida uni qilich bilan chopib tashlaydi va Osiyoni egallaydi.

Podsho Midas ilm-fan va san'at rivojlanishiga homiylik qiladi. Sharqda faol tashqi siyosat olib boradi, buning natijasida yunonlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Yunonlar u tomonidan mamlakat markazida Ankira (Turkiyaning bo'lajak poytaxti Anqara) shahrini qurganligini yozib qoldirganlar. Arxeologlar Kichik Osiyo sharqidan "Midas shahri" ni aniqlaganlar. U to'rtta tepalikda podsho saroyi va shahar aholisini o'z ichiga olgan qal'ada joylashgan bo'lib, dushmanlardan qoyalar tizimi bilan himoyalangan. Sharqiy O'rtayer dengizidagi murakkab vaziyat sababli Frigiya Urartu, Tabal, Karxemish va boshqa davlatlar kabi turli xil aksilossuriya ittifoqlariga kirgan. Biroq, Ossuriya o'z dushmanlarini birma-bir yakson qiladi. Ossuriya podshosi Sargon II solnomalarida Midasga qarshi muvaffaqiyatli urushlar haqida ma'lumot beriladi. Tog'li joylardagi janglarda Ossuriya qo'shinlari ko'plab qal'a, 10 ta shahar, 2400 ta asir va katta o'ljani qo'lga kiritadilar. Midas Ossuriya hukmronligini tan olishga va unga o'lpon to'lashga majbur bo'ladi. Mil. avv. VIII asr oxiriga kelib, Frigiyaning tashqi siyosiy ahvoli birdan yomonlashadi. Chunki, g'arbiy va shimoliy-g'arbiy chegaralarda unga yunonlar va bir qator Kichik Osiyo xalqlari tahdid qiladi. Shu bilan birga, sharqdan kimmeriy qabilalari hujum qiladi. Frigiyaliklar esa, ularga munosib qarshilik ko'rsata olmadilar.

Ossuriya va kimmeriyalar bilan qonli kurash uzoq davom etadi. Ayniqsa, sobiq ittifoqchilarining ba'zilar Ossuriya ta'siriga tushib undan chiqib ketadi, yoki mustaqil o'yin olib borib, Frigiyaning dushmaniga aylanadilar (masalan, Urartu).

Oxir-oqibatda mil. avv. VII asrning 60-yillarida Asarxaddon davrida Ossuriya Frigiyaning o'zining viloyatlaridan biri deb hisoblaydi. Lekin bu nomigagina bo'ysunish bo'lib, aslida uning haqiqiy xo'jayinlari ko'chmanchi qabilalardan bo'lgan kimmeriy va trerlar bo'lgan. Tashqi bosqinlar mamlakatni og'ir ahvolga solib qo'yadi. Natijada, Frigiya podsholigi mil. avv. VII asrda qulaydi. Uning yerlari

esa, Lidiyaga qo'shib olinadi. Mil. avv. 547- yilga kelib, Ahamoniylar Frigiya yerlarini haqiqiy xo'jayiniga aylanadi.

Qadimgi Frigiya madaniyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, Kichik Osiyo podsholarining ertaknamo xazinalari haqidagi rivoyatlar bekorga to'planib qolmagan. Azaldan bu yerlarda oltin qazib olingan va mahalliy xalq elektrumni (oltin va kumush qotishmasi) ixtiro qilishgan. Qirg'oq bo'yidagi Ioniya yunon shaharlari orqali ushbu kashfiyotlar keyinchalik ellin dunyosiga tez tarqalgan.

Frigiya alifbosi qadimiylikda yunon alifbosidan qolishmaydi va deyarli undan farq qilmaydi. Frigiyaliklar va yunonlar alifbosi masalasida bahs-munozaralar hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Har qanday holatda ham Kichik Osiyo davlatlari fors bosqiniga qadar yunon dunyosi bilan qalin munosabatlarda bo'lgan. Podsholar Delfa orakullariga (kohin-bashoratchilar) qimmatbaho sovg'alar jo'natganlar. Ular yunonlar bilan o'sha paytda faol harbiy-diplomatik o'yinlarda ishtirok etganlar. Arxaik davrda (mil. avv. VIII-VI asrlar) Kichik Osiyoning g'arbida joylashgan Ioniya shaharlari ellin dunyosidagi eng rivojlangan markazlar bo'lgan. Shuningdek, Frigiya madaniyatini gullab-yashnashida Old Osiyo dunyosining ming yillik madaniy an'analari bilan yaqinligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Lidiya davlati. Keyinchalik Kichik Osiyoda markazi Sard shahri bo'lgan Lidiya podsholigi yetakchi rol o'ynay boshladi. Lidiya hududi Kichik Osiyoning g'arbiy qismidagi markaziy hududlarini egallagan. Mil. avv. I ming yillikda Lidiya qudratli Frigiya davlati tarkibiga kirgan, Biroq, u kuchsizlangani va qulaganidan so'ng, mustaqil davlatga aylanadi. Lidiya iqtisodiyotining asosini dehqonchilik xo'jaligi tashkil qilgan. Germ, Paktol, Meandr daryolaridan oqib kelgan unumdor loyqa bilan o'g'itlangan Lidiya yerlari hosildorligi bilan ajralib turgan. Vodiylarda boshqoqli ekinlar ekishgan, tog' yonbag'irlarida bo'lsa, uzum, anjir va boshqa bog'dorchilik madaniyati rivojlangan. Ulkan yaylovlar keng miqyosli chorvachilik, ayniqsa, yilqichilik bilan shug'ullanish imkonini bergan. Qimmatbaho metall konlarini mavjudligi (oltin, kumush, temir, mis, rux) metallurgiya xo'jaligini rivojlantirish uchun zamin yaratgan. Paktol daryosidan sof holatdagi oltin va oltin qumi qazib olingan. Lidiyaliklar tog' jinslaridan oltin olishni va uni tozalash usullarini bilganlar.

Mahalliy xalqlar naqshinkor gazlamalar, hashamatli kiyimlar, ajoyib bosh va poyabzal tayyorlashni bilishgan. Ular kulolchilik buyumlari bilan ham nom taratgan. Ayniqsa, guldor idishlar va sirli sopol taxtachalar shular jumlasidandir. Ular mustahkam g'isht, mineral bo'yoqlar tayyorlashni kashf qilishadi, masalan, mashhur Sard oxrasida to'q qizil rangli bo'yoq ishlatilgan. G'arb (yunon) va Sharq dunyolari kesishuvida joylashgan Lidiya qo'shni davlatlar bilan faol savdo-sotiq olib borgan. "Uddaburon" Lidiya savdogarlari haqida antik mualliflar o'z asarlarida bir necha marotaba eslatib o'tganliklari ham bejizga emas. Lidiya shaharlariga kelgan savdogarlar uchun qulaylik yaratish maqsadida maxsus karvonsaroylar qurilgan. Antik an'anaga muvofiq, Lidiyaning savdo munosabatlarida nisbatan qulay bo'lgan tangalarni mavjud bo'lganligi kuzatiladi. Mil. avv. VII asr podsho Giges davrida elektrum – oltin va kumushning tabiiy qotishmasidan tangalar zarb qilingan, keyinchalik kumush tangalar, mil. avv. VI asrga kelib Krez davrida oltindan chiqarilgan. Lidiya tanga-pul tizimi o'sha davrda ko'p tarqalgan bo'lib, masalan, yunon Ioniya shaharlari undan keng foydalanishgan.

Lidiya jamiyatida hukmron mavqeni yirik yer egalari, ruhoniylar va harbiylar, shuningdek, savdo aristokratiyasidan iborat tabaqa tashkil qilgan. Gerodotda qandaydir Pifiy ismli Lidiya zodagoni podsho Doro I ga sof oltindan yasalgan buyum va uzum novdasi sovg'a qilgani hamda Yunonistonga urushga ketayotgan Kserks qo'shiniga esa dabdabali qabul uyushtirgani haqidagi qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.

Asosiy ishlab chiqaruvchilarni ibodatxona va podsho xazinasiga soliq to'lovchilar bo'lgan erkin mayda dehqonlar, chorvador hamda hunarmandlar tashkil etgan. Lidiya jamiyatida ijtimoiy va tabaqaviy ierarxiyaning eng quyi qismini xususiy va boshqa turdagi qullar tashkil qilgan.

O'zining siyosiy tuzilishiga ko'ra Lidiya monarxiya bo'lgan. Davlatning tepasida podsho turgan. Uning hokimiyat tayanchini tansoqchilar guruhi va qo'shin tashkil qilgan. Ayniqsa, otliqlar va Lidiya jang aravalari mashhur bo'lgan. Lidiya podsholari harbiy xizmatga yollanma askarlarni ham jalb qilgan bo'lib, ko'p hollarda, ular qo'shnilari – kariy, ioniy va likiy xalqlari orasidan olingan. Podsho saroyida katta rolni ko'zga ko'ringan aristokratlar urug'idan chiqqan podsho ayonlari o'ynagan. Ehtimol, aristokratik kengash ham bo'lgandir. Tashqi va ichki siyosatga doir muhim masalalarni hal

hukumat uchun xalq kengashi chaqirilgan. Biroq, asta-sekinlik bilan podsho hokimiyati kuchayib borishi natijasida u o'z ahamiyatini yoqota boradi. Lidiyaning ijtimoiy va siyosiy hayotida qabilaga qarab taqsimotiga ko'ra bo'linishi, ajdodlar odatlari, qadimgi urug'lar o'ralari kabi arxaik ijtimoiy munosabatlar qoldiqlari saqlanib qolgan edi.

Lidiya podsholigining taraqqiyoti mil. avv. VII-VI asrlarda podsho Giges tomonidan asos solingan Mermnadlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan davrga to'g'ri keladi. U podsho urug'ida tug'ilib, balki zodagonlar toifasidan kelib chiqqan bo'lib, sarqonlarni qo'lga olishi natijasida hokimiyatni egallaydi. Giges Lidiyaning qadimgi podsholaridan biri bo'lgan. U Lidiyaga Frigiyaning bir qismi, Kariya, Troyada va Misiyani qo'shib oladi. Natijada Qora dengiz bo'yidagi muhim savdo yo'llari va dengiz bo'ylariga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Lekin, savdo munosabatlarining rivojlanishi Egey dengiziga chiqishni talab qilardi. Shuning uchun podsho Giges yirik yunon shaharlari bo'lmish Milet va Smirnaga muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan yurishlar uyushtirgan. Biroq, Karion va Magneziani bosib olishni uddalagan. Shu bilan birga, uning o'ziga chiqishini qo'llab-quvvatlagan yunon ibodatxona markazi Karionga saxiy sovg'alar jo'natadi.

Lidiya G'arbda muvaffaqiyatli bosqinchilik siyosatini olib boradi. Harqda esa Kilikiya orqali Sharqiy O'rtayer dengiziga chiqishni harakat qiladi, biroq, ko'zlagan natijasiga erisha olmaydi. Shuningdek, bosqinchilik bilan Kappadokiyani qamab qilgan kimmeriyalar qo'riqchilangan. Kimmeriyalar bilan urushda Ossuriyadan yordam so'ralib, elchi jo'natadi va ularning oliy hokimiyatini tan oladi. Lekin, faqat tayangan holda u kimmeriyalar ustidan g'alaba qozonadi. Biroq, tez orada Lidiya Misr va Bobil kabi Ossuriya hukmronligiga qarshi bo'lishga chanqoq bo'lgan ittifoqchilarni topadi. Mil. avv. VI asrda esa Ashshurbanipal tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan va Ossuriya harakatida qatnashadi.

Lidiyaga Ossuriya qutqusi bilan kimmeriyalar qo'shini bostirib qoladi. Ular bilan jangda Giges taxti va hayotidan mahrum bo'ladi. Uning mamlakat poytaxt Sard bilan birga bu dahshatli ko'chmanchilar tomonidan bosib olinadi.

Garchi bosqinchilar shaharni xonavayron qilgan bo'lsalarda Lidiya poytaxtining mustahkam akropolini egallashni unibolgan.

olmaydilar. U yerda Gigesning vorisi – yangi podsho Ardis qamalgan bo'lib, Ossuriyaning Lidiya ustidan hukmronligini tan o'tiruvchilarga kimmeriyalardan qutulishni uddasidan chiqadi. Ardis (mil. avv. VII asr) o'zining sharqiy chegaralarida ehtiyotkorona tashqi siyosat olib borsada, kimmeriyalar mamlakatga xavf solib turadi. Lekin u Sharqda Priena va Milet shaharlari bilan jang qilib, Egey dengiziga shiddat bilan joylashib oladi. Milet bilan jang 12 yilga cho'ziladi, natijada Milet uchun foydali tinchlik shartnomasi bilan tugaydi.

Lidiya Ossuriyaning qulashidan foydalanib, o'zining sharqqa chegaralarini kengaytirishga intiladi. Bu esa Old Osiyoning shimoliy qismidagi Midiya bilan to'qnashuvga olib keladi. Natijada Lidiya va Midiya o'rtasida 5 yillik (mil. avv. 590-585 -yy) urush kelib chiqadi. Mazkur jang mil. avv. 585-yil 29-mayda noxush alomat sifatida tan olingan quyosh tutilishi (jang vaqtida ikkala taraf dahshatdan qurallarini tashlab yuboradi) ta'sir qilgan tinchlik shartnomasi tuzilishi bilan yakunlanadi. Yovlashayotgan tomonlar o'rtasidagi chegara etib Galis daryosi tan olinadi. Shartnoma sulolaviy nikoh bilan mustahkamlanadi: Midiya shahzodasi Astiag Lidiya malikasiga uylanadi. Lidiyaning bu davrdagi eng katta muvaffaqiyati Kichik Osiyodan kimmeriyalarni haydab chiqarilishi bo'ldi.

Lidiyaning tashqi siyosatda gullab-yashnashi polsho Krezning (mil. avv. 562-547-yy) hukmronlik davriga to'g'ri keladi. U Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini bo'ysundirib, ularni Lidiyaga o'zlashtirishga majbur qiladi. Lidiya hukmdori Krez mil. avv. VI asrda o'zining boyliklari bilan shuhrat qozongan.

Fors davlatining qudratidan xavfsiragan Lidiya ehtiyotkorlik bilan birmuncha yirik va ta'sirli yunon markazlari: Sparta, Afina va Samos bilan aloqalar o'rnatadi, Bobil va Misr bilan ittifoq shartnomalari imzoladi. Krez katta yollanma qo'shin tuzadi, lekin na armiya, na ittifoqchilar Lidiyani qutqarib qola olmaydi.

Mil. avv. 547-yilda Krez birinchi bo'lib Galis daryosini kechib o'tadi va Kappadokiya bostirib kiradi. Forslar bilan urush hech bir tarafga muvaffaqiyat keltirmaydi. Krez qo'shinlarini ortiga, Sardga qaytarishga majbur bo'ladi. Bundan darhol foydalangan fors podshos, Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va tez orada poytaxtni egallab, podsho Krezni asir oladi. So'ngra, fors sarkardasi Xarpag Lidiyaga satrap etib tayinlanadi. Mil. avv. 547-yildagi ushbu harbiy mag'lubiyat bilan

Lidiya podsholigining 150 yillik mustaqillik tarixi tugaydi. Lidiya fors podsholigi tarkibiga uning satrapliklaridan biri sifatida kiradi.

Lidiya madaniyati ham Kichik Osiyodagi boshqa xalqlar madaniyati kabi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Lidiyaliklar o'zlarining yozma alfavitini Kichik Osiyo yunonlaridan o'zlashtirganlar. Ularda maxsus gimnastik harbiy o'yinlar va harbiy raqslar, kub, koptoklarda turli o'yinlari bilan mashhur bo'lgan. Ularning musiqiy madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Lidiyada musiqa asboblari (sibizg'a, qamish surnay, shaqildoq, timpan, kimval, ko'p torli liralar) qadrlangan. Lidiyada mohir tabiblar bo'lgan, dori-darmonlar haqida bilimlar yig'ilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Frigiyaliklar qaysi tillarda so'zlashganlar?
2. Frigiya podsholigining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
3. Qadimgi Lidiya podsholigining forslarga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Krezning tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.
5. Qadimgi Lidiyaning shaharsozlik madaniyatini yoriting.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007.
4. Кузищин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
5. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.
6. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

10-mavzu. Qadimgi Urartu

Reja

1. Qadimgi Urartu davlatining vujudga kelish shart-sharoitlari.
2. Urartuning zaiflashuvi va yemirilishi.
3. Urartu davlatining xo'jalik tuzilishi.
4. Urartu madaniyati.

Urartu – Osiyoning janubi-g'arbiy qismidagi qadimgi davlat bo'lib, uning markazi Qora dengiz janubi-g'arbiy qismining tog'li hududlari va Kaspiy dengizining janubi-g'arbiy qismi hisoblangan. Hozirgi kunda mazkur joylar Armaniston, sharqiy Turkiya va janubi-g'arbiy Eron hududlariga to'g'ri keladi.

“Urartu” davlatining nomi qadimgi Ossuriya tilidan olingan. Urartlar o'zlarining mamlakatini Biaynili deb atashgan. Bibliyada esa “Ararat podsholigi” deb tilga olinadi. Urartu poytaxti hozirgi Van shahri hududida bo'lgan. O'sha vaqtlarda esa poytaxt Tushpa yoki Turushpa deb nomlangan. Urartu manzilgohlarining katta qismi to'rtta yirik ko'llar Childir va Van Turkiyada, Urmiya Eronda, hamda Sevan (hoz.Ko'kcha) Armanistonda, G'arbda Frot daryosiga qadar joylashgan.

Urartu hududi barcha tomondan tog' tizmalari bilan himoya qilingan. Shu sababdan tabiiy shart-sharoitlar mazkur hududda mustaqil davlatning vujudga kelishiga katta zamin yaratdi hamda qudratli qo'shnilardan muvaffaqiyatli himoya qildi. Urartu mamlakatida tog'lar o'tzorlar bilan qoplab olingan, chekka hududlarining ayrim qismini esa o'rmonzorlar tashkil qilgan. Araks va Aratsani daryolarining vodiysi Ararat tekisliklari yoki Mushk unumdor pasttekisliklarigacha kengayib boradi. Ayrim past-tekisliklar cho'l hududlarni, ba'zi joylari yarimcho'l zonalarini o'zida aks ettiradi.

Afsuski, Urartu xalqining aniq kelib chiqishi haqida bugungi kunga qadar kam ma'lumotlar saqlangan. Ayrim olimlarning fikricha, urartlar G'arbiy Yevropadan Kavkazorti, Arman tog'lari, Nairi hududlariga ko'chib o'tganlar. O'zlarining tadqiqotlariga asoslangan sovet olimlari, Kavkazortida juda qadim davrlardan o'troq dehqonchilik turmush tarziga asoslangan madaniy qabilalar

yashaganligini qat'iy ishonch bilan qayd etadilar. Bunga arxeologik yodgorliklar, xususan, Qizil-Vankdan topilgan naqshlangan sopol buyumlari guvohlik beradi. Urartu qabila qatlami ko'p munosabatlarda (til, madaniyat, shuningdek, antropologik belgilar) xetlarga, xurritlarga va subariylarga juda yaqin hisoblanadi. Aniqrog'i ko'pgina zamonaviy olimlarning fikriga ko'ra, Old Osiyo qadimiy mahalliy aholisi "osiyo tipiga oid" xalq guruhlariga tegishlidir. Urartu tili xaldey yoki vannik tili deb nomlanib, hind-yevropa tili bo'lmagan, kelib chiqishi bo'yicha xurrit qadimgi til oilasiga mansub bo'lgan tilga borib taqaladi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Araks daryosi serunum vodiysi va daryo vodiylarida janubda joylashgan xett-subariy qabilalari orasidan urart xalqi ajralib chiqdi va keyinchalik o'zining kuchli davlatini tuzdi. Urartu davlati ilk bosqichlarda qabila boshliqlari tomonidan boshqariladigan qabilalar ittifoqini o'zida ask ettirardi. Manbalarning guvohlik berishicha, Urartu qabilalar ittifoqi qadimda "Uruatri", keyinchalik esa "Nairi" nomini olgan.

Van Tosp teokratik monarxiyasining taxti Biaynili - ilk davlatining poytaxti hisoblangan Tushpa shahrida joylashgan. Arman tarixchisi Moysey Xoren (Xorenatsi) Van to'g'risida "Tosp o'lkasidagi viloyat" deb qayd etadi.

Urartu o'z hukmronligi davrida qo'shnisi kuchli Ossuriya davlati bilan doimiy urushlarni olib borgan. Arxeologlar tomonidan topilgan ossur qadimiy yozuvlari va hujjatlari Urartu haqida ko'pgina ma'lumotlar beradi. Shunday topilmalarning birida, "yangi shahar - Tuspasga asos solgan, Biaynili podshosi" haqidagi ma'lumot qayd etilgan. Ossuriya podshosi Tiglatpalasar I mil. avv. 1114-yilda Nairi mamlakatining 23- podshosini zabt etganligini ta'kidlaydi. Boshqa Ossuriya podshosi Shulmanished (mil. avv. 1028-1017- yy) zavq-shavq bilan shunday qayd etadi: uch kungina vaqt davomida "barcha Uruatru mamlakatini" zabt etdim. Ashshurnatsirpal (mil. avv. 883-859- yy) yozuv ma'lumotlarida mamlakat Uruadxu yoki zamonaviy nomi Urartu deb nomlangan. Ossuriya podsholarining keyingi vakili hozirda Salmanasar III o'zining qo'shinlarini Urartu podshosi Aramuga qarshi yuboradi. O'sha vaqtda Urartu davlati poytaxti Van ko'lidan shimoldagi hozirgi Melazgerd Arzasku yoki Arzaskun shahrida joylashgan. Podsho Aramu Urartu davlatining asoschisi

hisoblangan. Aramu va Lutiprilar siyosiy birlashma sifatida Urartuning ilk hukmdorlari bo'lishgan.

Aramuning eng muhim xizmatlaridan biri, u eng avval "Nairi mamlakatiari" barcha alohida qabilalar ittifoqini Xaldi (Khaldis) xudosi himoyasi ostida konfederatsiyaga birlashtirdi.

Urartu podshosi Aramuning vorisi Lutipri xususida afsuski, ilm-fan olamida kam ma'lumotlar saqlangan. Vannik yozma manbalarining guvohlik berishicha, u buyuk podsho Sardur I ning otasi bo'lgan. Ehtimol, u Tushpa poytaxtiga asos solguniga qadar mil. avv. 844-834-yillarda boshqargan bo'lishi mumkin.

Ayrim tarixchilar urartuliklar qabilaviy konfederatsiyasi asoschisi Aramu emas, balki uning nevarasi Sardur I (mil. avv. 834-828- yy) bo'lgan deb hisoblaydilar. Sardur I podsho Lutiprining o'g'li bo'lib, o'zidan oldingi ajdodlariga nisbatan ko'proq shuhrat qozongan. U ossur tilida yozuv qoldirib, o'zini Sura qiroli deb atagan. Professor Albrect Gretsuning ta'kidlashiga ko'ra, bu o'sha bizga ma'lum Subaradir. Agar bu shunday bo'lsa, Urartu podsholarining xurritlardan kelib chiqishiga da'vo qilishi ularga Subareyaga yoki Yuqori Mesopotamiyada ustunlik qilishiga imkon berardi. Podsho Sardur I ossur va babil yozuvlariga muvofiq, «Shar-Kishshati» ya'ni "Buyuk podsho" yoki "To'rt iqlim podshosi" degan unvon bilan tilga olingan.

Urartu podshosi Sardur I o'zining hukmronligi davomida, Salmanasar I davridan Urartuga tez-tez talonchilik hujumlarni amalga oshiruvchi Ossuriya qo'shiniga qarshi zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Ossurlar mollarni haydab ketish va asirga olish kabi qo'lga kiritilgan boy o'ljalalar bilan chegaralanib qolmasdan, ular o'lpon solishga va Ossuriya podsholari sharafiga turli xil "hadyalar" qilishga majbur qilardilar. Ossuriya qo'shinlari mazkur yurishlarining natijasi o'laroq Frot va Araks daryolari boshiga, Van va Urmiya ko'llariga tomon yo'l ochib, Urartu mamlakatining shimoliy qismlariga qadar kirib borishga muvaffaq bo'ldilar.

Sardur I mudofaa maqsadida Urartuda yirik tosh bo'laklaridan raustahkam qal'alar qurdirtdi. Keyinchalik bu Sardur I ning o'g'li Ishpuinining qarorgohi va muqaddas ibodatxonasiga aylantirildi. Urartu davlatini boshqargan Sardur I o'zini g'urur bilan "qudratli hukmdor, butun olam podshosi, Naira mamlakatlarining hukmdori, podsholarning podshosi" deb ataydi.

Miloddan avvalgi IX asrning oxiri va VIII asrning boshlarida hukmronlik qilgan keyingi Urartu podsholari Ishpuini va Menualar, Urartu davlatchiligi rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ishpuini Ossuriya podshosi Salamansar III ning o'g'li va Shammuramatning (Semiramida) eri Shamshi-Adad V bilan zamondosh bo'lgan. Podsho Ishpuini Ossuriya podshosi timsolida qudratli raqibi bilan kurash olib bordi va g'alabaga erishdi. Shu tarzda u ikki tilda – xaldey va ossur tillarida esdalik toshini barpo ettirib, Kelishinin dovonidan g'arbda, Mutsatsireda Xaldey koloniyasiga asos soldi. U va uning vorisi Menua, Urartu davlatini yuksaltirdi. Uning chegara hududlarini sharqda Zagros tog'idan to shimolda Palu va g'arbda Malatiyagacha kengaytirdilar. Shuningdek, ular Van va Urmiya ko'llari orasidagi hududlarni o'zlariga mustahkam biriktirdilar. Urmiya ko'lining janubiy sohiliga tutashuvchi viloyatlarni bosib olib, shimolga ya'ni Araks daryosi tekisliklariga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdilar. Menua (mil. avv. 810-781-yy) o'z esdaliklarida Urmiya mamlakatini ishg'ol etishi haqida va Frotndan sharqda joylashgan Shashiluni shahrining bosib olinishi to'g'risida xabar beradi. Urartu podsholari shaharlar, ibodatxonalar, qal'alar quradilar va kanallar o'tkazadilar.

Ishpuini Vandan 7 km uzoqlikda Urartu ilohlari uchun ibodatxona qurdirtiradi. Bu haqda ustun shaklidagi yodgorlik yozuvlarida qayd etilgan. Hozirgi vaqtda bu yodgorlik Tbilisi muzeyida saqlanmoqda.

Mazkur hukmdorlar davrida Van atrofida keng ko'lamda qurilish ishlari olib borilgan. Jumladan, 45 mil uzunlikdagi Shamiram-Su suvquviri bunga yorqin misoldir. Mazkur osma quvur podsho Menua tomonidan qurib bitkazilgan. Natijada suvi iste'mol qilish uchun yaroqsiz bo'lgan Van ko'li sharqiy sohillariga, Koshab (Xoshab) daryosidan toza ichimlik suvi olib kelingan. O'sha yerda aynan Menuaning sharafiga yangi hashamatli shaharga asos solingan. Ming yil ilgari qurilgan kanal bugungi kunda ham shaharni toza suv bilan ta'minlab turibdi.

Hozirda Gruziya muzeyida saqlanayotgan, Vandan 10 km uzoqlikda topilgan qadimiy yozuvda, Ishpuinining o'g'li podsho Menua tomonidan saroy qurilishi haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan. Bu esa qadimgi Urartuda yuqori darajada qurilish ishlari olib borilganligidan dalolat beradi.

Kanallarda tozalikni saqlash, suvni o'z vaqtida taqsimlash va kanallarda suv toshishini oldini olish, samarali chora-tadbirlar qabul qilish va h.k. uchun maxsus lavozimlar joriy qilingan. Menua buyrug'i bilan hashamatli bog' barpo etiladi. Shuningdek, Menua Vaneda Xaldi ibodatxonasini qayta tiklab, bezatish ishlarini olib bordi va Melazkert ulkan istehkomini qurdirtirdi.

Yuqoridagi dalillar Sardur I vorislari davrida imperiya jadal sur'atlar bilan rivojlanganligidan dalolat beradi. Sardur I, Ishpuini va Menua hukmronligi davrida Urartu podsholigi gullab-yashnagan davr hisoblanadi.

Urartuning siyosiy hukmronligi bir vaqtlar qudratli qo'shni hisoblangan Ossuriyaning zaiflashuvi hisobiga kengaydi. Podsho Salamansar hukmronligi davrida Ossuriyaning zaiflashuvi Urartu podsholari, ayniqsa, Argishti va Sardur II larning qator muvaffaqiyatli harbiy urushlarni olib borishi hisobiga Kavkaz ortining bir talay viloyatlari, Frot daryosi o'rta oqimi hududlari hamda Suriya viloyatiga qadar siljib borib, o'zlarining chegaralarini yanada kengaytirish uchun imkoniyat berdi. Shu tarzda Urartu miloddan avvalgi VIII asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyoning shimoliy qismida Ossuriyaning raqibi bo'libgina qolmasdan, Ossuriyaning mavqeini ancha pasaytirib, birinchi darajali kuchga aylandi.

Urartu podshosi Argishti (mil. avv. 781-760 -yy) Ossuriya podshosi Ashurdanni tor-mor etib, Ossuriya bilan bo'lgan jangda g'alabaga erishdi. U boshqa Ossuriya hukmdorlari, jumladan, Salmanasar IV bilan nihoyasiga yetmagan qator ixtiloflarda ishtirok etdi. Argishti, Suriyaning shimoliy qismini bosib olib, Urartuni xetlardan keyingi Kichik Osiyoda eng qudratli davlatga aylantirdi. Argishti Urartu davlatining shimoliy chegaralarini kengaytirib, Kavkaz ortida joylashgan Etiuni mamlakatini bosib oldi. Mil. avv. 776-yilda mamlakat markazini Kavkaz ortida Araks shimoliy sohiliga, hozirgi Armavir qishlog'i yaqinida joylashgan Argishtixinili shahriga ko'chirdi. Mil. avv. 772-yilda esa, uning buyrug'iga binoan, Hozirda Armaniston poytaxti Yerevan shahri bo'lgan, Erebuni qal'asi ("Qon qal'asi") qurildi.

Argishti hokimiyatni mil. avv. 764-735-yillarda hukmronlik qilgan katta o'g'li Sardur II ga meros qoldirdi. Uning davrida Urartu podsholigi har tomonlama o'zining rivojlanish cho'qqisiga erishdi.

Sardur II o'zining hokimligiga shu qadar ishonch bilan qarardiki, Tushpa shahri (hoz. Van) atrofiga ulkan devor qurdirib, quyidagi so'zlarni qayd ettirdi: "Buyuk podsho, qudratli hukmdor, butun olam podshosi, Naira yeri podshosi, tengi yo'q olampanoh, o'z xalqi tomonidan tasannolar aytiluvchi hukmdor, janglarda qo'rqmas, uning kuchli hokimiyatiga bo'ysunmaydigan har qanday kishini jazolovchi podsho".

Sardur II o'zining otasi Argishtining zafarli yurishlarini davom ettirdi. Sakkiz yil vaqt oralig'ida amalga oshirgan harbiy yurishlari xususida, o'zining solnomasida batafsil xabar beradi. Uning matni Vaneda topilgan va akademik N.Y. Mar tomonidan nashr etilgan.

Mazkur qiziqarli solnomaga ko'ra, Sardur II Urmiya oldi viloyatida o'zining hokimiyatini mustahkamladi. Sevan ko'lidan shimoli-g'arbda joylashgan Erax mamlakatiga yurishini amalga oshirdi. Kavkazortiga va hattoki, shimoliy Suriyaga urush qilib, shu tarzda, Urartu podsholigi chegarasini kengaytirdi. Bu davrda Urartu mamlakati nafaqat siyosiy jihatdan taraqqiy etibgina qolmasdan, balki iqtisodiy jihatdan ham ancha qudratli davlatga aylandi. Shuningdek, Sardur II o'zining solnomasida yaxshi haydaladigan, mo'l hosil beradigan ziroatchilik yerlarini egallab olgani xususida, son-sanoqsiz mollarni qo'lga kiritgani to'g'risida, qimmatbaho metallar, oltin, kumush, qo'rg'oshin va bronzaga ega bo'lgani va nihoyat qulga aylantirilgan son-sanoqsiz asirni qo'lga olgani haqida ma'lumot beradi. Bu podshoga tegishli boshqa bir yozma manbalarda Sardur II ning qurilish sohasida olib borgan faoliyati tilga olinadi. Xususan, ibodatxona (Armavir yaqinidagi) qurilishi haqida, mazkur tumanda suv ta'minoti inшоati to'g'risida, saroy qurilishi yangidan boshlanishi xususida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Bularning barchasi, mazkur davrda Urartu podsholari tomonidan bosib olingan Araks vodiysiga xalq madaniyatining tarqalganligidan dalolat beradi.

Kichik Osiyoda ustunlik mash'alasini tutib turuvchi Urartuning keyingi podshosi Sardur II ning o'g'li Rusa I bo'ldi.

Rusa I ning (mil. avv. 735-713 -yy) hokimiyat tepasiga kelgunigacha, uning otasi Sardur II davrida mamlakat hududi janubi-sharqiy Anatoliyagacha kengaytirilgan edi. Qisqa muddatli zaifligidan foydalanib, Ossuriya hukmronligi ostida bo'lgan Anatoliya viloyatlari ham qaytarib olingan edi. Rusa I ning o'zi Kavkazorti viloyatlarini

to'la bosib olish uchun shiddatli kurash olib bordi. Hozirgi Nor-Boyazid rayonida qator qal'alar qurdirtirdi.



Rusa I taxtni meros qilib olganida, ossurlar podshosi Tiglatpalasar III rahnamoiigi ostida qaytadan birlashib, qisqa davr ichida yana Urartu podsholigiga tahdid sola boshladi. Ossurlar bir necha marotaba Urartuga bostirib kirib, xonavayron qiluvchi hujumlarni amalga oshirdilar. Rusa I hukmronligining dastlabki yillarida Ossuriya bilan doimiy urushlarni olib borishga majbur bo'ldi. Mil. avv. 735-yilda Tiglatpalasar III o'zining qo'shinlari bilan Urartu hududiga bostirib kirib, poytaxti Tushpa shahrigacha yetib bordi. Ammo, poytaxtni egallay olmadi va Mutsatsir shahrini talon-taroj qilish bilan cheklandi, xolos. Tabiiyki, doimiy to'qnashuvlar Urartuga katta talafot keltirdi. Ayniqsa, bu mamlakatning iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina muvaffaqiyatsizlikni boshidan kechirgan Urartu Sardur II davrida bosib olingan hududlarini yo'qotdi. Ossuriyaga yillik o'lpon to'lashga majbur bo'ldi.

Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III o'limidan keyin uning vorisi Salmanasar V davrida Urartu biroz erkinliklikni qo'lga kiritadi.

Ammo, bu uzoqqa cho'zilmadi. Mil. avv. 722-yilda taxtga o'tirgan Ossuriya podshohi Sargon II Urartuga nisbatan dushmanlik siyosatini olib boradi. Ossuriyada o'zining tasirini mustahkamlab, mil. avv. 715-yilda Urartuga qarshi urush e'lon qildi. Qirg'inbarot Urartu-Ossuriya urushi boshlandi. To'qnashuvning boshidayoq, Urartu hukmdori Rusa I qo'shini tor-mor etildi. Urartu yana Ossuriyaning temir iskanjasida qoldi. Yana g'olib tomonga og'ir o'lpon to'lash majburiyatini oldi. Rusa I ning o'zi esa qochib ketib, oxir-oqibatda, mil. avv. 714-yilda o'z joniga qasd qildi Biroq, Ossuriya Urartu podsholigini batamom bo'ysundirishga muvaffaq bo'lmadi. Urartu xalqi hattoki podshosi o'lganidan keyin ham Ossuriya bosqiniga qarshi muttasil va qahramonlarcha kurash olib bordilar. Sargon II Urartu qo'shinini tor-mor va butun mamlakatni talon-taroj qildi. Boy Urartu shahri Mutsatsirni bosib olib, Xaldi ibodatxonasini xonavayron qildi. Shunday bo'lsa ham, Urartu o'zining ichki mustaqilligini saqlab qoldi. Bundan tashqari Ossuriyaning zaiflashuvi urartlar qarshiligining asosiy sabablaridan biri bo'lgan bo'lishi mumkin.

Urartuning zaiflashuvi va yemirilishi.

Urartu podshosi Rusa I o'z joniga qasd qilganidan keyin uning qonuniy vorisi Argishti II taxtga chiqdi va mil. avv. 680-yilgacha hukmronlik qildi. Urartu-Ossuriya urushi davrida Argishti II Ossuriya qo'shiniga qarshi Urartu qarshi hujumini tashkil etishga mas'ul bo'ldi. Uning qo'shini bir safar ossurlarni Ossuriyaning urushdan oldingi chegarasi ichkarisigacha haydab yuborishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, Van ko'li, shu jumladan, Mushashir, Ushnu va Tepe kabi shahar atrofini ham o'ziga bo'ysundirib oldi. Harbiy yurishlar davrida uzoq janubga borib, Dajla daryosi bo'yidagi boy Nimrud shahrini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Argishti II ning keyingi hukmronlik yillari uzoq vaqt tinchlik va iqtisodiy taraqqiy etgan davr sifatida "Oltin asr" deb ta'riflanadi. Keyingi Rusa II va Sardur III hukmdorlari davrida bu tinchlik va iqtisodiy taraqqiyot muhim ahamiyat kasb etdi. Afsuski, bu hukmdorlar to'g'risida bizgacha kam ma'lumotlar yetib kelgan.

Rusa II mil. avv. 680-yildan to 639-yilgacha Urartu podshosi bo'lgan. Uning hukmronligi davrida o'sha vaqtda Teyshebani nomini olgan yirik Karmir-Blur qal'a majmuasi qurildi. Teyshebani nomi

qal'a joylashgan tepalikning katta qismiga tegishli hisoblanadi. Bu qal'a qadimgi Urartu podsholigi Kavkazorti provinsiyasining yagona poytaxti sifatida xizmat qilgan. U Armanistonda hozirgi Yerevan shahri yaqinida joylashgan. Qachonlardir bu joyda ulkan qal'a va devor burchaklarining barcha tomonlari yig'indisi bo'ylab baland minoralar va katta darvozali devor hamda ichkarida ombor binolari bilan hukumat markazi joylashgan. Shahar maydoni saroy majmuasi va qal'asi bilan birgalikda 0.45km² gacha etadi. Karmir-Blur so'zining tarjimasini, tepalik qizil rangda bo'lgani uchun "Qizil tepalik" degan ma'noni beradi. Mazkur tepalik shahar yondirilgani uchun shunday rangdagi tusga kirgan. Tufdan qurilgan devorning tepa qismi esa yongan va qattiq qizishi oqibatida to'kilgan. Tuf qizishi bilan qizil rangga kirgan shuning uchun tepalik qizil bo'lib qolgan. Asosi o'ta mustahkam bo'lgani uchun devorning pastki qismi yong'indan keyin ham saqlanib qolgan. Teyshabani 901 metr (2,956 fut) balandlikda joylashgan.

Rusa II taxtga o'tirganidan keyin mil. avv. 681-yilda Urartuning holati ancha yaxshilandi. Bu Ossuriyada yangi fuqarolik urushi bilan bog'liq bo'ldi. Urush tufayli Ossuriya ancha zaiflashib qoldi. Mazkur davrda Midiya Ossuriya tarkibida edi. Bundan foydalangan Midiya mustaqillik uchun kurashni kuchaytirdi. Mil. avv. 680-yilda Ossuriya hukmdori Sinaxxerib o'ldirildi. Uning qotillari esa, Urartuga Shubriya viloyatiga qochib ketdilar. Moisey Xorenatsining "Armaniston tarixi"da, Ossuriya arxivlari va Bibliyada (Podsholiklar To'rtinchi kitobi va payg'ambar Isayi Kitobida) mazkur voqea haqida kuyidagi ma'lumotlar saqlangan:

"... Ossuriya podshosi Sinnaxxerib qaytib keldi va Nineviyada yashadi. U o'zining xudosi Nisroxi uyida ibodat qilayotganida Adramelex va Sharetsar o'g'illari uni qilich bilan o'ldirdi. O'zlari esa Ararat yerlariga qochib ketdilar. Uning o'miga o'g'li Asardan podsho bo'ldi..."

Bu hodisalar zaiflashib borayotgan Ossuriyaning diqqat e'tiborini tortmadi va Rusa II ga Urartuning oldingi shuhratini qaytarishga imkon berdi. Rusa II Urartu bosh xudosi Xaldining diniy kuchini qayta tiklanishiga katta e'tibor qaratdi. Van ko'lining shimoliy sohilida Urartu markazida bu xudo sharafiga yangi ibodat shahrini barpo ettirdi (Xudo Xaldining ilgarigi diniy markazi Mutsatsirada edi. Mil. avv. 714-yilda Ossuriya podshoi Sargon II tomonidan vayron

etilgandi). Bundan tashqari Rusa II bir necha marotaba g'arbga harbiy yurishini amalga oshirib, ko'p sonli asirlarni qo'lga oldi. Mamlakat ichida ko'pgina qal'a inshootlari va mahobatli binolar qurilishida ushbu asirlar mehnatidan foydalanilgan.

Rusa II o'limidan keyin Urartu davlati asta-sekinlik bilan yemirila boshladi. Keyingi 100 yil davomida batamom barham topdi. Hattoki, oxir-oqibatda antik mualliflar tomonidan tilga olinmay qoldi. Mazkur yillar davomida Urartuda bir nechta hukmdorlar almashdi: Sardur III (mil. avv. 639 – 625 -yy), Sarduri IV (mil. avv. 625-620 -yy), Erimena (mil. avv. 620-605- yy) Ossuriya halokatini ko'rgan, Rusa III (mil. avv. 605 – 595 -yy) shuningdek, Urartuning oxirgi podshosi Rusa IV (mil. avv. 595 – 585 -yy). Bu podsholarning hukmronligi yillarida deyarli yangi qurilish ishlari amalga oshirilmadi. Ossuriyaning chuqur inqirozli davriga qaramasdan, Urartu o'zining so'nggi paytlarigacha ham biron marta Mesopotomiya va Kichik Osiyo o'rtasida strategik savdo yo'li ustidan nazoratni qayta tiklashga harakat qilmadi. Bundan tashqari, Sardur III ning Ashshurbanipal bilan olib borgan yozishmalarini tahlil qilish asosida ayrim tadqiqotchilar, Rusa II ning o'g'li Sardur III davrida Urartu Ossuriyaga vassal davlat bo'lib qolgan degan xulosaga keladilar.

Mil. avv. 639-yildan to 625-yilgacha Rusa II ning o'g'li Sardur III hukmronlik qilgan yillar hisoblanadi. Uning hukmronlik yillarida mamlakat inqirozga yuz tutadi. Sardur III o'zining kutubxonasi bilan mashhur bo'lgan Ossuriya podshosi Ashshurbanipal bilan zamondosh bo'lgan.

Sardur III hukmronligi davrigacha Urartu shu qadar zaiflashib qolgan ediki, u azaliy dushmani bo'lgan Ossuriyaga yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldi. Shunday fikrlar mavjudki, shu davrdan e'tiboran Urartu aslida Ossuriyaga vassal davlat bo'lib qolgan. Sardur III esa Ossuriya podshosini “o'zining xo'jayini” deb atagan. Mil. avv. 638-yilda Ashshurbanipal solnomasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

“... Urartu podshosi Ishtarduri, podsho, ota-bobolarim har doim “birodar” deb yozishgan, buyuk xudolar tomonidan buyurilganidek, kuchi va qudrati haqida eshitib, endilikda Ishtarduri doimo “podsho, olampanohimga” deb yozadigan bo'ldi”. Hurmat yuzasidan, o'zining in'omlarini qabul qilishini samimiy so'raydi.

So'ngra Rusa III (mil. avv. 605-595-yy) Urartu taxtiga chiqadi. Uning hukmronligi yillari tanazzul davriga to'g'ri keladi. Rusa III hukmronligi yillarida Urartu o'z davlatchiligining inqirozli davrini boshidan kechirdi. So'nggi o'n yillik davomida Urartu podsholari asta-sekinlik bilan mamlakat markazi ustidan nazoratni qo'ldan boy berdi. Urartu poytaxti Van ko'li sohilida joylashgan Tushpa shahridan. Kavkaz ortida joylashgan Teyshebani shahriga o'zgardi. Biroq, bu voqealardan sai oldinroq Rusa III hukmronligi boshlangunga qadar mil. avv. 609-yilda tashqi siyosatda muhim hodisa sodir bo'ldi. Urartuning janubiy qo'shnisi va azaliy dushmani bo'lgan Ossuriya midiyaliklar va bobilliklarning hujumi ostida tanazzulga yuz tutdi. Shu tarzda urartlar yana mamlakat markazida va janub chegaralarida o'zlarini xo'jayin deb his qiladilar. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Urartu atrofida yangi dushmanlar xalqasi birlasha boshladi.

Ossuriyaning halokatidan xursand bo'lgan Rusa III chamasi xo'jalik ishlariga diqqat-e'tiborini qaratdi. Tushpada, Erebuni va Argishtixinilida yangi don ombori qurilishi haqida Rusa III dan bir nechta yozuvlar saqlanib qolgan.

Old Osiyoda bu davrda muvozanat kuchi o'zgardi. Urartuda ham Ossuriyada ham yangi xavfli dushmanlar paydo bo'ldiki oxir-oqibatda ular ikkala davlatni ham vayron qildi. Skiflar va shimoldan kimmeriyliklar, janubiy-sharqdan esa, midiyaliklar Urartuga qarshi chiqdi. Midiyaliklar ko'pgina Urartu qal'alarini, jumladan, qolgan Urartu qo'shinini siqib chiqarib, Urartu poytaxti Tushpa va Rusaxinilini tartibli ravishda vayron qildi. Bu davrda Urartu poytaxti Kavkaz ortida joylashgan Teyshebaniga ko'chirilgan. Urartuni barbod qiluvchi so'nggi zarba bilan bu qal'a vayron etildi. Garchi Teyshebani midiyaliklar yoki bobilliklar tomonidan vayron etilgan degan taxminlar bildirilganligiga qaramasdan, ko'pchilik olimlar hozirgi vaqtda buni skiflar va kimmeriyliklar amalga oshirgan deb hisoblaydilar.

Urartu davlatining xo'jalik tuzilishi.

Urartu qabilalari qadimgi davrlardan boshlab chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Chorvachilik uzoq davr ko'chmanchilik (yaylovlik) xususiyatini o'zida ifodalagan. Chorva mollari yozda tog'li yaylovlarga haydab borilgan. Qishda esa yana vodiya

pasttekisliklarga qaytarilgan. Sevan ko'li sohillarida olib borilgan qazish ishlari natijasida topilgan suyak qoldiqlari sigir, qo'y va cho'chqa uy hayvonlarining keng tarqalgan turlaridan bo'lganligini tasdiqlaydi. Urartu ponasimon yozuvlarida mazkur hayvonlarning nomlari Ossuriya ideogrammalariga muvofiq bayon qilinadi. Salmanasar III ning Balvat darvozasida Gilzan mamlakatidan (Urmiya ko'li yaqinida) chorvalarning haydab ketilishi tasvirlangan. Urartu podsholari o'zlarining yozuvlarida o'lja sifatida olingan ko'p sonli chorvalarni tilgan olgan. Urartu podshosi Sardur II Kavkaz ortiga qilgan yurishidan keyin 110 ming bosh yirik va 200 ming bosh mayda shoxli mollarni haydab ketgan. Ossuriya hukmdorlari Urartudan ko'p sonli mollarni olib ketgan. Urartlarning chorvachilik xo'jaligida yilqichilik muhim ahamiyat kasb etgan. Urartuning ayrim viloyatlarida miniladigan otning alohida nasllari maxsus ko'paytirilib boqilgan. Ko'pincha otlar g'ildirakli aravalarga qo'shilgan va yuk tashish maqsadida foydalanilgan. Chavandoz va ikki g'ildirakli arava tasviri ayrim yodgorliklarda saqlanib qolgan. Ossuriya va Urartu podsholari ko'pincha o'zlarining yozuvlarida ko'p sonli otlarni harbiy o'lja sifatida qo'lga olgani to'g'risida ma'lumot qoldirgan.

Shuningdek, og'ir yuklarni tashish uchun ot bilan bir qatorda tuya va eshaklardan foydalanganlar. Urartu podsholari yozuvlarida tuyalar tilga olinadi. Bu hayvonlardan sug'orish ishlarida, jumladan, to'g'on bostirish ishlarida keng foydalanilgan. Mil. avv. VIII asrda tuyalar butun mamlakat bo'ylab ma'lum bo'lgan. Lekin ularning soni nisbatan ozchilikni tashkil qilgan.

Qadimgi urartlarning xo'jaligida dehqonchilik katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qadimgi Armaniston hududlarida qadimgi davrlardan buyon bug'doyning turli navlari yangi iqlimga moslashtirilgan. Yer haydash uchun ikkita ho'kiz qo'shilgan, og'ir omochlardan foydalanilgan. Shakli motigani eslatuvchi bu omochlarning temir tishlari Toprax-qal'adan topilgan. Temir o'roq bilan bir qatorda oddiy bog'och yoki obsidian qo'shilgan chaqmoqtosh bilan suyakdan yasalgan o'roq qo'llanilgan. Dehqonchilik qurollari texnikasi ancha soddalik xususiyatini saqlab qolgan. Dehqonchilik Urartu mamlakatida keng tarqalgan. Ossuriya yozuvlarida Urartu qal'alarida ko'p miqdordagi bug'doy zaxirasi tez-tez tilga olinadi. Karmir-Blur tepaligini qazish jarayonida katta miqdorda bug'doy, arpa, kunjut va bug'doy uni topilgan. Bug'doy va un yarmi yerga ko'milgan, katta

ko'zada saqlangan. Bundan tashqari Karmir-Blur vayronalarida katta hajmda don ombori topilgan. Ehtimol, Arin-berde qal'asi xarobalarida qazib olingan omborlardan biri ham bug'doy saqlash uchun xizmat qilgan. Uzumchilik va vinochilik dehqonchilik xo'jaligi tizimida katta o'rin egallaydi. Asosan xo'jalik binolari joylashgan Karmir-blur qal'asining shimoliy qismida, 1949-1950-yillarda anchagina yaxshi saqlangan ikkita katta vino saqlash uchun omborxonaga ochib o'rganilgan. Bu omborxonalardan o'sha zamonlarda qariyb 150 ming litr vino saqlangan 152 ta katta idishlar (karasa) mavjud bo'lgan. Va nihoyat, uchinchi omborxonadan vino saqlash uchun mingdan ortiq sopol ko'zalar topilgan. Karmir-Blur xarobalaridan topilgan turli xil uzum navlari urug'larining topilishi ham uzumchilik ancha taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Urartlarning dehqonchilik xo'jaligi ma'lum darajada sun'iy sug'orishga asoslangan. Urartu podsholarining ko'pgina yozuvlarida kanallar qurilishi bayon qilinadi. Ko'pgina sug'orish inshootlari, kanallar va suv omborlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Ko'p kanallar, ayniqsa, davlat markazi joylashgan Van ko'li hududida saqlangan. Ularning ayrimlari mustahkam devor bilan mustahkamlangan. Menua tomonidan qurilgan katta kanal muhim ahamiyat kasb etgan. Keyinchalik afsonaviy Ossuriya malikasi nomi bilan "Shamir kanali" deb atalgan. Bu kanal Van ko'li sohilida joylashgan Urartu poytaxti Tushpa shahri aholisiga suv ta'minoti uchun xizmat qilgan. Kanal suvlari yaqin hududlar bo'yicha ariqlar orqali taqsimlangan va ularning sug'orilishi uchun foydalanilgan. Kanallar yordami bilan suv tegirmoni harakati yo'lga qo'yilgan. Urartu suv tegirmoni Tbilisida Gruziya muzeyida saqlanmoqda. G'alla xo'jaligi bilan bir qatorda bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Uzumzor tog' qoyaloriga qurilgan sun'iy ayvonlarda yetishtirilgan.

Urartu hududida mavjud bo'lgan asosiy xomashyo turlari – gil, tosh, yog'och va metall bo'lib, bular hunarmandchilikning rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etgan. Urartuliklar toshga ishlov berish bo'yicha katta mahoratga ega bo'lishgan. Toshning turli xil jinslariga metall kesish asbobi yordamida qayta ishlov berilgan. Ishlov berilgan toshdan boshqa rang va ko'rinish hosil qilish, qadama buyumlar yasash, toshga badiiy qayta ishlov berishning o'ziga xos texnik usullardan edi. Astoydil parmalangan va yaxshigina silliqilgan.

yarim qimmatbaho toshdan yasalgan munchoqlar toshga ishlov berishning yuqori texnikasini o'zida ifodalaydi.

Qadimgi urartlar mohir quruvchilar bo'lishgan. O'zlarining binolarini xom g'ishtdan yoki katta tosh plita yoki katta palaxsadan qurishgan. Ayniqsa, qal'a devorlari puxta qurilgan. Pastki qismi qalinligi 1 m.ga yetadigan katta tosh bo'laklaridan terilgan. Urartu poytaxti Tushpa joylashgan Van ko'li sohilida mahobatli qal'a inshootlari qurilgan. Qazish jarayonida qal'a devorlarining ayrim joylari 20 m balandlikkacha borib etishi aniqlangan. Toprax-qal'ada yirik ohaktoshdan terilgan ibodatxona poydevori ochib o'rganilgan. Toprax-qal'ada I.A. Orbeli topilmalari, dabdabali bezatilgan binolar devorlari marmar friz bilan naqshlab qoplanganligidan dalolat beradi. Urartu davri qator qal'alari Sovet Armanistoni hududidan topilgan. Ular orasidan Yerevan yaqinida Karmir-Biur tepaligida qazib o'rganilgan qal'ani alohida ko'rsatish mumkin. Bu qal'a ehtimol, Urartu davlati chegarasini shimoldan himoya qilgan bo'lishi mumkin. Arin-berd tepaligida qal'a qoldiqlari tadqiq qilinganda, devorning pastki qismi 2-3 m balandlikkacha yo'nib tekislangan bazalt plita va tufdan terilganligi aniqlangan.

Metallurgiya hunarmandchilik ishlab chiqarilishi rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Temir ancha keng tarqalgan Shimoliy Mesopotamiya va Kichik Osiyo bilan birga Kavkazorti ham metallurgiya yaxshi rivojlangan qadimgi hududlardan bo'lgan. Xususan, Urartu mamlakatida ham metallurgiya yuqori darajada ravnaq topgan. Toprax-qal'a va Karmir-Blurda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida urartlar qurol tayyorlashda va asbob-uskunalar yasashda asosan temirdan foydalanganligidan dalolat beradi. Urartu aholisi qo'rg'oshin va qalaydan foydalanishni va bronza qotishmasini tayyorlashni, bronzadan turli xil narsalar ishlab chiqarishni bilganlar. Badiiy jimjimador pichoqlar va bronzadan quyilgan taxtning haykaltaroshlik qismi bularning barchasi metallurgik texnikaning yuqori darajada taraqqiy etganidan guvohlik beradi. Urartu shahri Musasirani zabt etishida qo'lga kiritilgan o'ljalar haqida bayon qiluvchi Ossuriya podshohi Sargon yozuvlarida, ko'p miqdordagi turli xil metall buyumlar sanab o'tiladi. Oltin va kumush zeb-ziynat buyumlarini tayyorlash uchun xizmat qilgan.

Hujjatlarning yetishmasligi qadimgi Urartu aholisining janina tuzilishi va xo'jalik hayoti to'g'risida batafsil so'z yuritishga imkon

oermaydi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning turli sohalarini rivojlanganligi shak-shubhasizki mehnat taqsimotini yanada kuchaytiradi. Ishlab chiqarishda ixtisoslashuv, ortiqcha oziq-ovqatning paydo bo'lishiga va savdo-sotiqning rivojlanishiga ko'mak beradi. Tog'larda yotqizilgan va hozirgacha yaxshi saqlangan yo'l qoldiqlari Urartuda savdoning rivojlanganligidan darak beradi. Boshqa qadimgi sharq davlatlari singari Urartuda ham ibtidoiy quidorchilik mehnatni ekpluatatsiya qilishning asosiy shakllaridan bo'lgan. Katta yer maydonlari davlatga qarashli bo'lib, podshoning ixtiyorida edi. Ko'pincha Urartu yozma manbalarida, shaharlar va qal'alar qurilishida podsholar dehqonchilik rayonlarida yerlarning bo'shab qolishining oldini olish uchun, eng asosiysi mazkur hududlarda bog'lar va uzumzorlar barpo qilish maqsadida, o'sha yerning o'zida sug'orish ishlari bilan bog'liq inshootlar, kanallar va suv omborlarini qurishga buyruq berganligi haqida xabar beradi. Qal'alarda katta-katta don omborlari va vino saqlash yerto'lalari qurilgan. Ular Karmir-Blurni qazish jarayonida ochib o'rganilgan. Shubhasizki, mazkur mustahkam shaharlarda katta-katta podsho yer-mulklari joylashgan. Yozma manbalarda podshoga "tegishli" ayrim rayonlar tilga olinadi. Katta-katta podsho yer-mulki bilan bir qatorda, yirik ibodatxonalar ham yirik yer egalari hisoblanishgan. Ayniqsa, Mutsatsir shahrida Xaldi xudosi ibodatxonasida katta boylik jamlangan. Bu ibodatxona ehtimol, katta-katta yerga va ko'p sonli chorva mollariga egalik qilgan. Va nihoyat, Urartuda Ossuriya yozma manbalariga ko'ra, "katta amaldor", "maslahatchi", "viloyat hukmdorlari" va "harbiy boshliqlar" tarkibiga kiruvchi quldorlik aristokratiyasi shakllangan deb fikr yuritishga asos bor.

Anolining asosiy qismini erkin mehnat jamoalari va qullar tashkil qilgan. Yozma manbalar Urartu podsholari tomonidan qo'lga kiritilgan ko'p sonli asirlar, qulga aylantirilgan "o'g'il bolalar va o'smirlar", shuningdek, qulchilikka haydab ketilgan ko'p sonli kishilar va ehtimol ayrim holatlarda Urartu qo'shini tomonidan bosib olingan butun rayon aholisi, xususan, ayollar haqida ham ma'lumotlar saqlangan. Qo'shni mamlakatlarni zabt etgan vaqtda qo'lga olingan asirlar, qoidaga muvofiq qulga aylantirilgan. Yerevan shahri yaqinida olib borilgan arxeologik qazish ishlari shuni ko'rsatadiki, shahar aholisi shaxsiy xo'jaligiga ega bo'lmagan. Shubhasizki, davlat tomonidan mahsulot ta'minoti olib turishgan. B.B Piotrovskiy

manbalarni tadqiq etib, amaldorlar, harbiy va hunarmandlar, shuningdek, shahar atrofida joylashgan davlat yerlariga qayta ishlov beruvchi ko'p sonli qullar shahar aholisi tarkibini tashkil qilgan, degan xulosaga kelgan.

Qadimda uncha uzoq bo'lmagan vaqt oralig'ida o'lchamlar uchun, bir xildagi turli xil inson tanasi qismlari – barmoqlar, kaftlar, tovon, tirsakkacha bo'lgan qo'l qismi (tirsak) va h.k foydalanishgan.

N.M. Tokarskiy tadqiqotlariga ko'ra, Armanistonda foydalanilgan katta-kichiklik o'lchov birliklaridan biri bu qadam bo'lib, uning uzunligi 98 smdan to 102 smgacha bo'lgan.

Tabiiyki, moddiy madaniyatning boshqa belgilari bilan bir qatorda turli o'lchov birliklari, jumladan, uzunlik o'lchovi va ular orasida asosiy o'lchov birligi – tirsak- 51,8 sm ga teng o'lchov birligi armanlarga meros bo'lib qolganligini taxmin qilish mumkin.

Qadim zamonlardan mavjud bo'lgan tirsak deb ataluvchi uzunlik o'lchovi, katta-kichikligi hajmi bo'yicha turli joylarda o'zgarib turgan. Ikki daryo oralig'i, Urartu va qadimgi Armanistonda metr o'lchovi asosida o'lchov – 51,8 smga teng bo'lgan. Bu esa mazkur davlatlar o'rtasida o'ziga xos aloqani bildirib, bu yerda istiqomat qilgan xalqlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, umumiy, qon-qarindoshlik xususiyatlari, ular madaniyatining meros bo'lib qolganini isbotlovchi asosni izlashga undaydi. Ko'pgina moddiy madaniyat yodgorliklari va hozirgi vaqtga qadar saqlanib qolgan Urartu va Armanistonning arxitektura yodgorligi ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi.

Urartu madaniyati. “Xayk va Bel jangi” to'g'risida va “Qirolicha Shamiram haqida” afsonalar

Urartu madaniyati to'g'risida kam ma'lumotlar saqlangan. Biroq, endilikda urartuliklar Old Osiyoning boshqa xalqlari madaniy ijodi bilan chambarchas bog'liq holda yuqori madaniyat yaratganligi va jahon madaniyati xazinasiga o'zining sezilarli hissasini qo'shganligi o'z tasdig'ini topmoqda. Urartu madaniyatining ko'pgina xususiyatlari o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Urartlar o'zlarining qadimiy iyeroglif yozuviga ega bo'lib, maxsus tasvirli belgilar ayrim buyumlar va sopol parchasida o'z aksini topgan. Arxitektura va metallurgiya yuqori darajada taraqqiy etgan. Sargon saroyi devorlarida saqlanib

qolgan Mutsatsir ibodatxonasi tasvirlari badiiy nuqtai nazardan alohida qiziqish uygʻotadi. Bu ibodatxona mil. avv. IX—VIII asrlarda yuqori platformada qurilgan. Oʻzining ikki nishabli tomi, binoning old qismi va oltita ustunlari bilan fasad qismining bezatilishi qadimgi grek inshootlarini esga tushiradi. Ehtimol, ularning Oldosiyo prototipi boʻlgan boʻlishi mumkin. Asosining saqlanganligi arxitekturada ustunlarning qoʻllanganligidan dalolat beradi. Ularning ayrimlari Gruziya muzeyida saqlanmoqda. Metallurgiyaning yuqori darajada rivojlanganligi bronzadan yasalgan badiiy buyumlarda oʻz aksini topgan. Ularning orasida hashamatli taxtlarning inson qiyofasida qanotli hoʻkiz tasvirida aks etishi va haykaltaroshlik qismini alohida koʻrsatish mumkin. Bu nafis ishlangan buyumlar mum modeli boʻyicha bronzadan quyib tayyorlangan. Qoʻshimcha tarzda oʻyma naqsh yordamida haykal tarashlangan va yupqa oltin bilan qoplangan. Yuz qismi oq toshdan yasalgan. Koʻzi va qoshi qadama naqshli, qizil pasta bilan bezatilgan qanotlarining chuqurlashuvi yorqin rang effektini bergan. Shunga oʻxshash ifodali Urartu metallurgik haykaltaroshlik materiallari asarlari, qadimgi sharq xalqlari sanʼatida muhim oʻrin egallaydi.

Mil. avv. VIII asrda qurilgan Arin-berd tepaligi qalʼa xarobalaridan topilgan devoriy rasmlar Urartu rassomlik sanʼati haqida ayrim tasavvurlarni beradi. Topilgan topilmalar boʻyicha fikr yuritilsa, 1 metrgacha balandlikdagi original koʻp rang-barang boʻyoqlardagi friz qadimgi zal devorlarini bezagan. Mazkur friz yugurayotgan echki, ibodatga kelgan kishilar yaqinida turgan muqaddas daraxt hayoti, hoʻkizlar, qanotli disklar va nihoyat oʻsimlik va geometrik ornamentlar tasviridan tashkil topgan. Bu badiiy syujetlar qadimgi sharq sanʼati uchun oʻziga xos boʻlib, ammo oʻz vaqtida Urartu madaniyati uchun xos boʻlgan ayrim oʻziga xos xususiyati bilan farq qiladi.

Urartu aholisi ossur-bobil sivilizatsiyasining yutuqlaridan yaxshigina foydalanganlar. Ular ossurlardan mixxatni oʻzlashtirib olganlar. Ammo, uni bir muncha soddalashtirib, takomillashtirganlar. Urartuda metallurgiya va tasviriy sanʼatning rivojlanishi, ossurlar va xetlar metall ishlab chiqarishi va badiiy ijod texnikasi bilan chambarchas bogʻliq. Qanotli hoʻkizlar badiiy obrazi Old Osiyoning qator xalqlari, yaʼni ossurlar, xetlar, mitannilar sanʼatida saqlangan.

Urartu dini qadimgi fetishizm va tabiat sig'inishidan to xudolar topinishigacha, ya'ni podsho va davlat homiysi rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Urartlar daraxtlarni va ayniqsa tog'larni ilohiylashtirganlar. "Xalda tog'i" xudo Xaldining sifatlashlaridan biri bo'lgan. Urartu xudolari ro'yxatida (Mxer Kapusi) Xaldi darvozasi va Xaldi darvozasi xudosi tilga olinadi. Shubhasizki, bu yerda qoyalarda kesib o'tilgan o'yiqliq joy nazarda tutilgan. Urartu diniy dunyoqarashi bo'yicha tog'da istiqomat qiluvchi iloh muqaddas qoyadan chiqib kelgan. Urartu mamlakatida ilohiy daraxtlarga topinish keng tarqalgan. Turli xil buyumlarda, xususan, muhr izlarida, ilohiy daraxtga sig'inish manzaralari saqlanib qolgan. Bu marosimni podshoning o'zi ham amalga oshirgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, ilohiy daraxtlar tasviri oldida ilohiy tosh ustunlar, shuningdek, grifonlar tasviri saqlangan. Urartuda Xaldi tog'i xudosi ilohi bilan bir qatorda hayvonlar va o'simliklar homiysi hisoblangan, tabiat va hosil xudosi ilohi ham mavjud bo'lgan. Momaqaldiroq va bo'ron xudosi Teyshub va quyosh xudosi Ard Urartu pantionida muhim o'rin egallaydi. Urartu yozuvlarida asosan uchta asosiy xudo – Xaldi, Teyshub va Arda tez-tez tilga olinadi. Ammo, bularning ichida Urartu aholisining oliy xudosi hisoblangan Xaldi xudosi birinchi o'rinni egallaydi. Vaqt o'tgan sayin Xaldi xudosi podsho hamda Urartu davlati homiysi va urush xudosi aylangan. Nayza va qalqon jangovor xudo va uning yerdagi vakili ilohiy hukumatining ramzi hisoblangan. Ba'zan Urartu podsholari oliy kohin sifatida tasvirlangan.

"Xayk va Bel jangi" to'g'risida va "Qirolicha Shamiram haqida" afsonalar. Xayk tarixi Mavses Xorenitsada va yana bir arman ilk o'rta asr tarixchisining asarida saqlangan. Uning qisqacha bayoni quyidagicha: istibdod tuzumga qarshi chiqqan Bela o'zining qarindosh-urug'lari bilan birga tog' mamlakati – shimolga ketib qoladi. Bela itoat qilmaydiganlarni jazolash uchun dushman qo'shini ustiga yurish qiladi. Jangda Xayk kamonidan o'q otib, Belani o'ldiradi. Xaykning o'g'illari va nevaralari tog'liklar bo'ylab joylashib, arman xalqiga asos soladi.

Shu o'rinda, Ara sohibjamol va Shamiram haqidagi afsona ham Shu xildagi rivoyatlar sirasiga kiradi. Shamiram –bu armancha Semiramida ismining yunoncha shakliga mos keladi. Ikkala ism ham mil. avv. VIII asrda Ossuriya malikasi Shammuramat ismidan kelib

chiqqan. Shamiram-Semiramida haqidagi afsonalar qator sharq xalqlarida va qadimgi yunon adabiyotida yaxshi saqlangan. Malika timsoli unga Ossuriya-Bobil xudosi Ishtar timsoli bilan aralashgan. Xayk va Bela haqidagi afsonaning arman tarixchilari asarlarida saqlangan variantida, Shamiram Ara Sohibjamolni g'oyibona sevib qoladi. Ammo, sevgisi rad etilganidan keyin, kuch orqali o'zining xohishiga erishish uchun Armanistonga urush qiladi. Jangda Ara vafot etadi. Shamiram uni behuda tiriltirishga harakat qiladi. Qadimgi yunon faylasufi Platon Era Arman yoki Ara haqida hikoya qilganidek, Ara afsonasining qadimgi variantida Ara qayta tirilishi kerak bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Urartu qo'shni xalqlarga, jumladan, ossurlar madaniyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Urartu madaniyati Ossuriya metallurgiyasi va Ossuriya san'atining rivojlanishida shak-shubhasiz muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Urartu Kavkazorti qo'shni xalqlari rivojlanishiga kuchli madaniy ta'sir ko'rsatgan. Armaniston hududida Urartu arxitekturasi ta'siri ostida qurilgan qal'a xarobalari saqlanib qolgan. Urartu tili, dini va Ossuriya-Bobil madaniyatining ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan afsonasi qadimgi arman xalqi madaniyati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, Urartu qadimgi sharq madaniyatining tarkibiy qismini birmuncha kechroq vujudga kelgan xalqlarga xususan, qadimgi arman va Kavkazortining boshqa xalqlariga topshirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Urartu podsholigi hozirgi qaysi davlat hududlariga to'g'ri keladi?
2. Qaysi shahar Urartu davlatining poytaxti bo'lgan?
3. Podsho Sarduriy II davrida qaysi davlatlarga yurish uyushtirgan?
4. Urartu va Ossuriyaning siyosiy munosabatlarini yoritib bering.
5. Podsho Rusa I davrida Urartuning taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.

2. История Востока. В 6 т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
4. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
5. Дьяконов И. М. Урартские письма и документы. М., 1963.
6. Zimansky P E. Ecology and Empire: the Structure of the Urartian State. Chicago, 1985.
7. Forbes Th. B. Urartian Architecture. Oxford, 1983.

QADIMGI YAQIN SHARQ

11-mavzu. Finikiya

Qadimgi Finikiya sivilizatsiyasi O'rtayer dengizining sharqiy sohillari bo'ylab vujudga kelgan edi. Finikiya davlati sharq tomonda quruqlik yerlar bilan deyarli qirg'oqqa yaqin bo'lgan Livan tog'lari orqali ajralib turgan. Uning hududi Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Fors davlati, Qadimgi Rim kabi buyuk davlatlar bilan solishtirganda bor yo'g'i bir parcha yerdek ko'rinar edi. Lekin uning nomi Misr qirg'oqlarida Sitsiliya, Ispaniya, Shimoliy Afrika, yunon portlarida jaranglab turardi. Finikiya kemalari butun O'rtayer dengizida hukmronlik qilgan. Finikiyaliklar butun dunyoda hozirgi yozuv tizimi uchun asos bo'lgan alifbo, yuqori sifatli dengiz kemalari va ko'plab boshqa ixtirolari bilan mashhur bo'lgan.

Finikiya davlatining dastlabki aholisi kim bo'lganligi bizga noma'lum. Biroq, ularning to'g'ridan-to'g'ri ajdodlari bu yerda mil. avv. III-mingyillikdayoq yashaganlar. To'g'ri finikiyaliklar o'zlarini bunday nomlamaganlar, aksincha "biror-bir shahar aholisi": sidonliklar, tirliklar deb hisoblaganlar. Ular Janubiy Suriya va Falastin atrofini egallagan yerlar aholisi bilan birga "xanaaneylar", ya'ni Xanaan mamlakati aholisi nomini olganlar va zamonaviy arablar, qadimgi akkad, ossuriyaliklar, misrliklar tiliga qarindosh bo'lgan somiy tilida so'zlashganlar.

Gerodot va boshqa qadimgi yunon tarixchilari finikiyaliklarning kelib chiqishi haqida ko'p yozganlar. Ular finikiyaliklarning dastlabki vatani Fors ko'rfazidagi orol deb aytganlar. Zamonaviy tadqiqotchilar ham xanaaney va qadimgi arab tillari o'rtasidagi katta o'xshashlikni qayd etadilar. Ular taxminan mil. avv. IV-mingyillikning oxirida ajralganlar. Bu faraz O'rtayer dengizining sohilida ushbu sivilizatsiya paydo bo'lishiga oid bo'lgan arxeologik topilmalarga mos tushadi. Finikiya shaharlarida eng qadimgi aholi qatlamlarining paydo bo'lishi taxminan mil.avv. 3000-yil bilan belgilanadi. Shu davrdan shahar sivilizatsiyasi tarixi boshlanadi.

Mamlakat tabiati farovon hayot uchun barcha imkoniyatlarni bergan edi. Yerlar kam bo'lgan, lekin tomorqa bo'lgan joylar juda hosildor edi. Nam dengiz shamollari yomg'irlarni olib kelgan va sun'iy sug'orishga ehtiyoj bo'lmagan. Juda qadimdan boshlab

mahalliy aholi zaytun, xurmo, uzum yetishtirgan, chorvachilikda mol va qo'y boqish bilan shug'ullangan. Arxeologlar mil. avv. X-mingyillikka oid bo'lgan dehqonchilik izlarini topganlar. Mil. avv. III-mingyillik o'rtalarida dehqonlar va baliqchilar manzilgohlari o'rnida shaharlar bunyod bo'ladi. Ulardan eng yiriklari shimolda Ugarit va Arvad, markazda Bibl, janubda Tir va Sidon bo'lgan.

Arxeologlarning qazishmalari ularning tashqi ko'rinishini qayta tiklash imkonini beradi. Shaharlar devor bilan mustahkamlanib, ularning markazida bir-biriga yopishib ketgan paxsa va g'isht uyalar bilan o'ralgan ibodatxona va mahalliy hukmdor qarorgohi bo'lgan. Kichik mamlakatda yer eng qimmatbaho boylik bo'lgan. Shuning uchun shaharlar juda zich qurilgan. Yer yetishmovchiligi ayriqsa, Tir va Arvadda qattiq sezilgan. Bu ikki shahar sohildan uzoq bo'lmagan kichikroq orollarda joylashgan edi.

Qazishmalar finikiyaliklar foydalangan mebellar va uy-ro'zg'or buyumlari to'g'risida bir qancha tasavvurlar olishga imkon beradi. Qabrlardan metallardan tayyorlangan kalta nayzalar va loydan yasalgan idishlar topilgan. Finikiyaliklar asosan baland bo'lmagan stol-stullar, kursi va yassi lojalardan foydalanganlar. Xonadondagi faxriy joyni oilaning asosiy boyliklari saqlangan katta yog'och sandiq egallagan. Boyroq bo'lganlar uni gilam bilan, kambag'allar esa bo'ya bilan yopganlar. Ko'chalarning markazida maxsus drenaj ariqlar qazilib, ular shaharni toza saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Har bir shahar yaqin tevarak-atrofi bilan kichik shahar bo'lgan. Ulardan hech qaysi biri butun mamlakatni yagona hududga birlashtira olmaydilar. Asrlar mobaynida ular o'rtasida doimiy ravishda kurash kechgan. Mil. avv. II-mingyillikning o'rtalariga kelib, shimolda Ugarit, markazda bo'lsa Bibl hukmronlik qiladi. Mil. avv. XV asrning birinchi yarmida yetakchilik mil. avv. IV-mingyillikda vujudga kelgan Sidonga (Livandagi zamonaviy Sayda shahri) o'tadi.

Finikiya shahar-davlatlarining tuzilishi va hayotini o'rganishda mil. avv. II-mingyillikka oid 29 ta mixxat xarflari bilan yozilgan ulkan sopo'i taxtachalardan iborat arxiv katta yordam beradi. U arxeologlar tomonidan Ugaritdan topilgan.

Ugarit jamiyati - amaldorlar va jangchilar kiradigan "podsho odamlari", "Ugarit o'g'illari" ya'ni, dehqonlar va hunarmandlar -- barcha erkin fuqarolar hamda qullardan iborat bo'lgan. Hujjatlardan jamoa soliqlari yig'ilishi va jamoa a'zolarini umumiy davlat

majburiyatlariga chaqirilishi haqida bilish mumkin. Ulardan eng muhimlari harbiy, eshkak eshish va davlat ishlarida mehnat qilish bo'lib, bu ishlardan bo'yin tovlash o'lim bilan jazolangan.

Daviat tepasida podsho turgan, lekin uning hokimiyati kuchsiz bo'lgan. Uning vakolatlari shahar oqsoqollari kengashi tomonidan chegaralangan. Shaharlarda mansabdor lavozimlarga saylov mulk senzi asosida o'tkazilgan. Bunday tartib, masalan, qadimgi yunon faylasufi Aristotel tomonidan tasvirlangan Karfagen davlat tuzilishida amal qilgan.

Arxiv ma'lumotlari va arxeologik topilmalar Finikiya shaharlarining boyligi va ularning hunarmandlari va zargarlarining mahoratidan darak beradi. Xo'sh, gullab-yashnashning asoslari nimada edi?

Avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ehtiyojlarni qoplagan, lekin yer yetishmasligi sababli u boylik manbai sifatida xizmat qilmagan. Asosiy foyda savdo orqali bo'lgan. Bu qadimgi davlatning savdo yo'llari butun Old Osiyoni qamrab olgan edi. Karvonlar bilan janubda qadimgi Misr va Falastingacha, shimolda – Kichik Osiyo va ikki daryo oralig'iga qadar borilgan. Kemalar Nil deltasi, Egey dengizi oqollari va so'ngra G'arbgga tovarlarni olib borganlar.

Finikiyaliklarning asosiy tovari yog'och bo'lib, qadimgi Misrda unga ehtiyoj kuchli bo'lgan. Shaharlar, birinchi navbatda Bibl shahri Livan tog'lari yonbag'irlarida o'sadigan kedr, eman va sarv yog'ochlari bilan savdo qilganlar. Daraxtlardan kema va sarkofaglar tayyorlanib, ularga Misr a'yonlarining mumiyolari solingan. Savdoda yuqori sifatli vino katta rol o'ynagan. Shuningdek, zaytun yog'i muhim mahsulot hisoblangan.

Finikiyaliklar birinchi bo'lib molluskalarning alohida turidan to'q qizil bo'yoq ishlab chiqarishni boshlaganlar. Undan jun va zig'ir matolarni bo'yaganlar. Bu matolar darrov urfga kiradi va butun qo'shni mamlakatlarda unga nisbatan ulkan talab paydo bo'ladi. Qadimgi Finikiya shaharlaridagi arxeologik qazishmalar davomida bo'yoq olingandan so'ng, uning o'rnidan bo'sh chig'anoqlar topilgan.

Jamiyatda ishlab chiqarish miqyosi juda yuqori bo'lgan. O'zining matolari yetishmagan va arzon, bo'yalmagan junlarni Finikiyaga Suriyaning chorvachilik hududlaridan, Kritdan, so'ngra butun Old Osiyodan olib keltirishgan. Qadimda Finikiya hunarmandlarining bronza va kumushdan ishlangan ajoyib buyumlari, shuningdek,

mashhur Sidon oynasi ham tashqi savdoda yuqori baholangan. Finikiyaliklar mahalliy ishlab chiqarish tovarlaridan tashqari Kichik Osiyo, Kipr, Krit, Qadimgi Yunonistondan olib kelingan buyumlar bilan ham savdo qilishgan. Ularning shaharlari esa yirik tranzit savdo markazlari vazifasini o'tagan. Kichik Osiyodan kumush va qo'rg'oshin, keyinroq temir keltirilgan. Ular Kritdan badiiy hunarmandchilik buyumlari va boshqa O'rtayer dengizi mamlakatlari mahsulotlarini olganlar. G'arb bilan savdo aloqalarning eng yirik markazi Ugarit, u vayron bo'lganidan keyin esa Tir shahri bo'lgan..

Tirning («Surru») eng qadimgi yozma manbalarda tilga olinishi — Amarna arxivida uchraydi. Misr Tir hukmdori Abimilku bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. U Misr fir'avni Exnatonni o'z hukmdori deb e'tirof etib, vassal sifatida o'z hududidagi vaziyat haqida hisobot beradi va uni rabisu («general») deb nomlaydi. Bundan tashqari Abimilku ezilgan holda (taxtachalar orasida «Fira'vnga madhiya» ham bor) Misr fir'avnidan Sidon hukmdori Zimreddi va amoriylarga qarshi kurashda yordam so'raydi; uni orolda qurshab olishgan bo'lib, unda na suv, na o'tin bor edi. Anastasi I papirusida (mil. avv. XIII asr) Tir “suvlarida baliq qumdan ko'p bo'lgan suvlar oqib boradigan dengizdagi katta shahar” sifatida tilga olinadi.

Eng qadimgi manzilgohlar haqiqatdan ham orolda joylashgan bo'lib, qit'ada shahar atrofidagi qishloq va qabristonlar bo'lgan. Orola suv bo'lmagan; Suv Ras-el-Aindan qirg'oqqa keltirilgan, u yerda kemalarda shaharga olib kelingan (Tell-Mashuk va Ras-el-Ain o'rtasidagi vodoprovod qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolgan); qamal paytlarida yomg'ir suvlarini katta idishlarga to'plashga to'g'ri kelgan. Orol ikki bandargohga — shimolda Sidon va janubiy-g'arbda Misr bandargohlariga ega bo'lgan; so'nggisi hozirda qumlar bilan qoplangan bo'lib, orolning bir qismini dengiz yuvib ketgan.

Mil. avv. XII asrda filistimliklar tomonidan Sidon vayron qilinganidan so'ng, Finikiya shaharlari o'rtasida birinchi o'ringa Tir shahri chiqib oladi. U savdoda asosiy rol o'ynay boshlaydi. O'rtayer dengizining g'arbiy yarmidagi deyarli barcha Finikiya koloniyalari (Kadis, Utika, Karfagen va ko'plab boshqalari) Tirning gegemoniyasini tan oladilar. Ularning Melkart xudosi o'zlariniki deb tan oladilar va uning ibodatxonasiga har kunlik o'lpon jo'natib turadilar. Tirga qarshi bosh ko'tarishga uringan Utika, shaharning tashkilotchisi va bezatuvchisi hamda dono siyosatchi sifatida mashhur

bo'lgan Xiram I (mil. avv. 969—936 yy.) tomonidan bostiriladi. Xiram 53 yil yashaydi va 34 yillik podsholikdan so'ng, vafot etadi. U tashqi siyosatda Sidondan keyin Tir gegemonligini o'rnatadi. Kittiylar (Kipr aholisi) bilan jang qiladi va Dovud davridan boshlab Isroil-Yahudiy podsholigi bilan ittifoq tuzadi. Aynan Xiramning podsho Sulaymon bilan do'stligi sabab, tirliklar yahudiylarga Sulaymon ibodatxonasini qurishda yordam beradi.

Undan keyin boshlangan isyonlar taxtga Isroillik Axavaning qaynog'asi, Iezavelning akasi uzurpator Ittobal I kelmaguncha davom etadi. Uning davrida Ossuriya podshosi Ashshurnatsirapal II o'zining yurishlarida G'arbda Nar-el-Kelbgacha (mil. avv. 876 yy) yetib boradi. Tir undan katta pul evaziga qutilib qoladi. Ittobal ossuriyaliklardan himoyalaniş uchun Botrisga asos soladi, so'ngra Isroil podshosi Omri bilan ittifoq tuzadi va Liviya Avzuga koloniya jo'natadi. Uning nevarasi Mattan I davrida Salmanasar II Tirdan sovg'alar olib turadi (mil. avv. 842 yy), keyingi hukmdor Pigmalion (antik tarixchilar uning singlisi Elissa, yoki Didonani Karfagenning asoschisi deb ataydilar) davrida Ramman-Nirarning (mil. avv. 804 va 801 yy.) yurishlari bo'ladi, bu safar ham hadyalar bilan qutulib qoladi. Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III ga Tir 150 talant to'laydi. Bu haqda Tir podsholari Xiram II va Matton I larning (738 va 734 yy.) annallarida eslatib o'tilgan. Ulardan so'ng, Tir hukmdori ajralib chiqqan kittiylarni bo'ysundirgan.

Ossuriya podshosi Sargon II Tirni bo'ysundirgani bilan maqtanadi. Lekin Sinaxxerib Nubiya-Misr fir'avni Taxarka va Yahudiya podshosi Ezekiy o'rtasidagi ittifoqqa suqilib kirgan Elulayni bo'ysundirishni uddalay olmadi. Faqatgina Sinaxxerib tomonidan mil. avv. 701 yilda ossuriyaliklar Tir shahrining materik qismini egallaganida Elulay qochib ketadi, tez orada u ushlanadi va qatl qilinadi. Assarxaddon davrida Tir podshosi Vaal I dastlab Ossuriyaga bo'ysunadi va unga Sidonni egallashida yordam beradi. Mil. avv. 675 yilda Tir boshqaruv ishlarida muhim qarorlarni Ossuriya kuzatuvchi-rezidenti va oqsoqollar kengashisiz qabul qilish huquqidan mahrum qilinadi. Biroq, keyinchalik Vaal Misrga qo'shilib oladi. U qamal qilinadi, lekin Assarxaddonning Senjirlik barelefida Taxarka bilan podshoning oyoqlari ostida arqonda bog'langan holda tasvirlanganiga qaramay (Berlin muzeyi) aftidan bo'ysundirilmagan. Lekin

Ashshurbanipal davrida Vaal I ossuriyaliklarga itoat etib, qizi va o'g'lini garov sifatida berishiga to'g'ri keladi.

Doimiy qamallar va urushlar shaharni zaiflashtiradi. Taxminan mil. avv. IX asrda qullar bundan foydalanib qo'zg'olon ko'taradi va zodagonlar tajovuz qurboniga aylanadilar. Bu qo'zg'olon haqidagi antik an'analarda (Yustin) saqlanib qolgan kam sonli ma'lumotlarga ko'ra qullar qo'zg'oloni hukmron tabaqaning erkak vakillarini to'liq yo'q qilinishiga, ayollar va bolalarni esa qo'zg'olonchilar o'rtasida taqsimlab olinishiga olib keladi; podsho sifatida Abdastart (yunoncha Straton) tanlanadi.

Finikiya madaniyati

Finikiya dini somiy xalqlari madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Madaniyat o'z navbatida aholi qatlamlarining mashg'uloti va ularning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan. Finikiya ehromlarining arxitekturasi Sulaymon ehromi ko'rinishida bo'lib, tirlik muhandislarining faol ko'magi bilan barpo qilingan. Diniy qarashlarning birdan-bir o'ziga xos tomoni, xudolarning o'zgachaligida edi. Yahudiylar yagona xudoni ulug'lashgan bo'lsalar, finikiyaliklar esa Panteon xudosiga sig'inishgan. Finikiyaliklar Muqaddas tog' xudosiga ham e'tiqod qilishgan. Finikiyaliklar dinidagi oxirgi e'tiqod Geliogabal bo'lgan.

Keng miqyosdagi madaniy-iqtisodiy va siyosiy aloqalar dastlab Misr, keyinroq, Yunoniston bilan o'rnatiladi. Ko'pgina finikiyaliklarning xudolari Misr va yunon afsonalari asosida shakllanadi. Hukmdor Vaal boshqaruvi davrida qadimgi Misr afsonalari asosida urf-odat va boshqaruv tizimlari vujudga keladi. Melkart, xristian dinida Molox nomi bilan mashhur bo'lib, bu shahar hukmdorining nufuzi va uni xudo darajasida ulug'lashini bildirgan. Keyinroq yunon manbalarida finikiyaliklar Gerkulesga e'tiqod qilishgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Gebaldan to Kartaxengacha bo'lgan qabrlarni o'rganish davomida ko'plab go'daklarning jasadlari topildi. Qazishmalardagi qoldiqlarning katta qismi bolalar jasadlaridan iborat. Qadimgi Finikiya davrida go'daklarning o'tda kuydirilgan qoldiqlari topilgan. Rimliklar va finikiyaliklarning keng aloqalari bois antik davr mualliflarida ko'plab yanglishliklar kuzatiladi. Bu jihatni finikiyaliklar o'rtasida keng

tarqalgan odamlarni qurbonlik qilish, Giperbore aholisining it boshli ko'rinishi, baqtriyaliklarning katta chumoli, qo'y ko'rinishida tasvirlanishi kabilarda ko'rish mumkin.

Finikiya dini ko'plab an'analarning sintezi hisoblanadi. Masalan, ko'chmanchi somiyalarning kulti bo'lgan buqaboshli Quyosh xudosi va ayol xudo Lunalar, neolit davrining matriarxal kulti Buyuk ona xudo va Misr xudolari juftliklari Isida va Osiris xudolari shular jumlasidandir.

Xudolarga bolalarni qurbonlik qilish rahmsizlik, toshyuraklik bilan olib borilgan. Qurbonliklarning bu ko'rinishi muhim paytlarda yuzlab bolalarni o'ldirish bilan amalga oshirilgan. Qurbonlik qilinganlarning jasadlari muqaddas joylarda saqlangan. Bu amaliyot finikiyaliklarda qadimgi yahudiylardan o'zlashtirilgan bo'lib, bu finikiyaliklarning yahudiyalar yashaydigan Janubiy Xanaan egallangandan keyin sodir bo'lgan. Muqaddas Bibliyada ham bolalarni Guna vodiysida muqaddas "Olovdan o'tkazish" – Quddus atroflarida xudo Molox sharafiga qurbonliklar qilish haqida eslatiladi.

Antropologiya va tarix professori Zefri Shvars va uning jamoasi qurbonliklar jarayoniga liberal yondashgan. Chunonchi, ular "Bolalar bevaqt o'lim topgan paytida ularning jasadlari kuydiriladi va qurbonlik qilinadi deb ta'kidlashgan. Ushbu jarayonni o'rganish uchun 348 ta qabr ochib o'rganilgan. U yerdan, shuningdek, Karfagen haykalchalari ham topilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Finikiya hozirgi qaysi davlatlar hududlariga to'g'ri keladi?
2. Qaysi shahar Finikiya davlatining poytaxti bo'lgan?
3. Ko'chmanshi giksoslar qaysi davlatga yurish uyushtirganlar?
4. Finikiya va Ossuriyaning siyosiy munosabatlarini yoritib bering.
5. Finikiya flotining Misr bilan olib borgan savdo aloqalarini yoritib.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.

3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.

4. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.

5. Nissen H.J. The Early History of the Ancient Near East. Chicago-L., 1988.

6. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.

7. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

8. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

12-mavzu. Qadimgi Yamxad

Yamxad haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv. XX asrlarga borib taqaladi. Biroq, bu davlatning dastlabki podsholari haqida ma'lumotlar yo'q. Mil. avv. XVIII asrga kelib hozirgi Shimoliy Suriya yerlariga amoriy qabilalari bostirib keladi. Yamxadning yirik shaharlari Xalab (hozirgi Aleppo) va Alalaxlar qadimgi sharqning yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan. Ushbu davlatning mashhur podshosi Sumu-epux (mil. avv. 1810-1780 yy) davrida mamlakat gullab-yashnaydi. Yamxadlik savdogarlar Mesopotamiyaga (ayniqsa, Mari shahriga) zaytun moyi, bug'doy, vino, mis, gazlama mollari va boshqa mahsulotlarni sotishgan. Mesopotamiyadan esa, qurol-yarog', zargarlik buyumlari, qo'rg'oshin va boshqa mollar keltirilar edi. Mamlakat aholisi savdo-sotiqdan tashqari dehqonchilik va chorvachilik bilan keng shug'ullangan. Xo'jalikda zaytun yetishtirish ham ustuvor sanalgan.

Yamxad podsholigi Oront va Frot daryolari etagidagi yerlar ustidan o'z nazoratini o'rnatgan edi. Biroq, mazkur davlatga kuchayib borayotgan qo'shni davlatlar xavf sola boshladi. Jumladan, Sumu-epux kuchayib borayotgan Ossuriya bilan raqobatlashadi. Ossuriya podshosi Shamshi-Adad I Yamxadga qarshi Karxemish va Kanta shahar davlatlari koalitsiyasini tuzadi. Yamxad bu ittifoq bilan uzoc vaqt urush olib boradi. Urush vaqtida Sumu-epux vafot etadi va taxtga uning o'g'li Yarim-Lim (tax. mil. avv. 1780-1764 yy) chiqadi. U

Ossuriya bilan urushni davom ettiradi. Podsho Yarim-Limning yordami bilan Mari shahar-davlatidan ossurlar quvib chiqarilib, taxtga Zimrilim o'tkaziladi. Natijada Yamxad va Mari o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatiladi. Mari podshosi Zimrilim o'z navbatida Yarim-Limning qiziga uylanadi.

Ko'p o'tmay Kanta podsholigi bilan ham sulh tuziladi. Natijada Karxemish va Yamxad munosabatlari yaxshilanadi. Shu bilan Yaqin Sharqdagi savdo yo'li xavfsizligi ta'minlanadi. Bu orada janubda giksoslarning kuchli qabilaviy ittifoqi yuzaga keladi. Ular o'z e'tiborini Misrni zabt etishga qaratadilar. Keyinchalik Yamxad podsholaridan Abba-El I, Yarim-Lim II, Nikmepa I va boshqalar davrida mamlakat nisbatan kuchsizlanadi.

Mil. avv. XVII asrda Yamxad hududiga xetlar podshosi Xattusili I bostirib keladi. Xett qo'shinlari Alalax shahrini zabt etib, uni vayron qiladilar. Mamlakat bosqinchilar tomonidan talon-taroj qilinadi, chunki shimoliy Suriya yerlari Kichik Osiyoga qaraganda boyroq mamlakat edi. Biroz vaqt o'tib, Urshu shahri ham xetlar tomonidan bosib olinadi. Oqibatda Yamxad, O'tayer dengiziga chiqishdan mahrum bo'ladi. Keyinchalik Xalab shahrini esa yana bir Xett podshosi Mursili I bosib oladi. Ko'p o'tmay, Xett davlati vaqtinchalik inqirozni boshdan kechiradi.

Mil. avv. XVI asrga kelib Yamxad podsholigiga yangi dushman xurric qabilalari xavf sola boshlaydi. Ichki nizolar va tashqi xavfning kuchayishi natijasida mamlakat podsho Ilmilimma II davrida Mitanni podsholigiga bo'ysunadi. Shu tariqa Alalax (yoki Yamxad) podsholigi mil. avv. XV asrda barham topadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yamxad madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
2. Yamxad podsholigini yuzaga kelishi shart-sharoitlarini izohlang.
3. Qadimgi Yamxad podsholigining Suriyagi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Yarim-Limning tashqi siyosatining asosiy vazifalari.
5. Yamxad tarixida kohinlar tabaqasining o'rmini aniqlang.

6. Qadimgi Yamxad podsholigi xo'jaligining o'ziga xos jihatlarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
4. Кузищин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
5. Nissen H. J. The Early History of the Ancient Near East. Chicago-L., 1988.
6. S. W. Bauer-The History of the Ancient World. From the Earliest Accounts to the Fall of Rome. W. W. Norton & Company. 2007.
7. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
8. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

13-mavzu. Mitanni davlati

Qadimgi Mitanni davlati mil. avv. XVII asrda Shimoliy Mesopotamiya va unga chegaradosh hududlarda yuzaga keladi. Aholisi asosan xurrit va somiy qabilalari ittifoqi asosida yuzaga kelgan edi. Mitanniliklar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Shu bilan birga, ularning hayotida savdo-sotiq ishi muhim o'rin tutgan. Hokimiyat tepasida oriylar (hind-yevropa tilida so'zlashuvchi)ga mansub sulola turgan. Chunki mitannilik podsholarning ismlari hind-yevropa tiliga mansub edi. Mitanniliklar asosan xurrit va akkad tilida so'zlashar edi. Qadimgi Ossuriya yozma manbalarida Mitanni davlati "Xanigalbat" deb tilga olinadi. Bu davlatning poytaxti Vashshukanna bo'lganligi manbalarda ta'kidlanib o'tiladi. Afsonalarga ko'ra bu davlatga Kita ismli podsho asos soladi. Uning hukmronlik yillari masalasida olimlar orasida munozarali

fikrlar mavjud. Undan so'ng, Mitanni taxtiga Shuttarna I chiqadi. U xurrit qabilalarini o'z hokimiyati yo'lida birlashtirishni boshlaydi. Mil. avv. XVI asrda taxtga Parrattarna chiqadi. G'arb olimlarining fikricha u ham hind-eron qabilasiga mansub hukmron sulola vakili bo'lgan. Podsho Parrattarna o'zini "xurri (xurrit) askarlarining hukmdori" deb ataydi. Uning davrida mitanniliklar Shimoliy Suriyadan to Oront daryosiga qadar bo'lgan yerlar ustidan o'z gegemonligini o'rnatadilar. Alalax podshosi Idrimiga o'z yurtida taxtni egallashga yordam beradi.

Mil. avv. 1450-yilga kelib taxtga podsho Shaushtatar chiqadi. Mamlakat chegaralari yanada kengaytiriladi. Mitanniga butun Shimoliy Suriya, Alshe, Kitsuvatna, Kummi, Uruarti, Arrapxa va boshqa hududlar bo'ysunadi. Podsho Shaushtatar Ashshurga ham yurish qilib, u yerdan kumush va oltin bilan bezatilgan darvozani Mitanniga olib ketadi. Ossuriyada mitanniliklar hukmronligi o'rnatiladi. Ashshur podshosi yonida Mitanni elchisi doimiy istiqomat qilib, davlat boshqaruvi ustidan nazorat olib borgan edi. Hukmronligining 33-yili podsho Shaushtatar qo'shinlari Karxemish shahri yonida Misr fir'avni Tutmos III qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchraydi. Misr qo'shini Frot daryosidan suzib o'tib, Mitanning qator shaharlarini vayron qiladilar. Shaushtatar sharqqa chekinadi va misrliklar esa Shimoliy Suriyani bosib oladilar.

Mil. avv. 1410-yil Shaushtatar vafotidan keyin Mitanni taxtiga Artadama I (mil. avv. 1410-1400 -yy) chiqadi. Uning hukmronligi davrida Xetlar va Misr bilan urush olib boriladi. So'ngra, Misr fir'avni Tutmos IV bilan sulh tuzilib, Mitanni Shimoliy Suriyaning O'rtayer dengiziga chiqadigan hududiga egalik qiladigan bo'ladi. Podsho Artadama I o'z qizini Misr fir'avniga turmushga berib, tuzilgan kelishuvni nikoh diplomatiyasi yordamida mustahkamlashga erishadi. Mil. avv. 1400- yili Mitanni taxtiga Artadama I ning o'g'li Shuttarna II (mil. avv. 1400-1375- yy) keladi. U xetlarga qaram bo'lgan janubi-sharqiy Kichik Osiyodagi Kurtalissa, Aravanna va boshqa shaharlardagi qo'zg'olonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Suriyaning Xalab, Ashtata va Nuxashshe o'lkalaridagi xetlarga qarshi harakatlarni ham qo'llab turadi. Ammo, bu harakatlar ikki tomonga ham foyda keltirmadi. Misr bilan esa savdo-diplomatik munosabatlarni otasi kabi yaxshilashga erishadi. Mil. avv. 1375-yil taxtga Shuttarna II ning o'g'li Artashshumara chiqadi. Biroq, u besh

yilgina hokimiyatni egallab turadi. Misr bilan yaqinlashuv siyosatidan norozi bo'lgan saroy a'yonlari, amaldor Tuxi (yoki Parxi) boshchiligida fitna uyushtirib, uni o'ldiradilar. Mitanni taxtiga Artashshumaraning ukasi Tushratta (mil. avv. 1370-1350-yy) keladi. U xetlar bilan ittifoqqa intiladi, ammo ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Saroy amaldori Tuxini qatl etib, Misr bilan do'stona munosabatlarni tiklaydi. Natijada xetlar podshosi Suppiluliuma I Mitanniga o'zining birinchi harbiy yurishini uyushtiradi. Mitanniliklar xetlarni o'z yurtlaridan quvib chiqaradilar. Hatto podsho Tushratta o'z g'alabasi haqida Misr fir'avni Amenxotep III ga sovg'a-salomlar yuborib ma'lum qiladi. Ammo, ko'p o'tmay xetlar o'zlarini o'nglab olgach, Mitanniga yana bir necha yurishlarni amalga oshiradilar. Bu safar Mitanni podshosi Tushratta o'z mamlakatini mudofaa qila olmaydi. Misrliklar o'z ittifoqchilariga yordamga kelmaydilar. Natijada Mitanni xetlar tomonidan talon-taroj qilinadi, podsho Tushratta esa mag'lubiyatga uchrab, qochib yashirinadi. Xetlar podshosi Suppiluliuma I ning qo'shinlari mamlakatni bosib olmasalarda Mitanni kuchsizlanib qoladi. Ko'p o'tmay Tushratta fitnachilar tomonidan o'ldiriladi, Mitannida esa fuqarolar urushi boshlanadi. Oxir-oqibat taxtga xetlar podshosi Suppiluliuma I ning tarafdori Shattivaza o'tkaziladi. Natijada Mitanni davlati Xetlar ta'siriga tushib qoladi.

Mil. avv. 1320-yilda Mitanni taxtiga Shattua II chiqadi. Unga zaiflashgan davlat meros bo'lib qolgan edi. Bundan Ossuriya davlati foydalanib qoladi va Mitannini o'ziga qaram qilib oladi. Mil. avv. 1300- yilda hokimiyatga Vasashatta keladi. U Ossuriyaga o'lpon to'lashni davom ettiradi, ammo ko'p o'tmay ossur podshosi Adad-nirariga qarshi chiqib xetlar bilan ittifoq tuzadi. Ossuriyaliklar Mitanniga bostirib kelib, uning shaharlarini vayron qiladilar. Xetlar davlati Mitanniga bo'lgan da'vosidan voz kechishga majbur bo'ladilar.

Bosqinchilik yurishlari ketayotgan bir vaqtda Mitanni taxtini Shattua II (mil. avv. 1280-1267-yy) egallaydi. Uning davrida mitanniliklar ossurlarga qaramlikdan qutulish uchun xetlar va oromiylar (axlamu qabilasi) bilan ittifoq tuzadilar. Ko'p o'tmay ossur podshosi Salmanasar I ga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Hatto ittifoqchilar ossur qo'shinlarini dastlab qurshab olib, ularni suv ta'minotidan mahrum qilmoqchi ham bo'ladilar. Ammo, Salmanasar I

qo'shinlar qurshovni yorib o'tib mitanniliklar, xetlar va oromiylarni mag'lub qila oldilar. Asirga tushganlarning katta qismi ko'zlari ko'r qilinadi. Shundan so'ng, Ossuriya qo'shini Mitanning yana bir bor talon-taroj qilib, uning mustaqilligini tugatadi.

Mitanni madaniyatiga akkad va misrliklar ta'siri katta bo'lgan. Mitanni aholisi ham qadimda mixxat yozuvidan foydalanib kelganlar. Qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni akkad tilida yozilgan mixxat yozuvida ifoda etganlar. Harbiy ishda yilqichilikka katta e'tibor berilganligi manbalarda ta'kidlab o'tiladi. Binokorlikda asosan xom g'ishtlardan foydalanganlar. Toshlarini bino poydevorlarini qurishda keng qo'llashgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mitanniliklar qaysi tillarda so'zlashganlar?
2. Mitanni podsholigining poytaxti qaysi shahar bo'lgan ?
3. Qadimgi Mitanni podsholigining xetlarga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Shattuara II ning tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Аветисян Г.М. Государство Митанни (Военно-политическая история в XVII-XIII вв. до н. э.). - Ереван, 1984.
2. История Востока. В 6 т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. -- М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007
4. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003
5. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.
6. Nissen H. J. The Early History of the Ancient Near East. Chicago-L., 1988.
7. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.
8. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

9.I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

14-mavzu. Qadimgi Falastin, Isroil-Yahudiy davlati **Reja:**

- 1. Qadimgi Falastin**
- 2. Qadimgi Isroil va Yahudiya podshohliklari.**
- 3. Qadimgi Falastin hamda Isroil-Yahudiy madaniyati.**

1.Qadimgi Falastin. Qadimgi Falastin Osiyo qit'asini janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, uning hududi g'arbda O'rtayer dengizi, janubda Qizil dengiz va sharqda Iordan daryosi qirg'oqlariga chiqadi. Falastinni Misrdan janubda cho'l ajratib turgan. Bu mamlakat tabiiy iqlim jihatdan o'zgaruvchan hudud hisoblanadi. Iordan daryosidan g'arbda tog'lar va unumdor vodiylar bilan qoplangan. Ushbu vodiylar O'rtayer dengiziga qadar cho'zilgan. Shu bilan birga, bu yerda o'rmonlar ham bo'lgan. Iordan orti hududlari esa tepaliklardan iborat edi va dasht mintaqalari ham mavjud bo'lgan.

Mil. avv. IV ming yillikda qadimgi Falastin hududida ko'chmanchi somiy va mahalliy protoxurrit qabilalari aralashuvi natijasida Gasul (Gxassul) yoki ilk Xanaan sivilizatsiyasi yuzaga keladi. Qadimgi falastinliklar asosan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. Falastin yerlaridagi eng katta shaharlari Ierixon, Megiddo, Gezer va Laxish o'zining savdo-sotiqdagi shuhrati bilan nom qozongan edi. Shu bilan birga, shimoliy Falastin hududida Xatsor kabi yirik shahar mavjud edi. Uning maydoni 50 gektarga teng bo'lib, o'sha davr uchun bu shahar nisbatan katta hisoblangan. Ushbu shahar Finikiya va Misr bilan yaqin madaniy aloqalarda bo'lgan. Shaharlari mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Shahar-davlatning o'z podsholari va qonunchilik tizimi bo'lgan. Bu yerning aholisi Finikiya, Suriya va Misr bilan savdo-sotiq orqali madaniy munosabatlarni o'rnatgan edi. Ular bronzani quyish texnikasini ham mukammal bilganlar va undan mehnat va harbiy qurollarni yasashgan. Shu bilan birga, Falastinda zargarlik va nisbatan primitiv haykaltaroshlik ham ravnaq topgan edi.

Falastin yerlari orqali ko'chmanchi giksoslar Misrga bostirib kirganlar. Ularning Osiyodagi tayanch nuqtasi Falastindagi G'azo

hududi hisoblangan. Falastin bu davrda siyosiy jihatdan yagona hududiy birlashma bo'lmagan.

Qadimiy tarixga ega bu zamin misrliklar kelguniga qadar (mil. avv. XVI asr) ozod mamlakat bo'lgan. So'ngra, ko'p o'tmay Yaqin sharq savdo-tranzit yo'li Misr nazoratiga o'tadi. Bu yerlarni bosib olish uchun Misr fir'avnlari Tutmos II, Tutmos III va boshqalar doimiy harbiy yurishlar uyushtirar edilar. Misr yangi podsholik davrida nihoyatda kuchayib, hatto Frot daryosi qirg'oqlariga qadar o'z ta'sirini yoyishga erishadi. Mil. avv. XVI-XIII asrlarda Falastin Misr tasarrufida bo'lgan. Falastin yerlari uchun kurashda qudratli Xett davlati bilan bellashadi. Mil. avv. XIII asr oxirida Falastinda filistimliklarning hukmronligi o'rnatilgan. Ular aslida "dengiz xalqlari"dan biri bo'lib, O'rtayer dengizi orollaridan o'z kemalarida Yaqin Sharqqa kelib bu yerlarni zabt etganlar. So'ngra, mahalliy xalq bilan aralashib ketganlar.

Qadimgi Isroil-Yahudiya podsholiklari. Mil. avv. XIII asrda kelib yahudiy qabilalari Falastin yerlariga bostirib kiradilar. So'ngra, bu yerlarni bosib olib, o'zlashtira boshlaydilar va qadimgi xanaanliklar bilan aralashib ketadilar. Natijada yahudiylar o'troqlashib boradilar hamda dehqonchilikni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Mil. avv. 1029-yilda Samuil payg'ambar yahudiy qabilalarining istagi bilan Matri qabilasining Veniamin qavmidan chiqqan Saulni, Gilgal degan joyda podsholikka ko'taradi. Mutaxassislarni fikricha mil. avv. XI asrlarda Iordan daryosidan g'arbda yashagan isroilliklarning soni 50 mingga yaqin bo'lgani ta'kidlanadi. Podsho Saul davrida (mil. avv. 1029-1005-yy) isroilliklar ilk bor 3 ming kishilik qo'shin tuzadilar. Podsho Saul Moav, Ammon, Idumeey va boshqalar bilan olib borgan urushida isroilliklarga boshchilik qiladi. Shu bilan birga, uning davrida filistimlar bilan uzoq urush olib boriladi. Saulning o'g'li Ionafan filistimliklardan Giva shahrini qaytarib olishga muvaffaq bo'ladi. Filistimliklar yahudiylarga qarshi katta qo'shin yuboradilar. Biroq, isroilliklar ularni Galgala yonidagi jangda yana mag'lub etadilar. Isroil podsholigi kuchayib borganda filistimliklar yana ularga qarshi yurish boshlaydilar va bu urushda Saul o'z o'g'illaridan ajraydi hamda o'z joniga qasd qiladi.

Podsho vafotidan keyin uning lashkarboshilaridan biri Avenir rahnamaligi ostida Isroil podsholigi taxtini Saulning o'g'li Ievosfey egallaydi. Shu vaqtning o'zida hokimiyat uchun kurashni Saulning

kuyovi Dovud ham boshlagan edi. Tez orada podsho Ievosfeyning venyamin qavmidan bo'lgan Baana va Rixav ismli lashkarboshilari o'z hukmdorlarini o'ldirib, uning boshini Dovudga olib boradilar. Dovud bunday holatdan jahli chiqib, Baana va Rixavni qatl etishni buyuradi.

Yetti yillik kurashdan so'ng, mil. avv. 1000-yilda Dovud Isroil-Yahudiy podsholigi taxtiga chiqadi. Falastinning Xevron shahri uning qarorgohi edi. Isroil-Yahudiy podsholigi qo'shini Gat shahri yaqinida filistimlarni mag'lubiyatga uchratadi. Natijada mamlakat mustaqilligini saqlab qolib, filistimlarni Isroil yerlaridan quvib yuboradi. Ko'p o'tmay Ierusalim shahri ham egallanadi. Davlat poytaxti ushbu shaharga ko'chiriladi. Filistimlar bilan tinchlik shartnomasini tuzadi va mamlakatda osoyishtalik hukm suradi.

Dovud podsholigi davrida (mil. avv. 1000-965-yy) diniy islohot o'tkazilib, Isroil-Yahudiy davlatida monoteistik (yakka xudolik) din ustunlikni qo'lga kiritadi. Dovud ruhoniylarni davlatga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi.

Shu bilan birga isroilliklar oromiylar bilan g'olibona urush olib bordilar. Natijada Dovud qo'shini Suriyaga ham kirib boradi. Frot daryosi qirg'oqlariga qadar yurish qilinadi. Dovud o'z armiyasini Misr qo'shini andozasi asosida tuzadi. Askarlar sonini kengaytirish uchun kelib chiqishi filistimlar hamda kritliklardan bo'lgan yollanma qismlarni ham tashkil etadi.

Mil. avv. 965-yilda Isroil-Yahudiy davlati taxtiga Sulaymon (yoki Shomo) chiqadi. Garchand u Dovudning kichik o'g'illaridan biri bo'lsada, o'zini qobiliyatli siyosatchi sifatida ko'rsata oldi. Ya'ni, taxtga da'vogar akasi Adoniyani fitnasini bostiradi. Hukmronligi davrida Finikiya podshosi Xiram bilan bilan do'stona munosabat o'rnatadi. Strategik jihatdan qulay joyni egallagan Isroil-Yahudiy davlati o'zining savdo imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Natijada hunarmandchilik va arxitektura rivojlanadi. Sulaymon davrida mamlakat madaniy jihatdan taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqadi.

Qadimgi yahudiylarda urug' yeri "naxala" va "axuzza" deb nomlangan bo'lib, faqatgina urug' ichidagina xususiy mulk hisoblangan. Chetga sotish mumkin bo'lmagan. Qullar mamlakat aholisini 18% ni tashkil qilgan. Ular asosan dalalarda, konlarda, davlatga tegishli ibodatxona tarkibidagi hunarmandchilik

ustaxonalarida, uzumzorlarda mehnat qilganlar va davlat mulki hisoblangan. Bundan tashqari Isroil-Yahudiyada muxojirlar ham yashab, ularni “ger” deb atashgan. Kelgindilar shaxsan ozod hisoblanishgan, ammo yerga xususiy mulk sifatida egalik qilishi mumkin bo‘lmagan hamda fuqarolik huquqiga ega emas edilar. Ular mamlakat aholisining 16-20 % ini tashkil qilganlar. Aksariyati davlat xizmatida va kunbay ishchilar bo‘lganlar.


Mamlakat g‘aznasini to‘ldirish maqsadida Sulaymon yangi soliqlar joriy qiladi. Bu esa xalq orasida noroziliklarni kuchayishiga olib keladi. Bunday isyonlardan biriga Ierovoam boshchilik qiladi. Biroq, qo‘zg‘olonlar shafqatsizlik bilan bostiriladi. Isyonchilar boshlig‘i Ierovoam esa Misrga qochishga majbur bo‘ladi. Fir‘avn Sheshonk I unga boshpana beradi.

Mil. avv. 928-yilda Sulaymon vafotidan so‘ng, taxtni, uning Naama ismli xotinidan tug‘ilgan o‘g‘li Rovoam (mil. avv. 928-911-yy) egallaydi. U otasi Sulaymon davrida joriy qilingan og‘ir soliqlarni kamaytirishdan bosh tortadi. Oqibatda yahudiy xalqining ayrim vakillari Sixemeda (Shxeme) kengash qurib Rovoamga qarshi isyon ko‘taradilar. Podshoga faqat Yahudo va Veniamin urug‘lari aholisi sodiq qoladi. Qolgan o‘nga yaqin yahudiy urug‘lari Ierovoamni hukmdor sifatida tan olib, Isroil podsholigini ajratib oladilar.

Yahudiya podsholigi Sulaymonning o‘g‘li Rovoamga tegadi. Ikki davlat o‘rtasida ichki urushlar avj oladi. Ammo, biror tomon to‘liq g‘alabaga erisha olmadi. Bu orada misrliklar fir‘avn Sheshonk I boshchiligida Yahudiyaga bostirib kirib, Ierusalimni talon-taroj qiladi. Natijada Yahudiya davlati podsholigi Misrga qaram davlatga aylanadi. So‘ngra, Yahudiya taxtiga Rovoamning o‘g‘li Aviya (mil. avv. 911-908-yillar) keladi. Yangi podsho otasini ishini davom ettirib, Isroil podsholigi bilan urushni davom ettiradi, lekin kutilgan natijaga erisha olmaydilar. Keyingi Yahudiya podsholari Asa, Iosafat, Ioram, Oxoziya va boshqalar davrida mamlakat kuchsizlanadi. Bu orada Ossuriya davlatining qudrati oshib boradi va Yaqin Sharq yerlariga kirib borish xavfi ortadi.

Mil. avv. 743-yilga kelib, Yahudiya taxtiga podsho Ioafamning o‘g‘li Axaz chiqadi. Axaz otasi kabi aksilossur koalitsiyasiga kirishdan bosh tortadi. Isroil va Damashq podsholigi bilan birgalikda G‘azo va Gannon davlatlari esa Ossuriyaga qarshi chiqadilar. Isroil hukmdori Fakey va oromiylar podshosi Retsinlar Ierusalimga yurish

qiladilar. Yahudiy qo'shinlari yengiladi, Ierusalim shahri qamalda qolib ketadilar.



Bu orada Yahudiyaga filistimlar va edomitlar talonchilik yurishlarini uyushtiradilar. Podsho Axaz og'ir ahvolda qolib, sovg'a-salomlar bilan Nineviyaga elchi yuborib ossur podshosi Tiglatpalasar III ni yordamga chorlaydi. Ossuriya qo'shini birin-ketin ittifoqchilarni yengadi. Xanaan va janubiy Suriyadagi harbiy harakatlar tugagach, mil. avv. 732-yilda Damashq ossurilar tomonidan bosib olinadi. Finikiyaning Tir shahri ossurlarga 150 talant (4,5 tonna)

oltin bilan o'lpon to'laydi. Ossuriyaning keyingi zarbasiga Isroil podshohligi uchradi. Bu orada isroilliklar podshohi Fakey isyon qurboni bo'ladi. Isroilda taxtga ossurlar tarafdori Osiya o'tkazilib, mamlakat Galaat va Galileya yerlaridan ajraydi. U yerlarni Ossuriya noiblari boshqaradigan bo'ldi.

Tiglatpalasar III Damashqda g'alaba sharafiga qurbonlik keltiradigan mehrob qurayotganda, uning yoniga Yahudiya podshohi Axaz yetib keladi va o'zining qutqaruvchisini olqishlab, Ossuriyaga qaramligini tan oladi. Diplomatik mahoratni qo'llash orqali Yahudiya davlati va qo'shnilarini kuchsizlantiradi. Mil. avv. 727-yilga kelib podsho Axaz vafot etadi. Shu tariqa Yahudiya va Isroil davlatlari mil. avv. 612-yilga qadar Ossuriyaning vassallari bo'lib qoladilar. Garchand, Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyatdan foydalanib Misrning yordamida mustaqilikka erishishga urinsada, ammo kutilgan natijaga erisha olmaydi. Mil. avv. 597-586-yillar oralig'ida Bobil podshohligidan ajralib chiqish uchun olib borilgan urushlar oqibatida, Ierusalim dushman tomonidan vayron qilinadi. Aholisining katta qismi Bobilga asir qilib olib ketiladi.

Madaniyati

Mehalliy falastinliklar dastlab mixxat, so'ngra Misr yozuvlaridan xo'jalik va iqtisodiy ishlarda keng foydalanishgan. Keyinchalik yahudiy qabilalari kirib kelgach oromiy yozuvi keng tarqala boshlandi. Yozuvlar asosan teriga yoki papirusga ham bitilgan. Qadimgi yahudiylar Xanaan o'lkasiga kirib kelganlarida o'z ilohlari va madaniyatini olib kirishdi. Xanaan xalqining ayrim ilohlari (Baal – momaqaldiraq ilohi, El yoki Elaxim, Ashira – xonadon o'chog'i ilohasi va b.) umumiy bo'lgan. Ammo, keyinchalik monoteistik tasavvurlar asoslari paydo bo'ladi. Mil. avv. X asrga kelib monoteizm Isroil-Yahudiy davlatida ustunlikni qo'lga kirita boshlaydi va Yaxve ilohi asosiy xudo sifatida ko'tariladi. Qadimgi Axdda xabar berilishicha Isroil-Yahudiya hududidagi payg'ambarlar podsholarga maslahat berganliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ierusalim shahrida podsho Sulaymon tomonidan Yaxve uchun ibodatxona qurdiriladi. Ammo, mamlakatda ichki nizolarni oldini olish maqsadida boshqa ilohlarga sig'inish rasman man etilmagan.

Isroil-Yahudiyda hunarmandchilikning metallurgiya, zargarlik, to'qimachilik, kulolchilik, toshga va fil suyagiga ishlov berish hamda parfyumeriya (attorlik mollari) sohalari rivojlangan edi. Esion-Geber metallurgiya, Eyn-Gedi parfyumeriya, Debir bo'yoqchilik markazlari bo'lgan. Isroil-Yahudiy hududlariga ellin dunyosidan sharob va zaytun yog'i keltirilgan. Mol ayriboshlashda "shakil" deb nomlangan yagona tosh o'lchov birligi ham mavjud edi. Bu yerdagi o'rtacha 1 gektar maydonga ega bo'lgan shaharlar va 2.5-4 gektar maydonga ega shaharlar bo'lgan, ularda o'rtacha 2-4 mingga yaqin aholi yashagan. Eng yirik shaharlardan Ierusalim va Samariya muhim ahamiyatiga ega bo'lib, Ierusalimda o'rtacha 10-20 ming kishi yashagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Falastin aholisi qaysi tillarda so'zlashganlar?
2. Qadimgi Isroil podsholigining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
3. Qadimgi Yahudiy podsholigining ossurlarga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Sulaymonning tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В.И. Кузищина. – М., 2002.
2. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.
3. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
4. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
5. Кузищин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
6. Циркин Ю.Б. От Ханаана до Карфагена. – М., 2001.
7. Циркин Ю.Б. История библейских стран. – М., 2003.
8. Шифман И.Ш. Ветхий Завет и его мир. – М., 1987.
9. Шифман И.Ш. Угаритской общество XVI-XIII вв. до н.э. – М., 1982.
10. Шифман И.Ш. Культура древнего Угарита. – М., 1987.

11. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.

12. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

13. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

Damashq podsholigi

Damashq shahar-davlati ayrim manbalarda “oromiy Damashqi” sifatida tilga olingan. Uning hududi hozirgi Suriya yerlariga to‘g‘ri keladi. Dastavval qadimgi Suriya hududida ko‘chmanchi oromey qabilalari bu maskanda dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelishgan. Damashq podsholigi tarixi ikki sulola davriga bo‘linib o‘rganiladi. Ya‘ni, birinchi (mil. avv. 950-842 yy.) va ikkinchi (mil. avv. 842-732 yy.) oromiy sulolalari hukmronligi bilan davrlashtirilgan. Oromiy qabilalarini Xadad-Ezer boshchiligida qabilaviy ittifoqqa birlashgan edi. U Rixov viloyatidan kelib chiqqan bo‘lib, Isroil-Yaxudiy davlati podshosi Dovud (mil. avv.1000-965 yy.) bilan zamondosh bo‘lgan. U hozirgi Arabiston Yarim orolida shimoli g‘arbida yashaydigan yarim ko‘chmanchi madianitanlar bilan urush olib borgan. Moav davlatiga ham hujum qilgan va muvaffaqiyat qozongan.

Ammo Xadad-Ezer ittifoqchilari madianitliklarga yordamga kelgach yosh Isroil-Yaxudiy davlati bilan toqnashadi. Yahudiylar podshosi Dovudning lashkarboshisi Ioav oromiy va ammoniyliklarni yengadi. So‘ng, isroilliklar qo‘shini oxirgi zarbani bergan. Oradan ko‘p o‘tmay Xadad-Ezer Frot daryosi yonida oromiylardan katta qo‘shin to‘plab, unga Sovakni boshliq qilib yahudiylarga qarshi yuborgan. Dangda lashkarboshi Sovak mag‘lub bo‘lgan va halok bo‘ladi. Ma‘lum bir vaqt oromiylar Isroil-Yaxudiyga qaram bo‘lib qolgan. Keyinchalik hozirgi Suriya yerlari qaramlikdan chiqib olgan. Damashq davlatiga mil. avv. 950 yil oromiylardan bo‘lgan Rizon I tomonidan asos solingan edi. U isroilliklar bosib olgan Damashqni qaytarib olgan. Shu tariqa oromiylar Shimoliy Suriyani qaytarib olishgan edi. Yangi podsho Tabrimon yahudiya podshosi Aviya bilan itifoq tuzib, Ierovoam qarshi Isroil davlatiga qarshi urush olib borgan.

Mil. avv. IX asr boshlarida podsho Tabrimonning o'g'li Ben-Xadad I dastlab Isroil davlati podshosi Baasha bilan ittifoqda yahudiya bilan urush olib borgan. Keyin biroz vaqt o'tgach, mil. avv. 880 yili katta mablag' evaziga yahudiya podshosi Asa tomoniga o'tib, janubda Isroilga qarshi urush e'lon qilgan. So'ngra, Shimoliy Galileyani bir qismini Damashq (Aram) podsholigi tarkibiga qo'shib olgan. Bu esa o'z navbatida Damashq podsholigiga Misr va Finikiya savdo yo'lini nazorat qilish imkonini berdi. Damashqdan Tir shahriga vino va movut olib borilgan. Mil. avv. 878-877 yili Levant yerlariga Ossuriya podshosi Ashshurnatsirapal II bostirib kiradi. Ammo Ossuriya qo'shini Damashq podsholigi sarhadlariga kirib bormagan edi. So'ngra, isroilliklar podshosi Omri (mil. avv. 884-873 yy.) bilan urush olib borib, Romot va Galaad shaharlarini Damashq podsholigiga qo'shib olgan. Shu bilan bir qatorda Isroilning poytaxti Samariyada damashqliklar savdo faktoriyalarini qurish imkoniyatlarini qo'lga kiritishgan edi. Taxminan mil. avv. 850 yili Ben-Xadad I vafotidan keyin Damashq podsholigi taxtini uni o'g'li Ban-Xadad II egallaydi. U isroilliklarining Iordan daryosidan o'tib Suriyaga talonchilik yurishlarini amalga oshirishlariga chek qo'yadi. Ammo Isroilga amalga oshirilgan harbiy yurishlar o'z natijasini bermaydi. Oromiylar qo'shini Samariya shahrini qamal qilsa-da isroilliklardan mag'lubiyatga uchraydi. So'ngra, ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazib Damashq podsholigini qudratini oshiradi. Mil. avv. 853 yil Bar-Xadad II qo'shinlari Yaqin sharqqa bostirib kirgan Ossuriya podshosi Salmanasar III ga qarshi tuzilgan Suriya knyazliklari ittifoqiga qo'shiladi. Xamat va Isroil davlatlari ossuriyaliklarni mintaqaga kiritmaydilar.

Ossuriya manbalarida ta'kidlanishicha Damashq podsholigi 20 ming piyoda, 1200 otliq shuncha jang aravalarni Ossuriyaga qarshi ittifoqqa olib keladi. Ossuriya podshosi Salmanasar III ning annallarida ta'kidlanishicha Karkar yonidagi jangda 14 mingga yaqin suriyalik halok bo'lgani aytib o'tiladi. Ammo ossuriyaliklar strategik g'alabani mustahkamlay olmay o'z yurtlariga qaytib ketishadi. Damashq podsholigi ham bu ittifoqni g'alabasini mustahkamlay olmadi. Mil. avv. 852 yil Isroil va yahudiya davlatlari ittifoq tuzib Damashqqa qarshi urushni boshlab yuboradilar. Ular Damashq (Aram) davlatiga tegishli Ramot-Gilead shaharlarini bosib olishga harakat qilib ko'rishdi.

Mil. avv. 845 yil ossuriyaliklar podsho Salmanasar III boshchiligida (120 ming askar) yana Yaqin Sharqqa kirib kelishadi. Ossurlar Damashqni qamal qilishadi. Ammo bu safar ham ta'minot uchun yo'lni olisligi tufayli ortga qaytib ketishga majbur bo'lishadi.

Mil. avv. 842 yil dushmani daf qilishgach ittifoqchilar o'rtasida ya'ni Damashq va Isroil podsholiklari o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Damashqliklar Isroil poytaxti Samariyani yana qamal qilishadi. Shahar aholisi qamal oqibatida kuchli ocharchilikni o'z boshidan kechirgan edi. Manbalarda ta'kidlanishicha Isroil podshosi Ioram damashqliklarga qarshi qo'shin boshlab kelayotganini eshitgan Bar-Xadad II o'z armiyasini Samariya atrofidan olib ketishga majbur bo'ladi. Bu mag'lubiyatdan keyin oromiylar zodagonlari Bar-Xadad II dan norozi bo'lishadi.

Oqibatta boyonlardan bo'lgan Azail, poshoga qarshi fitna uyushtiradi va Bar-Xadad II ni bo'g'ib o'ldiriladi. Azail o'zini Damashq podsholigi hukmdori deb e'lon qiladi. U mamlakatni mil. avv. 803 yilga qadar boshqargan. Bu davrda oromiylar Xamat va Isroil bilan doimiy urushdan so'ng, kuchsizlangan edilar. Natijada Yaqin sharqning qurolsozlik markazi bo'lgan Damashq podsholigini mil. avv. 802 yil Ossuriya hukmdori Adad-nirari III ishg'ol qiladi. Ossuriyaliklar metallurgiya markazi bo'lgan Damashqdan 151 tonnadan ortiq temirni o'lja qilib olib ketishadi. Biroz vaqt o'tib Damashq podsho Rizon II (mil. avv. 740-732 yy.) davrida ma'lum bir vaqt o'z mustaqilligini saqlab turadi.

U Isroil podshosi Fokey bilan ittifoqda yahudiyaga qarshi kurash olib borgan. Ammo mil. avv. 732 yil Ossuriya hukmdori Tiglatpalasar III (Tukultiapal-Esharra III) oromiylar Arami (Damashq podsholigi)ga yurish qiladi. Manbalarda ta'kidlanishicha uni Yaqin Sharqqa harbiy yurish qilishga yahudiya podshosi Axaz chorlaydi.

Chunki u Damashq va Isroil ittifoqi siyosiy bosimi ostida qolgan edi. Ossuriyaliklar Damashq yerlariga shimoli-sharqdan yopirilib kirishadi. Damashq ishg'ol qilingach podsho Rizon II ossurlar tomonidan qatl etiladi.

So'ngra, Damashq podsholigi Ossuriya tarkibiga kiritiladi. Istilochilarga bo'ysunishni istamagan oromiy qabilalari Ossuriyaning ichki viloyatlariga majburan ko'chiriladi. Shu tariqa Damashq podsholigi tarix sahnasidan o'chib ketadi.

Мавзунни mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Damashq yerlari aholisi qaysi tillarda soʻzlashganlar?
2. Damashq podsholigining ossurlarga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
3. Damashq podshosi Bar-Xadad II ning tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.

Мавзу bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
2. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.
3. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
4. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007.
5. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
6. Битва при Каркаре // Хрестоматия по истории древнего мира. Том 1. Древний Восток / Струве В. В. М., Государственное учебно-педагогическое издательство Министерства просвещения РСФСР, 1950.
7. Siddall L. R. The Reign of Adad-nīrārī III: An Historical and Ideological Analysis of An Assyrian King and His Times. BRILL, 2013.
8. Догерти М., Хэскью М., Джестайс Ф., Райс Р. Великие сражения библейских времён. 1400 год до н. э. — 73 год н. э. — М.: Эксмо, 2009.
9. The Cambridge ancient history. — Cambridge: Cambridge University Press, 1982.
10. Klengel H. Syria 3000 to 300 BC. A Handbook of Political History. — Berlin: Akademie Verlag, 1992.

QADIMGI ERON

15-mavzu. Qadimgi Elam davlati

Qadimgi Elam hududi tog'li Karuna va Kerxe daryolari vodiysida yuzaga kelgan. Hozirgi Eronning janubi-g'arbiy qismini o'z ichiga oladi. Afsonalarga ko'ra, mil. avv. 2700 yilda Elam davlatiga tarixda "noma'lum podsho" deb nom qoldirgan hukmdor asos solgan deyiladi. Elam tarixini mutaxassislar to'rt davrga, ya'ni, protoelam davri (mil. avv. 3200-2700- yillar), qadimgi Elam davri (mil. avv. 2700-1600- yillar), yaqin Elam davri (mil. avv. 1500-1100 -yillar) va neoelam yoki yangi Elam davr (mil. avv. 1100-539 -yillar)lariga bo'lib o'rganadilar.

Qadimgi Elam aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Elam tilini kelib chiqishi noma'lum bo'lib, ammo dravid yoki afraasiyo tiliga qarindoshligi hozigi kunda xorij olimlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Mesopotamiya shahar-davlatlariga yaqin bo'lganligi tufayli ularning madaniy ta'siri juda yuqori bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka oid Shumer-Akkad manbalarida Shushen (Suza), Anshan (Anchan), Simashki, Adamdun va Paraxse (Marxashi) kabi shahar-davlatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mil. avv. XXVI asrda Elamning Avan shahridan kelib chiqqan Mesilim Kish lugali maqomini ham olishga muvaffaq bo'lgan. Aynan u Avan sulolasiga asos solgan. Avonliklar protoelam piktografik chiziqli yozuvidan davlat ishlarida keng foydalanganlar. Elam garchand siyosiy jihatdan kichik shahar- davlatlardan iborat bo'lsa-da yagona o'lka hisoblangan. Podsho Lixxishshan, Akkad hukmdori Sargon I qo'shinlaridan yengilib, asir tushadi. Lekin Elam yerlari Shumer-Akkad davlatining viloyatlaridan biriga aylanib qolmay, balki vaqtincha qaram mamlakat maqomida qoladi. Mil. avv. 2190-yili Kutik-Inshushinak (akkadcha Puzur-Inshushinak) Elamda hokimiyat tepasiga keladi. Uning otasi Shimpixishxuk podsholar naslidan bo'lmasada, ammo ona tomondan oldingi hukmdor Xitaga qarindosh bo'lgan. Bu sulola mil. avv. 2190-yilga qadar Elamda hukmronlik qiladi. Kutik-Inshushinak Elamni akkadliklarning hukmronligidan xalos qiladi. Chunki bu payt ko'chmanchi g'uteylar Mesopotamiya shahar-davlatlarini bosib olib, Shumer-Akkad podshohligini tugatadilar. Natijada Elam ozod mamlakatga aylanadi. Kutik-Inshushinak Anshanni bosib olib,

Elamning katta qismini birlashtirishga muvaffaq bo'radi. Akkadliklar bilan ittifoqda guteylar bilan ham urush olib boradi. Suzada iloh Inshushinak uchun ibodatxona bunyod etadi va kanallar qazdirib, dehqonchilikni rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Uning vafotidan so'ng, guteylar Elamni talon-taroj qiladi va Avan sulolasi barham topib, Elam kichik davlatchalarga bo'linib ketadi. Natijada ko'p o'tmay Ur podshosi Shulgi tomonidan bosib olinadi. Mamlakat bir asrdan ko'proq shumerlik amaldorlar tomonidan boshqariladi.

Ur podshosi Shu-Suen davrida Elamning Simashki shahar-davlati podshosi Girmamme (mil. avv. 2030 -yil) Shumerdan ma'lum erkinliklarga erishadi. III Ur sulolasi amoriylarning doimiy hujumlaridan Shumerni mudofaa etib turgan paytda, Elam qariyb ikki yuz yillik qaramlikdan chiqa boshlaydi. Simashki (Mil. avv. 2015- yil) sulolasidan Enpiluxan davrida Elam Shumerga bo'ysunmay qo'yadi. Garchand Ur podshosi Ibbi-Suen Elamga yurish qilib, Enpiluxanni asir olib qaytsada, mamlakat mustaqil bo'lib qolavergan. Podsho Xutran-tempti (mil. avv. 2010-1990- yillar) davrida Elam qo'shini Ur shahrini egallab, III Ur sulolasining so'nggi podshosi Ibbi-Suenni taxtdan tushiradi. Simashki sulolasidan podsho Idattu I butun Elamni birlashtiradi. Birlashgan Elam yarim asr mobaynida yuksaladi. Mil. avv. XIX asrda siyosiy inqiroz boshlanib hokimiyatga Sukkal-max(yoki Epartidlar)lar sulolasi keladi. Elam amalda uchga bo'lib boshqarilgan. Mil. avv. XV asr boshlariga kelib Sukkal-maxlar sulolasi ham barham topadi. Olimlarning fikricha ko'chmanchi kassitlar hujumi bunga sabab bo'lgan. So'ngra, Elam Anshana va Suza sulolalari tomonidan idora qilinadi. Mil. avv. 760- yili podsho Xumban-tax-rax Yangi Elam sulolasiga asos soladi. Ushbu sulola Elamni Ossuriya podshosi Ashshurbanipal bosqiniga qadar boshqardi. So'nggi Elam podshosi sifatida Xumban Xaltash III tan olinadi. Shundan so'ng, Elam o'z mustaqilligini butunlay yo'qotadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Elam hozirgi qaysi hududga to'g'ri keladi ?
2. Qadimgi Elam podsholigining poytaxtlarini aniqlang ?
3. Qadimgi Elam podsholigining ossurlarga qarshi olib borgan urushi haqida ma'lumot bering.
4. Elam davlati tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007
4. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003
5. Хинц В. Государство Элам / Пер. с нем. под ред. и с послесл. Ю.Б. Юсифова. – М., 1977.
6. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.

16-mavzu. Qadimgi Midiya

Qadimgi Midiya hududi hozirgi Eronning g'arbida, ya'ni Araks daryosi va Elbrus tog'laridan janubda, Fors o'lkasining shimolida hamda Dashti-Kavir cho'lidan g'arbda joylashgan edi. Midiyaliklar bu o'lkaga Eronning sharqidan kirib kelganligi ta'kidlanadi. Eroniy tilli midiyaliklar tez orada lulubeylar, guteylar va kassitlar bilan aralashib ketadilar. Hududi asosan mo'tadil iqlimli bo'lgan. Midiyaliklar chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bu yerda yilqichilik ham keng tarqalgan edi.

Mil. avv. IX asr oxiri- VIII asr boshlarida Midiya ossurlar tomonidan bosib olinadi. Ammo, mil. avv. 673 -yili midiyaliklar ossuriarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Unga Kashtariti ismli sardor boshchilik qiladi. Natijada Midiya mustaqillikni qo'lga kiritadi. Midiyaning poytaxti Ekbatan shahri hisoblangan.

Ossuriya podshosi Asarhaddon skiflarni midiyaliklarga qarshi gij-gijlaydi. Skiflar hukmdori Partatua (Gerodotda, Prototiy deb tilga olingan)ga o'z qizini turmushga beradi hamda ular bilan kelishuv yo'lini tutadi. Natijada skiflar aksilossuriya koalitsiyasidan chiqadilar. Midiyani ossurlar boshqa o'z iznida tutib tura olmaydilar. Ammo, ularni vaqtincha kuchsizlantiradilar.

Mil. avv. 625- yilda Midiya taxtiga podsho Fravartishning o'g'li Kiaksar (Uvaxshara) chiqadi. U mamlakatda harbiy islohotlar

o'tkazib, so'ngra Ossuriya bilan urush boshlaydi. Bu orada Kavkaz tog'laridan Midiyaga ossurlarning ittifoqchilari podsho Madiy boshchiligida skiflar bostirib kiradilar. Ular Midiyani talon-taroj qiladilar. Kiaksar esa vaqtincha skiflarga bo'ysunadi va ko'chmanchilarga o'lpon to'lashga majbur bo'ladi. Ko'p o'tmay skiflar sardorlarini hiyla yo'li bilan qo'lga olib, ularni qatl etadi. Yo'lbohisiz qolgan skiflar Midiyani tark etishga majbur bo'ladilar. Midiya mustaqilligi qayta qo'lga kiritiladi.

Mil. avv. 614- yilda Kiaksar qo'shinlari Dajla daryosidan kechib o'tib, Ossuriyaning qadimgi poytaxti Ashshurni qamal qiladi. Uzoq qarshilikdan so'ng, Ashshur egallanib, vayron qilinadi. Bobil podshosi Nabopalasar Ashshur vayronalariga yetib kelgach, ikki o'rtada Ossuriyaga qarshi ittifoq tuziladi. Mil avv. 612 -yilga ikki davlat qo'shinlari Ossuriya poytaxti Nineviyani egallaydilar va butunlay vayron qiladilar. Ossuriyaning shimoliy hududlari Midiya davlatiga o'tadi. Kiaksar kuchli dushmandan qutulgach, Elam va Urartu yerlariga yurish qilib, bu hududlarni ham Midiyaga bo'sundiradi. Mil. avv. 590-yilda midiyaliklar Lidiyaga (Kichik Osiyo) bostirib kiradilar va besh yil urush olib boradilar. Ammo, ikki tomon ham bir-birini yenga olmaydilar. Mil. avv. 585- yilda Galis daryosi yonidagi jang paytida quyosh tutilishi sodir bo'lib, midiyalik va lidiyaliklar buni ilohiy belgi deb hisoblab sulh tuzadilar. Podsho Kiaksarning o'g'li Astiag, Lidiya malikasiga uylanadi. So'ngra, Kiaksar vafot etadi, taxtga Midiyaning so'nggi podshosi Astiag (mil. avv. 585-550- yy) keladi. Ko'p o'tmay Midiya forslar tomonidan Ahamoniylar davlatiga qo'shib olinadi. Midiyaning o'zi va uning yerlari satrapliklarga ajratiladi.

Madaniyatiga va tiliga ko'ra midiyaliklar forslarga juda yaqin xalq hisoblangan. Boshqa eroniy xalqlar kabi uzun soch va soqol o'stirib yurganlar. Bellarida alohida xanjar (akinak) olib yurganlar. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Shu bilan birga, hosildorlik ilohasi Anahitaga sig'inganlar. Hatto Midiya poytaxti Ekbatanda uning ibodatxonasi bor edi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Дандамаев М.А. Месопотамия и Иран в VII-IV вв. до н.э.: Социальные институты и идеология. СПб., 2009.

2. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.

3. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.

4. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007

5. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003

6. Грантовский Э. А. Иран и иранцы до Ахеменидов. – М., 1998.

7. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.

8. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.

9. I.E.S.Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

17-mavzu. Ahamoniylar davlati

Midiyalik va forslar bir-biriga yaqin qardosh xalqlar bo'lganligi uchun antik mualliflar ularni ko'pincha adashtirardilar. Chunonchi, Gerodot mashhur yunon-fors urushlarini Midiya urushlari deb atagan. Persida (Fors) hududi (keyinchalik Fors viloyati) Fors ko'rfazi sohilida, Elamning yaqinida joylashgan bo'lib, uning madaniy merosi qo'shnilariga katta ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik forslar ulkan saltanatni barpo etib, elam tili va mixxatidan keng foydalanadilar. Elam poytaxti Suzada esa forslar podshosining bosh qarorgohlaridan biri joylashganligi bejiz emas.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Midiya podshosi Astiagning o'g'li bo'lmagan. Shu jihatdan yagona qizi Mandanaga bo'lajak munosib kuyovni sinchiklab tanlar edi. U Mandanani o'ziga qaram bo'lgan Kir I ning o'g'li, Kambizga turmushga beradi. Kambiz midiyalik hukmdoriga o'zining sodiqligi haqida qasamyod qiladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Astiag bir tush ko'radi: tushida uning qizidan tok novdasi chiqib, unga tegishli butun hududni o'rab oladi. Bu tushning ta'birini uning koinlari, qizining o'g'li nafaqat uning

borisi bo'ladi, balki uning o'rnida saltanatni boshqaradi deb bashorat qiladilar.

Mandana o'g'il tug'ib, unga erining otasi sharafiga Kir ismini beradi. Astiag nabirasini o'ldirish gunohidan qochib, nufuzli amaldor Xarpagni chaqirtirib, bolani o'ldirishni buyuradi. Xarpag ham gunoh qilgisi kelmay, Astiag singari bu ishni bajarishni boshqa birovga topshiradi.

Shuning uchun u Mandananing o'g'lini o'ldirmay, Astiag cho'ponlaridan biriga beradi. U esa bolani nogahon uyga olib ketadi va endigina o'lik bola tuqqan xotiniga beradi. Cho'pon tog' qiyaligida o'z bolasini ko'mib, Xarpagga ishni bajarganligi to'g'risida aytadi. Shunday qilib Kir cho'pon oilasida katta bo'ladi.

Gerodot so'zlab bergan bu hikoya an'anaviy syujetni namoyish etadi va qahramonning ilohiy qismatini basharot qiladi. Kir bilan bog'liq hikoyada Gerodot midiyalik va forslar o'rtasidagi mashaqqatli ijrosiy o'zaro munosabatlarni ham ko'rsatib o'tadi. Midiyaliklar mukron bo'lgan, lekin ularga qaram bo'lgan Fors hukmdorining o'g'lini hattoki eng oliy podsho tomonidan ham ochiq o'ldirib o'lmasdi.

Keyinchalik sir fosh bo'lgandan keyin Astiag Kirning jonini o'qib qoladi. Amaldor Xarpag jazolanadi, lekin podshoga qarindosh bo'lgani uchun o'ldirilmagan. Kir Forsga ota-onasi huzuriga qaytarib borilgan.

Uning oilasi Ahamoniylar, fors urug'lari ichida eng yirik va eng qudratli pasargadlar qabilasiga tegishli bo'lgan. Ko'p o'tmay forslarga nisbatan midiyaliklarni zulmi yanada kuchaydi. Shu vaqtda Xarpag bilan bir qatorda Midiya aristokratiyasining aksariyat qismi Kirni vorisligini qo'llab-quvvatlar edi.

Uzoq tayyorgarlikdan so'ng, Kir va uning lashkarlari Ekbatan tomon harbiy yurishini boshlaydi. Midiya qo'shinlariga Xarpag boshliq etib tayinlanadi. U esa o'z navbatida Kir tomoniga o'tib ketadi. Astiagga sodiq bir guruh askarlar tarqalib ketadi. Podsho Astiag asirga olinadi, Kir Ekbatanni istilo qiladi va mil avv. 550-yil o'zini Midiya va Eronning podshosi deb e'lon qiladi (g'arb tarixchilari bu voqeani mil. avv. 558-yil deb ham ta'kidlaydilar). Natijada, Midiya erlari Fors davlatining viloyatiga aylantiriladi. Kir II bobosini o'ldirmadi, balki uni yaxshi sharoitda o'z ajali bilan o'lgunga qadar atqunlikda ushlab turadi.

Kir II o'zining sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Bobilni bosib olish istagi yo'q edi. Ammo, imperiya tuzish yo'lida bu maqsadidan ham qaytmadi. Dastlab Astiag vafot etishi bilan, lidiyalik va midiyaliklar bilan tuzilgan sulh shartnomasi bekor qilinadi. So'ngra, Lidiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlanadi.

Ikki davlat armiyasi Galis daryosi yaqinida uchrashadi va uzoq vaqt natijasiz jang qiladi. Pirovard natijada Krez Bobildan yordam so'rash maqsadida chekinadi. Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va oxir-oqibatda Lidiya qo'shinini poytaxt Sard yaqinida qurshab oladi. U tuyalarni jangga tashlab, dushman otlarini qo'rqitadi va buning oqibatida Lidiyaning otliq askarlarini tor-mor qiladi, shaharni qurshovga olib o'n to'rt kunlik qamaldan so'ng, egallaydi.

Kir II o'z harbiylarini mukofotga sazovor deb hisoblab, ularga shaharga bostirib kirib uni talon-taroj qilishga ruxsat beradi. Bu orada asir olingan va Kir II huzuriga keltirilgan Krez forslar yonida shaharning achinarli taqdirini kuzatib turishga majbur bo'ladi.

Kir II adolatli va sahovatli bo'lishiga qaramasdan u, avvalo, kuchli va shafqatsiz tartibni tashkil qilishda boshqa podsholardan ustun turar edi. *"U o'ziga nisbatan qo'rqinchni jahon bo'yicha shunday keng tarqatishi mumkin ediki, undan qo'rqmagan odam qolmasdi, - deb xabar beradi Ksenofont Kir II ni adolatliligini maqtashga o'tishdan oldin, - va hech kim unga qarshi biror ish sodir etishga jur'at etolmagan"*. Zulm bilan ololmagan narsasini, sotib olar edi; yanada ko'proq narsaga ega bo'lish istiqbolini beradigan xarajatlar qilish kerak bo'lganda, u yetarli darajada saxiy ham bo'lgan.

Ksenofontning ta'kidlashicha, Kir II avvalgi har bir buyuk podsho singari o'z saltanatini kuch va zulm vositasi orqali keng ishlata oigan. Uning davlati ko'p millatli imperiyaga aylanib bordi. Endilikda midiyalik, lidiyaliklar (shu jumladan Frigiya) va bobosi tomonidan bosib olingan Ossuriyaning shimoliy viloyatlari – barchasi Eron tarkibiga kirdi. Kir II Xarpagga sohil bo'ylab Ioniya shaharlarini bosib olishni davom ettirish vazifasini topshirib o'zi sharqdagi Midiya hududidagi harbiy harakatlarni davom ettiradi. U Hind daryosigacha bo'lgan yerlarni Ahamoniylar davlatiga bo'ysundiradi.

Faqat uchta davlat - skiflarning nazoratidagi shimolda yoyilgan o'likalar, uzoq janubda misrliklar va – barchasiga qaraganda eng qudratli – g'arbdagi bobilliklar mustaqilligicha qolgan edi.

Mil. avv. 540-yilga kelib Kir II qo'shinlarini g'arbiy chegara tomon suradi, u yerda vaqti-vaqti bilan (davriy ravishda) bobilliklar bilan to'qnashuvlar bo'lib turardi. Forslar hujumlari tobora kuchayib boradi, shuning uchun Bobil podshosi Nabonid shimolga, o'z saltanatining markaziga (yuragiga) qaytib borishga tayyorgarlik ko'radi.

Uning yetib kelishiga Kir II shiddatli hujumni tayyorlab qo'ygan edi. Hokimiyat tepasida bo'lgan Nabonid Bobil qo'shinlariga to'qnashuvga qarshi chiqishni buyuradi. Ular Dajla daryosini kechib o'tadilar va Opis yaqinida forslar qo'shini bilan to'qnashadilar.

"Bobilliklar jangga kirishadi, - deb xabar qiladi Gerodot, - lekin forslar jangda yengiladi va qayta shaharga quvib kirgiziladi". Ksenofontning aytishicha, ularning yigirma yil qamalga yetadigan tuzoq va suvi bor edi.

Kir II yaxshi qurollantirilgan shahar himoyachilari o'rtasida o'zaro munosabatlar yuzaga kelishini oylab, hatto yillab kutishi mumkinligini hisoblab o'tashunib boshqa reja tuzadi. Ksenofont uni quyidagicha tavsiflaydi: Bobilning qoq markazidan oqib o'tadigan Dajla daryosi ikki odam bo'yi dan ham chuqur edi. Navuxodonosor II qurdirgan istehkomlari tufayli shaharni osonlikcha suv bostirish qiyin edi. Lekin, Kir II boshqa strategiyadan foydalanmoqchi bo'ladi. Shahardan yuqorida o'tadigan Dajla oqimining atrofida xandaqlar qazilgan bo'lib, bir kuni qorovon tunda uning odamlari ularni baravar ochib yuboradilar. Dajlaning sathi pasayadi va fors qo'shini shaharga bostirib kiradi. Bobil zabt etiladi.

Kir II ning g'alabasi Bobildagi ichki boshqaruv tizimining o'zgarishiga olib kelmadi. Kir II Navuxodonosor II ning g'oyat katta ehtiyojlarini o'zining qarorgohlaridan biri qilib oladi va Ekbatandagi qo'roqni yozgi qo'nalg'asiga aylantiradi. Lekin imperiyaning boshqaruv tizimi uchun Kir II yangi poytaxtni Eronda, ya'ni Pasargadni ko'radi.

Kir II o'zining saltanatini forslar boshqaruvi ostidagi turli xalqlar birlashtirish sifatida ko'rardi. Ossuriyaliklardan farqli o'laroq, u milliy o'zgarishlar va o'ziga xoslikni buzishga harakat qilmagan. Buning o'rniga u o'zini barcha ushbu individualliklarning muruvvatli rahbari sifatida ko'rsatadi – buning uchun esa mumkin bo'lgan o'zgarishlardan xabardor bo'lish uchun o'zining "quloq"lari va "ko'zlari"ga haq to'laydi.

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida Eron shohi Kir II nafaqa Midiyaga qaramlikdan qutuladi, balki ilgari Midiyaga qaram bo'lgan barcha xalqlarni o'ziga bo'ysundiradi.

U Oks^{*} orqali shimolga, butunlay yangi hududga, Orol dengizidan sharqqa, Markaziy Osiyoga qarab harakat qiladi. Bu joylarda yashab kelayotgan qabilalar massagetlar deb atalgan. Gerodot bu haqda "Ular uchi bronzadan yasalgan o'q va nayzalardan foydalanadilar, quyoshga sajda qiladilar va yerga ishlov bermaydilar, lekin yirik qoramol va baliq iste'mol qilib yashaydilar"- deb xabar beradi.

Boshida Kir II massagatlarni muzokara yordamida o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Malika To'marisga unga turmushga chiqishni taklif qiladi. U nafaqat taklifni rad etgan, balki o'g'lini forslar armiyasiga qaratilgan hujumga boshchilik qilgani yuboradi. Hujum barbod bo'lib, To'maris o'g'li asir olinadi.

Sharmandalikka bardosh berolmay u o'zini o'zi o'ldiradi. To'maris Kir II ga xat yuborib qasamyod qiladi: "Quyosh ila onam ichamanki, sening qonga chanqog'ingni qondiraman". so'ng, u o'zining qolgan odamlarini bosib kelayotgan forslarga qarshi olib chiqadi. Ikki tomon mil. avv. 530- yilda bir-biri bilan to'qnashadi. *"Men ushbu jangni yunon bo'lmaganlar o'rtasida bo'lib o'tgan barcha janglardan eng dahshatlisi deb hisoblayman"*, - deb ta'kidlaydi Gerodot, bu bilan (e'tiborni "yunon bo'lmaganlar" ta'rifiga qaratilsa) jang barcha ma'lum bo'lgan janglar ichida eng shiddatli ekanligiga e'tiborni qaratgan.

Massagetlar kamon va o'qdan, shuningdek, xanjar va nayzalardan foydalanganlar. Lekin ular ossuriyaliklar qilolmagan ishni uddaladilar: deyarli butun fors qo'shinlarini yo'q qildilar. Kir II o'z odamlar orasida piyoda askar sifatida jang qilib, jang avjiga chiqqanda halok bo'ladi. Massagetlar g'alaba qozongandan so'ng, To'maris podshoh jasadini qidirib ketdi va uni o'z qoniga bulg'anib yotgan forslar orasidan topdi. Kir II ning jasadini qidirib topib, kallasini kesib oladi va qonga to'ldirilgan meshga tiqib: "Qonga chanqog'ingni qondiraman deb seni ogohlantirgan edim", - deydi.

O'g'li uchun qasos olib, To'maris tirik qolgan forslarga jang maydonidan buyuk podshoning tanasini olib ketishga ijozat beradi.

* Hozirgi Amudaryo

Ular shohning yuzidan qonlarni yuvib tashlab, jasadini dafn etish uchun Pasargadga qaytarib olib ketadilar.

Kir II oldindan o'zi uchun maqbara qurdirgan edi: tomi ikki nishabli tosh imorat boy o'yma naqshlari tufayli yog'ochdan yasalganga o'xshab turardi. Imorat yetti pog'onali zinapoya shaklida qurilgan zikkuratning tepasida o'rnatilgan edi. Jasadni shohona kiyimlarga kiyintirib, zeb-ziynatlar bilan bezab, qurolini yoniga qo'yib, tilla tobutga yotqizdilar. Maqbarani qulflab, uni qo'riqlash uchun bir guruh fors ruhoniylariga maqbara yonida joylashgan kichik uychada yashashni buyurdilar.

Kir II ning to'ng'ich o'g'li, Kambiz – Kambiz II nomi bilan taxtga o'tiradi. U otasining qo'shinida bir necha yil zobit sifatida xizmat qilgan va Oksning narigi qirg'og'iga o'tishdan oldin Kir II bilan birga bo'lgan, lekin podsho o'g'lini o'zi jang qilguncha ishlarni nazorat qilib turish maqsadida Pasargadga qaytarib yuboradi, chamasi Kir II jangni arzimagan ish deb tasavvur qilgan.

Kambiz II avval o'z saroyi va saltanatning ma'muriy markazini elamliklarning eski poytaxti – Suzaga ko'chiradi.

Kambiz II taxtga o'tirgandan to'rt yil o'tib Misrga hujum boshlaydi. Uning floti sohil bo'ylab jo'naydi, armiyasi esa cho'lni kesib o'tadi. Kambiz II o'zining qurolbardori *Doro hamrohligida* qo'shinlarga boshchilik qiladi. Doro uning shaxsiy qo'riqchisi sifatida saltanatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Parfiya viloyatini boshqargan fors amaldorining o'g'li bo'lgan.

Misr hukmdori Amasis forslarni kutib olish uchun o'z kuchlarini tayyorlaydi. Lekin uning yoshi yetmishdan oshgan bo'lib, Kambiz II bostirib kelishidan oldin keksalikdan vafot etadi.

Kambiz II uchun bu hodisa katta yutuq edi, chunki endi Misrni muhofaza qilish majburiyati uning o'g'li Psammetix III zimmasiga tushadi. Psammetix III o'z qo'shinlarini Misrning shimoli-sharqiy sarhadida saflaydi, mudofaasining markazi chegara yaqinidagi Peluziy qal'asi bo'lgan. Bu qal'a Nexo II davridayoq kanalni muhofaza qilish uchun qurilgan edi. Bunday joylashish yomon emasdi, lekin misrliklar muvaffaqiyatsizlikka uchray boshlaganda Psammetix III qo'shinlarini orqaga, to Memfisgacha chekinishga buyruq beradi.

Ushbu vaziyat forslarga delta suv yo'llariga deyarli erkin kirib borish hamda Memfisni ham quruqlik, ham suvdan turib qamal qilish imkoniyatini berdi. Urushning keyingi tafsilotlariga ega emasmiz,

lekin Psammetix III tez orada taslim bo'ladi. U Misr fir'avni sifatida bir yildan kam vaqt taxtda o'tirgan.

Endi Kambiz II o'zini Misr fir'avni, "yuqori va quyi Misr shohi Kambiz, Neyt ilohasining mahbubi" kabi nomlar bilan e'lon qiladi. Neyt Quyi Misrning ko'zoynakli ilon tasviridagi ilohasi, uning tasviri qizil toj ustida uzoq o'tmishda Misrning birlashish vaqtida paydo bo'lgan. Aftidan, u Amasis jasadini qazib olib, parchalab tashlashni buyurgan, ammo mumiyolash jasadni shunchalik qattiq qilib qo'ygan ediki, Kambiz II uni yoqib yuborishga majbur bo'ladi.

Kambiz II saltanatining g'arbiy chegaralarini tekshirish maqsadida Suriyada bo'lgan. Gerodot fikriga ko'ra, taxti o'g'irlanganligini eshitgan podsho, oti tomon yuguradi, unga minib va qilichini qindan sug'urib olayotganda o'zining sonini jarohatlantiradi. Jarohat jiddiy bo'lgan ekan: uch haftadan so'ng, buyuk podsho qorason kasalligidan vafot etadi.

Kambiz II vafotidan so'ng, taxtni soxta Bardiya ismli shaxs yetti oy egallab turadi. Mazkur vaqt davomida u boshqalarga ko'rinmaslikka harakat qilgan, Suzadagi saroy hududini hech qachon tark etmaydi va podsho oilasi bilan yaqindan tanish bo'lgan fors zodagonlarini qarorgohga taklif qilmagan.

Uning soxtaligi ma'lum bo'lgach, unga qarshi fitna tayyorlanadi. Fitnachilar qatoriga Otan ismli tajribali askar, Kambiz II xotinlaridan birining otasi, shuningdek, Misr istilosi davomida Kambiz II ning qurolbardori, Misrga yurishdan so'ng, Eronga qaytib kelib va endi nomalarning sababga ko'ra Suzada bo'lgan Doro ham kiradi.

Yettita fors zodagonlari birgalashib, soxta hukmdor va uning katta akasini o'ldirishni tashkil qilishga kelishadilar. Aftidan Otan suiqasdga boshchilik qilgan, lekin Doro kiyimlari ichida qurollari yashirilgan erkaklar guruhini saroy soqchilari yonidan o'tkazib berishni taklif qiladi: o'zi esa endigina otasi Parfiya satrapi oldidan podshoga maktub bilan kelganini ovoza qilishi kerak edi.

Yetti kishi podsho xonasi eshigiga yetib kelgunga qadar hammasi reja bo'yicha ketayotgan edi, biroq, podsho haramidagi qullar ularning ichkariga kirishiga qarshilik qiladilar. Shunda fitnachilar qurollari bilan qullarni o'ldiradilar, soxta hukmdor va akasining boshlarini kesib olib, boshqa zodagonlarga o'zini Bardiya deb atagan kishi aslida Kir II ning o'g'li emasligining isboti sifatida namoyish qiladilar.

Natijada tabiiy tanlov sifatida Doro sahnaga chiqadi. U yosh va g'ayratli edi (suiqasd vaqtida uning yoshi o'ttizlarda edi). O'z vaqtida Kambizning vakolatli amaldori, kelib chiqishi Ahamoniylar urug'idan bo'lib, uning ustiga otasi ixtiyorida saltanat askarlarining katta qismi bo'lgan. Mil. avv. 522- yilda suiqasdchilarning oltitasi tomonidan Doro I Eron podshosi deb e'lon qilindi va saltanatdagi mavjud kelishmovchiliklarga barham bera boshladi.

Shu orada bir nechta poytaxtdan olisdagi hududlar isyonni rejalashtira boshladilar.

Doro I shu zahotiy o'zining yangi imperiyasi xavfsizligini himoya qilish maqsadida urushga jo'naydi. "Behistun yozuvlari (bitiklari)" ga ko'ra, isyon shimolda bobilliklar, skiflar, sharqda midiyaliklar va hatto Parfiyada ko'tarilgan bo'lib, u yerda Doro I ning otasi qo'shinlar ustidan nazoratni yo'qotgan. Butun saltanat bo'yicha to'satdan katta va kichik, uyushmagan isyonlar boshlanib ketadi. Dastlab Bobilda Nidintu-Bel ismli shaxs o'zini Bobil podshosi bo'lgan Nabonidning o'g'li Navuxodonosor III deb e'lon qilib, Ahamoniylarga qarshi qo'zg'olon boshlaydi. Podsho Doro I ning shaxsan o'zi qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin tortib boradi. Mil. avv. 522-yili 13-dekabr kuni Dajla daryosi bo'yida qo'zg'olonchilarga qaqshatqich zarba beriladi va Bobil yana Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritiladi. Podsho Bobilda jazolash ishlari bilan band bo'lgan vaqtda Marg'iyonada Frada boshchiligida yana bir qo'zg'olon boshlanib ketadi. Baqriya satrapi Dadarshish mil. avv. 522-yil 10-dekabr kuni marg'iyonaliklarni mag'lubiyatga uchratib, 55 ming kishini qirib tashlaydi. Fors viloyatida Vaxyazdata ismli shaxs o'zini Kirning o'g'li deb e'lon qilib, podsho Doro I ga qarshi kurash boshladi. Qo'zg'olonchilar mahalliy xalq tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Natijada Vaxyazdata Araxosiyagacha bo'lgan sharqiy Eron hududlarini ham o'z nazoratiga oladi. Doro I qo'shinlari mil. avv. 522-yil 29-dekabr Kapishakanish qal'asi yonida, so'ngra mil. avv. 521-yil 21-fevral kuni Araxosiyadagi Gandutava hududida qo'zg'olonchilar bilan jangga kirishadi. Aftidan bu ikki jang ham tomonlarning hech qaysi biriga muvaffaqiyat keltirmagan. Mil. avv. 521-yil 16-iyulda Forsdagi hal qiluvchi jangda Vaxyazdata qo'shinlari uzil-kesil tor-mor etilib, qo'zg'olon rahbari va uning tarafdorlari qo'lga olinib, Vaxyazdata vahshiylarcha qatl etiladi. Shuningdek, Elam va Midiyadagi qo'zg'olonlar ham dahshatli tus oladi. Jumladan,

Midiyada Fravartish boshchiligidagi qo'zg'olon mil. avv. 521-yil 7-mayga kelibgina bostiriladi.

Umuman olganda hukmdor g'oyat qisqa vaqt ichida ajralib chiqqan hududlarni saltanatga qaytardi. Doro I hammasini kuch hal qiladigan vaziyatga tushganda u mislsiz muvaffaqiyatlarni namoyish etardi. Uning isyonchi o'lkalarni shafqatsizlik bilan jazolashi Behistun qoyatosh yozuvlarida o'z aksini topgan.

Kambiz II armiyasi turli xalqlar va etnoslardan tarkib topgan edi. Bunday armiyada aksariyat askarlar odatda "bir marta foydalaniladigan" bo'lib, jangda son jihatdan ustunlik yo'li bilan g'alabaga erishar edi. Bu strategiya Kambiz II ga o'sha paytdagi dushmanlarining tajribasizligi tufayli foyda berar edi, lekin skif qabilalariga qarshi jangda unga umuman yordam bermagan.

Doro I o'z qo'shinini boshqacha tasavvur qilgan. Ko'p sonli yollanma askarlar o'rniga u doimiy harbiy qo'shin yaratishni o'ylab qo'ygan edi. Bunday qo'shinning soni kamroq bo'lsa ham oziq-ovqat bilan yaxshi ta'minlangan, harbiy mashqlarni o'rgangan va sodiq bo'lishi kerak edi. Uning asosini o'n ming harbiy piyodalar va o'n ming suvoriylar (barchasi – faqat forslar va midiyaliklardan saralab olingan) tashkil qilishi va avvalgi ulkan hamda boshqarilishi juda qiyin bo'lgan qo'shinlarga qaraganda epchil bo'lishi lozim edi. "Mening boshqaruvim ostida bo'lgan forslar va midiyaliklardan tashkil topgan qo'shin katta bo'lmagan", - deb yozadi Doro I Behistun qoya toshida. Qo'shin tarkibidagi askarlar milliy his-tuyg'u va ruhiyat vositasida bir-biri bilan bog'langan ediki, o'n minglagan piyoda askar o'zlarini o'rtoqlar deb atashar hamda ular qatoriga yangi odamlar qo'shilishini o'kinch bilan kuzatar edilar. Ahamoniylar armiyasini forslar va midiyaliklar tashkil etgan bo'lib, barcha 20 yoshga yetgan erkaklar askar hisoblangan. Imperiya tarkibidagi saklar hukumat qo'shinining otliq kamonchilar qismini tashkil etgan. Qal'a garnizonlari boshliqlari va yuqori lavozimdagi zobitlar esa asosan forslardan tashkil topgan edi. Suvoriylar zodagonlar tabaqasidan tanlab olingan. Armiyaning saralangan qismlari o'n ming kishilik "o'lmaslar" deb nomlangan podsho gvardiyasidan iborat edi. O'lmaslarning dastlabki mingtasi fors zodagonlaridan tuzilgan, qolganlari boshqa eroniy xalqlar va elamlıklardan tashkil topgan. Armiyaning qolgan qismlari bo'ysundirilgan xalqlar hisobidan to'ldirilgan.

Birinchi navbatda podsho chegaralari oldingi davlatlar sarhadlariga har doim ham to'g'ri kelavermagan mamlakatni satrapliklarga bo'lib chiqib, ma'muriy islohotni amalga oshirdi. In'omlar tortiq qilish tizimi bilan qanoatlanmagan Doro I, har bir satraplikdan olinishi kerak bo'lgan doimiy soliq miqdorini o'rnatdi. Eng badavlat satrapliklardan yiliga o'nlab tonna kumush olgan. Satrapliklar ko'pincha ajralib chiqishga harakat qilishi mumkin bo'lgan mahalliy elita vakillari emas, balki forslar, ko'p hollarda esa Eron podshosining qarindoshlari boshchiligi ostida bo'lgan. Bunda satrap faqat fuqaroviy ishlarda hokimiyatga ega bo'lib, u yoki bu satraplik lashkarlari unga emas, balki podsho lashkarboshisiga bo'ysungan. Lashkarlarni idora qilmaganligi sababli satrap isyon ko'tara olmagan. Satraplikdagi podsho lashkarboshisi esa ma'muriy hokimiyatga ega emas edi. Satrap va lashkarboshi o'rtasidagi raqobat markaziy hokimiyat tomonidan kuchaytirilardi, chunki ularning bir-birining ustidan qilgan shikoyatlari rag'batlantirilgan.

Qadimgi imperiyalarda aloqa tizimining mukammal bo'lmaganligi sababli imperiyalarni boshqarishda katta muammolar yuzaga kelgan. Agar davlat chegaralari poytaxtdan minglab kilometr uzoqda joylashgan taqdirda, axborotning yetib borishi odatda oylarga cho'zilgan. Unga qilingan har qanday javob befoyda bo'lgan, chunki uni olish vaqtiga kelib uzoq satraplikdagi vaziyat, tubdan o'zgarib bo'lar edi. Doro I davrida eng yirik shaharlarni: Sard, Bobil, Suza va Ekbatanni (hozirgi Hamadon) biri-biri bilan bog'lagan noyob katta qatnov yo'llar tizimi yaratilgan. Podshoga axborot va uning farmonlarini tezkor yetkazib berish maqsadida maktublarni maxsus pochta xizmati olib kelgan.

Doro I boshchiligidagi bir guruh lashkarlar Bobildagi isyonni bostirayotgan vaqtda ushbu yangi qo'shin bo'linmalaridan biri sharqda, Midiyadagi isyonga barham beradi va yana bir harbiy bo'linma shu maqsadlarda Kichik Osiyoga yuborilgan edi. Uncha katta bo'lmagan, ildam, yaxshi o'rgatilgan qo'shin samarador edi. Bir yildan biroz ko'proq vaqt davomida isyonlarga barham berildi. Behistun qoyatosh bitigida keltirilishicha, u oyog'i bilan yerda cho'zilib yotgan taxtga da'vogar, soxta Bardiya ko'kragini bosib olgan va oldida oyoq-qo'li bog'langan, Bobil, Skifiya, Midiya va yana oltita hudud podsholariga mag'rur qarab turibdi.


Doro I iste'dodli sarkarda bo'lganidek, iste'dodli davlat arbobi ham edi. U satrapliklar deb nomlangan viloyatlar tizimini yaratib, tiklangan imperiyani qayta tashkil qila oldi. Ular satrap tomonidan boshqarilgan, har yili Suzaga jo'natilishi kerak bo'lgan soliqlarni to'lagan. Belgilangan miqdordagi soliqni yubormagan yoki o'z hududini tartibga sola olmagan satraplar qatl qilingan. Podsho Doro I ning ushbu boshqaruv tizimi yaxshi amal qilgan, istilo qilingan xalqlarni dahshatga solishni podsho o'z satraplariga yuklagan.

Ahamoniylar davlatining ma'muriy markazi Suzada joylashganligi uchun yuqori darajadagi amaldorlarning aksariyati ushbu shaharga kelib joylashar edilar. Bunga Misrdan to Hindistongacha bo'lgan hududlarda yashagan zodagonlar qatlami kirgan. Suzadan tashqari Bobil, Ekbatan, Memfis va boshqa yirik shaharlarda davlat boshqaruvi devonxonolari mavjud edi. Davlat va amaldorlar ustidan nazorat xazarapat (mingboshi) qo'lida mujassamlashgan edi. O'z navbatida u podshoning shaxsiy gvardiyasi boshlig'i ham sanalgan.

Satrapliklar devonxonolari podsho boshqaruv tizimining joylardagi nusxasi edi. Satrapning boshchiligida ko'plab amaldorlar va hattotlar, shu jumladan, devonxona boshlig'i, g'aznachi, jarchi, hisobchi va sud tergovchilari bor edi. Imperiyaning g'arbiy satrapliklarida oromiy tilidan keng foydalanilgan. Doro I davrida sharqiy satrapliklarda ham ushbu til markaziy hokimiyat va satrapliklar devonxonalarini bog'lab turgan.

Buyruqlar oromiy tilida tarqatilgan bo'lib, satraplikdagi kotib (mirza) lar buyruqni mahalliy tilga tarjima qilgan holda xalqqa e'lon qilgan. Fors aristokratiyasi Misr, Suriya, Bobil, Kichik Osiyo va boshqa hududlarda katta yerlarga ega edi. Mamlakatdagi ayrim yerlar podshoning xususiy mulki hisoblangan. Bu yerlar ijaraga berilgan va ijarachi dehqonlar *kur* deb atalgan (1 kur = 108 litr) o'lchov birligi asosida bug'doy, arpa yoki boshqa donli ekinlar bilan soliq to'lashgan.

Bu yerlardan kesib o'tgan kanallar ham ko'pi podshoga tegishli bo'lib, u ham ijaraga berilgan. Suriyadagi o'rmonlar, Misrdagi Merit ko'lidan ovlanadigan baliqlardan keladigan daromad hamda bog'lar ham podshoning mulki hisoblangan. Persepolda har yili podshoni hisobidan 15 mingga yaqin kishi ovqatlangan. Fors davlatiga qaram mamlakatlarda qulchilik ham rivojlangan edi. Qolgan joylarda ulardan uy-ro'zg'or ishlarida foydalanilgan.



Ayrim hollarda quldor qulni boqishni o'ziga ziyon deb bilsa, qulga ma'lum bir miqdorda yer (pekuliya) berilgan va u shu yerda erkin mehnat qilish ikoniyatga ega bo'lgan. Shuningdek, qul ushbu yer uchun ijara haqi to'lashi lozim bo'lgan. Ayrim qullar mustaqil xo'jalik yuritishgan va o'z muhrlariga ham ega bo'lishgan. Ular ozod kishilar bilan sudlashish huquqiga ham ega bo'lgan. Qullar sudlarda guvohlik berganlar ham. Qarz evaziga qul qilish tizimi Ahamoniylar davlatida keng tarqalmagan edi.

Qarzdor o'z bolalarini garovga qo'yish huquqiga ham ega edi. Muddat tugagach qarz to'lanmasa qarz beruvchi uning bolalarini qul qilib olishi ham mumkin bo'lgan. Ammo, erkak o'z xotinini garovga qo'ya olmas edi. Misr ayollari hatto ajrashish huquqiga ham ega edilar. Ahamoniylar davlatida mil. avv. VI asrning oxirida va V asrning birinchi yarmida Ahamoniylar davlatida podsho xo'jaligida mehnat qiluvchi ishchilar ham bo'lgan. Ularni *kurtash* deb atashgan. Ayrim kurtashlar oilalari bilan yashagan holda podsho xo'jaligida yil bo'yi mehnat qilishgan. Ularning aksariyati Persepolda qurilish ishlarida ishlaganlar. Persepolda 4 mingga yaqin kishi mehnat qilgan. Podsho qarorgohi 50 yilga yaqin davrda qurilgan.

Mil. avv. 519-yili Doro I butun imperiyada yagona soliq tizimini joriy qiladi. Unga ko'ra har bir satraplik pul bilan o'lpon to'lashi (ishlov beriladigan yerdan tushadigan daromaddan) kerak edi. Forslar esa hukmron xalq sifatida pulli soliqlardan ozod etilgan bo'lishiga qaramay, natural ta'minot bo'yicha o'lpon to'lashga majbur edi. Boshqa xalqlar yiliga 7740 Bobil kumush talanti (1 talant- 30 kg) miqdorida o'lpon to'laganlar. Ayrim ibodatxonalar soliqlardan ozod etilgan edi. Mil. avv. 517-yili Doro I imperiyada yagona 8,4 g ga teng *doroyi* tangasini muomalaga kiritadi. Bir doroyi 20 siklga (1 sikl-5,6 g ga teng kumush) teng bo'lgan. Satrapliklarda kumush tangalar zarb etib borilgan. Ushbu pullar Finikiya va Falastinda ham keng qo'llanilgan.

Mil. avv. 518-yilda Doro I buyrug'i bilan Nil va Suvayshdan fir'avn Nexo davrida qurilgan kanal qayta tiklanadi. Savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida Hindistonga Skilak boshchiligida dengiz ekspeditsiyasi uyushtirilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ahamoniylar podshohi ichki kurashlarga barham bergach, yangi yerlarni bosib olishni rejalashtiradi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, podsho Doro I hukmronliging uchinchi yili O'rta Osiyo

hududida joylashgan saka-tigraxaudalar ustiga yurish qiladi. Shuningdek, shunday yurishlardan biri ko'chmanchi skiflar qabila ittifoqiga qaratiladi.

Ikki yuz yildan ortiq bepoyon hududda ko'chib yurgan skiflar, qabilaviy ittifoqlar va podsholiklar yig'indisidan tashkil topgan edi. Mil. avv. 516-yilda skiflarga tegishli yerlarning markazi Qora dengizga quyiladigan ikki buyuk daryo – g'arbda Dunay va sharqda Don oralig'ida joylashgan edi.

Skif qabilalari Ossuriya yozuvlarida ilk bor tilga olinadi. Mil. avv. 700-yilga qadar ko'chmanchi chorvador bo'lgan mazkur qabilalar mil. avv. 516-yilda ham hali o'troq bo'lib yashamas edilar. *“Agar bizning shaharlarimiz bo'lganda, biz ular istilo qilinishi mumkinligidan iztirob chekar edik, - deydi Doro I ga ilk bor forslar hujum qilishi mumkinligini sezgan skif podsholaridan biri, - va ishlov berilgan yerlarimiz bo'lganda, ular xarob qilinishi mumkinligidan xavotirda bo'lardik... lekin biz unga ham, bunga ham ega emasmiz”*.

Ko'chmanchi chorvador skiflar urf-odatları vaxshiy bo'lganligi manbalarda ta'kidlanadi. Ular mag'lub bo'lgan dushmanlari bosh suyaklaridan qadahlar yasaganlar va sadoqiga tortish uchun o'ng qo'llarining terisini (“tirnoblari bilan birga” – aniqlik kiritadi Gerodot) shilishar edi. Ular qirq kungacha vafot etgan qarindosh-urug'lari jasadlarini dafn qilmasdan saqlaydilar, mayitlarga ovqat va ichimlik iaklif qiladilar: nasha urug'ini qizib turgan toshlarga tashlab, tutunini nafas bilan ichga tortar, “tutundan huzur qilib baqirishar” edi.

Mil. avv. 516-yilga kelib Doro I skiflarga qarshi yurishni rejalashtira boshlaydi. U Kichik Osiyodagi Sard shahrini saltanatining ikkinchi ma'muriy markazi sifatida, shimoli-g'arbiy sarhadlarga yetarli darajada e'tibor qaratgandi. Sardga yetib borishni osonlashtirish maqsadida Doro I Suzadan to Kichik Osiyogacha yangi yo'l qurdiradi. Mazkur “Shoh yo'li” bo'ylab otlarni almashtirish uchun bekatlar qurilgan bo'lib, choparlar katta tezlikda g'arbdan poytaxtga harakat qilishi va orqaga qaytib kelishini ta'minlardi.

Endi Doro I ning o'zi ham ushbu yo'ldan Sardga, so'ng, Sarddan saltanat hududining eng chekkasiga jo'naydi. Skiflarga hujum qilish maqsadida u o'z kemalarini Gelespont* sifatida ma'lum bo'lgan o'tish joyi orqali Kichik Osiyo sohiliga, Bosfor bo'g'oziga olib o'tmoqchi

* Dardanell

bo'lgan. U yerdan ular Qora dengizga, so'ng, Dunay daryosidan (Gerodot uni Istr deb ataydi) yuqoriga skif hududining janubiy chekkasi bo'ylab harakat qilishi kerak edi.

Shu orada uning quruqlikdagi kuchlari Kichik Osiyoni hozirgi vaqtda biz Yevropa deb ataydigan yerlarni ajratib turuvchi bo'g'ozni kesib o'tardilar. Bu katta taassurot qoldiradigan bo'g'oz bo'lmasa ham, Biroq, shu vaqtgacha hech qaysi sharqiy saltanatlar uni hali kechib o'tgan emas edi. Doro I Bosfor ustidan ko'prik qurishni Ioniyalik Mandrokl ismli o'zining yunonlik muhandislaridan biriga topshiradi. so'ng, o'zining odamlarini chaqirtiradi.

Fors qo'shini "Shoh yo'li"dan Sard shahriga qarab uzoq yo'lni bosib o'tadi. Qo'shinlar shunchalik zich harakat qilar ediki, ular bir istilo qilingan shahardan boshqasiga tomon harakat qilganda, yer larzaga kelardi. Shu orada muhandis Mandrokl bo'g'ozni o'Ichaydi. Uning eng tor joyining kengligi 650 metr yoki 720 yardni (Amerikada yettita futbol maydoni uzunligi) tashkil qilib, an'anaviy ko'prik uzunligidan ancha keng bo'lgan. Shuning uchun 6 ta oddiy ko'prik o'rniga Mandrokl yassi daryo kemalari ustiga qurilgan suv ustida qalqib turadigan ko'prik qurishni o'ylab topadi: yassi kemalarni birga bog'ladilar. Ular qurilayotgan yo'l uchun suzib (qalqib) yuruvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Yo'l ustiga tuproq va toshlar yotqiziladi. Bu tarixdagi eng birinchi ponton ko'prigi, yunon shoiri Esxilning aytishicha "zig'ir poyasidan bog'langan (to'qilgan) yo'l" hisoblangan. U ko'p asrlardan beri armiya sapyorlari uchun ham namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ahamoniylar hukmdorining harbiy yurishlari orasida skiflarga qarshi olib borilgan harbiy yurishlar juda qiyin kechgan. Minglab forslar, piyoda va suvoriylar, ko'prikdan Dunayning tor joyiga o'tib borardilar. U yerda ular dengiz qo'shinlari bilan uchrashishi va skiflar hududiga eltadigan yana bitta pontonli ko'prik qurishlari kerak edi. Bo'g'ozning narigi tomonida joylashgan Frakiya shaharlari forslarning o'tishiga to'sqinlik qilmadilar. Aksariyat frakiyaliklar skiflardan qo'rqar edi, fors qo'shinlari esa ularni muhofaza qilishi mumkin edi.

Biroq skiflar ochiqdan-ochiq qarshi harakat qilmadilar. Buning o'rniga ularning qabilalari chekindi, chekingan sari quduqlar va boshqa suv manbalarini qum bilan to'ldirib, daraxtlar va ko'karib turgan dalalarni yoqib ketaverdilar. Ular ketidan borayotgan forslar

yovvoyi, bo'sh yotgan yerlardan ketayotganliklarini anglaydilar, har doim oziq-ovqat va suv izlab topishga majbur edilar. Ular dushmanni jang qilishga majbur eta olmas va unda o'zining yaxshi o'rgangan harbiy mahoratidan foydalana olmasdi. *"Yurish cheksiz davom etaverdi, - deb yozadi Gerodot, - ...va Doro foydasiga qarshi vaziyat yuzaga kela boshladi"*.

Natijada qanchalik achinmasin, Buyuk Shoh orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Barcha fors qo'shinlari, istilo qilinmagan skiflarni qoldirib, orqaga Dunaydagi ponton ko'prik orqali janub tomon yo'l oldi. Forslar uni bosib olmagandan keyin mazkur yerlar ularni umuman qiziqitirmay qo'ydi.

Biroq Doro I o'ljasi qaytib ketgani yo'q. Sardga yetib borib, u yerda qo'shinlarini eng ishonchli sarkardasi, Megabaz boshchiligida qoldiradi va Frakiyani istilo qilishni buyuradi.

Skiflar bosib olishi xavfidan qutilish niyatida Frakiya shaharlari birin-ketin taslim bo'lib, forslar hukmronligini tan oladi. Megabaz tajribali sarkarda edi, fors askarlari esa – usta jangchi edilar. Frakiya siyosiy tuzilishining tarqoqligi, boshboshdoqligi eronliklarga qo'l keldi : har bir shahar o'z sarkardasi va qo'shiniga ega edi. *"Agar frakiyaliklarni bir odam boshqarganda yoki ularning maqsadi bir bo'lganda, - deb ta'kidlaydi Gerodot, - unda ular dunyoda eng yengilmas va qudratli xalq bo'lardi... Bu hech qachon ro'yogga chiqmaydigan ish, shuning uchun ular shunday kuchsiz"*.

Megabaz Frakiyani Skudra deb nomlangan Eronning yangi satrapligiga aylantiradi. so'ng, u janubdagi Makedoniyani mo'ljalga oladi. Miloddan avvalgi 519-512-yillar oralig'ida Frakiya, Makedoniya, O'rta Osiyoning bir qismi va Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlari zabt etilib, ulkan imperiya tashkil topadi.

Mil. avv. 500-yili Kichik Osiyoda joylashgan yunon-shahar davlatlaridan biri bo'lgan Miletta forslarga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlanadi. Bu qo'zg'olonga Kichik Osiyoning janubidagi va shimolidagi yunon shaharlari qo'shilishadi. Qo'zg'olon rahbari Aristagor mil. avv. 499- yili qit'adagi yunonlarga yordam so'rab murojaat qiladi. Spartaliklar yo'lni uzoqligini bahona qilib yordam berishdan bosh tortadilar. Aristagorga afinaliklar va eritreyaliklar (Evbeya orolidan) yordamga keladi. Ular yuborgan kemalardagi madad kuchlari unchalik katta emas edi. Qo'zg'olonchilar Lidiya satrapligi markazi Sard shahriga yurish qilishadi va uni egallab, o't

qo'yib yuborishadi. Fors satrapi Artofen o'z garnizoni bilan shahar akropolida jon saqlaydi. Mil. avv. 498-yili fors qo'shini Efes shahri yonidagi jangda yunon qo'shinini mag'lub etadi. Shundan so'ng, afinaliklar va eritriyaliklar o'z ittifoqchilarini tashlab qochadilar. Mil. avv. 494-yil forslar Miletni dengiz va quruqlikdan qamal qilishadi. Shahar egallanib, butunlay vayron qilinadi. Aholi qul qilib olib ketiladi. 493-yili qo'zg'olon bosqichma-bosqich bostiriladi. Shundan so'ng, Doro qit'adagi yunonlarga qarshi urushga tayyorgarlik ko'radi. Mil. avv. 492-yili fors qo'shini Makedoniya va Frakiyaga kiradi. Bu orada Afina yaqinidagi Xalkidika yarim orolida fors floti to'fonga uchraydi va askarlarning ko'pi halok bo'ladi. 300 ga yaqin kema cho'kib ketadi. Bu yurish natijasiz tugaydi. Keyinchalik mil. avv. 490-yili Doro I Afina davlatiga qarshi harbiy ekspeditsiya uyushtiradi. Lekin mashhur Marafon jangida afinaliklar fors qo'shinini mag'lub etadilar. Afsuski, Ahamoniylar imperiyasi ichki siyosatidan norozi bo'lgan satrapliklar yunon-forslar vaqtida markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar boshlab yubordilar. Yirik qo'zg'olon Misrda yuz beradi.

Mil. avv. 486-yili Misrda forslarga qarshi xalq qo'zg'oloni avj olgan paytda Doro I 64 yoshida vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Kserks (mil. avv. 486-465-yillar) chiqadi. U mil. avv. 484-yili Misrdagi qo'zg'olonn bostirib, u yerdagi ko'plab ibodatxona mulklarini musodara qiladi. Shu yilning o'zida Bobilda ham navbatdagi qo'zg'olon boshlanadi. Biroq, bobilliklarni ushbu harakati shafqatsizlik bilan bostirildi. Mil. avv. 482-yili bobilliklar yana qo'zg'olon ko'taradi. Bu payt Kserks yunonlarga qarshi kuch to'plash maqsadida Kichik Osiyoda turgan edi. Bobil mil. avv. 481-yili qayta egallanib, uning mudofaa devorlari buzib tashlanadi. Shahar askarlar tomonidan talon-taroj qilinadi. Mazkur qo'zg'olonlarni bostirish bilan podsho Kserks mamlakat yaxlitligini saqlab qoladi.

Kserks mil. avv. 480-yili yunon-fors urushlarini boshlaydi. Garchand forslar Yunonistonning katta qismini talon-taroj qilsada, ammo Afina va Sparta davlatlari boshchiligida yunon polislari qarshiligini sindira olmay mag'lubiyatga uchraydi. Mil. avv. 465-yili Kserks fitnachilar tomonidan o'ldirilib, taxtga uning o'g'li Artakserks I (mil. avv. 465-424-yillar) keladi. U yunon polislari bilan urushni davom ettiradi. Mil. avv. 460-yili Misrda forslarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Bu qo'zg'olon mil. avv. 454-yildagina

Artakserks I tomonidan bostiriladi. Isyonchilar rahbari Inar asir tushib, Eronda qatl qilinadi. Artakserks I mil. avv. 449-yili Suzada yunonlar bilan tinchlik sulhini (Kalliy sulhi) tuzishga majbur bo'ladi. Unga qarshi Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlari va Egey dengizida joylashgan orollar ozod bo'ladi. Shu bilan birga, forslar Egey dengizida harbiy flot ushlash huquqidan mahrum bo'ladilar. Natijada davom etgan yunon-fors urushiga yakun yasaladi. Mil. avv. 424-yil podsho Artakserks I vafotidan so'ng, Ahamoniylar davlati kuchsizlanadi va imperiyada toju-taxt uchun o'zaro urushlar bo'lib boshlaydi. Mil. avv. 423-yili fevral oyida Artakserks I ning o'g'li Oxvartani egallab, o'zini Doro II deb e'lon qiladi. Lekin uning taxtga o'tirishidan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi kurash boshlaydi. Ushbu kurashlar natijasida podsho vafot etib, hokimiyatga mil. avv. 401-yilda Artakserks II keladi. Taxtga da'vogar Kichik Osiyo davlatlaridan birining satrapi Kir III (ayrim manbalarda Kir kichkina) qo'ng'ulubiyatga uchraydi va o'ldiriladi. U tomonida jang qilgan yunon yollanma askarlar boshliqlari, hiyla yordamida qo'lga olinib qatl qilinadi. Biroq, yunon yollanma askarlari o'z vatanlariga qaytib ketishga muvaffaq bo'ladilar.

Podsho Artakserks II davrida Ahamoniylar davlati kuchsizlanadi va mamlakat iqtisodiy va siyosiy tushkunlikni boshdan kechiradi. Keyin, Artakserks III taxtga keladi. Uning davrida Finikiyaning Sardoniya shahridagi qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. Mil. avv. 353-yil Misrga yurish qilinib, bu mamlakat Ahamoniylar imperiyasiga qo'shilib bo'ysundiriladi. Artakserks III davrida Eron o'z qudratini yanada kengaytishga erishadi. Ammo, mil. avv. 336-yil Artakserks III vafotidan so'ng, Eron davlati, yosh Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinadi. Shu tariqa ikki asrdan ko'proq yashagan Ahamoniylar davlati tugatiladi.

Qadimgi Eron xalqlarining madaniyatini o'rganishda yozma manbalarning o'rni muhimdir. Chunki Eronda ham dunyoning eng qadimgi madaniyat o'choqlari qoldiqlari bizga qadar yetib kelgan. Eron xalqlarining qadimgi madaniyati, ko'pincha sharq xalqlari madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da Eron hududlarida Ahamoniylar davrigacha ham davlat tuzimi bo'lganligi haqida

ma'lumotlar uchraydi. Bu qabilaviy ittifoqlar shaklidagi davlatlar harbiy demokratiya asosida tashkil topgan edi.

Eronda qadimdan zardushtiylilik xudolari Axuramazda (oliy xudo), Axriman (yovuzlik xudosi), Mitra (quyosh xudosi), Anaxita (suv va hosildorlik ilohasi) va boshqa ilohlarga sig'inilgan. Fors podsholari zardushtiylilikning afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, Ahamoniylar imperiyasida mavjud bo'lgan boshqa xudolardan voz kechilmagan.


1755-1761 yillarda Fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Guxlorot viloyatida Eron zardushtiylarining avlodlari-porslarning urf-odatları va diniy marosimlari bilan tanishib chiqdi. Ulardan Avestoning ayrim duolarini ko'chirib, diniy ahkomlarini o'qishga muayassar bo'ldi.

Mil. avv. I-mingyillikning 1-yarmida O'rta Osiyoda vujudga kelgan zardushtiylilik dini mil. avv. VI-V asrlarda fors o'lkasiga keng tarqalgan edi. Doro I bu dinning afzalligini yaxshi tushundi va rasmiy davlat diniga aylanishiga imkon berdi. Ammo, bu din umumimperiya dini emas edi. Shu bilan birga, fors podsholari Misrdagi Neyt xudosi va Yaqin Sharqdagi Yaxve xudolarini ulug'lanishiga to'sqinlik qilmadilar.

Binokorlik va naqqoshlikda Pasargad, Persopol va Suzadagi binolar yuqoridagi fikrlarga dalil bo'la oladi. Shu bilan birga, Naqqsh Rostam (Persopol yaqinidagi) tasvirlar Ahamoniylar davrida san'atning nechog'lik yuksalganini ko'rsatadi. Masalan, Pasargad dengiz sathidan 1900 metr balandlikda keng maydonda joylashgan bo'lib, bu yerda Kir II ning sag'anasi qurilgan. Persopolning umumiy maydoni 135 000 kv. m. bo'lib, shahar xom g'ishtdan urilgan devor bilan o'raigan. Sharqiy tomondan esa qoyaga taqalgan. Persepolga keng 110 ta zinapoyali yo'lak bilan kirib borish mumkin edi.

Kiraverishdagi saroy (Apadana) Doro I tomonidan qurilgan. Bu saroyning old qismi 3600 kv. m. bo'lib, saroy qurilishida tosh ustunlardan keng foydalanilgan. Ustunlarning balandligi 20 metrga teng. Doro I davrida Suza shahrida ham ulkan qurilish ishlari olib borilgan. Bu yerdagi saroylarni qurish uchun 12 ta mamlakatdan hunarmandlar olib kelingan. Ahamoniylar me'morchilik san'atining yorqin namunalaridan yana biri mil. avv. V asrda Persopolda qurilgan "Yuz ustunli zal"dir. Uning balandligi Apadananikidan biroz kichik. Bu zalga kiraverishdagi peshayvonda buqalarning haykallari bo'lib,

ar bir qatori 8 ustun bilan bezatilgan. Mazkur ustunlar ma'lum bir vazifani bajargan. Saroyning markaziy qismida to'rtburchak shakildagi darning tomini yuzta ustun ko'tarib turgan. Bunday binokorlik uslubi Misrda qo'llanilgan bo'lib, ustunlarning balandligi va serhashamligi saroyga go'zal husn berib turgan.




Persepoldagi podsho saroyi qoldiqlari

Ahamoniylar madaniyati, ko'p hollarda sun'iy ravishda turli-xalq qismlardan tarkib topgan, ulkan va murakkab organizm edi. Uning rasmiy san'ati ham ko'p millatli madaniyatni o'zida mujassamlashtirgan. Eron arxitekturasi va haykaltaroshligida Old Misrning yemirilgan saltanatlari, avvalo Ossuriyaning tajribasi o'zlashtirilganligi yaqqol ko'rinib turadi.

Suza va Persepoldagi serhasham saroylarining qurilishida saltanatning barcha viloyatlaridan olib kelingan eng yaxshi ustalar ishtirok etgan. Bu yerda Eron, Yunon, Misr, Bobil arxitekturasi qorishib olinganini ko'rish mumkin. Ahamoniylar Mesopotamiyaning qadimiy mixxat yozuvini o'zlashtirib oladilar. Shu bilan birga, joylarda imperiya tarkibidagi xalqlar yozuvini ham ishlatganlar. Misol uchun, 12,5 metr balandlikdagi Behistun qoyatosh bitigida mixxat yozuvi ishlatilgan.

Qadimgi forslar oy kalendaridan foydalanib, unda 1 yil 354 kunni tashkil qilgan. 12 ta oy, 29 yoki 30 kunga bo'lingan. Shu tariqa quyosh kalendaridan 11 kun farq qilgan.



Persopoldagi shahar qoldiqlari

Har 3 yilda oy va quyosh kalendarlari orasidagi farq 33 kunni tashkil qilgan. Oradagi farqni yo'qotish uchun yil hisobiga qo'shimcha o'n uchinchi oy qo'shilgan. Shu bilan birga, imperiya hududida boshqa kalendarlar ham bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Eron hududida qaysi xalqlar yashagan?
2. Qadimgi Midiya podsholigiga kim asos solgan?
3. Qadimgi Midiya podsholigining poytaxti qaysi shahar bo'lgan ?
4. Axamoniylarning lidiyaliklarga qarshi olib borgan urush haqida ma'lumot bering.
5. Podsho Doro I tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.
6. Yunon-Fors urushlariga izoh bering.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.

2. История Востока. В 6 т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М., 1985.
4. Дандамаев М.А. Месопотамия и Иран в VII-IV вв. до н.э.: Социальные институты и идеология. СПб., 2009.
5. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика Древнего Ирана. – М., 1980.
6. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
7. Кузищин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
8. Briant P. From Cyrus to Alexander. A History of the Persian Empire. Winona Lake, 2003.
9. Cambridge History of Iran. V. 2. The Median and Achaemenian Periods. Cambridge, 1985.
10. S.W. Bauer - The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome - W. W. Norton & Company .2007.
11. I.E.S. Edwards. The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.

18-mavzu. Parfiya davlati

Mil. avv. III asr o'rtalarida Salavkiylar davlati ichki nizolar tufayli kuchsizlana boshlaydi. Uning sharqiy viloyatlari hisoblangan Parfiya va Baqtriya mamlakat tarkibidan chiqish imkoniyatini qo'lg'a kiritdilar. Parfiya satrapligi Kopetdog' tog'laridan janubi-g'arbiy Turkmaniston va shimoliy-sharqiy Eron hududlarini o'z ichiga oladi. Bu hududlar salavkiylarning ikki hukmdorlari – Salavka va Antiox davrlarida rivojlangan viloyatlardan biri edi. Parfiyaliklar haqidagi ma'lumot Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham keltirib o'tiladi. Parfiya davriga oid ellin shaharlari Mesopotomiyaning Salavkiya shahrida va keyinchalik Ktesifonda topilgan arxeologik ma'lumotlar bilan ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, Gekatompil shahri ham Parfiyaning siyosiy markazlaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, Parfiya shaharlaridan biri Mihrdatkertda (yangi va eski Niso, ya'ni Ashxoboddan 16 km uzoqlikda joylashgan) olib borilgan arxeologik

qazishmalar Parfiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, taraqqiyot mezonlarini o'zida aks ettirgan. Parfiyaliklarning xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar beruvchi 2500 ta hujjatlardan iborat Niso shahri arxivlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, fil suyagidan yasalgan ritonlar (may ichish qadahlari) kishini e'tiborini tortadi.

Qadimgi Rim tarixchisi Yustin Parfiya davlatini asoschisi deb, Arshak degan kishini tilga oladi. Arshak so'zi – sak bahodiri degan ma'noni bildiradi. Aynan u Parfiya davlatida arshakiylar sulolasiga asos soladi. Uning kelib chiqishi baqtriyalik bo'lishi mumkin deb taxmin qilinadi. Ammo, asosiy harbiy kuchini Parfiyaning shimolida yashagan (hozirgi Turkmaniston) dax (sak) qabilalari tashkil qilgan. Parfiya satrapligini Salavkiylar davlatidan ajralib chiqish jarayoni mil. avv. 250-yilda boshlangan edi. Mil. avv. 238-yili Arshak Yunon-Baqtriyadan keyin Parfiyani salavkiylar davlatidan to'liq ajratib oladi. Salavkiylarning hududni qaytarib olishga qilgan harakatlari besamar ketadi. Parfiyaning dastlabki poytaxti Niso shahri bo'lgan. Mil. avv. 228-yil taxtga Arshakning ukasi Tiridat I keladi. U O'rta Osiyolik ko'chmanchi qabilalar yordamida Parfiya davlatini Salavka II ning hujumidan asrab qoladi. Mil. avv. 209-yil Parfiya podshosi Tiridat I salavkiylar podshosi Antiox III bilan sulh tuzadi va vaqtincha unga yon berishga majbur bo'ladi. O'sha vaqtda Parfiya tarkibiga Kaspiyoldi girkaniyasi va qisman Midiya ham kirgan edi. Parfiya davlatini ulkan davlatga aylanishi podsho Mitridat I davriga (mil. avv. 171-138 yy) to'g'ri keladi. Uning hukmronligini so'nggida mamlakat hududi Hindiqush tog'laridan Frot daryolariga qadar yetgan. Eronning aksariyat hududlari va Mesopotamiya parfiyaliklar qo'lga o'tadi. Mitridat I salavkiylar hukmdori Demitriy II Nikatorni asir olib Girkaniyada tutqunlikda ushlab turgan. Keyingi podsho Fraat II (mil. avv. 138-128 yy) mamlakat hududini daxlsizligini saqlab qoladi. Hukmdor o'zining azaliy dushmanlari bilan murosasiz janglar olib boradi va mil. avv. 129-yili hatto Antiox VII ni ham jangda yengib chiqadi. Bu orada sharqdan, ya'ni O'rta Osiyodan yue-chjilarning ko'chishi natijasida boshqa ko'chmanchilar ham Parfiya nazorat qilayotgan Eron hududiga kirib boradilar. Yue-chjilar siquvi ostida ko'chib kelgan sak qabilalari bilan kurashda Parfiya podsholari Fraat II, Artaban I (mil. avv. 128-123 yy) lar halok bo'lganlar. Ularning migratsiyasini faqatgina Mitridat II (mil. avv. 123-88 yy) to'xtatishga muvaffaq bo'ladi. Mitridat II Kavkazortiga ham yurish qiladi va bu

yerdagi bir necha hududlarni o'ziga bo'ysundiradi. Mil. avv. 92-yili Mitridat II Rim respublikasi diktatori Sullaga elchilarni yuboradi va Parfiya tashqi siyosatida yangi sahifa ochadi. Natijada Parfiya va Rim munosabatlari tinchlik ruhini o'zida aks ettira boshlaydi.

Parfiya Rimning sharqqa amalga oshirgan ekspansiyasiga qarshi o'ziga xos to'siq vazifasini bajargan edi. Salkam uch asr mobaynida bu ikki davlat o'rtasidagi qarama-qarshilik o'ziga xos xususiyatga ega edi. Mingdan ortiq Rim legionerlari Parfiyada asirlikda yuradi. Mil. avv. 53-yili Karra yonidagi jangda (Yuqori Mesopotamiya) rimliklar mag'lubiyatga uchraydi (20 mingga yaqin askar halok bo'ladi). Mil. avv. 52-50 yillarda parfiyaliklar Suriyani egallab olishadi. Mil. avv. 40-yilga kelib, Parfiya suvoriylarini hatto Ierusalim devorlari atrofida ham ko'rishgan. Shu bilan birga, mil. avv. 39-38-yillarda harbiy muvaffaqiyat rimliklar tomonida turgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib, rimliklar muvaffaqiyatsizlikka uchray boshladi. Bu yurishga Rimning mashhur lashkarboshisi Mark Antoniy boshchilik qilgan edi. Mazkur vaqtda Parfiyada podsho Fraat IV (mil. avv. 38-2-yy) hukmronlik qilgan. Miloddan avvalgi 20-yili podsho Fraat IV Rim bilan diplomatik munosabatlarni tiklab, hatto rimlik asirlarni va legionlar bayroqlarini qaytarib jo'natgan. Natijada yuz yildan ortiq davr mobaynida ikki davlat o'rtasida harbiy to'qnashuvlar kuzatilmaydi. Milodiy 115-yili Rim imperatori Trayan Armaniston va Mesopotamiyani Rim viloyati deb e'lon qiladi. 116-yili Rim imperiyasiga tegishli bo'lgan Ossuriya viloyati tashkil etiladi. Trayan qo'shinlari Salavkiyaga kirib keladi, so'ngra Parfiya poytaxti bo'lgan Ktesifon shahrini ham egallaydi. U yerda arshakiylarni oltin taxtini qo'lga kiritgan. Faqatgina imperator Trayanning 117-yilda vafot etishi Rimning keyingi harbiy yurishlariga chek qo'yadi. 164-yilga kelib, imperator Mark Avreliy davrida rimliklar yana Mesopotamiyaga bostirib kiradi va yurish davomida Salavkiya shahriga o't qo'yadilar. Hatto poytaxt Ktesifon shahri ham talon-taroj etilib, u yerga ham o't qo'yadilar. 198-199-yillarda imperator Septimiy Severning harbiy qo'shinlari parfiyaliklarni yana bir bor mag'lubiyatga uchratib, poytaxtdagi podsho xazinasini qo'lga kiritadi hamda yuz ming kishini asir oladi. 218-yili Parfiya podshosi Artaban V rimliklardan Mesopotamiyani qaytarib oladi. Bu orada Parfiyada ichki nizolar boshlanadi. Ayniqsa, janubda Fors viloyatilik sosoniylar sulolasi siyosiy maydonga chiqadi.

Parfiya davlatining boshqaruv tizimi. Salkam besh yuz yil mavjud bo'lgan qadimgi Parfiyada o'ziga xos boshqaruv tizimi vujudga keladi. Hokimiyat cheklanmagan monarxiya qo'lida edi. Mamlakatda keyingi o'rinda turuvchi podsho zodagonlari "vazurgi" deb atalgan. Ya'ni, yarim qaram knyazlar viloyat hokimlari va boshqa amaldorlar zodagon aristokratiya ierarxiyasi pog'onasida turar edi. Ularning barchasi "podsholar podshosi"ga xizmat qilishi lozim bo'lgan. Harbiy xizmatda harbiylarning kiyimlari bir xil bo'lgan. Davlat boshqaruvida saroy etikasi mavjud bo'lgan. Parfiyaning ijtimoiy-tabaqaviy tizimi doimo sayqallashib, mukammallashib borgan. Parfiya ko'p millatli mamlakat edi. Bu yerda ellin madaniyatini o'zida aks ettirgan shaharlardan tortib, patriarxal-urug' tizimiga ega arab knyazliklari va yarim qaram podsholiklar ham mavjud edi. Ularning barchasi o'z tangasini zarb qilish huquqiga ham ega bo'lgan. Xususiy mulklar "*dastakert*" deb nomlanib, u yerda ishlashga qullar biriktirilgan. Shu bilan birga, ozod dehqonlar ham ushbu mulklarda ishlashga majbur bo'lgan. Urushlar natijasida asir olingan harbiylarni qullarga aylantirib, ularni "*anshaxrik*" (ajnabiy) deyishgan. Tarixchi Pliniyning ta'kidlashicha, parfiyaliklarga 18 ta podsholik bo'ysungan. Parfiyada ko'chmanchi -urug'chilik tizimi va urf-odatlarini saqlanib qolgan edi. Parfiyada qudratli zodagonlar urug'lariga Koren, Suren, Mixranlar va boshqalar kirgan. Ularning har birining o'z qo'shini bor edi. Ayrim amaldorlar atamalari salavkiylardan (arxos - "boshliq") meros qolgan. Hatto bir nechtalari Ahamoniylardan (arkapat - "qal'a boshlig'i") ham o'zlashtirilgan edi. Mahalliy eronliklar boshqaruv tizimidan "naxvadar" - "birinchi o'rinni ushlab turuvchi", Kavkazortida eroniy tildan olingan "bitaxsh" - "noib" degan unvonni borligi Parfiyaning mahalliy boshqaruv tizimlaridan boshqalar ham unumli foydalanganligidan dalolat beradi. Viloyat hokimi "shaxrab" deb atalgan. Ularning ustidan "marzban" - "chegarani muhofaza etuvchi" turgan. Har bir viloyatning o'ziga xos soliq tizimi ham bor edi.

Arshakiylar davrida Parfiya madaniyatini, mintaqadagi madaniyatdan alohida yaxlit sifatida ta'riflash qiyin. Shu bilan birga, ko'chmanchi dax (yoki sak)lar o'z madaniyatini o'troq eroniy etnoslarga majburan joriy qilgan deb ham bo'lmaydi. Zero ikkala tomonning bir-biriga madaniy-ma'rifiy ta'siri bir xil kechgan degan fikr hozirgi kunda g'arb olimlari orasida ham munozarali

hisoblanmoqda. Parfiya davlati tarkibida boshqa eroniy xalqlardan tashqari, jumladan, yunonlar Salavkiyada o'z ilohlariga qurbonlik keltirishgan bo'lsa, Fors o'lkasida mahalliy xalq zardushtiylik ilohlari-Axuramazda va Anaxitaga bag'ishlab marosimlar o'tkazar edilar. Albatta, mazkur hududda zardushtiylikning muqaddas kitobi Avesto o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Arab knyazliklaridan biri bo'lgan Xatrada mahalliy somiy ilohlari garchand ularni qiyofasi ellin xudolari tasvirida bo'lsada, ularni ulug'lash davom etavergan. Misol uchun al-Lat xudosi – Afina, quyosh xudosi Shams esa – Gelios tasvirida bo'lgan. Rim va Parfiya davlatlari chegarasida joylashgan Dur-Evropos shahrida Zevs-Teos ibodatxonasi yuqoridagi fikrlarga dalil bo'ladi. Shu bilan birga, zardushtiylikdagi Mitra xudosisiga sig'inish kuchayib borgan edi. Mitraviylik Kichik Osiyo orqali hatto Rim imperiyasiga ham kirib borgan.

Parfiyaning tasviriy san'ati eroniy va ellin madaniyati ta'siridan ilhomlangan bo'lsada, rasmi tasvirlarda mahalliy rang-baranglikni o'zida mujassamlashtirgan edi. Ayniqsa Gerakl qiyofasini tasvirlash keng shuhrat qozongan.

O'z navbatida Parfiya me'morchiligi ellinlarning madaniy ta'siriga qaramasdan yuqori darajadagi yutuqlarga erishdi. Ya'ni, binokorlikda tomlarni qubbasimon shaklda yopish va ayvonlar qurish tizimi sharq madaniyatini o'zida aks ettirar edi. Podsholarni qiyofasini tasvirlash, o'ziga xos mahalliy urf-odatlar ta'sirini ko'rsatar edi. Keyinchalik milodiy III-IV asrlarda sosoniylar bu madaniyatni yuqori cho'qqiga olib chiqdilar.

Parfiyada davlat tillari bir nechta bo'lgan. Ayniqsa, mamlakatda hujjat ishlarini yuritishda va tanga zarb qilishda yunon tilidan keng foydalanilgan. Yunon tili shaharlar va savdo-sotiq tili bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Parfiyada teatr tomoshalari ham o'tkazilib kelingan. Parfiyada davlat tilidan tashqari oromiy yozuvi asosida somiy tilidan keng foydalanilgani manbalarda ta'kidlanadi. Parfiyaliklar tili na'munalari qadimgi Niso shahridan topilgan arxiv hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Parfiyada Eron xalq og'zaki ijodi vakillaridan "goshanlar"(baxshilar) faoliyat olib borganlar. Xulosa qilib aytganda, Parfiya qadimgi Eron xalqlari sivilizatsiyasini rivojlanishida o'chmas iz qoldirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Parfiya aholisi qaysi tillarda so'zlashganlar?
2. Qadimgi Parfiya davlatiga kim asos solgan ?
3. Qadimgi Parfiya podsholigining Rimga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Fraat IV ning tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузицина. – М., 2002.
2. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007
4. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003
5. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company. 2007.


19-mavzu. Qadimgi Hindiston

Qadimgi Hind vodiysi sivilizatsiyasi.

Hind vodiysi sivilizatsiyasi. Gang vodiysida mil. avv. III–II ming yilliklarga oid katta bo'lmagan manzilgohtar qoldiqlari topilgan. U yerda istiqomat qilgan aholi misdan buyumlar yasab, ov qilish va baliq ovlash kabi mashg'ulotlar ustuvor bo'lgan ibtidoiy xo'jalik sharoitida yashaganlar.

Hind havzasida yuksak darajadagi murakkab madaniyat yuzaga kelgan. Uning eng katta markazlari nomi bilan Xarappa madaniyati deb nomlash qabul qilingan. Xarappa bilan bir qatorda xuddi shunday ahamiyatga ega bo'lgan hozirgi zamon Moxenjo-Daro (mahalliy so'zlashuv tilida "o'lganlar tepaligi" degan ma'noga ega) o'rni joylashgan manzilgohtar mavjud bo'lgan. Ikkala qadimgi shahardagi (va boshqa kichikroq shaharlardagi) uylar har xil shakl va kattalikdagi

pishiqlik g'ishtlardan qurilgan. Uylar bir-biri bilan zich tutashgan bo'lib, ko'p hollarda ikki qavatli bo'lgan.



Moxenjo-Daro shahri xarobalari

Shahar tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'lingan: Quyi shaharning turar joy dahalaridan qal'a (sitadel, harbiy inshoot) baland ko'tarilib turgan. Unda jamoat inshootlari va g'oyat katta don ombori joylashgan. Shaharning tartibli tuzilishi, bir-biri bilan to'g'ri burchak bilan kesishuvchi ko'chalar manzilgohni katta dahalarga ajratilganligi, shaharda yakka hokimiyat bo'lganligidan dalolat beradi. Metallardan yasalgan ba'zida katta mahorat bilan ishlangan buyumlar, shuningdek yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. Bularning hammasi Xarappa madaniyatini ibtidoiy madaniyatlarga emas, balki sivilizatsiya davriga tegishli deb hisoblash imkonini beradi.


Odatda "Xarappa sivilizatsiyasi" (ilk bor topilgan shaharlardan biri Xarappa shahri nomlanishidan olingan) deb nomlanadigan Hind shaharlari sivilizatsiyasidan qolgan narsalar, bu – xarobalar, savdo-sotiq doirasida tovarlarni identifikatsiyalash (aynan o'xshatish, tenglashtirish) uchun foydalanilgan tamg'alar to'plami hamda yozuvi haligacha o'rganilmagan.

Mazkur shaharlarni hokimlar boshqargan deb ehtimol qilish mumkin, chunki xarobalarda topilgan suratlardan biri - soqolli kishining haykali bo'lib, uning bosh kiyimi va yelkasida boy bezakli keng kiyimi bor, ko'zlari salgina yumilgan indamas kishi holatida tasvirlangan. Ehtimol, bu haykal topilgan joyning, ya'ni Moxenjo-

Daroning podshosi bo'lishi mumkin. Shaharda kazarmalar yoki xizmatkorlar uchun mo'ljallangan xonalarga o'xshash qator imoratlar bor, undan bu yerda podsho yoki ruhoniy-podshoga ishlarini bajaradigan xizmatkorlar doimiy tarkibi kerak bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Balki ushbu mamlakatda podsho umuman bo'lmagandir. Xarappa xarobalarida sodir bo'lgan hodisalarni saqlab qolgan na bironta yozuvli sopol sinig'i, na papiirusga yozilgan matnlar yoki boshqa yozuvlar topilmagan, yozuv tizimi (qanday bo'lishidan qat'iy nazar) ularni saqlab qolgan bo'lishi kerak edi. Shuning uchun kohinlar, podsholar yoki amaldorlar o'z ishlarini yozuvsiz qanday olib borganlarini tushunish qiyin.

Xarappa savdogarlari o'z shaharlaridan juda olislarda savdo qilganlar. Xarappa tamg'alari Sargon I hukmronligi davriga tegishli qadimgi Ur shahri xarobalaridan topilgan. Ehtimol, ikki qadimgi sivilizatsiyalar janubiy Arabistonda Magan konlaridan mis sotib olganda uchrashgan, so'ng, bevosita o'zaro savdo-sotiqni tashkil qilgan bo'lishi mumkin. Fors ko'rfazi qirg'og'idagi savdo yo'llariga yaqinroq joylashgan Ur shahri hind va akkad mollarini (tovar) almashish uchun qulay markaz bo'lgan. Hind savdogarlari o'z kemalarida shimoliy tekislikni to'sib turgan Kirtar tog'ini chetlab o'tish uchun Hind daryosi bo'ylab Arab dengiziga, ko'rfaz bo'ylab yuqoriga Ummonga, so'ng, shimolga Fors ko'rfazigacha, u yerdan esa Frotga suzib borganlar. Xarappaning xorijda savdo-sotiq olib boradigan manzili deyarli elamiylar hududida joylashgan Sutkagen-Dorda topilgan. Ko'rinishidan ikki madaniyat loqaqal savdo masalalarida do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlagan. Bir muncha vaqt Xarappa va Moxenjo-Daro mazkur madaniyatning yolg'iz ikkitagina shahri hisoblanib kelingan. Biroq, hozirgi vaqtda Xarappaning yetmishdan ortiq shaharlari aniqlangan, ular Hindning etagidan uning shimoliy irmoqlarigacha hamda Sutkagen-Dordan sharqroqda joylashgan o'lkadan sharqdagi Narmada daryosigacha deyarli uzluksiz zanjir singari joylashgan.

Bular tekis, keng yoyilib joylashgan bo'lib, loydan yasalgan va pechlarda pishirilgan g'ishtdan qurilgan. Uylar kamdan-kam hollarda ikki qavatdan ko'p bo'lgan, ko'chalarning kengligi ikkita arava to'qnashmay o'tib ketishi uchun yetarli bo'lgan.




Moxenjo-Darodagi marosim hovuzi qoldiqlari

Yirik shaharlar atrofida joylashgan omborxonalar, don omborlarining har biri taxminan oʻttiz ming odamning kun kechirishiga yetarli edi. Bu shaharlarda yashagan odamlar gigiyenaga katta ahamiyat bergan. Koʻchalar suv yetkazib berish va oqova suvlarni chiqarish (drenaj) puxta oʻylangan tizimi bilan taʼminlangan: uylar odatda yuvinish xonalari bilan taʼminlangan; katta shaharlarning ajoyib xususiyatlaridan biri – suzish uchun moʻljallangan basseyn kattaligidagi katta vannalar boʻlgan, ularning atrofida, kiyim almashtirishga moʻljallangan kichik xonachalar boʻlgan. Xarappa shahar va shaharchalari xarobalari ichida arxeologlar ehromligini aniq tan olish mumkin boʻlgan bironta bino topolmadilar.

Xarappa shaharlarining ajralib turadigan xususiyati - qalʼalari (sitadellari) boʻlgan, ular baland binolar guruhini tashkil qilgan, ularni devorlar va kuzatish minoralari oʻrab turgan. Biroq, odatda aksariyat uylar qalʼadan tashqarida, asosan sharq tomonda joylashgan. Butun shaharni loy gʻishtlardan qurilgan ikkinchi baland devor oʻrab turgan. Bu devorni dushmanlar buzib, yorib oʻtganda, aholi oxirgi xavfsiz tayanchi boʻlgan qalʼada yashirinishi mumkin edi.

Moxenjo-Darodan 48,2 km narida, Hindning narigi qirg'og'ida Kot-Diji sifatida ma'lum bo'lgan shahar bor. Madaniy qatlamlarni ehtiyotkorona ochish Xarappa madaniyatining ravnaq topishidan bir necha asrlar ilgari Kot-Diji devorlari doimo takrorlanib turgan hujumlar oqibatida yanada mustahkamlanganligini ko'rsatdi. Xarappa sivilizatsiyasi vujudga kelishining dastlabki yillarida bu devorlarni qayta qurganlar. so'ng, kuchli yong'in shaharni yer yuzidan yo'q qilgan, nafaqat devorlar, balki uylar ham yo'q bo'lib ketgan. Eski Kot-Diji ustidan yangi shahar qurilgan. Bu shahar keng ko'chalar, toshdan qurilgan zovurlar, vannali uylarga ega bo'lgan. Bu avvallari bu yerda joylashgan shaharga o'xshamagan Xarappaga tegishli shahar edi. Kot-Diji Xarappa shaharlari davrida bir madaniyatdan boshqasiga majburiy ravishda o'tishni ifodalovchi yagona joy bo'lmagan. Hind qirg'og'ida turgan Moxenjo-Darodan 161 km janubda Amrida joylashgan bo'lib, manzilgoh aholisining yarmisi uni tezkor ravishda tashlab ketgan. Eski xarobalar ustida Xarappaning ko'chalari keng, g'ishtdan yasalgan zovurlar va vannaxonalari uylarga ega tipik shahar qad ko'targan.

Kalibangandan shimolroqda, Xarappa yaqinida, yana bir eski va mustahkam shaharni aholisi tashlab ketgan. Uning xarobalari o'rnida ko'chalari keng, oqova suvlar uchun zovurlar va vannaxonalarga ega Xarappa shaharlaridan biri barpo etilgan. Bu yerda harbiy harakatlar izlarini topish qiyin. Biroq, taxminlar Xarappa sivilizatsiyasining rivojlanishi har doim ham tinchlik-osoyishtalik bilan kechmaganidan darak beradi.



**Moxenjo-Darodan
topilgan muhr**

Juda katta hududda joylashgan Xarappa shaharlari hayron qolarli darajada bir xildir. Ular go'yoki yagona rejaga asosan qurilgan: qal'a (sitadel) turar joy dahalaridan ajratilgan va ularga nisbatan g'arb tomonda joylashgan. Uylar va do'konlar yoki "quyi qishloq" rejasi batartib tuzilgan ko'chalar bo'ylab qurilgan. Ko'chalar muqarrar ravishda to'g'ri shimoldan janubga yoki g'arbdan sharqqa yo'naltirilgan.

Xarappaning ma'naviy madaniyatiga xos asosan ko'p sonli qisqa iyeroglifik yozuv yoki tasvirli tosh tamg'alar (yoki ularning loyga tushirilgan nusxalari) topilmalari bizgacha yetib

kelgan. Nafis ishlangan boʻrtma naqshlarda (relyeflarda) muqaddas hayvonlar va daraxtlarga sajda qilish manzaralari, shuningdek, mitologik syujetlarni koʻrish mumkin. Toʻrt hayvon qurshovida katta ohxli “yoglar qiyofasida” oʻtirgan iloh ayniqsa katta qiziqish uygʻdiradi. Loydan yasalgan aksariyat ayollar qiyofalaridan xulosa qilish mumkinki, bu yerda koʻpincha hosildorlik bilan bogʻlanadigan va ularga bagʻishlab chiroqlar yoqiladigan ilohalar marosimi ham rivojlangan. Moxenjo-Daro qalʼasida (sitadel) topilgan suv havzasi diniy marosimlarda poklanish uchun xizmat qilgan.

Hayvonlar va daraxtlar, ona-ilohalarga topinish, diniy marosimlar bilan bogʻliq tahorat amaliyoti kabilar hozirgi zamon Hindistonning xalq dini - induizm xususiyatlarini eslatadi, bu esa Xarappa merosi taqida soʻz yuritishga imkon beradi.

Mil. avv. taxminan 1750 va 1700-yillar oraligʻida Moxenjo-Daro aholisi oʻz uylarini tashlab keta boshlaydi. Ularning hammasi ham jon saqlab qololmaydi. Arxeologik qazish ishlari davomida koʻchalarda koʻmilmagan holatda yotgan suyaklar (skeletlar) topilgan: butun boshli oila oʻz xonadonida oʻldirilgan va yerga koʻmilmasdan tashlab ketilgan. U yoki bu yerda yonib, qulab tushgan uylar uchraydi. Qochib ketayotgan aholi qimmatbaho buyumlarini (uy-roʻzgʻor anjomlari, zargarlik buyumlari va kumush) shoshilinchda tashlab ketgan. Xarappaning shimolida ham xuddi shunday ahvol kuzatiladi. Xarappaning kichik aholi yashaydigan joylarida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari bunday yorqin manzarani bermaydi — biroq, shubhasiz, Xarappa sivilizatsiyasi yoʻq boʻlib ketgani aniq.

Xarappaliklar dushmanning bostirib kelishi natijasida yoʻq boʻlib ketgan emas. Xarobalarda tashlangan qurollar, qurollangan tanalar, shuningdek muntazam ravishda uylarning buzilganligi, shahar mudofaa istehkomlari atrofida jang, kurash alomatlari boʻlmaganligini koʻrsatadi.

Toshqin aholi ustiga toʻsatdan va shiddat bilan bosib kelgan boʻlishi kerak. Arxeologik maʼlumotlarga qaraganda, Hind daryosi tadimgi sivilizatsiyalar hududlaridan oʻtib boradigan boshqa daryolar kabi muntazam ravishda toshgan va oʻzidan keyin hosildor tuproqlar qoldirgan. Lekin bu toshqinlarni oldindan bashorat qilib boʻlmas edi.

Xarappa shaharlarida aniqlangan vayronagarchiliklarni faqat mudofaa devor balandligidagi toʻlqin keltirib chiqargan. Hidrolog R.I. Reykening taxmin qilishicha, Hind oqimi boʻylab Xarappadan

yuqorida suv osti cho'kindilaridan yuzaga kelgan to'g'on (suvto'sgich), bir qancha vaqtgacha toshqinni to'xtatib turgan, buning oqibatida dalalar hosildorligi kamaygan. Shaharda qahatchilik yuzaga kelgan. so'ng, yig'ilib qolgan suv to'g'onni buzib, quyi shahar tomon oqib borib, shaharni suv bosadi.

Sivilizatsiyaga qandaydir tabiiy ofat yopirilgan, buning oqibatida ichki qarama-qarshiliklar boshlangan, degan farazni qabul qilishga to'g'ri keladi. Suyak qoldiqlarini o'rganish tufayli o'sha davr odamlarida kasalliklar borligi aniqlandi, aksariyatida kuchli kamqonlik izlari topilgan – ehtimol, bu ovqatni to'yib yemaganlik oqibati bo'lishi mumkin. Loy g'ishtlardan qurilgan binolarni isitish uchun ko'p miqdorda o'tin kerak bo'lgan. Shaharlar kattalashib borgan sari quruvchilar yangi yer maydonlarini o'rmonlardan tozalashi kerak bo'lgan. Shaharlar buzila boshlagandan so'ng, Xarappa ijtimoiy tizimi ushbu jarayonni to'xtata olmagan.

Aholi anchagina kamaygan – lekin shunga qaramasdan shaharlar butunlay huvillab qolmagan. Odamlarning bir qismi shaharda qolgan, yana bir qismi qaytib kelgan yoki besaranjomlikning o'tishini shahar atrofidagi qishloqlarda kutib turgan. Xarappa ustida yotgan madaniy qatlamlarning arxeologik qazish ishlari turmush sharoitlarining past darajada bo'lganligini ko'rsatdi. Bu haqda kulolchilik buyumlarining qo'pol ishlanganligi, shaharning murakkab zovurlar hamda chiqindi suvlarni oqizish (kanalizatsiya) tizimlarini tiklash yoki ulardan foydalanishga urinishlar bo'lmaganligi guvohlik beradi. Arxeologlar bu qatlamni qo'pol kulolchilik buyumlari ishlab chiqarilgan qishloqqa bag'ishlab post-Xarappa (Xarappadan keyingi) yoki Jxukar madaniyati deb nomlaydilar.

Biroq unda tartiblilik asosi yo'q. "Jxukar madaniyati"ni ko'proq Xarappa sivilizatsiyasi tugallangandan so'ng, Xarappa xarobalarida yashab kelgan odamlar tashkil qiladi deyish mumkin. Albatta, Hindistonga shimoldan ham bosqinchilar kelgan – lekin ular mil. avv. 1575-1500-yillargacha paydo bo'lmagan. Ular Elamdan sharqda va Hindiston (hozirgi davrda Hindiqush nomli) tog'laridan shimolda ko'chib yurgan ko'chmanchilar edi. Pirovardida ular dovonlardan oshib Hindning yuqorisidagi vodiylarda tarqaladilar. Ko'chmanchilar adabiyotida Hindistondagi ular ilk bor ko'chib borgan joy "Yeti Daryo O'lkasi" deb nomlangan.

Ular harbiy sardorlar boshqargan kezib yuruvchi guruhlar bo'lgan. Shuning uchun ular hech nima qurmagan: ularning na yozuvi, na san'ati bo'lgan; ularning tilida "omoch" yoki "yanchish" kabi qishloq xo'jaligiga tegishli atamalar bo'lmagan.


Biroq, ular qo'lidan kelgan eng yaxshi ish jang qilish edi. Ular o'sha davrning eng mukammal quollariga - nafaqat otlar, balki, shuningdek, jang (yoki poyga) aravalari, bronzadan ishlangan boltalar, otish masofasi xarappaliklar foydalangan yoylardan ustun turgan katta yoylarga ega edi.

Ushbu harbiy texnika yangiliklari ularga xuddi Misrda cho'l-tekisliklardan kelgan giksoslar singari dushmanlar saflarini yorib o'tishga yordam bergan.

Biroq ular Hind vodiysini darhol zabt etishga kirishmadilar, janub va sharqqa tomon safarga jo'nashdan avval Yetti daryo hududida kamida bir asr davomida yashadilar. Ular quyiga, Xarappa shaharlari tomon yo'l ochgan vaqtda mahalliy sivilizatsiya barbod bo'lib, yo'q bo'lib ketgan edi. Balki, o'sha vaqtda shu yerda yashagan odamlarning tarqoq guruhleri qarshilik ko'rsatgan bo'lishi mumkin, lekin ko'chmanchilar uyushgan qarshilikka duch kelmagan. Ko'chib kelgandan so'ng, ular bo'sh turgan xonadonlardan foydalandilar, chunki ular umuman o'zlari uchun uy qurmaganlar, ularning tilida "qurilishga oid qorishma, loy" tushunchasiga to'g'ri keladigan so'zlar ham yo'q edi.

Ko'chmanchi qabilalar madaniyati nafis va yuqori darajada tashkil qilingan Xarappa sivilizatsiyasining o'rnini bosdi, ularning texnologiyalari ancha past bo'lgan, ular davlatni boshqarish tajribasiga ega bo'lmagan, lekin notanish muhitga osonlik bilan moslashish qobiliyatiga ega edilar.

Keyinchalik ushbu istilochilar avlodlari o'zlarini oriylar deb nomlay boshladilar – ushbu so'zning ingliz tiliga tarjimasida kamida yettita turli ma'noga ega, "xurmatli" dan boshlab to takabburona "zotli" ("toza") gacha. Shunday qilib, shimolda tarqalgan oriylar madaniyati yo'q bo'lib ketgan xarappaliklar dunyosiga xos bo'lgan madaniy rishtalar bilan chatishib ketadi.



Veda davri

Hind sivilizatsiyasidan bevosita keyingi davrga kelsak, bu davrlar o'rtasida amaliy jihatdan vorislik (vorisiylik) deyarli yo'q desa ham bo'ladi. Mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikning birinchi yarmi oralig'ida yaratilgan adabiy yodgorliklarga asosan ushbu davr Veda davri deb ataladi. Chunki vedalar ushbu davrni o'rganishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Manbalar toifasining almashinishi,

ya'ni arxeologiyadan birdaniga qiyosiy tilshunoslik va mifologiya ma'lumotlariga o'tish ikki davr o'rtasidagi ko'zga tashlanadigan keskin farqni kuchaytiradi.

Vedalar – oriylarning hind guruhi (hind oriylari - indoariylar) yaratgan muqaddas adabiy yodgorliklaridir. Tili va mifologiyasi bo'yicha ular Avestoga juda yaqin turadi. "Veda" so'zining o'zi ruscha "vedat", ya'ni "bilish" (bunda gap sirli, muqaddas bilim to'g'risida ketmoqda) so'zi bilan bog'liq hisoblanadi. Vedalarning to'rt asosiy to'plami va ularga qilingan son-sanoqsiz sharhlar matnlari saqlanib qolgan bo'lib, asosiy mazmuni diniy marosimlar bilan bog'liqdir. Sharhlar keyingi davrlarning Vedalarga asoslangan adabiyotlar tarkibini tashkil qiladi.

Vedalarning eng qadimgisi – Rigveda (asl ma'nosi «madhiyalar vedasi») oriylar xudolariga bag'ishlangan madhlardan tarkib topgan. Uning asosiy qahramoni – Indra xudosi, u o'zining asosiy jasoratini sodir etadi: momaqaldiroq singari quroli - vajra bilan shaklsiz va dahshatli, samoviy suvlarni (bu suvlar sigirlar podasiga qiyoslanadi) ushlab turadigan yovuzlik timsoli (iblis) Vritrani sanchib nobud qiladi. Indra g'alaba qozongandan so'ng, suvlar shiddat bilan oqadi, sigirlar suvloqlar tomon yuguradi. Koinotdagi tartibsizlik o'rnini Samoviy Tartib egallaydi - u yangi davr tugaguncha davom etadi, so'ng, yovuzlik timsoli (iblis) baquvvat qo'lida vajrani ushlab, aravasida yeldek uchib borayotgan yorqin xudo tomonidan yana yengilishi kerak.

Hind oriylar (indoariylar) buyuk xudolaridan yana donishmand hakam, koinot Haqiqati – Ritaning asrovchisi Varunani ham ko'rsatib o'tish kerak.

Veda adabiyotiga binoan, indoariylar yarim ko'chmanchi turmush kechirganlar, yirik qoramol boqib, ko'paytirganlar va yaylovlar qashshoqlanguncha o'sha joyda qo'nim topib turganlar. Ularning moddiy turmushi murakkab bo'lmagan, shuning uchun arxeologlar hozirgacha ular harakat qilgan joylar izlarini topishga qiynaladilar. Oriylar ijtimoiy munosabatlari patriarxal urf-odatlariga qurilgan edi: Xarappa aholisi madaniyatidan farqli o'laroq indoariylar xudolarining g'oyat katta panteonida ayol ilohlar deyarli yo'q deyish mumkin.

Oriylarning o'zleri o'tovlar yoki mustahkam bo'lmagan kulbalarda yashagani uchun o'z xudolariga ham ehromlar qurmaganlar, shuningdek ularning tasviriga – but (sanam)larga ham

ega bo'lmaganlar. Chunonchi, Rigveda madhiyalarida xudolarning alohida odamsimon (antropomorf) jihatlari aks ettirilgan, lekin bular sof she'riyatga xos obrazlardir ("Indraning baquvvat qo'llari", "quyoshli xudoning tillo sochlari"). Xudolar deyarli mavhum tarzda idrok etilgan. Qurbonliklar olov mehrobida qilingan bo'lib, xudolar olovga tashlangan go'sht, yog', sut, arpa yoki bug'doy urug'lari hidiga to'yinar ekan.

O'zlarini oriylar deb nomlagan qabilalar Hind bo'ylab, tog'lardan janubroqda tarqaladilar va quruqlikning asosan g'arbida jamlanganlar. Aftidan ular mahalliy aholi bilan aralash nikohlar qilganlar. Hududga kirib kelganidan uch yuz yil keyin oriylar ko'proq yo'q bo'lib ketgan Xarappa sivilizatsiyasi madaniyatiga mos bo'lgan turmush tarzini tanladilar. Asta-sekin o'tmish xotiralar yo'q bo'lib boradi.

Oriylar o'z hayotlariga tegishli izlar qoldirmaganlar, lekin mil. avv. 1200-yillar atrofida ular o'zining yangi, o'z afsonalariga ega o'troq xalq sifatidagi timsolini anglab boradilar.

Ularning tilida yozilgan hind matnlar to'plamlaridan eng qadimiysi "Rigveda"dir. Qadimiy dostonlarning aksariyati singari u ham gulxan yoki o'choq atrofida o'tirib so'zlab beriladigan og'zaki shaklidan ancha keyin yozib olingan, shunga qaramasdan ushbu she'rlar oriylar o'zlari uchun qurgan dunyosiga nazar tashlash imkonini beradi.

"Rigvedaning" keyingi nusxalari paydo bo'lishi davriga kelib oriylarning kohinlari xudolar bilan muloqot qilish bo'yicha mutaxassis bo'libgina qolmay, balki nasldan naslga o'tadigan mutaxassislar sinfiga aylandilar. Kohinlarning o'g'illari kohin bo'ladilar va boshqa kohinlar qizlariga uylanadilar. "Rigveda" madhiyalari oriylarning ilk bor yozib olingan matnlari edi, kohinlari esa – ularning haqiqiy ilk aslzodalari bo'lgan.

Hind xudolari bu tabiat xudolaridir, og'ir sharoitlarda yashagan yoki jo'shqin daryolar bo'yida hayot kechirayotgan barcha xalqlarning xudolari shunday tabiat xudolari bo'lgan: Varuna – osmon xudosi, Ratri – qorong'ulik ruhi, Agni – olov xudosi, Parjana – "daraxtlarni sindiruvchi" hamda sigirlar, otlar va odamlarga suv quyuvchi yomg'ir xudosi, Mitra - quyosh xudosi va Indra – tartibsizlikni tinchlantiruvchi va xudolar panteonidagi bosh xudo, u "qimirlab turgan yerni mustahkam qiluvchi, tog'lar tebranganda, ularni tinchlantiruvchi... U otlar, qishloqlar va barcha harbiy aravalarni idora qiluvchisidir".

Chamasi “Rigvedaning” ilk madhiyalari davri nafaqat kohinlar sinfi, balki jangchi-aslzodalar sinfining, shuningdek, hukumat tepasida turuvchi va hokimiyatni otadan o‘g‘ilga beruvchi yuqori tabaqalarning shakllanish davri bo‘lgan. Lekin bundan ortiq bir narsa deyish qiyin, chunki hali ushbu kohinlar va lashkarboshilar ismlari keltirilmaydi.

Jamiyatda Braxman bir qator ustunliklarga (imtiyoz) ega bo‘lgan. Unga hechkim zulm o‘tkazmasligi, tahqirlashi va unga jismoniy jazo berilishi mumkin emas: aks holda qilingan qurbonlik befoyda bo‘ladi, sudolar uni qabul qilmaydilar. Bundan tashqari, braxmanni xafa qilish xavfli, chunki jahl ustida butun dunyoni yondirib yuborishi mumkin. Braxmanlar bilimlari avloddan avlodga uzatilgan, buni muqaddas matndan voqif bo‘lmagan kishilar qo‘liga tushmasligi va harom qilinmasligi maqsadida og‘zaki shaklda amalga oshirganlar. Olim-braxman atrofida doim shogirdlar bo‘ladi, ular balog‘atga yetguncha uning uyida yashaydilar, ustoz-gurusiga xizmat qiladilar va undan matnlar ulkan hajmini o‘rganadilar, yod oladilar (ushbu Veda yodgorliklari bosma shaklda nashr qilinganda, minglab betlarni tashkil qiladi). Bunda Vedalar yaratilgan davrda va keyingi davrlarda yaratilgan va yod olinishi lozim bo‘lgan matnlar tili o‘ziga xos, “soflangan” til (sanskrit) edi. Uni o‘zgartirish mumkin emas edi, shuning uchun aholi foydalangan jonli so‘zlashuv tillaridan tobora farq qilib borardi.

Braxmanlardan keyingi ikkinchi yopiq va nasldan naslga etadigan guruhni (hindlar bunday guruhlarni “varna” deb nomlaganlar) kshatriylar – qabila to‘ralari (knyaz) va ular atrofidagi podagonlar tashkil qilgan. Keyingi Veda davri uchun shon-sharaf katta ahamiyat kasb etgan. Qabila boshliqlari o‘z qo‘shini bilan doimo qo‘shnilariga hujum qilganlar. Biroq, ular qo‘lga kiritilgan o‘ljani o‘g‘ib o‘tirmay, bir necha kun davom etadigan qurbonliklar va quyuq ziyofatlarga sarflaganlar. Shu yo‘sinda qabila boshlig‘i-podshoning shon-sharafi ortib borgan: uning tarafdorlari ko‘payib borgan, atrofida to‘g‘ilgan va u yana o‘lja uchun yo‘lga chiqardi. Uning tub maqsadi annat saodatining garovi bo‘lgan “koinotni zab etish” edi.

Uchinchi tabaqa-kasta (varna) toifasiga qabila jamoasining to‘la huquqli vakillari – vayshilar kirgan, ular chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan mustaqil uy xo‘jaliklari xo‘jayinlari edi.

Yuqorida keltirilgan uch varna Veda bilan bog‘liq kultda (diniy marosimlarda) ishtirok etish va Veda matnlarini o‘qish huquqiga ega

boʻlganlar. Ular bu huquqqa avvalo nasl-nasabi boʻyicha ega boʻlganlar, lekin buning oʻzi yetarli emas edi. Olti-yetti yashar oʻgʻil bolalarni otalari guruga olib borganlar, u bagʻishlash marosimini oʻtkazgan: Veda duolarini oʻqib, yelkasiga oʻziga xos muqaddas bogʻich (tasma) ilib qoʻyadi. Shu ondan boshlab, bolalar “ikkinchi marta tugʻilgan” hisoblanar edilar.

Aksincha toʻrtinchi varna vakillari – shudralar hech qanday vaziyatda “ikkinchi marta tugʻilish” marosimidan oʻtishi va Veda kultida ishtirok etishi mumkin emasdi. Barcha begonalar va toʻla huquqli boʻlmaganlar shudra hisoblangan, yaʼni batrak yoki xizmatkor sifatida boshqalar uchun ishlaganlar, shuningdek, hunarmandlar, chunki hunar xizmat koʻrsatishning bir koʻrinishi sifatida koʻrilgan. Tabaqa-kasta tuzumining shakllanishi, shubhasiz, Hindistonda indoariylar paydo boʻlishidan oldin boshlangan.

Kshatriylar davlatlarining shakllanishi. Buddaviylik davri

«Mahabhorat»dagi afsonaviy janglar mil. avv. VI asrning oʻrtalarigacha Hindistonning jangovar urugʻ-aymoqlari jang qilgan, savdo qilgan va podsholiklar koʻrinishidagi yarim barqaror ijtimoiy tuzilmalar haqida hikoya qiladi.

Ushbu podsholiklarning oʻn oltitasi buddaviylik ogʻzaki anʼanasida saqlangan va keyingi davrlarda yozib olingan afsonalarda tilga olingan.

Ular ichida Kuru, Gandxar va Panchala davlatlari – Bxarata urushida jang qilgan qadimiy urugʻ-aymoqlar ildizlaridan oʻsib chiqqan podsholiklar: uzoq janubda, Vindxya va Satpura togʻ tizmalaridan quyida, Dekan nomi bilan maʼlum boʻlgan quruq yassi togʻda (platoda) joylashgan Ashuaka davlati hamda Gang daryosining burilgan joyidan quyida joylashgan Magadxa davlati hisoblanadi.

Oʻn oltita podsholik «maxajanapada» deb nomlangan boʻlib, bu soʻzning ildizlari yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi oriyalar koʻchmanchi jangovar urugʻ-aymoqlari oʻzlarini “jana” (sanskritda – “qabila”) deb nomlaganlar, Gang daryosi vodiysiga koʻchib borib oʻrmasgan va ushbu yerlarni oʻziniki deb eʼlon qilgan jangovar urugʻlar bu soʻzni uzaytirib, oʻzlarini “janapada”, yaʼni “yerli qabilalar” deb nomlay boshladilar. Oʻn oltita maxajanapada yoki «buyuk janapada» yerli qabilalar boʻlib, boshqa qabilalarni

o'ziga singdirib yuborib podsholiklarga aylangan. Ushbu podsholiklarda podsho, uning qarindoshlari va uning jangchilari hukmron, hokimiyat tepasida turuvchi urug' bo'lib qoladi. Hukmron urug'da tug'ilgan odam "kshatriy" hisoblangan va uning hokimiyat tepasida turgan elitaga mansublik huquqi bo'lgan.

Kshatriylar siyosiy hokimiyatga, kohinlar esa o'zgacha kuch-qudratga ega edi. Oriylar janubga, Hindistonga ko'chib borganlardan so'ng, ibodatlar va qurbonliklar ular kundalik hayotining ajralmas qismini tashkil qila boshladi: «Indra o'z yordamini qurbonlik qilganlarga ko'rsatadi, - deyilgan "Rigveda" madhiyalarining birida, - madhiyalar ijro etganga, qurbonlik qilinadigan taomni tayyorlaganga, muqaddas so'zlarni aytib o'zini mustahkam qilganlarga va ibodat qiluvchi ruhoniylarga tortiq qiluvchilarga yordam beradi. Bu, ey odamlar, Indraning o'zidir». Xarappaliklar va boshqa mahalliy qabilalar odatlari elementlari bilan aralashgan oriylarning qadimgi diniy amaliyotlari keyingi davrlarda shakllangan induizm diniy amaliyotlari qadimgi shakllarining negizini tashkil qilgan. Qurbonliklarni amalga oshirgan kohinlar hind jamiyatining ilk aslzodalari bo'lgan va o'n oltita maxajanapalarda o'z ta'sirlarini saqlab kelganlar. Hukmron kshatriylar singari kohinlar o'z guruhlarini tashkil qilganlar: ruhoniylar oilasida tug'ilish - "braxman" bo'lishni va qurbonliklar qilish imtiyozini meros qilib olishni anglatgan. Jamiyatning ushbu uch qismga bo'linishi – ruhoniylar, lashkarboshilar va qolgan boshqalar (ular "vayshilar" ya'ni "oddiy odamlar" deb nomlangan) – qadimgi vaqtlarda tez-tez uchrab turgan hol edi. Lekin Hindistonda ruhoniylar qolganlar ustidan hukmronlik qilganlar.

Aksariyat boshqa qadimgi jamiyatlarda boshqaruv tuzilishi tepasida podsholar va jangchilar (harbiylar) turgan. Lekin braxman cheklanmagan hokimiyatga ega edi. O'n olti podsholik davrida kshatriy bo'lib tug'ilmagan inson, ruhoniylar hokimiyatni berish marosimini o'tkazgan holda, podsho bo'lish imkoniga ega edi, lekin braxman bo'lib tug'ilmaganlardan hech qaysi kishi kohin ishini bajarishi mumkin emas edi. "Manu qonunlari" deb nomlangan keyingi davrlarda hind tilida yaratilgan matnga ko'ra, braxman umuman barcha yaratilgan tartiblarning "xo'jayini" ("janobi", "sohibi"), odamlarning eng a'losi edi: "u tirik mavjudotlarning yerdagi eng oliy "xo'jayini" ("janobi", "sohibi"), qonunlar butunligining himoyachisi bo'lib tug'ilgan; dunyoda mavjud barcha narsalar braxmanning

mulki... Ha, braxman hamma narsaga huquqli”. O‘n olti podsholik davriga kelib ko‘chmanchilar o‘rtasida muhim ahamiyat kasb etgan hayvonlarni qurbon qilish odati Hindistonda shahar aholisining ko‘payishi bilan birga asta-asta yo‘q bo‘lib boradi. Lekin “yerda eng olijanob kishi bo‘lib tug‘ilganlar” qo‘lidagi hokimiyatning cheklanishi ehtimoldan uzoq edi.

Ruhoniylarning muhimligi harbiylar urug‘-aymoqlari (guruhlari) ongiga shunday singdirilgan ediki, ishini yo‘qotishdan uzoqda turgan braxmanlar – markaziy rolini saqlab kelgan. Endi qurbonlik qilmasdan ular qonsiz marosimlarni to‘g‘ri o‘tkazilishini boshqaradilar, chunki bu marosimlar qurbonliklar o‘rnini egallaydi: marosimlar kech kirish paytida uy o‘chog‘ining alangasiga bag‘ishlangan, shuningdek, avliyolarga ham bag‘ishlangan, ya‘ni ularning yaxshi ko‘rinishi ta‘minlangan; to‘ylar va dafn marosimlarini o‘tkazishdan iborat bo‘lgan.

Aftidan O‘n olti davlatlar atrofida o‘n olti maxajanapadadan biriga qo‘shilishga qarshilik ko‘rsatayotgan qabilalar halqasi ham mavjud edi. Podsholiklardan biriga qo‘shilish o‘rniga ular gana-sangxa deb nomlangan mustaqil ittifoqlar tuzadilar.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha gana-sangxa qabilalari oriyalar avlodlari bo‘lmagan, ularning ildizlari jangovar qabilalar kelishidan avval Gang vodiysida yashagan aholiga borib taqaladi.

Gana-sangxa qabilalarida atigi ikki turdagi odamlar bo‘lgan: yerning asosiy qismiga egalik qilgan hukmdor oilalar hamda ularga xizmat qilgan xizmatkorlar va qullar. Muhim qarorlarni (urush boshlash, boshqa urug‘lar bilan savdo qilish, alohida dala maydonlaridagi irrigatsiya tizimida suv berishni to‘xtatish) hukmdor oila boshliqlari qabul qilganlar va bunda xizmatkorlar umuman ovoz berish huquqiga ega bo‘lmaganlar.

Maxajanapadalarning ham ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan xizmatkorlari bo‘lgan. Bular to‘rtinchi nav (sort) odamlar bo‘lgan: hukmdor kshatriylar yoki kohin braxmanlar emas va hatto dehqonlar singari ishchilar, kulolchilar, duradgor yoki quruvchi ustalar kabi oddiy vayshi ham emas edi.

Mazkur ijtimoiy bo‘linishlarga (ierarxiyalarga) qarshi ovozlilar ilk bor gana-sangxa tomonidan chiqdi. Taxminan mil. avv. 599-yilda Ganga vodiysining shimoli-sharqida gana-sangxalar o‘rtasida vriyya sifatida ma‘lum qabilalar ittifoqida islohotchi Nataputta Vardxamana

tug'ildi. U jantrika qabilasidan kelib chiqqan shahzoda va boy odam, hukmdor o'g'li bo'lgan.

Vardxamana izdoshlari guvohligiga ko'ra, uning islohotlari 569-yilda yoshi o'ttizda bo'lganda boshlangan. Dastlab u boylikdan va kelib chiqishi bilan bog'liq imtiyozlaridan voz kechdi, o'zini bitta ko'ylakdan boshqa barcha mol-mulkidan mahrum qildi hamda o'n ikki yil sukut saqlaydi va zikr tushadi. Ushbu bosqichning oxirida kohlinalardan xoli hayotni ko'rishga muyassar bo'ladi: uning koinotida araxmanlar yo'q edi. Insonning yashashdan maqsadi ruhoniylar vositachiligida xudolar bilan bog'lanish emas edi. Shuningdek, induizm ko'rsatmalari bo'yicha turli majburiyatlarni bajarish uchun tug'ilgan inson ularni bajarish orqali xudolarni xursand qilishi shart emas edi.

Inson moddiy dunyoga bog'lab turadigan ehtiroslarini (baxillik, shahvat, yeb to'ymaslik) rad etish orqali moddiylik zanjirlaridan qutulishi kerak. Taxminan m.a. 567-yilda u Hindiston bo'ylab oyoq yalang sayohat qiladi va odamlarga besh tamoyilni o'rgatadi, bular: «axisma» — barcha tirik mavjudotlarga jabr-zulm qilishdan voz kechish (hayvonlar huquqlari uchun kurashning ilk namunasi); «satya» — rostgo'ylik; «asteya» — har qanday ko'rinishdagi o'g'rilikdan o'zini tiyish; «braxmakxarya» — shahvoniy lazzatdan voz kechish; va «aparigraxa» — barcha moddiy narsalarga befarq bo'lish (ushbu holatni bittagina ko'ylagini yechib, yo'lini yalag'och davom ettirish orqali namoyish etgan). Uning atrofida izdoshlari to'plangan, va buyuk ustoz sifatida Nataputta Vardxamana "Maxavira" (Buyuk Qahramon) bo'lib tanildi.

Uning g'oyalaridan birontasi yangi bo'lmagan. Induizmnng asosiy yo'nalishi ham moddiy dunyodan turli yo'llar bilan ozod bo'lishni o'rgatgan. Maxavira novator (yangilik yaratuvchi) emas, balki mavjud diniy amaliyotlarning islohotchisi bo'lgan. Biroq, uning inson o'zini-o'zi rad qilishining zaruriyatini va barcha tirik mavjudotlarni hurmat qilishning shartligini tushuntirishi juda ko'p izdoshlar to'plash uchun yetarli darajada ishonarli, asosli bo'lgan. Uning ta'limoti jaynizm, izdoshlari esa jaynlar sifatida mashhur bo'lgan.

Bir necha yildan so'ng, yana bir novator (yangilik yaratuvchi) paydo bo'ladi, u bu gal maxajanapadalardan tashqarida, lekin xuddi shunday gana-sangxa qabilalaridan biridan tug'ilgan. Nataputta

Vardxamana singari bu dunyoga hokimiyat va pul uchun kelgan. Lekin u ham hayotidagi imtiyozlardan taxminan o'ttiz yoshligida voz kechib, o'zini o'zi ixtiyoriy badarg'a qilgan. U ham faqat o'z ehtirosi, nafsi, istaklarini rad qila oladigan insonlar haqiqiy ozodlikni topa oladi degan xulosaga keladi.

Hindshunoslik adabiyotida mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmini- urbanizatsiya davri, buddaviylik yoki magadxa-maurya davri deb turlicha nomlaydilar. Mazkur nomlanishlar ushbu davrning qandaydir muhim o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Qadimgi Hindiston oriylar migratsiyasidan so'ng, uzoq vaqt qabilaviy urug'chilik tuzumida yashadi. Hind-Yevropa tilida so'zlashuvchi ko'chmanchi qabilalar migratsiyasi qariyb to'rt asr davom etgan edi. So'ngra, kasta tizimi o'rnatila boshladi. Natijada davlatlar paydo bo'ldi, ammo ular avvalgi hind shahar-davlatlarga kam o'xshar edi. Mil. avv. I ming yillikda Hindiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Arxeologik va yozma manbalarning ta'kidlashicha, mil. avv. VI-V asrda tarqalgan budda dini asoschisi Siddxartxa Gautama taxminan hozirgi Nepal hududida joylashgan, uncha katta bo'lmagan aristokratik shak'yalar (sak) urug'idan bo'lgan. Afsonalarga ko'ra Siddxartxa Gautama shakllarni kichik bir kshatriy rojasi Shuddxodana va malika Maxamaya oilasida dunyoga kelgan. Otasi unga Siddxartxa (yani "oz maqsadiga erishgan") degan ism qo'yadi. Asita degan darvesh yosh Siddxartxani kelajakda buyuk podsho (chakravartin) yoki buyuk avliyo bo'lishini bashorat qilgan edi. Siddxartxa Gautamani xolasi Maxa Prajapati tarbiya qiladi. Otasi uni 16 yoshida malika Yashodxaraga uylantiradi va ulardan o'g'il farzand Raxul dunyoga keladi. U 30 yoshga to'lgach jilovbardori Channa bilan saroydan tashqariga chiqishadi. Saroy tashqarisida u qashshoq cholni, kasal odamni, dafn marosimini va darveshni ko'radi. Shundan so'ng, uning hayoti o'zgarib ketgan. Siddxartxa Gautama tarki dunyo qilib o'zini anglash yo'lini tanladi. Uni hayoti to'g'risida "Budda charita"(buddaning hayoti), "Ashvagxoshi", "Lalitavistara" va boshqa manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ammo, bu kabi asarlar budda vafotidan 400 yil keyin paydo boshlagan edi.

Mazkur davr buddaviylik davri deb nomlanishining sababi Hindiston oldingi Vedalar-braxmanlar dinidan voz kechganligida emas, balki o'sha davr tarixchisi buddaviylik bilan bog'liq

ma'lumotlardan keng foydalangan. Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida mamlakatda oldingi dinlardan ahamiyatli darajada farq qilgan qator diniy o'qimlar paydo bo'ladi. Ulardan asosiysi buddaviylik edi, u keyingi davrlarda jahon dinlaridan biriga aylangan.

Buddaviylikda yangi dinning eng muhim elementlarini qamrab olgan "uch qimmatbaho unsur" tushunchasi mavjud. Ular – Budda, dxarma va sangxa.

Rivoyatlarga asosan shahzoda Sidxartxa Gautama uzoq davom etgan izlanishlardan so'ng, haqiqatga va osoyishtalik, ravshanlikka erishadi (Budda bo'ladi). Oldingi vedalar-braxmanlar dinidan (shuningdek Qadimgi Misr va Mesopotamiya dinlaridan) farqli o'laroq va zardushtiylik, xristianlik, islom dinlari singari buddaviylik o'zining asoschisini (ma'naviy ustozni yoki payg'ambarini) biladi. Sidxartxa-Buddaning tarjimai holi asta-sekin rivoyat, avliyo haqidagi qissaga aylanadi.

Mil. avv. VI asrda Gang va Hind daryolari oralig'idagi hududlarda temir qurollarning keng tarqalishi irrigatsiyani rivojlantirdi va ko'p hosil olish imkoniyatini oshirdi. Mamlakatning shimoliy-sharqida asosiy dehqonchilik ekini sholi bo'lib qoldi.

Bu davrda Shimoliy Hindiston hududidagi shaharlarda aholi soni ko'payib bordi. Tovar-pul munosabatlari asosan ayirboshlash usuli bilan amalga oshar edi. Hatto bu davrda tanga zarb qilina boshlagan. Taxminan mil. avv. 550 yillarga kelib Hindistonni Sharqida Magadx shahri yuksala boshlagan. Aynan Magadxada buddaviylik dini davlat mafkurasiga tasir o'tkaza boshlaydi. Davlatning hududi hozirgi Patna, Jahonobod, Nalanda, Aurangbad, Arval Navada va Gaya, janubda Bixar hamda sharqda Bengaliyagacha borib taqalgan. Shimolda Ganga daryosi uning chegarasi hisoblangan. Aynan Magadxada Budda Siddxartxa Gautama hayotini katta qismini o'tkazgan. Mil.av. 543 yili Magadx davlati taxtiga Xaryanka sulolasidan bo'lgan Bimbisara chiqadi. Uning yangi qadimgi poytaxti Rajagrix shahri edi. U qo'shni Anga davlati podshosi Braxmadattani urushda engib, uning poytahti Champeni egallaydi. O'g'li Adjatashatrani Angaga noib etib tayinlaydi. Koshala davlati malikasiga uylanib Varanasi yerlarini olgan. Natijada Koshala davlati bilan urush tugashiga olib keladi. Bimbisara nikoh diplomatiyasini qo'llab yana Vaysh knyazligi malikasi Lichxaviga va Madra davlatini hukmdorini qiziga uylanib o'z davlatini hududini kengaytirgan. Ammo, tax. mil.av. 491 yili o'z

o'g'li Adjatashastra tomonidan taxtdan tushuriladi va atayin ochdan o'ldirilgan. Adjatashastra Magadxani mil.av. 460 yilgacha boshqargan. Podsho Adjatashastra Ganga daryosidan shimoldagi yerlarni egallash uchun Lichavi (hozrgi Nepal hududida) davlati bilan 15 yil mobaynida urush olib boradi. Mil. avv. 468 yili Lichavi poytahti Vayshalini zabt etgan. Xaryanka sulolasidan oxirgi ko'zga ko'ringan namoyondalaridan bu Udayin edi. Magadx podshosi Udain davrida poytaxt Pataliputraga (Patna) ko'chirildi. Bu shahar butun Hindiston bo'yicha eng katta savdo-hunarmandchilik markaziga aylandi. Undan so'ng, mil.avv. 413 yili Magadxada hokimiyat uchun kurashda davlat kuchsizlanadi natijada Shayshunaga ismli vazir Xaryankalar sulolasini taxtdan qulatib yangi sulolaga asos soladi. Shayshunagalardan bo'lgan maxaroja Kalashokani shudralardan bo'lgan o'z vaziri Maxapadma Nanda mil.av. 367 yil taxtdan qulatadi va o'ldirib yuboradi. Ma'lum vaqt Kalashokani farzandlari (Kshemadxarma, Kshetadjita, Vidxisara, Maxanandin) nomidan mil.av. 345 yilgacha davlatni boshqargan. Nandlar davrida Magadx qo'shini soni 20 ming otlig, 200 ming piyoda, 200 jang arava va 3 mingga yaqin fillardan iborat edi. U kshatriylardan bo'lgan rojaliklarni birin-ketin zabt etadi. Shuning uchun Makedoniyalik Iskandar askarlari Nandlar yerlariga kirishni istashmagan edi. Shu tariqa Nandlar sulolasi Magadxani idora qilgan. Bu sulola mil. avv. 321 yilgacha ya'ni Chanragupta Maurya Magadxani bosib olishigacha davlatni boshqargan.

Bundan tashqari Kaushanbi, Radjgir va Udjayin shaharlari aholisi va hududi o'sib borgan. Hind sharlari ellin shaharlari bilan teng edi. Bazilevs Salavkaning elchisi, Megasfen Maurilar saroyiga kelganda, Pataliputra shahri devorlarining uzunligini 30 km da teng deb ta'kidlab o'tgan.

Shunga qaramay mamlakat aholisining katta qismi kasta tuzumida yashar edi. Qishloqlarda patriarxal oila yetakchi o'rin tutgan. Oila boshlig'i bo'lgan ota, yer va chorvani egasi hisoblangan. Ayollar esa, mulk huquqiga ega bo'lmaganlar. Patriarxal oilada bir necha avlod yashagan. Xususiyl mulkchilikning rivojlanishi mulkiyl tengsizlikka olib kelgan. Qarzi evaziga qul qilish tizimi mavjud edi.

Rojalar davlat boshqaruvida shakllanayotgan ma'muriy boshqaruv va xizmatga tortilayotgan aslzoda bo'lmagan kishilarga suyanganlar. Rojaning asosiy tayanchi bu qo'shin edi. Qo'shinda

yengil jang aravalari oʻrnini ogʻir qurollangan otliqlar egallaydi. Otliq qoʻshinlardan foydalanish keng urfga kiradi. Jangovor fillardan qoʻshin tuzila boshlanadi. Qoʻshin endilikda muntazam xususiyatga ega boʻldi.

Maurya davlati

Mil. avv. V-III asrlar magadxa-maurya davri ham deb nomlanadi. Magadxa – qabilaviy podsholiklardan biri, u hozirgi Bixar shtati hududini egallagan (Gang oqimining oʻrtasi). Mil. avv. IV asrga kelib boshqa podsholiklar bilan shiddatli kurashdan soʻng, ustunlikka erishadi, Gang vodiysini oʻz hokimiyati ostida birlashtiradi.

Hind tarixiy-afsonaviy anʼanasida Magadxa podsholari kelib chiqishi past, bagʻoyat xasis va shafqatsiz, shuningdek lashkarlari juda koʻp qilib koʻrsatiladi. Bunday tavsifni chamasi Magadxa podsholari faqat shon-sharaf bilan qoniqmaganligi bilan tushuntirish mumkin. Boʻysundirilgan xalqlardan ularga moddiyroq narsa yaʼni muntazam ravishda olinadigan soliq (oʻlpon) kerak edi. Magadxa podsholarining harbiy kuchlari qabila lashkarlari emas, balki maosh oladigan (yollanma) qoʻshin boʻlganligi sababli gʻaznani muntazam ravishda toʻldirib turish talab etilardi. Bu podsholar Vedalarga tegishli ok suyaklar xulqi, oʻzini tutish majmuini (kodeksini) buzganlar. Yagona davlat barpo etishga intilib ular istilo qilingan mamlakatlar hukmdorlarini ayovsiz olib tashlab, oʻrniga oʻzining odamlarini qoʻygan. Ana shu asosda Magadxaning qudratli podsholarining kelib chiqishi toʻgʻrisidagi shubhali rivoyatlar paydo boʻladi: axir zodagon kshatriylar bunday qilarmidi?

Gang havzasi mamlakatlari Magadxa hukmronligi ostida birlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda, Hindiston shimoli-gʻarbida bulardan ahamiyati kam boʻlmagan hodisalar roʻy berayotgan edi. Ahamoniylar saltanatini tor-mor qilib, Buyuk Aleksandrning Yunon-Makedoniya qoʻshinlari mil. avv. 327-yilda Hindiston yeriga kirib keldilar. Mahalliy aholining bir qismi qachonlardir forslarga boʻysungan, boshqalari esa, oʻz mustaqilligini hech qachon yoʻqotmaganligi bilan faxrlanar edi. Bu yerda yirik va mitti mamlakatlar boʻlgan. Baʼzilarini podsholar boshqarar, boshqalarida monarxiyaga asoslanmagan boshqaruv boʻlgan. Mahalliy hukmdorlar bir-biri bilan raqobat qilgan, va baʼzilar bajonidil chet

ellik bosqinchilar tomoniga o'tgan. Jangovar qabilalar makedoniyaliklarga keskin qarshilik ko'rsatgan. Mashaqqatli va xavfli urush davomida Makedoniyalik Aleksandr ushbu hududni to'raligicha bo'ysundiradi, shu asnoda ilk bor uning tarqoqligiga barham beradi.

Aleksandr boshchiligidagi qo'shinlarning asosiy qismi Hindistonni tark etganidan so'ng, mazkur birlik saqlanib qoladi, Biroq, endi ularni Yunon-Makedoniya lashkarlarini quvib chiqarish yoki yo'q qilish istagi birlashtirar edi. Bosqinchilarga qarshi harakatga Magadxadan kelib chiqqan aslzoda hind Chandragupta Maurya boshchilik qiladi. Mil. avv. 317-yilda Makedoniya qo'shinlarining oxirgi qoldiqlari Hindistondan jo'nab ketadi. Shunda Chandragupta mamlakatning ushbu qismida vaziyatni egallaydi. Yaqin orada u Magadxa hukmdori ustidan g'alaba qozonadi va uning poytaxti Pataliputrada (hozirgi Patna) podshoning taxtga o'tirish marosimini o'tkazadi. Shu asnoda Maurya sulolasiga asos solingan edi, Chandragupta davrida u butun Shimoliy Hindistonga egalik qilgan.

Mil. avv. 297-yilda podsho Chandragupta Maurya o'zining o'g'li Maurya shahzodasi Bindusara foydasiga taxtdan voz kechadi. Chandragupta jaynizm yo'liga kiradi; an'anaga ko'ra u zohidlarga qo'shilib, aparigraxani ya'ni barcha moddiy narsalardan voz kechishni namoyish etadi va ro'za tutishda jonbozlik qilib, o'zini o'limgacha olib boradi. Aftidan, Bindusara dinga asoslangan saltanat qura boshlaydi. Uning istilolari to'g'risidagi xotiralar faqat bir necha asrlardan keyin yozilgan buddaviylik matnlarida saqlanib qolgan. Lekin ushbu matnlardan birida Bindusara "ikki dengiz oralig'idagi" yerlarni bosib olganligi to'g'risida so'z yuritiladi, bundan taxmin qilish mumkinki, Maurya saltanati janubga- Dekanga, Karnatakagacha surilib borgan. Bundan ortiq Bindusaraning yigirma besh yillik hukmdorligi to'g'risida juda kam ma'lumotga egamiz, faqatgina yunonlar unga Amitrokates ya'ni «dushmanlar qotili» degan muvaffaqiyatli istilochilarga beriladigan ism qo'rganlari ma'lum.

Maurya saltanati shimolda joylashgan bo'lib, janubda boshqa podsholiklar yotardi: Kalinga janubi-sharqda, Andhra yarimorolning markazida, Chera g'arbda va bir oz janubda joylashgan edi. Subkontinentning eng cho'qqisida Pandya podsholigi joylashgan bo'lib, ularning mil. avv. 500-yilgacha tarixi haqida biz hech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Shunga qaramasdan, Kalinga tili shimolroqda joylashgan podsholiklar (Mahabhoratda Kalinga

podshosi Shrutayya Kauravlar tomonida kurashganligi haqida ma'lumot keltirilgan) aholisini bir-biri bilan bog'laganligini, janubroqdagi podsholiklar boshqa ildizdan kelib chiqqan tilda so'zlashganliklarini bilish mumkin.

Bindusara vafot etgan vaqtda (taxminan mil. avv. 272-yilda), Kalinga istilo etilmagan edi. Uni bosib olish vazifasi Bindusara o'g'li Ashokaga meros bo'lib qoldi. Podsho Ashoka bizga asosan butun saltanati bo'ylab, avvalo qoyalarda ("Farmonlar qoyasi") va keyinchalik qumtoshdan yasalgan ustunlarda ("Farmonlar ustuni") uning buyrug'iga binoan o'yib yozilgan tavsiflar orqali tanish hisoblanadi. Ushbu farmonlar Ashokaning yoshligini tasavvur qilish imkonini beradi. Yosh yigit bo'lganida otasi uni endi Mauryalar saltanatining qismiga aylangan Taksilaga isyonni bostirish uchun yuboradi. Shundan so'ng, uni saltanatning boshqa, Ujain deb nomlanadigan tomoniga beshta "janapada" yoki, tumanlardan biriga hukmdor qilib yuboradilar. Maurya saltanati ana shu beshta "janapadaga" bo'lingan edi.

Bindusara vafot etgandan so'ng, Ashoka taxt uchun aka-ukalari bilan kurashishga majbur bo'lgan. To'rt yil kurashdan so'ng, u raqiblaridan qutulgan. U ularni o'ldirgani haqida isbotlarimiz yo'q, lekin keyinchalik faqat bitta ukasi tilga olinadi. Ashoka bir o'zi yana sakkiz yil hukmronlik qiladi va otasining bosqinchilik an'anasini davom ettiradi. so'ng, mil. avv. 260-yilda u qo'shinlarini janubga, qarshilik ko'rsatayotgan Kalingani bosib olish maqsadida olib boradi. «Ashoka farmoni» — jang natijalari haqida ma'lumotga ega yozuv — uning Kalinga aholisiga nisbatan shafqatsizligini namoyish etadi: «Yuz ellik ming kishi boshqa joyga ko'chirib yuborildi, - deyiladi yozuvda, - yuz mingi o'ldirildi va yanada ko'pi o'lgan». Aftidan bunday dahshatli shafqatsizlik Ashoka ko'nglini qiynagan va unga katta ta'sir ko'rsatgan. «So'ng, - davom etadi yozuv matni, — meni vijdon azobi qiynadi. Qon to'kish, o'lim va odamlarni ko'chirib yuborish — juda g'amgin hodisalar... va yurakka og'ir botadi».

Shu ondan boshlab uning davlatni boshqarish tarzi o'zgaradi va siyosatdan yiroqlikni namoyish etadi. Aftidan endi Ashoka o'z vaqtini ma'muriy ishlarga sarf qilmasdan, dxamma (bu konsepsiyaga ta'rif berish juda murakkab va Yo'l, Adolat, Burch va Ezgu ish tushunchalarini o'z ichiga oladi) bilan shug'ullanadi. «Men dxammaga juda halol amal qildim va uni o'rgandim», — deyilgan

«Kalinga yozuvi»da, bir ozdan so'ng, esa yuqorida qayd etilgan «Farmonda»: «*Mening bo'lg'usi nevaralarim o'g'illari yangi istilolarni hatto xayollariga keltirishlarining keragi yo'q... ularni dxamma keltiradigan quvonch to'ldirishi kerak, chunki bu u dunyoning ham, bu dunyoning ham qadriyatidir*».

Kalinganing istilosidan so'ng, Ashokaning eng yirik yutug'i diniy va siyosiy sohalarda kiritgan o'zgartirishlar bo'ldi. U dxamma tamoyillarini qayta tasdiqlash maqsadida buddaviylik yig'ilishi chaqirig'ini tashkil qildi; Pataliputra shahrida taxminan mil. avv. 245-yilda o'tkazilgan uchinchi Buddaviylik yig'ilishi Palikanon kitoblaridan birining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yig'ilishning oxirida Ashokaning o'g'li Maxendra janubiy sohil yaqinida joylashgan katta hind oroliga (hozirgi Seylon) din targ'ibotchisi (missioner) sifatida jo'natilgan. Boshqa targ'ibotchilar Ashokaning yordami bilan hattoki Yunonistonga ham jo'natilgan.


Ashoka podsholikni ushlab (birlashtirib) turish uchun kuchdan farq qiluvchi yangi birlashish tamoyilini topishga harakat qildi.

Saltanatni barpo etishda Hindistonda qadimgi ko'chmanchilik davridan beri sarqit sifatida mavjud bo'lib kelgan urug'lar tizimini buzish mashaqqatli ish edi. Urug'-aymoqlar, guruhlarga sodiqlik mamlakatni kichik siyosiy birlashmalarga bo'lib tashlashga harakat qilgan, ularning har biri yaqin qo'shnilari bilan do'stlashish haqida kelishgan yoki ularga nafrat tuyg'usini o'stirgan. Mauryalar istilolari mamlakatni xunrezlik yordamida vaqtincha birlashtirdi – lekin endi Ashoka zo'ravonlik tamoyilidan yiroqlashdi.

Lekin uning ushbu rejasi ham barbod bo'ldi. Mil. avv. 231-yilda Ashoka vafotidan so'ng, Mauryalar saltanati Aleksandr saltanati singari tez orada parchalanib ketdi. Farmonlar harakati to'xtadi, hech qanday qonunlar ular o'rnini bosmadi, va keyingi o'n yilliklarda Hindistonni zulmat qopladi. Ushbu zulmat ostida Ashoka o'g'illari va nevaralari saltanatda hukmronligini yo'qotdi, va bu hol yana kichik hududlar uchun kurashda aks etdi.

O'n to'rt “katta qoya” Ashoka farmonlaridan iborat matn mahalliy so'zlashuv tillariga tarjima qilingan. Mazkur bitik keng saltanat chegaralari bo'ylab qoyalarga o'yib yozilgan edi, bu tufayli davlat chegaralari qaerdan o'tganini aniqlash mumkin. Maurya davlati mil. avv. III asrning o'rtalarida shimolda Himolay tog'laridan Hindistonning uzoq janubida hozirgi vaqtda joylashgan Tamilnad

shtati chegaralarigacha, sharqda Gang etagidan to g'arbda hozirgi davr Afg'onistonning Qandahor shahrigacha yoyilgan edi. Uning tarkibiga janubiy Osiyoning deyarli butun hududi kirgan edi.



Har besh yilda davlat poytaxti Pataliputradan hamda eng yirik hududiy markazlardan podsho vakillari shaharlar, qal'alar va hatto juda kichik joylarni aylanib chiqishga jo'nab ketar edilar. Ular nog'ora chaldirib, xalqni yig'ardilar va "podsho farmonlarini" e'lon qilishni buyurardi. O'zini-o'zi boshqarish mahalliy organlari podsho farmonlarining toshda aks ettirilishining tashvishini qilishi, kalendar bo'yicha o'tkaziladigan bayramlarda esa jamoat oldida qayta-qayta e'lon qilishini ta'minlashi kerak bo'lgan.

Farmonlarning asosiy mazmunini dxarma – buddaviylik ta’limotiga yaqin bo’lgan diniy-axloqiy pand-nasihatlar – tashkil qilgan. Podsho o’z farmonlarida diniy burch (vazifa) nimadan iboratligini tushuntirgan. Bu, avvalo, o’zini tutishning (xulqning) umuminsoniy me’yorlari: kattalarni hurmat qilish, yaqinlarga do’stona munosabatda bo’lish, yetim va faqirlarga, qullar va yollanma ishchilarga marhamatli bo’lishni anglatgan. Dxarma me’yorlariga rioya qilgan insonga uning kelib chiqishi, tabaqa-kastaga mansubligi va boyligidan qat’iy nazar jannat huzur-halovatiga erishishi va’da qilinar edi.

Buddaviylik rivoyatlariga ko’ra, Ashoka Maurya Buddaning dindor (e’tiqodli) izdoshi bo’lgan va faqat Buddha ta’limotini tarqatish hamda buddaviylik sangxasiga yordam ko’rsatish to’g’risida o’ylagan. Ushbu rivoyatlarda haqiqat urug’i bor. Aynan Ashoka davrida Hindistonda minoralar – ko’pincha ichida Buddha tishi yoki sochi kabi yodgorligi bo’lgan qo’rg’onsimon inshootlar keng qurila boshlangan. Minoralar – buddaviylikning ibodat bilan bog’liq bo’lgan inshootlari – koinotda buddaviylik e’tiqodining tarqalishi va unda hukmronlik qilishining ramziy ishorasi bo’lib xizmat qiladi. Ashoka davrida buddaviylik qit’aga tegishli Hindiston chegaralaridan tashqarisiga chiqadi: Pataliputradan yuborilgan vakillar Lanka hukmdorini buddaviylikka o’tishining uddasidan chiqadi va o’shandan buyon ya’ni ikki ming yildan ortiq orolda (hozirgi Shri-Lanka) ushbu din hukmronlik qiladi.

Biroz vaqt o’tgandan so’ng, Lankada buddaviylikning muqaddas kitoblari to’plami yozib olingan. Ushbu to’plam Tripitaka (asl ma’nosi – “uch savat”) deb nomlanadi, chunki palma yaproqlariga yozilgan matnlar dastalari bir vaqtlar katta savatlarda saqlangan.

Vedalar-braxmanlar dini o’zgalar va xabardor bo’lmaganlar uchun yopiq bo’lgan, buddaviylik esa, aksincha, ta’limotning imkon qadar keng tarqalishiga intilgan.

Biroq, saltanat juda omonat edi: uning tarkibiy qismlari juda xilma-xil edi. Mil. avv. II asrning boshidayoq Maurya sulolasi halokatga uchraydi. Uning vorislari Mauryalardan avval birlashtirilgan Gang vodiysi hududlarini ushlab qoladilar. Janubiy viloyatlar (Dekan deb ataluvchi), shimoldan ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishga qudratli turtki olib, mahalliy sulolalar bilan

birgalikda bir nechta davlat tashkil qilib, mustaqil rivojlanishga intilgan.

Shimoli-gʻarbiy Hindistonning (Hind daryosi havzasi) tarixiy taqdiri ayniqsa chalkash edi. Mil. avv. III asrning oʻrtalaridayoq, Salavkiylar saltanatining parchalanib ketishidan soʻng, Hindiston chegaralari yaqinida Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Baqtriyaning yunonlik hukmdorlari mil. avv. II asrning boshlaridayoq Mauryalar va vorislarining kuchsizlanishidan foydalanib, sharqqa yurishlar uyushtiradilar. Hindistonning shimoli-gʻarbida yunonlik harbiy boshliqlar boshqargan katta boʻlmagan podsholiklar paydo boʻladi.

Oʻzida ellinistik, eroniy va hind elementlarni birlashtirgan, aralash madaniyat vujudga keladi. Hind oʻlkasida yunonliklar oʻzlarining xudolari va faylasuflariga bagʻishlab marmardan yasalgan haykallar oʻrnatgan shaharlar qura boshlaydi. Hindlar esa Buddani Delfalik Appolonga oʻxshagan goʻzal yigit koʻrinishida tasvirlaydilar (dastlab Budda tasviri oʻrniga biron ramzdan foydalanilgan, masalan, sheʼr tagida aqlning ravshanlanishi, taxt yoki quyosh ramzi – svastika tasvirlangan oyoq kaftining izi). Mauryalar davridagi sodda tangalar – notoʻgʻri shakldagi, metall sifatini tasdiqlovchi tamgʻali kumush boʻlaklari oʻrniga yunon ustalarining mahorat bilan qilingan podsholar, xudolar va ham yunon, ham mahalliy hind tillarida yozuvlar bilan bezalgan buyumlar tasvirlari paydo boʻladi.

Mil. avv. 231-yilga kelib Ashoka vafotidan soʻng, Maurya davlati tez orada parchalanib ketadi. Ashokaning oʻgʻillari va nevaralari saltanatda hukmronlikni yoʻqotadi. Ichki urushlar davlatni kuchsizlantirdi oqibatda tashqi dushmanlar bundan foydalanib qoladi. Mil. avv. III asrning oʻrtalaridayoq, Salavkiylar saltanatining parchalanib ketishidan soʻng, Hindiston chegaralari yaqinida Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Baqtriyaning yunon hukmdorlari (Demetriy, Antimax va boshqalar) mil. avv. II asrning boshlaridayoq Hindistonni kuchsizlanishidan foydalanib, harbiy yurishlar uyushtiradilar. Mil. avv. II asrning 40-30 yillarida Yunon-Baqtriya davlati kuchsizlanadi va shimoli-sharqdan koʻchmanchi “katta yuechji” qabilalari kirib keladi. Yunon-Baqtriya yerlari bosqichma-bosqich zabt etiladi. Hindistonning shimoli-gʻarbida esa yunon-baqtriyalik lashkarboshilar boshqargan kichik podsholiklar bor edi. Tarixda ularni Yunon-hind davlatlari deb ataydilar. Keyinchalik,

milodiy I asrda Yunon-hind davlatlari yaqinida Hind-sak davlatlari paydo bo'la boshlaydi. Hind-Parfiya podsholari orasida eng ko'zga ko'ringani Gondofar bo'lib, uning davlati Shimoliy Hindistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Shunday bo'lsa-da bu davlat uzoq yashamadi, tez orada uning o'rnini yangi imperiya egalladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Moxenjo-Daro qaysi daryo qirg'oqlarida paydo bo'lgan?
2. Qadimgi oriylar qaysi hududdan Hindistonga kirib kelishgan?
3. Qadimgi Maurya podsholigining salavkiylarga qarshi siyosati haqida ma'lumot bering.
4. Podsho Ashokani ichki siyosatining asosiy vazifalarini aniqlang.
5. Hind-Parfiya podsholari orasida eng ko'zga ko'ringan vakilini aniqlang.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007.
2. Кузишин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
3. Бонгард-Левин Г.М., Грантовский Э.А. От Скифии до Индии. Древние арии: мифы и история. – М., 1983.
4. Бонгард-Левин Г.М., Ильин Г.Ф. Индия в древности. – М., 1985.
5. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. – М., 2003.
6. Dundas, Paul. The Jains. 2d ed. New York: Routledge, 2002.
7. Possehl G. L. The Indus Civilization. A Contemporary Perspective. Delhi, 2002.
8. The Indo-Aryans of Ancient South Asia / Ed. G. Erdosy. Berlin, 1995.
9. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.
10. Wolpert, Stanley. A New History of India. 7th ed. Oxford: Oxford University Press, 2004.

20-mavzu. Kushonlar imperiyasi

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Markaziy Osiyo hududlarida siyosiy vaziyat murakkablashadi. Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy yerlarida kuchayib borayotgan ko'chmanchi Xunlar davlatining ta'siri natijasida boshqa chorvador xalqlar o'z yerlaridan g'arbiga siljishga majbur bo'ladi. Yoki ushbu ulkan imperiya tarkibiga kirib ketishi xavfi paydo bo'ldi. Xususan ko'chmanchi yue-chjilar va xunlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bunga misol bo'la oladi.

Taniqli olimlar Bernshtam A.N., Xazanov A.M., Kichanov E.I., Kradin N.N., Asqarov A., Buryakov Y.F., Shoniyozov.K., Pugachenkova G. Rtveladze. E. Boravkova.A va boshqalarning ilmiy izlanishlarida, Markaziy Osiyo ko'chmanchilari va o'troq ziroatkorlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlar o'z aksini topgan.

Xunlar hukmdori shanyuy Mode (yoki Maodun) dan so'ng, mil. avv. II asrda yue-chjilarga shanyuy Laoshan oxirgi qaqshatqich zarbani bergach, ular g'arbiga O'rta Osiyoga chorvalari bilan ko'chib ketishga majbur bo'ldilar. Usun yerlari (Yettisuv) orqali ikki daryo oralig'i (Oks va Yaksart) hududlariga chiqdilar. Mahalliy ko'chmanchi xalqlar bo'lmish saklarning ayrimlari Baqtriya orqali Parfiyaga o'tib ketishga majbur bo'ldilar, qolganlari esa yue-chjilar qabilaviy ittifoqi tarkibidan o'z o'rnini topgan.

Katta yue-chjilar kelguniga qadar ham ikki daryo oralig'i yerlarini egallash borasida saklar o'rtasida doimiy kurashlar bo'lgan. Misol uchun saklarning bir qismi hisoblangan qang'arlar, yue-chjilar kelguniga qadar o'zlariga bo'ysunishni xohlamagan mahalliy ko'chmanchilar (saklarning boshqa guruhi) assiyalar (yoki assian), passianlar, toxarlar va sakaroakalarni Yunon-Baqtriyaga siqib chiqarganlar. Ushbu ko'chmanchilar Baqtriyadagi (Xan davlati solnomalarida Daxya yoki Dasya) markazlashgan ammo kuchsizlanib qolgan yunonlar hokimiyatini tugatganlar. Strabonning ma'lumotiga qaraganda aynan yuqorida aytib o'tilgan nomadlar Yunon-Baqtriya davlatini ag'darib tashlaganlar. Ularning ichida yue-chjilar borligi to'g'risida olimlar o'rtasida mulohazali fikrlar bildirilmoqda.

Saklarning katta bir qismi Hindistonning shimoli-g'arbidagi Seyiston viloyatiga borib o'rmashdilar. Ikki daryo oralig'i (Amudaryo va Sirdaryo) esa siyosiy jihatdan yue-chjilar va qang'arlar o'rtasida

bo'lib olingan. Ammo, iqtisodiy jihatdan ko'chmanchilar o'troq ziroatkorlar bilan bir joyda yashay olmaganligi sababli chorvadorlar yaylov va tog' oldi qirlarida qo'shni bo'lib hayot kechirganlar. Amudaryo daryosi qirg'oqlari yerlarida dastlab o'ziga makon tutgan katta yue-chjilar qabilaviy ittifoqi Baqtriyaga hali to'liq kirib bormagan edi.

Oldin Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan Yunon-Baqtriyaning shahar va qal'alari ko'chmanchilar nazorati ostiga o'tadi. Misol uchun Dalvarzin-tepa manzilgohi ko'chmanchilar hukmronligi davrida taraqqiy eta boshladi. Dastlab, yunon-baqtriyaliklar hukmronligi yillarida 4 gektarni tashkil qilgan shaharcha mil. avv. I asrlarda yirik siyosiy markazlardan biriga aylangan edi. Bu orada mil. avv. 90-yilga kelib, yue-chjilar deyarli butun Baqtriyani bosib olishga erishadilar. Ya'ni, Amudaryodan janubda joylashgan kichik yunon knyazliklarini birin-ketin bosib oladi. Iqtisodiy jihatdan bir ko'chmanchi oilani boqish uchun taxminan o'rta hisob bilan 100 ta qo'y va echki hamda 15 yoki 25 ta yirik shohli qora mol kerak bo'ladi. Agarda katta yue-chjilarning umumiy soni 100000 ta oilaga yaqin bo'lsa, boqiladigan chorva soni bilan Shimoliy Baqtriyada uzoq tura olmasligi ma'lum bo'ladi. Zero, shimoldagi So'g'd yerlari qang'arlar ta'sirida bo'lganligini hisobga olsak, ular faqatgina saklar talon-taroj qilib o'tgan Baqtriyaning qolgan qismiga kirib borishdan boshqa ilojlari ham yo'q edi.

Ushbu vaziyatda Markaziy Osiyodagi siyosiy omilni tahlil qiladigan bo'lsak, butun Baqtriya yunon-baqtriyaliklarning o'zaro urushi va saklarning bosqinidan so'ng, oson o'lja bo'lib qolgan. Taniqli olimlar Staviskiy B.Y., Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V va Pidayev. Sh. larning bu boradagi fikrlari turlicha. Ammo, yue-chjilarni besh mustaqil knyazlikka (Xitoy mabalarida "xi-xou") bo'linishidan oldin deyarli butun Baqtriya egallanib bo'lganligi aytib o'tiladi. Shundan so'ng, Baqtriya (Daxya) yerlari Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xisi va Dumi knyazliklariga bo'linib ketgan. Ko'chmanchilar o'zlaridan keyin kam yozma manbalar qoldirganligi sababli, yuqorida ta'kidlangan knyazliklarni chegaralari borasida aniq ma'lumotlar hozircha yaxshi o'rganilmagan.

Mahalliy va ellin boshqaruv tizimi ko'chmanchi katta yue-chjilar tomonidan tez o'zlashtirildi. Buni biz yozma va numizmatik

manbalarda ko'rishimiz mumkin. Ko'chmanchi chorvachilik sekin inqirozga yuz tuta boshladi.

Mil. avv. I asrga kelib aksariyat katta yue-chjilar o'troqlashib bo'lgan edi. O'troq ziroatkor uerlardagi aholi bilan aralashuv, jadal rivojlanib borgan. Dasht chorvadorlari harbiy davlatchilik tizimi bevosita saqlab qolingani edi. Arxeologik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, katta yue-chjilar davlat boshqaruvida dastlab Baqtriyadagi mahalliy yozuvlardan keng foydalanganlar.

Milodiy I asr boshlarida katta yue-chjilarning Guysuanlar urug'idan bo'lgan hukmdori (yabg'u) Kudzula Kadfiz Baqtriyani birlashtirishga erishadi. Yue-chjilarning 5 ta knyazligini birlashtiradi, so'ngra Ansi (Parfiya) bilan urush boshlab, Hindikush janubidagi Pudu (Kashmir)ni bosib oladi va Gibon (Qobul viloyati) yerlarini ham egallaydi. Bularning barchasiga Baqtriya, iqtisodiy va siyosiy platsdarm bo'lib xizmat qilgan edi. Kudzula Kadfiz Kushonlar davlatini imperiyaga aylantirishda dastlabki qadamni qo'yib berdi. Rabotak yozma manbasidagi sulolaviy ro'yxatga ko'ra undan so'ng, taxtga kelgan Vima Takto "noma'lum podsho" yunoncha Soter Megas nomi ostida podshohlik qilgan. Soter Megas olimlarning fikricha uzoq hukmronlik qilmagan bo'lsa-da uning nomidan tangalar zarb etilgani ma'lum. Uning hokimiyati Shimoliy Baqtriyaga qadar yetib borganligini arxeologik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Ammo, hukmronlik qilgan yillari borasida olimlar orasida munozarali fikrlar ko'p uchramoqda.

Milodiy I asr o'rtalarida Vima Taktdan keyin hokimiyatga kelgan Vima Kadfiz Hindistonning markaziy qismlarigacha imperiyani kengaytirdi. Uning davrida pul islohoti o'tkazildi hamda oltin tangalar keng muomalaga kiritila boshladi. Oltin tangalarning aksariyati aholi zich bo'lgan Hindistonda keng tarqaldi. Matxura va Taksilla shaharlari Kushonlar ta'siriga tushgan o'z rivojlanishining yangi bosqichiga chiqadi va iqtisodiy jihatdan yuksaladi. Vima Kadfizdan keyin, milodiy 78-yilda hokimiyatga kelgan Kanishka I davrida mamlakat siyosiy markazi Hindiqushdan janubga-Hindistonga siljiy boshladi. Chunki Buyuk Ipak Yo'li savdosining muhim qismi sifatida Shimoliy va Markaziy Hindistonning e'tibori oshgan. Hindistonda aholi ko'p bo'lganligi tufayli iste'mol bozori katta edi. Kushonlar Kanishka I (taxminan milodiy 78-123- yy) hukmronligi yillarida yunonlar alifbosi asosida davlat ishlarini

yuritishni cheklab qo'yadi. Kushonlarning alohida yozuvi paydo bo'lsa-da imperiyaning hududlarida aholi o'z yozuvini ishlatib kelgan. Kanishka I buddaviylarning soborini Ashokadan keyin qayta tiklagan hukmdorlardan biri bo'ldi. Uning podsholigi davrida buddaviylikning maxayana (katta g'ildirak) yo'nalishi yanada rivoj topishi uchun keng imkoniyat yaratildi. Buddizm davlat diniga aylanib boradi. Ammo, Kushonlar imperiyasida mahalliy dinlarga tolerantlik va diniy bag'rikenglik imkoniyatlari yaratilgan edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Eski Termiz, Qora-tepa, Dalvarzin-tepa va Ayritom manzilgohlaridan topilgan topilmalar, Baqtriyada zardushtiylikning o'rnini yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Kushonlar Hindistondagi qaram knyazliklar (rojaliklar) ichki ishlariga kam aralashganligi tarixdan ma'lum.

Kushonlar tayinlagan kshatraplar (hokimlar) markaziy hokimiyatga nomigagina bo'ysunib, ichki ishlarda mustaqil bo'lganlar. Hukmdorlar Xuvishka, Vasishka Vasudevalar davrida Kushonlar konfederativ boshqaruv tizimini saqlab tura oldilar. Milodiy III asr o'rtalariga kelib, Kushonlar tuzgan imperiya ichki nizolar va o'zaro urushlar natijasida inqirozga yuz tutdi. Podsho Kanishka III davrida ko'p millatli mamlakat parchalanishni boshladi. Milodiy 276-yilga kelib Kushonlar imperiyasi tarix sahnasidan o'chib ketadi.

Ko'p millatli Kushonlar imperiyasi Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan ulkan davlat sifatida shuhrat qozonadi. G'arbda qudratli Parfiya (keyinchalik Sosoniylar) Shimolda Qang' davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan. Savdo yo'li tranziti ushbu davlatni ikki asrdan ortiq dunyoning eng kuchli imperiyalari ichidan o'z o'rnini egallash imkonini bergan.

Kushonlar imperiyasida siyosiy hokimiyat kelib chiqishi ko'chmanchilardan bo'lgan sulola qo'lida bo'lsada, ular mahalliy boshqaruvni o'zlariga moslashtira oldilar va keng sarhadli hududlarda hukm surgan edilar.

Ko'chmanchilar ko'p millatli imperiya tuzish bilan birga ushbu davlat tarkibidagi xalqlarni umumiy manfaatlarini himoya qilib, o'troq va chorvador madaniyatlarni yagona chegaralar ostida birlashtira oldilar. Umumimperiya qonunlari konfederativ tusda bo'lsada, ammo mahalliy urf-odatlar ham e'tibordan chetda qolmagan edi.

Qadimgi Hindiston dini va madaniyati

Qadimgi Hindiston madaniyatiga ibtidoiy davridayoq asos solingan edi. Qadimgi hind yozuvi Moxenjo-doro va Xarappa davridayoq rasm shaklida vujudga kelganligi aniqlangan. Jumladan, topilgan muhrlar yuqoridagi fikrlarga misol bo'la oladi. Bu jihat mulkiy tabaqalanishning qonuniy normalari mavjud ekanligini bildirgan. Keyinchalik sanskrit, yunon, oromiy, kushon yozuvlaridan Hindistonning turli hududlarida keng foydalanilgan. Mil. avv. III ming yillik oxiri II ming yillik boshlarida Hindiston madaniyati birmuncha yuksaladi. "Ramayana", "Mahabhorat" va "Panchatatra" dostonlari qadimgi hind adabiyoti merosi hisoblanadi. Undagi obrazlar kishilarni rostgo'ylik, sadoqat, mardlik, mehribonlik va boshqa yuksak ijobiy xislatni o'zida tarbiyalashga chorlaydi.

"Ramayana" dostonida shahzoda Ramning o'gay onasini siquvlari va tahqirlashlaridan ko'ngli qolgach, o'z yurtini tashlab ketishi va xavfli sarguzashtlari haqida so'z boradi. Unda sevikli yori Sitani devlar podshosi Ravan tomonidan o'g'irlab ketilishi va uni qaytarish yo'lida Ramni maymunlar va ayiqlardan tuzilgan qo'shinining devlar bilan olib borgan urushi tasvirlanadi. U devlarni yengib xotinini ozod etadi va o'z vataniga qaytib kelib, otasining taxtini qaytarib oladi.

Mashhur "Mahabhorat" dostonida esa podsholarning Bxarata sulolasidan chiqqan ikki oila avlodlari Kauravlar va Pandavlar (yoki Panduzodalar) o'rtasida toju-taxt uchun olib borgan urushlari yoritiladi. Unda yovuzlik timsoli Kauravlar sulolasi sardori Duryatxan va uning tarafdorlari Pandavlardan bo'lgan aka-ukalar Yutxisht, Bxim, Arjun, Nakul va Sagdevlar tomonidan mag'lub etiladi.

Qadimgi hindlar dastlab animizmga yaqin diniy tasavvurlarga ega edilar. Ular hayvonlar, tabiatda mavjud bo'lgan hodisalar (quyosh, olov, momaqaldiroq, chaqmoq, yomg'ir, shamol va boshqalar) va turli ruhlarga sig'inganlar. Ko'chmanchi oriyalar kirib kelgandan so'ng, mil. avv. IX-VIII asrlarda Braxmanizm dini paydo bo'ladi. Bu din e'tiqodiga ko'ra Braxma ilohi olam va insonlarni yaratgan hisoblanadi. Insonlar uning turli a'zolaridan paydo bo'lgan deb hisoblaganlar. Braxmaning og'zidan braxmanlar, qo'llaridan kshatriylar, boldirlaridan vayshilar, oyoqlaridan esa shudralar paydo bo'lganligiga ishonganlar. Keyinchalik yuqorida ta'kidlangan buddaviylik dini yuzaga keladi.

Qadimda Hindistonda aniq fanlar ham rivoj topgan edi. Bu yerda astronomiya, geografiya va matematika fanlari taraqqiy etganligi manbalarda ta'kidlanadi. Hindlar birinchilardan bo'lib hisob-kitobda "nol" raqamidan foydalanishni bilganlar. Bu bilimlar ularga savdo-sotiqda katta yutuqlarga erishish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ular 360 kunga bo'lingan o'z kalendarlariga ham ega edilar. Qadimgi Hindiston shaxmat o'yinining vatani hisoblanadi. Dastlab harbiy va davlat boshqaruvi san'atini o'zida aks ettirgan ushbu taktik o'yin keyinchalik dunyoga mashhur bo'lgan sport turiga aylandi.

Tabobatda hind tabiblari dori tayyorlashda turli xil dorivor o'tlar va minerallardan foydalanishni bilganlar. Ular mingga yaqin dori turlaridan xabarlarini bo'lgan. Hatto jarrohlik ilmini yaxshi o'zlashtirganlar.

Mil. avv. III asrlarda Hindiston madaniyatiga ellinistik madaniyat katta ta'sir ko'rsatadi. Hindlar yunonlardan antik haykaltaroshlik usullarini o'rganib olganlar. Qadimgi Hindiston san'atida naqqoshlik va haykaltaroshlik mukammal darajada uyg'unlashib ketgan. Bu uslub keyinchalik kushonlar davrida Hindistondan Afg'oniston orqali O'rta Osiyoga ham kirib kelgan. Dastlab Budda tasvirini chizish, yasash odat bo'lmagan. Asta-sekin Budda g'ildiragini (quyosh) nur belgisini tasvirlash boshlangan. Buddaning dastlabki tasviri mil. avv. I asrga oid bo'lib, uning asosi sifatida yunonlar orqali bu yerga kirib kelgan antik obrazi- Appolon tasviri olingan. Shu tariqa Hindistonning shimoli-g'arbida va Pokiston hududida Gandxar san'at maktabi shakllandi. Bu maktabda hind va yunon san'ati o'zaro aralashib ketgan bo'lib, u Hindiston madaniyatining yorqin bir ko'rinishidir. Ayniqsa, Gandxar haykaltaroshlik san'ati yuqori darajada rivojlangan. Buddani toshda o'yib tasvirlash yaratiladi. Ushbu madaniyat maktabi namunalari Madxura viloyatining ko'rki hisoblanadi.

Mauryalar davridagi arxitekturada muhim o'zgarishlar yuz beradi. Qoyalar va g'orlarda buddaviylik ibodatxonalarini qurish ishlari amalga oshiriladi. Ayniqsa, Sanchidagi ibodatxona Mauriylardan keyingi davrda diniy va siyosiy markaz vazifasini bajargan. Mil. avv. II-I asrlarda Sanchi ibodatxonasida ulkan stupa qurilgan. Ushbu ibodatxonada tosh darvozalariga buddaviylikka oid turli xil rivoyatlar tasviri tushirilgan.

Varanasi hududidan Ashoka o'z ibodatxonalari uchun tosh ustun yasash maqsadida tosh olgan. Umuman olganda, qadimgi Hindiston madaniyati jahon sivilizatsiyalar tizimida o'chmas iz qoldirgan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Бичурин Н.Я. Собрание Сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. – М., 1950
2. Боровкова. А. Кушанское царство.(По древнекитайским источникам). – М., 2005.
3. Литвинский Б.А. Конгюйско-Сарматский Фарн (к историко-культурным связи племен Южной России и Средней Азии). Душанбе. 1968.
4. Стучевский Ш.А. Межгосударственные отношения и дипломатия на Древнем Востоке. – М., 1987.
5. Шониёзов. К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001.
6. Пугаченкова. Г.А. Художественные сокровища Дальварзин-Тепе. Ленинград. 1978.
7. Пугаченкова. Г.А., Ртвэлладзе. Э.В. Северная Бактрия и Тохаристан. – М., 1989.
8. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т. 2007.
9. Стучевский И.А. Межгосударственные отношения и дипломатия на древнем востоке. – М., 1987.
10. Шарма Р.Ш. Древнеиндийское общества. М. 1987.
11. Armstrong, Karen. Buddha. New York: Penguin Books, 2004.
12. Possehl G. L. The Indus Civilization. A Contemporary Perspective. Delhi, 2002.

QADIMGI XITOIY

21-mavzu. Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning yuzdga kelishi

Reja

- 1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yuzaga kelishi, Sya va Shan sulolalari.**
- 2. Chjou sulolasi davrida Xitoy**
- 3. “Chunshu” va “Chjango” davri. Sin imperiyasining yuksalishi.**
- 4. Xan imperiyasining ichki va tashqi siyosati.**

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yuzaga kelishi, Sya va Shan sulolalari. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining dastlabki kurtaklari Xuanxe (sariq daryo) va Yanszi daryolari bo'ylarida yuzaga kela boshlaydi. Mil. avv. V-IV ming yillikda paydo bo'lgan ilk dehqonchilik manzilgohlari Yanshao, Syuyszyalin va Davenkoular qadimgi Xitoy tarixida muhim o'rin egallagan. Misol uchun neolit davriga oid Davenkou madaniyati to'rt bosqichga bo'lib o'rganiladi. Uning tarkibiga Lyulin, Xuatin, Davenkou Vassinlyangan manzilgohlari kiradi. Qadimgi jamiyatda ilk sopol idishlarga ishlov berish va mehnat qurollarining takomillashib borishi ortiqcha mahsulot hajmini ortib borishiga olib keldi. Tez orada mil. avv. II ming yillik boshlariga kelib, Xuanxe va Yanszi daryolari bo'ylarida yashovchi aholi metallardan (mis va bronza) foydalanishni keng yo'lga qo'yadi. Jumladan, Erlitou madaniyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Metallurgiyaning taraqqiyoti sug'orma dehqonchilikni yanada taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Natijada ortiqcha mahsulotlarni ko'payishi hamda mulkiy tabaqalanish jarayonini yuzaga keltirdi.

Qadimgi Xitoy afsonalariga ko'ra Xuanxe daryosi qirg'oqlarida dastlab Sya davlati paydo bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Sya sulolasi qabilaviy ittifoq shaklidagi davlat bo'lgan. Qadimgi xitoyliklarning ota-bobolari asosan o'troq dehqonchilik va qisman chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Shu bilan birga, Sya davrida hunarmandchilik ravnaq topadi. Bu davlat tarixi haqida

ko'plab afsonalar va hodisalar keltirilib o'tiladi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Xuanxe va Yanszi daryolari oralig'ida bronza quyish tizimi Sya sulolasi davrida kengaya boshlaydi. Janubiy Xitoy o'sha vaqtda bronza quyish markazi hisoblangan. Qalay va mis janubiy-sharqiy Osiyoda Xuanxe havzasidagi madaniyatlarga nisbatan oldinroq paydo bo'lgan. Markaziy Hindixitoyda metallurgiya Xitoydan ilgariroq tashkil topgan edi. Bu davrda mulkiy tabaqalanish tezlasha boradi va ilk yozuvlar paydo bo'ladi.

Mil. avv. II-mingyillikda Xitoyning Gansu viloyatidan to Shandungacha, Xebeydan Xunangacha va Szyansi daryolar etaklarigacha bo'lgan hududda ilk shahar manzilgohlari kengayib boradi. Ushbu shaharlar jamoalar tomonidan idora qilingan. Jamiyatda harbiy demokratiya ustunlik qilar edi. Aynan shu sivilizatsiya asosida Shimoliy Xitoyda Shan shahar jamoasi vujudga keladi. Bu jamoa In qabilaviy ittifoqidan ajralib chiqadi. Uning hukmdori "van" unvoniga ega edi. So'ngra, Chen Tan ismli podsho Sya sulolasini taxtdan olib tashlab, Shan davlatini barpo etadi. Ushbu davlat mil. avv. 1600-1027 yillargacha mavjud bo'lgan.

Shan podshosi Pan Gen davrida poytaxt Yandan Beymen shahriga ko'chiriladi. Keyinchalik Beymen shahri In deb ataladigan bo'ldi. Natijada davlat Shan-In deb ham tilga olinadi. Podsho asosan diniy va dunyoviy hokimiyatni o'zida mujassamlashtirgan edi. Hokimiyat (hukmdorlar U Din va U I gacha) akadan-ukaga yoki amakidan jiyanga meros bo'lib o'tgan. Ichki nizolar tufayli dastlabki poytaxtlardan biri (Chun Din davrida) Syao shahriga ko'chiriladi. So'ngra, hokimiyat otadan-bolaga o'tish tizimi (taxminan mil. avv. 1300 yil) joriy qilingan. Amaldorlar sinfi zodagon qavmlar tabaqasidan shakllangan. Davlat boshqaruv apparati podsho (yoki Van), yirik amaldorlar, kichik zodagonlar va jangchilardan iborat bo'lgan. Dehqon va qullar ijtimoiy tabaqaning eng quyi pog'onasidan o'rin egallagan edi. Shan davlati ko'chmanchilarning doimiy hujumi ostida ularga qarshi kurash olib borganligi haqida yozma ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shan podsholari Syuan-syao (sariq imperator Xuan-di) urug'idan bo'lgan deb hisoblangan.

Chjou sulolalari davrida Xitoy. mil. avv. 1027 yili Chjou knyazi U Van, Shan podshosi Di Singa qarshi isyon ko'tarib, Mu-e yonidagi jangda shanliklar ustidan g'alabaga erishadi. Shan podshosi Di Sin poytaxti Chaoge shahriga qochib, o'z saroyi "Kiyik minora"da joniga

qasd qilgan. Dushman qo‘shini shaharga kirib kelib, U Vanni podsho deb e‘lon qiladi. Shu tariqa Xitoyni 300-yil birlashtirib turgan Chjou davlatiga asos solinadi. Chjou Sharqiy va G‘arbiy Xitoyni nazorat qilib turishga erishdi. Shimoliy Xitoydagi bir-necha yirik qabilalar birlashtirildi. Bosib olingan yerlarni U Van qarindosh urug‘lari va tarafdorlariga bo‘lib beradi. So‘ngra, taxtga U Vanning o‘g‘li yosh Chen-van keladi. Hukmronligining dastlabki yetti yilligi davrida davlatni amakisi Chjou-gun boshqaradi. Shanliklar isyoni bostiriladi va ular o‘z yerlaridan ko‘chirib yuboriladi. Shuningdek, ko‘chmanchi I qabilariga qarshi yurish qilinadi.

Mil. avv. 996-yili taxtga Chen-vanning o‘g‘li Kan-van keladi. Uning davrida qaram viloyatlar boshqaruvi isloh qilinib, ularning soni 55 dan 36 taga kamaytiriladi va ixchamlashtiriladi. Yozma manbalarning ta’kidlashicha (“Bambuk kitoblar” va ”Shitszi”) o‘sha vaqtda Chjou davlatida tinchlik hukm surgan. Mil. avv. 977-yili imperator vafot etadi. Keyingi imperator Chjao-van janubdagi isyonlarni bostirishga urinadi va Janubiy Xitoyda tuzilgan Chu podsholigi bilan urushda halok bo‘ladi.

Chjou podsholari “shanfu” (yuz boshi) va “szay” (boshliq yoki to‘g‘rilovchi) unvonlariga ega bo‘lgan saroy a‘yonlariga tayanib davlatni idora qilganlar. Podsho saroyi davlat boshqaruvining markazi hisoblangan. Davlat yerlarini nazorat qilish uchun podsho alohida mansabdor shaxsni tayinlar edi.

Mil. avv. VIII asr boshlarida Chjou davlatidan shimoli g‘arbda yashagan “jun” qabilalari talonchilik yurishlarini amalga oshiradilar. Chjou podshosi Yu-Van (mil. avv. 781-771 yy) ularni to‘xtatish uchun urush olib boradi. Chjouning o‘troq aholisi junlarni var-var qabila sifatida ko‘rar edi.

Chjou (ayrim manbalarda G‘arbiy Chjou) davlatining poytaxti Xao shahridan Loi shahriga (zamonaviy Loyan) ko‘chirilishi bilan (mil. avv. 771-yil) Sharqiy Chjou sulolasining davri boshlanadi.

O‘z tarixining boshlanishidan G‘arbiy Chjou davlati uni o‘rab turgan qabilalar bosqinlaridan o‘zini himoya qilishga majbur bo‘lgan, ayniqsa, shimoli-g‘arbda va janubi-sharqda bu vazifani unumli bajarayotgan edi. Chjouxoning separatistik harakatlari kuchayishi bilan vanlarning (knyazlar) harbiy salohiyati sustlashgan, podsho hokimiyatining martabasi tushgan. Chjou hukmdorlari uchun qo‘shni qabilalarning, ayniqsa, shimoli-g‘arbda va janubi-sharqda kuchaygan

qabilalarning hujumlarini qaytarish borgan sari qiyinlashgan. Miloddan avvalgi VIII asrda Markaziy Osiyodan g'arbiy ko'chmanchi qabilalarning tuganmas bosqinlari bosimi ostida chjouliklar o'z ona yerlari bo'lmish Veyxe daryosi havzasini tark eta boshladilar. 771-yilda Yu-vanning askarlari ko'chmanchilar tomonidan mag'lub qilindi, uning o'zi asirga tushdi va shundan so'ng, uning o'g'li Pinvan poytaxtni sharqqa ko'chirdi. Bu voqeadan so'ng, an'anaviy Xitoy tarixshunosligida "Sharqiy Chjou"(mil. avv. 770-256 yillar) davri boshlanadi. Uning boshlang'ich bosqichi bo'lmish davr ya'ni mil. avv. VII asrdan mil. avv. V asrgacha bo'lgan davr yilnomalar an'anasiga binoan "Chunsyu" (bahor va kuz) davri deb nomlanadi*.

Mamlakatning sharqida o'rtnashib olgan Pinvan bu yerda Loi shahri poytaxti bo'lgan kichik davlatga asos soldi. Bu vaqtgacha an'anaviy tarixshunoslikka binoan Xitoy hududida 200 ta podsholik mavjud bo'lgan deb hisoblab, ko'pgina tadqiqotchilar ularni shahar-davlatlar guruhiga kirgizishadi. Umuman, Qadimgi Xitoydagi ilk davlatlar shakli haqidagi sharqiy despotiya kabi tasavvur allaqachon qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda va asosli tanqidga uchramoqda. Qadimgi Xitoyning ilk Chjou podsholiklari Veyxe daryosidan Shandun yarimoroligacha g'arbdan sharq tomon cho'zilib, Buyuk Xitoy tekisligini o'z ichiga olgan. Janub va janubi-sharqda Yanszi daryosining o'rta va quyi oqimlarini qamrab olgan, shimolda esa zamonaviy Pekin hududiga qadar yetib borgan. Umumlashtiruvchi nomlar ostida bo'lgan dushman qabilalari: "Di" (shimoliy qabilalar), "I" (sharqiy qabilalar), man (janubiy qabilalar), "Jun" (g'arbiy qabilalar) tomonidan o'rab olingan.

"Chunsyu" davri haqida arxeologik materiallardan tashqari ko'plab arxitektura yodgorliklari ham ma'lumot beradi. Ular orasida yuqorida eslatilgan Lu (Shandunda) podsholigining yilnomasi mashhur bo'lib, uning izohlari: "Gunyanchjuan" va eng mashhur bo'lmish "Szoehjuan" va "Goyuy" (podsholiklar nutqi) mil. avv. IX asr an'analariga mos ravishda qadimgi Xitoy tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

* "Chunsyu" – Lu podsholigi yilnosasining nomi bo'lib, ushbu davrdan bizgacha yetib kelgan yagona yilnomadir. O'z ichiga mil. avv. 722-482 yillardagi ob-havo yozuvlarini mujassamlashtirgan. Ilmiy adabiyotlarda "Chunsyu davri" uchun turli sanalar beriladi, ammo ularning barchasi mil. avv. VII-V asrlarga oid bo'lib, mil. avv. 403 yilgacha; shu sababli kevingi davr – "Chjuango uchun ham turli xil sanalar beriladi

Buyuk Xitoy tekisligidagi Xuanxe daryosining o'рта va quyi havzasida tarqatilgan podsholiklar orasida ularning bir qismi o'zlarini chjouliklar, boshqalari shanliklar avlodlari, deb hisoblashgan. Ammo, ularning barchasi o'z ustidan Osmon o'g'li, deb e'lon qilingan Chjoulik vanning oliy hokimiyatini tan olishgan va o'zlarini dunyoning "o'рта podsholiklari"(chjungo) deb hisoblashgan.

Chunsiyu va Chjango davri. Sin imperiyasining yuksalishi.

Mil. avv. VIII asrdan boshlab Xitoyda "Chunsiyu" (bahor va kuz) ya'ni "ko'p podsholiklar" davri boshlanadi. Bu tarixiy davr mil. avv. V asrlarga qadar davom etgan. Xitoy hududida Chjou podsholigi o'rnida Chjan, Vey, Chen, Sun, Lu, Szin, Chu, Yue, U va boshqa davlatlar yuzaga keladi.

Xuanxe daryosi o'рта oqimi va Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan davlatlar qolgan barcha xalqlar va podsholiklardan farqli o'laroq, o'zlarini "xuasya" etnomadaniy birligi qatoriga kirgizishgan va "o'rtadagi podsholik"lar deb nom olishgan. "O'rtadagi podsholik"larning barchasi Chjou davlatining ustunligini tan olishgan. Chjou hukmdori van "Samo o'g'li" ilohiy unvoniga ega edi, "o'rtadagi podsholik" larning hukmdorlari esa uni Xitoydagi oliy diniy nufuzga ega bo'lgan shaxs sifatida hurmat qilishgan.

Hamonki ushbu podsholiklar o'rtasidagi urushlar doimo bo'lib turar ekan, davlatlararo munosabatlar, ular o'rtasida ittifoqlar tuzish tartibi, razvedkani (josuslikni) tashkil etish masalalariga oid boy amaliy tajriba asrlar davomida to'plandi. Ayniqsa, josuslik katta rol o'ynagan. Shu paytda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga taalluqli ta'limotlar va doktrinalar yaratildi.

"O'rtadagi podsholiklar"ning "xuasya" va "varvarlar"ga o'xshamasligi to'g'risidagi tasavvurlar shakllandi va bu hol tashqi siyosiy aloqalar tamoyillariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Samo o'g'lini butun olamning hukmdori sifatida tasvirlaydigan Chjou doktrinasi "o'rtadagi podsholiklar" aholisining ustunligi va "varvar"larning tug'ma madaniyatsizligi to'g'risidagi Konfutsiy (mil. avv. 551-479 yy.) ta'limotining negizini tashkil etdi. Ushbu ta'limot qadimgi Xitoyda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir etdi.

Hukmdorlar huzuridagi ayrim amaldorlarning vazifalari doirasiga boshqa davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish masalasi kirardi va maxsus kishilar elchilar nutqini tayyorlashar edi. Dastlab saroyda

muhokama qilingan ushbu nutqlar qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borilganda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Si hukmdori Chjuan Gun (mil.av 743-701 yy) ning mustaqil ravishda tashqi siyosiy va diplomatik harakatlar olib borishi, hamda harbiy ittifoqlar tuzishi Chjou podshosi tomonidan unga "ba" (gegemon) unvoniga ega bo'lish huquqini tan olinishiga olib keldi. Ittifoqchi podsholiklar gegemonga birlashish muqaddas qasamini (men) ichishar edi. Si davlatidan so'ng, gegemonlik (Szin, U va Yue) birin-ketin boshqa knyazliklar qo'liga o'tib bordi. Bu davrda ichki urushlar doimiy bo'lib qolgan edi. Xitoy tarixida "Chunsu" (ya'ni bahor va kuz) davrining mafkuraviy asoslari Lu davlatida afsonaviy Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan, degan fikr mavjud. Unga ko'ra barcha insonlar o'z maqsad vazifasi va taqdiri bilan dunyoga keladi degan konsepsiya ilgari surilgan.

Gegemonlarning siyosiy ustuvorligini mustahkamlashda elchilarni qabul qilish va yuborish marosimi muhim rol o'ynar edi. Elchilarni yo'lga otlantirish gegemonlarni o'ziga yarashmasdi.


Shuning uchun bir paytning o'zida ittifoqchi podsholiklar hukmdorlarining shaxsan o'zlari elchilar sifatida gegemon huzuriga yetib kelardilar.

"Chjango davri" xitoyliklarga faqat doimiy urush va ochlikni olib kelgan edi. Tarixda bu davr ikki asr davom etgan bo'lib, "kurashuvchi podsholiklar" davri deb ham atalgan.

Mil. avv. 461-yili Xitoyning sharqi va g'arbiga qadar yastanib yotgan hududda Si, Vey va Sin davlati joylashgan edi. Janubda esa ulkan Chu podsholigi sharqdagi U va Yue davlatlarini qattiq qarshiligiga qaramay ularni bosib olishga intilayotgan edi.

Yuqoridagilar orasida Si davlatida nisbatan markazlashgan, soliq tizimi tartibga solingan va tuz savdosi davlat monopoliyasiga o'tkazilgan edi. Vey esa harbiy jihatdan cheklangan kuchga ega bo'lgan. Sin g'arbdagi ulkan hududga ega bo'lsada, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan boshqalarga nisbatan qoloq edi.

Ittifoqchi davlatlar podsholarining o'g'illarini garovga olish Chjango davridagi davlatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Davlatlar tomonidan mayda podsholiklarni bosib olish jarayoni avj olgan edi. Bu esa podsholiklar o'rtasidagi ittifoqlarning majburiy birlashuviga sabab bo'lar edi.




Davlatlararo yirik birlashmalarning alohida shakllari yuzaga keldiki, ular “vertikal bo’yicha ittifoqlar”, “gorizontal bo’yicha ittifoqlar”, “uzoqdagi davlatlarning yaqindagi davlatlarga qarshi ittifoqlar” deb nomlanishi bilan ma’lumdir. Ushbu sharoitda davlatlararo bitimlarni tuzish amaliyoti bilan bog’liq maxsus faoliyat turiga bo’lgan ehtiyoj paydo bo’ladi. Bunday zarurat nafaqat urush vaqtida, balki boshqa paytlarda ham talab qilinadi.

Konfutsiy ta’limotiga ko’ra jamiyatni boshqarish uchun har bir kishi o’z vazifasini sidqidildan bajarishi zarur bo’lgan. Diplomatiyaga taalluqli faoliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini Chjango davrida mavjud bo’lgan barcha g’oyaviy-siyosiy maktablarning vakillari ta’kidlashgan. Jumladan, Konfutsiy diplomatiya san’atini o’rgatishni podsholikni boshqarishdan keyin ikkinchi o’ringa qo’ygan. O’sha davrda elchilar yozma emas, balki og’zaki ko’rsatmalar bilan yuborilgan. Qadimgi Xitoyda diplomatik daxlsizlik haqida tushuncha mavjud bo’lmasligiga qaramasdan, amalda har qanday podsholikda elchiga katta hurmat bilan qaralgan.

Chjango davri hukmdorlarining saroylari qoshida “yuyshi” deb nomlangan yaqin amaldorlar bor edi. Ular hukmdor nomiga boshqa podsholiklardan yetib kelgan barcha maktublarni qabul qilish, hamda kelgusi muzokaralar uchun ma’lumotlar tayyorlash bilan shug’ullanardilar. Davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyoti bilan “szun xen” maktabining faoliyati doimiy ravishda bog’liq bo’lgan. Odatga ko’ra ushbu maktabning paydo bo’lishi donishmand Guy Gutszi (mil. avv. IV-III asrlar) nomi bilan bog’liq. Maktabning nomi ikki turdagi davlatlararo ittifoqlarning nomidan kelib chiqadi – “szun” (vertikal bo’yicha ittifoq yoki shimol-janub ittifoqi) va “xen” (gorizontal bo’yicha ittifoq yoki sharq-g’arb ittifoqi).

Mil. avv. IV asr oxiriga kelib Xitoyni birlashtirish yo’lida Chu va Sin davlatlari o’zaro raqobatlashadilar. Sin podshosi Syao-Gun (mil. avv. 361-338 yy) ning yirik amaldorlaridan biri Shan Yan ushbu davlatda islohotlar o’tkazadi. U soliqlarni tartibga solib, yerni sotish va sotib olishga ruxsat beruvchi qonunlarni kiritadi. Islohot armiyada ham amalga oshirilib, Sin davlati qo’shinlari qayta tuziladi. Natijada podsho hokimiyati kuchayadi va davlat tizimi markazlashadi. Ammo, podsho Syao-Gun vafot etgach, Shan-Yan eski zodagonlar tomonidan qatl etiladi. Shunday bo’lsa-da, uning islohotlari kelgusida Sin davlatining Xitoyni birlashtirish yo’lida muhim poydevor bo’lib

xizmat qilgan. Keyinchalik Sin podshosi In Chjen (mil. avv. 241-210 yy) davrida istilolarni amalga oshirish tashqi siyosatning asosiy vazifasiga aylandi. mil. avv. 230-yil Xan, mil. avv. 225-yil Vey, mil. avv. 223-yil Chu, mil. avv. 222-yil Chjao va Yan hamda mil. avv. 221-yili Si davlatlari bo'ysundirildi. In Chjen bir necha bor unga uyushtirilgan suiqasdlardan omon qoladi. Sin podsholigi esa ko'p asrlardan buyon parchalanib yotgan Xitoyni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa "Chjango" (Kurashuvchi podsholiklar) davri nihoyasiga yetadi.



Sin Shi Xuandi maqbarasidan topilgan sopul askarlar

Yangi davlatning asoschisi In Chjen imperatorlik darajasini oladi va Sin Shi Xuandi sifatida butun Xitoy ustidan o'z hukmronligini o'rnatadi. Mamlakat eski podsholiklar chegaralari bilan hisobga olinmay, 36-ta viloyatga bo'linib, har biriga shaxsan Sin Shi Xuandi tomonidan noiblar tayinlanadi. Butun Xitoyga yagona o'lchov birliklari va pul joriy qilinadi.

Yo'llar bir xil standart asosida savdo aravalariga mos qilib qurila boshlandi. Syanyan shahri Sin imperiyasi poytaxtiga aylandi. Miloddan avvalgi 210-yil imperator Sin Shi Xuandi kichik o'g'li Xu Xay, kanselyariya boshlig'i Chjao Gao va bosh maslahatchisi Li Silar bilan mamlakat bo'ylab sayohati paytida olamdan o'tadi. Taxtga 21 yoshli Xu Xay (Er Shi-Xuandi nomi ostida) o'tkaziladi. Amalda esa davlatni bosh vazir Chjao Gao boshqaradi. Imperiyada ichki nizolar

boshlanib, Chen Shen, U Guan va Lyu Ban boshchiligida xalq qo'zolonlari boshlanib ketadi.



Sin imperiyasi davriga oid jangovor arava

Xan imperiyasining ichki va tashqi siyosati. Miloddan avvalgi 203-yilda Sin sulolasi xalq qo'zg'olonlari natijasida kuchsizlandi. Gaysya yonidagi jangda Lyu Ban qo'shini Chu sulolasidan bo'lgan Syan Yuyni yengadi. Bir yildan so'ng, Sin davlati o'rnida Xan saltanati tuziladi. Xan imperiyasining qo'shni xalqlar bilan munosabatlarda avvalgi davrdan meros bo'lib qolgan oykumena egotsentrik (egotsentrizmga oid, o'ta manmanlik, o'zini dunyoga ustun deb bilish) konsepsiyasi katta rol o'ynagan.

Ushbu rasmiy tashqi siyosiy doktrina "daosizm" falsafasiga oid asarlarda o'z aksini topgan konsepsiyaga qarama-qarshi bo'lib, unga ko'ra "O'rtaliq saltanat" ning boshqa xalqlarga nisbatan ustunligi inkor qilingan. Xan imperiyasining, uning tarkib topgan kunidan boshlab eng muhim tashqi siyosiy vazifasi – chegaralarni ko'chmanchi Syunnu (xunn) qabilalarining muntazam bosqinlaridan himoya qilish edi. Miloddan avvalgi III asrning oxiriga kelib imperiyaning shimoliy chegaralarida ushbu qabilalarning qudratli birlashmasi vujudga keladi. Miloddan avvalgi 198-yilda tuzilgan "Tinchlik va qarindoshchilikka asoslangan shartnoma"ga binoan Lyu

Ban shanyuy (syunnu qabilalarining oliy sardori) Modega nisbatan o'lp'on to'lovchi ekanligini amalda tan oladi.

Miloddan avvalgi 195-yilda Lyu Banning o'limidan so'ng, taxtga uning o'g'li Xuey-di (mil. avv. 195-188 yy) o'tiradi. Ammo, mamlakatni amalda malika Lyuy-xou va uning qarindoshlari boshqaradi. Imperator esa, sharobxo'rlik va ayshu-ishratga berilib, davlatni deyarli idora qilmay qo'yadi.

Xunlar hukmdori Mode vaziyatni o'zi uchun qulay deb hisoblab, yana bir marotaba nazarini Xitoyga qaratdi. Modomiki, Xitoyga hujum qilishga rasmiy bahonasi bo'lmagan Mode ig'vo qilmoqchi bo'ldi va miloddan avvalgi 192-yilda Lyu Banning beva xotini malika Lyuy-xouga nikoh taklifi bilan maktub yubordi. Konfutsiylik axloqiga binoan, beva hukmdor ayolga nikoh taklifi bilan murojaat qilish odob qoidalarining qo'pol tarzda buzilishi edi. Lyuy-xou darhol shanyuy Modega qimmatbaxo sovg'alar yubordi. Shu bilan bir qatorda nikoh to'g'risidagi taklifga rad javobini berdi.

Mil. avv. 188-yili davlat boshqaruvida qobiliyatsiz imperator Xuey-di vafot etadi va malika Lyuy-xou buyrug'iga binoan uning yosh o'g'li Shao-di Gun (mil. avv. 188-184 yy) taxtga chiqariladi. Manbalarda ta'kidlanishicha, Shao-di Gun, imperator naslidan bo'lmagan. Mamlakat yana Lyuy-xou tomonidan boshqarilishi davom etadi. Biroq, bu imperator ham qo'g'irchoq hukmdor edi. Mil. avv. 180-yil malika Lyuy-xou olamdan o'tgach, saroy zodagonlari Lyuy qavmidan bo'lgan vazirlar hamda knyazlarni boshqaruvdan chetlatadilar. Taxtga imperator Ven-di (mil. avv. 180-157 yy) chiqariladi. Yangi imperator davrida soliqlar kamaytiriladi va mamlakatda osoyishtalik hukm suradi. Mil. avv. 165-yil imperator amaldorlikka o'tish uchun imtihon tizimini kiritadi. Xan imperiyasida konfutsiychilik bilan bir qatorda daosizm ma'rifati rivojlanadi.

Mil. avv. 157-yili taxtni Szin-di (asl ismi Lyussi) egallaydi. U otasining siyosatini davom ettirib, soliqlarni kamaytiradi. Ammo, Xan imperiyasiga kiruvchi knyazliklar boshida turgan knyazlarning nufuzi kundan-kunga oshib boradi. Ushbu knyazliklar mustaqil ravishda tangalar zarb etar, hududlarda soliqlarni yig'ar, hatto o'z qo'shinlariga ham ega edilar. Mil. avv. 154-yil imperator Szin-di ularni huquqlarini cheklab, ayrim knyazliklarning hududini qisqartirmoqchi bo'ladi. Bu yo'l bilan imperator ularning ortib borayotgan kuch-qudratini pasaytirmoqchi bo'lgan. Natijada U knyazi Lyu Pi, Chu knyazi Lyu

U, Szyaosi knyazi Lyu An, Szyaodun knyazi Lyu Syunsyuy, Szichuan knyazi Lyu Syan, Szinan knyazi Lyu Piguan, Chjao knyazi Lyu Suylar imperatorga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Tarixda bu isyon "Yetti viloyat qo'zg'oloni" deb nomlangan. Xan imperiyasida ichki nizolar boshlanib ketadi. Imperatorning buyrug'i bilan Chjou Yafu boshchiligidagi hukumat armiyasi dastlab U hamda Chu knyazliklaridagi qo'zg'olonni bostiradilar. So'ngra, imperator qo'shinlari boshqa knyazliklardagi isyonlarni (Szyaosi, Szyaodun, Szichuan, Szinan, Chjao) bostirishga muvaffaq bo'ladi. Umuman qo'zg'olonchi knyazliklarni mag'lub etish uchun uch oy kerak bo'ldi. Imperator Szin-di mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi.

Szin-didan keyin taxtga uning o'g'li U-di (mil. avv. 140-87 yy) keladi. Uning davrida konfutsiylik ta'limoti ravnaq topadi. Miloddan avvalgi 133-yilda xunlar bilan tuzilgan tinchlik shartnomasi bekor qilindi va imperator U-di ularga qarshi harbiy yurishlar boshladi. Miloddan avvalgi 138-yilning o'zidayoq U-di xunlarga nisbatan dushman bo'lgan yue-chji qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida Chjan Syan boshchiligidagi elchilikni jo'natadi. O'rta Osiyoda bo'lgan davrida Chjan Syan ilgari xitoyliklar uchun noma'lum hisoblangan yirik o'lkalarni kashf etdi.

Mil. avv. 119-yil xunlar bilan olib borilgan urush Xan imperiyasi uchun muvaffaqiyatli bo'ldi. Ko'chmanchilar vaqtinchalik bo'lsa-da kuchsizlantirildi. Endi Shimoliy Xitoyga xavf soluvchi ko'chmanchi halqlarning eng kattasi yo'ldan olib tashlangan edi.

Xan imperiyasi Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan Sharqiy Turkiston o'lkasining shahar - davlatlarida o'z ta'siri va hukmronligini yoyish uchun turli diplomatik va harbiy usullardan foydalangan. Ushbu siyosatni amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida Xan imperiyasining usun qabilalari bilan ittifoq tuzishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Miloddan avvalgi 115-yilda usunlar huzuriga Chjan Syan boshchiligidagi elchilik yuborildi. Ushbu elchilik Xan davridagi Xitoy davlatining Markaziy va O'rta Osiyo hamda O'rta Sharqning boshqa mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalarini rivojlanishida katta rol o'ynadi. Biroq, Buyuk Ipak Yo'lini egallash U-di uchun uning "imperiya sarhadlarini 10 ming li (masofa o'lchov birligi) gacha kengaytirish va hokimiyatini butun dunyo bo'ylab yoyish" g'oyasini amalga oshirishdagi muhim bosqich edi. Harbiy yo'nalishdagi faol tashqi siyosat bilan bir qatorda U-di janubiy va shimoliy-sharqiy

yoʻnalishlar boʻyicha keng istilochilik harakatlarini olib bordi. Mil. avv. 109-yil imperator U-di Lyaodun yarim oroli va Koreyaga harbiy yurish uyushtirib, Pxenyanni egallaydi. Koreyadagi Choson davlatini bosib olib, uni toʻrt viloyatga boʻlib yuboradi. Bir yildan keyin imperator buyrugʻi bilan Sharqiy Turkistonga general Chjao Pon qoʻshinlari yuboriladi. Natijada Turfan yerlari bosib olinadi. Mil. avv. 105- yil Usun (Yettisuv) davlati hukmdori bilan qarindoshlik rishtalarini bogʻlab, ular bilan ittifoq tuzadi. Mil. avv. 104-yil U-di buyrugʻi bilan general Li Guanli Davan (Fargʻona) davlatiga qarshi qoʻshin tortib boradi. Ammo, bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Xitoyliklar katta talafot koʻrib, Davan bilan sulh tuzib ortga qaytadilar. Shu bilan birga, yillar davomida U-di tomonidan olib borilgan tashqi urushlar davlat gʻaznasini kamaytirdi. U-di vafotidan soʻng, yirik istilochilik yurishlari deyarli olib borilmadi. Taxtga uning oʻgʻli Chjao-di (mil. avv. 87-74 yy) chiqadi. Mamlakatni vaqtinchalik regent sifatida Xo Guan ismli zodagon boshqaradi. Oʻzining qisqa boshqaruvi davrida Chjao-di otasidan farqli oʻlaroq soliqlarni kamaytiradi va jadal tashqi siyosatdan voz kechadi. Mil. avv. 74-yili taxtga Syuan-di chiqadi. Uning davrida xunlar bilan urush (mil. avv. 71-y) boshlanib, Xitoyning gʻarbiy chegaralari talon-taroj etiladi. Biroq, Xan imperiyasi qoʻshinlari dushmanga munosib qarshilik koʻrsatadilar. Xunlar ortga qaytib ketadilar. Soʻngra, taxtga Yuan-di (mil. avv. 49-33 yy) keladi. Uning davrida imperator saroyida hokimiyat uchun zodagonlar ikki partiyaga (yaʼni konfutsiychilar va saroy partiyasi) boʻlinib kurash olib borganlar. Natijada mamlakat kuchsizlanib boradi. Keyingi imperator Chen-di (mil. avv. 33-yildan milodiy 7-yilgacha) hukmronligi yillarida imperiyada korrupsiya kuchayadi va zodagonlarning Van qavmini nufuzi ortadi. Imperator hokimiyati esa susayib boradi. Bunday vaziyatdan saroy aʼyonlaridan biri Van Man foydalanib qoldi va milodiy 9-yili imperator Jutszi Inni taxtdan qulatib oʻzini hukmdor deb eʼlon qiladi. Uning davrida Xitoyda pul va yer islohotlari oʻtkaziladi. Maʼmuriy boshqaruv tizimiga ham oʻzgarishlar kiritiladi. Bu orada tabiiy ofat yuzaga keladi yaʼni Xuanxe daryosi oʻzanlaridan chiqib mamlakatning unumdor yerlariga katta talafot yetkazadi. Milodiy 18-yili Shandun va Szyansu viloyatining janubida podsho hokimiyati hamda yirik yer egalari qarshi tarixda “qizil qoshlar” qoʻzgʻoloni deb nom olgan dehqonlar harakati boshlanib ketadi. Dehqonlar hukumat qoʻshinlaridan oʻz

odamlarini ajrata olishlari uchun qoshlarini o'z ichiga bo'yab olgan edilar. Kamiga milodiy 21-22 yillarda imperiyada ocharchilik boshlanadi.

Bularning barchasi dehqonlarni ag'darib tashlagan Lyu sulolasi vakillari va Fan Chun boshchilik qilayotgan "Qizil qoshlar" armiyasi tomoniga o'tishga majbur qiladi. 23-yil Van Man taxtdan ag'darilib, hokimiyatga Lyu sulolasi vakili Lyu Syuan (Genshi-di) keladi va Xan imperiyasini qayta tiklangani e'lon qilinadi. Ko'p o'tmay "qizil qoshlar" qo'zg'oloni ham bostirilib, milodiy 25-yil (ayrim manbalarda 27-yil) imperator Lyu Syu poytaxtni Loyanga ko'chiradi. I asrning o'rtalariga kelib esa Xan imperiyasi yana qadimgi dunyoning eng yirik davlatiga aylandi. Ushbu davrda imperiyaning eng asosiy vazifasi shimoliy xunn qabilalarini bo'ysundirish va "g'arbiy o'lkada" (Sharqiy Turkiston yerlari) o'z hukmronligini tiklash edi. Milodiy 73-yilda Ban Chao elchilik vazifasi bilan g'arbiy o'lkaga yuborildi. Uning bu yerlardagi harakatlari o'sha zamon diplomatiyasiga xos tarzda olib borildi.

Sharqiy Turkiston shahar-davlatlari qayta bo'ysundirildi. 80-yillarning oxiridan boshlab Buyuk Ipak Yo'li orqali Kushon davlati, Ansi (Parfiya) va Rim imperiyasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatildi. Bu aloqalar millodiy I va II asrlar chegarasida eng yuqori darajaga ko'tarildi. Rim imperiyasi (qadimgi Xitoy manbalarida Datsin deb nomlanadi) bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga urinishlar ham bo'lgan. Keyinchalik mamlakat korrupsiya va ichki nizolar tufayli kuchsizlana boshlaydi.

Milodiy 184-yil og'ir soliqlar va majburiyatlarga qarshi xalq akavukalar Chjan Szyao, Chjan Bao hamda Chjan Lyanlar boshchiligida ("Sariq ro'mollilar") qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilarning umumiy soni 300 ming kishiga yetib, ular 30 dan ortiq guruhlariga bo'lingan edi. Qo'zg'olon 205-yil Xan sarkardalari Dun Chjo va Sao Saolar tomonidan qiyinchilik bilan batamom bostiriladi.

Tez orada Sao Sao bosh vazir bo'lib olgach imperator hokimiyati nomigagina tan olinadi. So'ngra, 220-yil mart oyida bosh vazir Saossao vafotidan so'ng, Xan imperiyasining so'nggi imperatori Syan-di taxtdan vos kechadi. Hokimiyatga Sao Saoning o'g'li Sao Pey keladi va o'zini Vey davlati podshosi deb e'lon qiladi. Natijada Xitoy uch mustaqil davlatga (Vey, Shu, U) bo'linib ketadi.

Qadimgi Xitoy madaniyati

Qadimgi Xitoy madaniyati butun Uzoq Sharq mintaqasining tarixiy-madaniy sivilizatsiyasiga asos solgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerdagi dastlabki falsafiy-teologik tafakkur insonning shaxsiga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. In davridayoq xitoyliklar 30 ming sonigacha sanoqni bilishgan. Astronomiyani esa hosil yig'ishda dehqonchilikka bog'lay olganlar. Mil. avv. 613-yili qadimgi xitoyliklar birinchi bor Galiley kometasini aniqlaganlar. Mexanikani bilish irrigatsiya va mudofaa inshootlarini qurishda qo'l kelgan.

Dunyoni yaratilishini qadimgi xitoyliklar quyidagicha tasavvur qilishgan. Ya'ni, dastlabki inson In va Yan ruhlari ta'sirida yaratilganligi, In ruhi yer bo'lganligi va ular dunyoni muvozanatga solganligi ta'riflanadi. Dastlabki inson Pangu deb nomlangan. U kosmik tuxumni bolg'a bilan ikkiga bo'lib tashlagach, barcha yaxshilik va tozalik yengil bo'lganligi uchun samoga ko'tarilgan va osmonni hosil qilgan. Barcha og'ir va iflos narsalar yerni tashkil qilgan. Vafot etgan Panguni tanasidan dunyo yuzaga kelgan deb tasavvur qilingan. Boshqa rivoyatlarda insonlarni yaratuvchisi sifatida ilon dumli Nyuyva ilohasi tilga olinadi.

Xitoy aholisining madaniy merosining tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Bu yerda qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Yaqin Sharqdagi kabi ko'hna madaniyat taraqqiy etgan. Mazkur hududda dastlabki sivilizatsiyalar paydo bo'lishi bilan insonlar yuksak madaniyatga asos solganlar. Xitoyliklar qadimdan juda mehnatkash xalq bo'lib, dehqonchilik va chorvachilikni erta o'zlashtirganlar. Mil. avv. II ming yillikdan boshlab, Xuanxe va Yanszi daryolari qirg'oqlarida paydo bo'lgan davlatlar (Shan) davridayoq qadimgi Xitoy piktografik yozuvlari paydo bo'ladi. Keyinchalik bu yozuvlar iyeroglif shakliga kira boshlaydi. Iyeroglif yozuvlar ma'lum bir ma'noni anglatuvchi so'zlar edi. Shan-In davrida u takomillashadi, yozuvdan asosan diniy marosimlarda, fol ochishda, mulkiy munosabatlarni hal etishda va boshqa maqsadlarda foydalanish keng quloch ochadi. Yozishda dastlab qora molning kurak suyaklari, toshbaqa toshi, shoyi mato va bambuk taxtachalaridan foydalanganlar. Faqatgina mil. avv. I asrdan boshlab, qog'ozga yozishni boshlaydilar. Qog'ozni ixtiro etilishi esa davlat boshqaruvi, fan va madaniyatni rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Qadimgi xitoyliklar ilmiy bilimlarni dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikda qo'llashni yaxshi bilganlar. Irrigatsiyadagi katta yutuqlar pirovardida dehqonchilikda hosildorlikni ko'payishiga olib kelgan. Suvsiz joylarni sug'orish uchun maxsus moslamalar ixtiro qilingan. Ular yana ipak qurti yordamida ip olish va undan mato to'qish texnologiyasini ishlab chiqqanlar.

Shan-In davridayoq, marosimlar uchun maxsus joylar belgilangan. Xitoyga xos shaharsozlik madaniyati mil. avv. I ming yillikning I yarmida yuzaga keladi va bir necha asr davomida deyarli o'zgarmay borgan. Mil. avv. 202-yil Xan imperatori Lyu Ban Sin imperiyasi poytaxti Syanyan o'rniga Chyan shahrini quradi. Mil. avv. 194-yildan to 190-yilgacha ushbu yangi poytaxt qurilishi davom etgan. Shahar 36 kv.km. uzunlikdagi mudofaa devori bilan o'ralgan.

Qadimgi Xitoy me'morchiligi dunyoning boshqa davlatlarida mavjud bo'lgan me'morchilik maktablaridan qolishmaydi. Masalan, ko'chmanchi qabilalardan mudofalanish uchun qurilgan dunyoga mashhur "Buyuk Xitoy devori"ni olaylik. Uning uzunligi 4000 kilometrga yaqin bo'lib, balandligi 12 metr, qalinligi esa 5 metrga teng bo'lgan. Bu mahobatli me'moriy majmuaning Sin imperiyasi paydo bo'lishidan avval qurilishi boshlangan edi. Shu bilan birga, mashhur Sin imperatori In Chjen (Sin-shi Xuandi) maqbarasi o'zining go'zal va maftunkor mahobati bilan kishilarni e'tiborini tortadi. Arxeologik ilmiy izlanishlar jarayonida bu maqbaradan imperator Sin Shi Xuandini narigi dunyoga kuzatuvchi 6000 dan ortiq askarlarning sopol haykallari topilgan. Hayratlanarli jihati shundaki, har bir askarning yuzi boshqalarning yuz qiyofalaridan tubdan farq qilgan. Shu bilan birga, hukmdorning maxsus aravasi ham topib o'rganilgan.

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga kelib qadimgi Xitoyda bir nechta falsafiy va mafkuraviy maktablar yuzaga keladi. Bularga konfutsiylik, daosizm, moizm va legizm kabilar misol bo'la oladi.

Qadimgi Xitoydagi ilmiy bilimlarning asoslaridan biri sifatida falsafani tan olishgan. Bu yerda mashhur faylasuf Kun-szi (mil. avv. 551-479 yy) faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik u dunyoga Konfutsiy sifatida tanilgan. Konfutsiy Xitoyda birinchi bor xususiy maktabini ochadi. Lunyuy ("Suhbatlar va mulohazalar") traktatida bilimli insonlarning ta'limoti - "jutszya" deb nomlangan. Konfutsiy yashagan davrda Xitoyni ichki nizolar va urushlar qamrab olgan edi. Shunga qaramasdan uning falsafiy ta'limoti Xitoy jamiyati uchun eng kerakli

dastur-ul amal vazifasini bajardi. Chunki, konfutsiylik etikasi diniy emas edi. Ammo, tabiat bilan uyg'unlikka intilish jamiyat uchun muhim deb, hisoblangan. Konfutsiy etikaning oltin qoidasi sifatida "o'zingga ravo ko'rmagan narsani, bировga ravo ko'rma" tushunchasini ilgari surdi. Uning fikricha haqqo'y va solih inson quyidagi besh tamoyilga rioya qilishi kerak edi. Bularga "Jen" insonlarga muhabbat, "I" haqiqat va adolat, "Li" urf-odat, "Chji" aql-zakovat hamda "Sin" samimiylik yoki yaxshi niyat kabilar kirgan. Garchand Konfutsiy o'z yurti Lu davlatidan badarg'a qilingan bo'lsada, u yaratgan ta'limot Xitoyning boshqa joylariga va keyinchalik butun dunyoga yoyildi.

Shu bilan birga mil. avv. V-III asrlarda Xitoyda "daosizm" ta'limotining asoslari paydo bo'ladi. Afsonalarga ko'ra daosizmga mashhur donishmand Lao-szi asos solgan. Bu falsafiy va diniy ta'limot konfutsiylik bilan bir qatorda rivojlanib borgan. Xitoy jamiyatining taraqqiy etishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Chjango davrida Mo Di (mil. avv. 468-376 yy) ismli faylasuf moistlar maktabini tuzadi. Bu falsafiy maktab vakillari konfutsiylikdan farqli o'laroq, inson taqdiri uning o'ziga bog'liqligini ta'kidlashadi va samo qarorini anglab yetish mumkin deb hisoblaganlar. Ushbu maktab vakillari ta'limoti Qadimgi Xitoy madaniyatiga ta'sir etmay qolmagan.

Qadimgi Xitoyda, shuningdek, tarix va geografiya fanlari ham yaxshi rivojlangan. Masalan Sima Syan, Fan E, Ban Gu va boshqa olimlar Xitoy tarixi va geografiasiga oid asarlar yozib qoldirishgan.

Qadimgi Xitoyda matematika va astronomiyaga ham katta e'tibor berilgan. Shan-In davlati davrida astronomiyaga oid bilimlar shakllangan edi. O'sha davridayoq xitoylik astronomlar quyosh va o'ying tutilish vaqtini aniq hisoblay olganlar. Manbalarda ta'kidlanishicha keyinchalik xitoylik olimlar janubni ko'rsatuvchi kompasni ham ixtiro qilganlar. Umuman olganda, Qadimgi Xitoy madaniyati dunyo xalqlari sivilizatsiyasida o'chmas iz qoldirgan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М.,2007.

2. Васильев К.В. Истоки китайской цивилизации. – М., 1998.

3. Дебен-Франкфор К. Древний Китай. – М., 2002.

4. Древнекитайская философия. Эпоха Хань. – М., 1990.
5. Бонгард-Левин Г.М. История древнего востока. Том. III. – М., 2004.
6. Лёве М. Китай династии Хань. Быт, религии, культура. – М., 2005.
7. Di Cosmo, Nicola. Ancient China and Its Enemies: The Rise of Nomadic Power in East Asian History. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
8. Csikszentmihalyi, Mark. Readings in Han Chinese Thought. Indianapolis and Cambridge: Hackett Publishing Company, 2006,
9. Ebrey, Patricia Buckley. The Cambridge Illustrated History of China. Cambridge: Cambridge University Press.1999.
10. S. W. Bauer-The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome-W. W. Norton & Company .2007.

22-mavzu. Xunnlr imperiyasi

Reja

1. **Xunnlr davlatining paydo bo'lish shart-sharoitlari.**
2. **Xunnlr imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.**

Mil. avv. III asr oxirlarida Simoliy Xitoy va hozirgi Mo'g'uliston hududida 24 ga yaqin xunn qabilalari birlashuvi jarayoni boshlanadi. Bu jarayonga Mode ismli sardor boshchilik qiladi. U xunn qabilalari ittifoqi hukmdori Tumanning (yoki Touman) katta o'g'li edi. Tuman hokimiyatga boshqa o'g'lini o'tkazishga qaror qilib, Modeni xunnlarga dushman bo'lgan yue-chjilar (ayrim manbalarda yue-chji) qarorgohiga ular bilan tuzilgan sulhga asosan garov sifatida yuboradi. So'ngra, yue-chjilarga hujum uyushtiradi.

Bu orada Mode dushmanlar qo'ldan qochib otasi oldiga keladi. Hukmdor o'g'ldan nafratlansa-da uning ephchilligiga qoyil qoladi va 10 ming kishilik qo'shinga uni boshliq etib tayinlaydi. Ko'p o'tmay Mode otasiga ov paytida suiqasd uyushtiradi (otasi tomon o'zi va unga bo'ysunuvchi 10 ming navkar kamondan o'q uzishadi), so'ngra qo'nalg'aga kelib, rasmiy valiahd ukasi va o'gay onasini qatl etadi. Shuningdek, unga qarshi bo'lgan dasht zodagonlarini ham o'limga

hukm qiladi va o'zini "tengri guttu" ya'ni hukmdor (qadimgi Xitoy solnomalarida esa "shanyuy") deb e'lon qiladi.

Xunlar konfederatsiyasining sharqida yashovchi protomo'g'ul tilli dunxu qabilalari qo'shnilarida yuz bergan siyosiy vaziyatdan foydalanmoqchi bo'ldilar. Ammo, shanyuy Mode ularni mag'lub etibgina qolmay hukmdorini o'ldirib, katta o'ljani qo'lga kiritadi. Shundan so'ng, hozirgi Mo'g'ulistonning katta qismi va shimoliy Xitoy yerlarini o'z ichiga olgan ilk ko'chmanchilar imperiyasiga asos soladi. Ularning davlatida barcha erkaklar, ko'chmanchilar harbiy iyerarxiyasi tarkibida edi. Qo'shinda o'sha zamon ko'chmanchilari uchun begona bo'lgan qattiq tartib o'rnatiladi. Natijada qabilalar ayirmachiligiga (separatizm) chek qo'yiladi. Ammo, xunlar davlatida hamma xunn tilida so'zlashgan deb bo'lmaydi. Hatto qo'shin borasida ham turli bahslar mavjud. Jumladan, taniqli olimlar N.N. Kradin va A.M. Xazanovlarning fikricha, umumiy qo'shin soni 250-300 mingdan oshmagan. Xitoy tarixchisi Sima Syan esa ("Shitszi"ga asoslanib) ko'chmanchilar armiyasini 400 mingdan iborat deb ta'kidlagan.

Bu orada shanyuy Mode yue-chjilar konfederatsiyasiga yurish qiladi va ularni kuchsizlantiradi. So'ngra, mil. avv. 200-yili Xan imperiyasi hududiga kirib boradi va imperator Lyu Ban(Gaotszu) bilan Bayden yonidagi jangda taktik g'alabaga erishadi. Ya'ni, u Xan imperatorini qurshovga olishga muvaffaq bo'ladi. So'ngra, masala diplomatik yo'l bilan hal qilinadi. Xitoylik malika shanyuy Modega nikohlab berilib, Xan imperiyasi bilan "tinchlik va qarindoshlik" bitimi tuziladi. Natijada 50 millionga yaqin aholiga ega bo'lgan Xan imperiyasi xunlarga o'lpon to'laydigan bo'ladi.

Mil. avv. 174-yilga kelib shanyuy Mode vafot etadi. O'rniga uning o'g'li Laoshan shanyuy hokimiyatga keladi. Xan imperiyasidan unga malika xotinlikka (xunlarda "kxvaton" yoki "xatun") yuboriladi. Shanyuy Laoshan dastlab o'z oldiga Chjunxin Yue ismli xitoylik maslahatchini oladi va uning yordamida soliq tizimini tartibga soladi. Ko'p o'tmay yue-chjilarni butunlay mag'lub etishga muvaffaq bo'ladi hamda ularni katta qismini (Xitoy manbalarida "Da yue-chji") O'rta Osiyoga siqib chiqaradi. Yue-chjilar sardorining bosh suyagidan qimiz ichish uchun kosa yasatadi. Mil. avv. 166-yili 140 ming kishilik xunlar qo'shini Xan imperiyasi hududiga yurish qiladi. Xunlar qo'shini Chao-na va Syao-guan viloyatlarini bir oyga yaqin talon-taroj

adilar, so'ngra ortga qaytadilar. Mil. avv. 161-yil shanyuy Laoshan dan o'tadi. Taxtga o'g'li Gyunchen o'tqaziladi. Mil. avv. 158-yil xunlar tinchlik shartnomasini buzib, Xitoyning Shan-gyun va Yunan viloyatlarini talaydilar.

Odatda hunarmand qullar ko'chmanchilarga qaram bo'lgan shaharlar oldiga joylashtirilgan. Misol uchun manbalarda Xitoydagi xunlar davlatiga olib ketilgan qullar soni 180-760 ming kishiga ekanligi ta'kidlab o'tiladi. O'troq dehqonlardan qullikka olib ketilgan aholi dastlab qul bo'lib yashagan, so'ngra ko'chmanchilar bilan aralashib ketgan. Xitoyning o'troq aholisini asir qilib olib ketish Mil. avv. 157-yilgacha, ya'ni imperator Syao-ven Xunlar bilan aniq shimoliy chegarada savdo tizimini yo'lga qo'ymaguncha davom etgan. Mil. avv. 126-yilning qishida shanyuy Gyunchen vafot etadi. Uning o'g'liga Ichisye shanyuy maqomiga ko'tariladi. Uning davrida Xan imperiyasi bilan bo'lib o'tgan doimiy urushlar mamlakatni qahshizlantiradi. Mil. avv. 114-yil taxtni Uvey shanyuy egallaydi va Xitoy bilan tinchlik shartnomasini tiklaydi. Mil. avv. 53-yili Xuxane shanyuy Xan imperiyasining vassali bo'lib qoladi.

Milodiy 33-yildan Xan imperiyasi jadal harbiy taktikani qo'llay boshlaydi hamda hozirgi Xalxa (Mo'g'uliston) hududigacha kirib olib xunlarni yenga boshlaydi.

Milodiy 48-yili xunlar davlati ikkiga bo'linib ketgandan keyin (Joni Janubiy va Shimoliy) xitoyliklarni asirlikka olib ketish boshlaydi. Xitoy hududida yashagan qullar ko'chmanchilar yerlarini tarkib chiqib o'tganlar. Zero, xunlar davlatida urug'chilik tizimining ta'sir kuchini kuchlikni o'troq ziroatkor Xan imperiyasidagi kabi rivojlanishiga yo'l qo'ymas edi.

Milodiy 87-yil avvallari xunlarga qaram bo'lgan shanyuy davlatlari Xan imperiyasining ta'siri ostida shimoliy Xunlar davlatiga hujum qiladi. Ko'chmanchilar an'alariga sodiq qolgan shimoliy Xun davlati bir-necha yildan (93 yil) so'ng, tugatiladi. Janubiy Xun davlati esa ichki nizolar tufayli kuchsizlanib, III asr boshlariga qadar Xitoyga qaram davlat sifatida saqlanib tashqir. Hunlar hujumi natijasida parchalanib ketadi.

Xunlar imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Xunlar davlatida qullar va yaylovlar davlat mulki hisoblanib, shanyuy boshchiligidagi harbiy zodagonlar nazoratida bo'lgan. Ko'chmanchilar iqtisodiy hayoti harbiy va soniga bevosita bog'lik bo'lib, davlat boyligining asosini

isoblangan. V.S. Taskinning fikricha boqiladigan chorva (xunn tilida "mal") asosan ot, qo'y-qo'zi, echki, tuya va yirik shoxli qoramoldan borat edi. Umuman xunnlar o'troq ziroatkor sivilizatsiyalar yaratolmagan mutlaqo yangi davlatchilik yo'lidan ketdilar. Ya'ni, ularda monoetnik mamlakat tushunchasining o'zi yo'q edi. Natijada imperiya chegaralari tez kengayib borib, taniqli ko'chmanchishunos (nomadoved) olimlar N.N.Kradin, V.S.Taskin, L.N.Gumilev, S.G.Klyashtorniy, T.I.Sultanov va boshqalarning fikricha, xunnlar imperiyasi aholisi 1,5 mln kishiga yaqinlashadi.

Ko'chmanchi xunnlar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar keskin va o'zgaruvchan bo'lmagan chorvadorlar jamiyatida monoetnik holat yo'qligi tufayli, iqtisodiy hayot tarzi o'zgarishiga qarab shakllanib borgan. Ko'chmanchi chorvachilik qilishga qadar bo'lgan barcha aholi yaylovlar taqsimoti asosida yashaganlar. Kambag'allashgan nomadlar oilalari boyroq chorvador xizmatiga o'tishgan. Ish topa olmaganlari esa, o'troqlashuvga mahkum edi. Bu esa o'z navbatida nomadizm inqirozini olib kelgan. Iqtisodiy omildan hashqari siyosiy jarayonlar ham ko'pincha o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, harbiy harakatlar olib borish uchun, dasht zodagonlari yo'lida xizmat qilish va talonchilik yurishlari ortidan daromad ko'rish uchun harakatlar deyarli barcha ko'chmanchilar jamiyatida uchraydi.

Ko'chmanchilarning kambag'allashuvi jarayoni tabiat injiqliklari va ijtimoiy-iqtisodiy holatga bevosita bog'liq edi. Qulchilikni ham paydo bo'lishi qisman yuqoridagi omillarda o'z aksini topgan. Ammo, quldorlik jamiyati sifatida ko'chmanchilar yuqori darajaga chiqa olmaganlar. Dasht sharoitida yirik qulchilik xo'jaligi butunlay shakllana olmagan. Chorvani boqish uchun ichki mehnat kuchining o'zi yetib oshganligi tufayli, chetdan qullarni kelishiga ehtiyoj deyarli bo'lmagan. Mol-holni yaylovda ushlab turish qobiliyati, ularni parvarishlash usullariga alohida e'tibor berilgan. Cho'pon qulni ortidan nazorat qilish uchun odam qo'yishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamasligi yaqqol ko'rinib turardi. Uning ustiga unchalik zich bo'lmagan nomadlar jamiyati uchun quldorlik xo'jaligini yuritish kam foyda bergan. Shaxsiy manfaatdorlik asosida chorvachilikni yurgizish ozod chorvadorning asosiy maqsadi bo'lganligi uchun quldorlikka ehtiyoj deyarli bo'lmagan.

Iqtisodiy jihatdan "Imperiyalar dunyosi" (Xunn, Rim, Parfiya, Kushon, Xan) qaram yerlaridan undiriladigan o'lponlar va soliqlar

hisobiga yashagan. Ayniqsa, ko'chmanchilar mulklari yetarlicha markazlashmagan byurokratik apparat ta'sirida shakllanib borgan. Ammo, iqtisodiyotdan siyosatni ustun qo'yish holati chorvadorlar imperiyasiga xos holat bo'lgan. Sivilizatsion jihatdan iqtisodiyotni shakllanishi chorvadorlikni o'troq dehqonchilik bilan bog'latilishida nisbatan kuchsizligini ko'rsatib berar edi.

O'troq aholi yashaydigan hududlarda chorvachilik qilish imkoni bo'lmaganligi uchun nomadlar o'z mollarini alohida yerlarda boqqanlar. O'troq ziroatkorlar chorvadorlar bilan deyarli bir xil sharoitda yashagan bo'lsalarda, ammo harbiy masalada ularga munosabat o'zgacha bo'lgan. Shaharlar esa doimiy daromad va o'lpon manbai hisoblangan. Shu bilan bir qatorda davlat xazinasini saqlash maskani bo'lib xizmat qilgan. Misol uchun xunlar davlatida o'troq aholiga nisbatan harbiy siyosiy ustuvorlikni hisobga olmaganda xitoylik qochoqlar mahalliy o'troq aholi bilan aralashib ketish imkoniga ham ega bo'lganlar.

Ko'chmanchishunos (nomadoved) tarixchilar A.M.Xazanov, E.N.Kradin, S.G.Klyashtorniy, T.I.Sultonov, E.I.Kichanov, N.Gumilev va G'.B. Boboyorov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida o'troqlashuv jarayoni faqatgina iqtisodiy omillar bilan bog'liq emasligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Tabiatdagi o'zgaruvchanlik, epidemiyalar, bosqinchilik yurishlari oqibatida qo'lga kiritilgan yerlarga ko'chib o'tish va boshqa jarayonlar yuqorida aytib o'tilgan oqibatga sababchi bo'lishi mumkin edi.

Nazorat ostidagi viloyatlarni boshqarayotgan chorvador hukmdorning vakillari maoshni markazdan (O'rda) va qo'shimcha daromadni mahalliy aholidan yig'ilgan soliq hisobidan olgan. Yoki hukmdor uchun yig'iladigan o'lponning ma'lum bir qismidan o'z hisobiga daromadni olib qolganlar. Joylardagi mahalliy xalq to'langan soliqlar evaziga nomadlar ko'pincha ularni tashqi dushmandan qutqorib qolmoqqa qilib turganlar. Iqtisodiy jihatdan markazlashishga harajatsiz qurilmagan o'troq aholi ma'lum bir ko'chmanchilar davlatiga qaram bo'lib qolganlar. Antik davrda Kushonlar, Xunlar va Qang'liklar O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilikka asoslangan yerlarini o'zaro taqsimlab olganlar. Qonunchilik tizimi chorvador urf-odatlariga asosida shakllantirilgan bo'lib, mahalliy o'troq aholi qonunlari faqat o'zlariga tegishli yerlarda amal qilgan. Bundan tashqari o'troq va chorvador aholi uchun umumiy qonunlar ham mavjud edi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, mahalliy o'troq nomadlarning madaniyati assimilyatsiya bilan o'zaro bog'liq bo'lgan. Umumiy uyg'unlashgan madaniyat chegaralarini ko'pincha siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan sivilizatsiya "sanitarlari" hisoblangan. To'chmanchilar belgilaganlar. Vaqt o'tishi bilan sedentarizatsiya arayonlari kuchayib, chorvadorlar uchun umumiy xususiy mulk hisoblangan yaylovlar taqsimoti yuzaga kelgan bo'lsa ham, o'troqlashuv doimiy tusga ega bo'lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Mil. avv. I asrda Xunn-Xitoy munosabatlarining diplomati. ahamiyati.
2. Xunn davlatining xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xunnlr imperiyasi inqirozining asosiy sabablari.
4. Xunnlr jamiyatida mulkiy munosabatlar.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Бичурин Н.Я. Собрание Сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I. – М., 1950.
2. Бернштам А.Н. Очерк истории гуннов. Л., 1951.
3. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – М., 2001.
4. Крадин Н.Н. Кочевники Евразии. Алматы. 2007.
5. Хазанов А.М. Кочевники и внешний мир. Алматы. 2000.
6. Литвинский Б.А. Конгюйско-Сарматский Фарн (историко-культурным связи племен Южной России и Средней Азии). Душанбе. 1968.
7. Стучевский Ш.А. Межгосударственнке отношения и дипломатия на Древнем Востоке. – М., 1987.
8. Шониёзов. К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т. 1. 2001.
9. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т. 1. 2007.

Glossariy

| | |
|----------------------|--|
| Antologiya | turli mualliflarning tanlangan asarlari |
| Artsava | Kichik Osiyodagi qadimiy mamlakat |
| Axuramazda | Zardushtiylikda ezgulik xudosi |
| Ba | Qadimgi Xitoyda gegemon knyazlar maqomi |
| Bandargoh | port va unga kirish-chiqish yo'llari |
| Brahman | Hindistonda oliy tabaqaga mansub kishi |
| Chunshyu | Qadimgi Xitoy tarixida "ko'p podsho'liklar" davri |
| Daosizm | Qadimgi Xitoydagi falsafiy oqimlardan biri |
| Delta | Yunoncha "uch burchak" Nil daryosining quyi qismi (Quyi Misr) yerlari. |
| Di go | Xan saltanatida teng davlatlar konsepsiyasi |
| Doroyi | Ahamoniylar podshosi Doro I zarb etgan tanga |
| Dur-Sharakkin | Sargon II qurdirgan saroy |
| Fayum | Nil vohasidagi ko'lining nomi |
| Finikiya | Hozirgi Suriya va Livanning qirg'oq bo'yi hududi |
| Fir'avn | Ma'nosi "katta uy". Qadimgi Misrda podsholik unvoni. |
| Fors | Qadimgi Erondagi o'lkaning nomi |
| Giksos | Sahro hokimlari yoki II-o'tish davrida Quyi Misrni zabt etgan ko'chmanchi xalqlar. |
| Guttiylar | Shumerni bosib olgan ko'chmanchi qabilalar. |
| I | Chjou davlati davrida ko'chmanchi varvar qabilalar ittifoqi. |
| Iyeroglif | Rasmiy yozuv (yunoncha-toshga bitilgan muqaddas yozuv). |
| Ishyakuma | Yuqori Mesopotamiyada shahar-davlat hokimi. |
| Iti-tau | (Ikkala yerni birlashtiruvchi) O'rta podsholikning poytaxtlaridan biri. |
| Jexutimassu | Fir'avn Tutmos I ning misrcha ismi. |
| Kadesh | Suriyadagi shahar. |
| Kanbet | Jamoa kengashlari nomi. |
| Karkemish | Shimoliy Suriyadagi qadimiy chegara shahar. |
| Kush | Nubiyaning shimolidagi davlat. |
| Kussar | Kichik Osiyodagi Qadimgi Xett shahri. |
| Litografiya | Toshbitiklarni o'rganuvchi fan. |
| Lugal | Shumer shahar davlatlaridagi harbiy unvon. |
| Lulubey | Zagros tog'laridan kirib kelgan ko'chmanchi xalqlar. |
| Midiya | Shimoli-g'arbiy Erondagi qadimiy davlat. |
| Mitra | Zardushtiylikda quyosh xudosi. |

| | |
|-------------------------|---|
| Nesa | Qadimgi Xett davlatining dastlabki poytaxtlaridan biri. |
| Nomarx | Qadimgi Misrda viloyat hokimi (knyaz). |
| Nubiya | Misrning janubidagi hudud, hozirgi Sudan shimoliga to'g'ri keladi. |
| Oromiylar | Yaqin Sharqni bosib olgan ko'chmanchi qabilalar. |
| Ra | Quyosh hudosi. |
| Rubaum(quyosh) | Qadimgi Xett davlatida "podsho" degan ma'noni anglatgan. |
| Saklar(Skif) | Sharqiy Eron tilida so'zlashuvchi xalqlardan biri. |
| Satrap | Ahamoniylar davlatida viloyat hokimi. |
| Semdet | Qadimgi Misrda biror-bir kasb ustalariga ishlatilgan umumiy ibora. |
| Somiylar | Yahudiylarning qadimgi ajdodlari. |
| Shamash | Mesopotamiyadagi Quyosh xudosi. |
| Shamshir | Jang quroli, qilichning bir turi. |
| Shara | Umma shahriga homiylik qilgan xudo. |
| Sharrum | Akkadda "Ulug' odam", podsho. |
| Shnau | Davlat va ibodatxona yerlarida ishlovchi va oziq-ovqat bilan ta'minlovchi ishchi. |
| Shulgi qonunlari | Shumerdagi ilk yozma (mixxat) qonunlardan biri. |
| Sya | Qadimgi Xitoydagi ilk sulola. |
| Ta-kemet | Misrning qadimiy nomi. |
| Tarixshunoslik | Tarixiy tadqiqotlarni o'rganilishi. |
| Tot | Donishmandlik va oy xudosi. |
| Ugarit | Finikiya shahar davlatlaridan biri. |
| Urartu | Kavkaz ortidagi davlat. |
| Van | Hukmdor yoki imperator. |
| Velusa | Xetlar davrida Troya shahar davlatining qadimiy nomi. |
| Xatti | Kichik Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri. |
| Xattusa | Xetlar poytaxtlaridan biri. |
| Xat-uarit | Giksoslar poytaxti Avarisning misrcha nomi. |
| Xemuunesut | Qadimgi Misrda podsho xizmatidagi alohida ishchilar sinfi. |
| Yamxad | Suriya hududidagi qadimgi davlatlardan biri. |

Adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. Davlat va huquq tarixi: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik // H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
2. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. - T. Fan va texnologiya, 2009.
3. Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар. – Т.: O'zbekiston, 2016.

II. Rus tilidagi adabiyotlar

1. Аветисян Г.М. Государство Митанни (Военно-политическая история в XVII-XIII вв. до н.э.). - Ереван, 1984.
2. Александров Б. Е. Хеттская держава и Верхняя Месопотамия в XIII в. до н. э.: реконструкция политических взаимоотношений: М., 2002
3. Амусин И.Д. Проблемы социальной структуры обществ древнего Ближнего Востока по библейским источникам. – М., 1993.
4. Антонова Е.В. Месопотамия на путях к первым государствам. – М., 1998.
5. Ардзинба В. Г. Ритуалы и мифы древней Анатолии. – М., 1982.
6. Арутюнян Н. В. Корпус урартских клинообразных надписей. Ереван, 2001.
7. Ассман Я. Египет: теология благочестия ранней цивилизации / Пер. снем. Т. Баскаковой. – М., 1999.
8. Берлев О. Д. Трудовое население Египта эпохи Среднего царства. – М., 1972.
9. Берлев О. Д. Общественные отношения в Египте эпохи Среднего царства. – М., 1978.
10. Бонгард-Левин Г.М., Грантовский Э.А. От Скифии до Индии. Древние арии: мифы и история. – М., 1983.
11. Бонгард-Левин Г.М., Ильин Г.Ф. Индия в древности. – М., 1985.
12. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. – М., 2003.
13. Васильев К.В. Истоки китайской цивилизации. – М., 1998.

14. Веллард Дж. Вавилон. Расцвет и гибель города чудес. – М., 2003.
15. Вигасин А.А. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2007.
16. Волков А. В., Непомнящий Н. Н. Хетты. Неизвестная империя Малой Азии. – М., 2004.
17. Гёрни О. Р. Хетты / Пер. с англ. – М., 1987.
18. Гиоргадзе Г. Г. Вопросы общественного строя хеттов. Тбилиси: 1991.
19. Гиоргадзе Г. Г. Очерки по социально-экономической истории Хеттского государства (О непосредственных производителях в хеттском обществе). – Тбилиси., 1973.
20. Грантовский Э. А. Иран и иранцы до Ахеменидов. – М., 1998.
21. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М., 1985.
22. Дандамаев М.А. Месопотамия и Иран в VII-IV вв. до н.э.: Социальные институты и идеология. СПб., 2009.
23. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика Древнего Ирана. – М., 1980.
24. Дебен-Франкфор К. Древний Китай. – М., 2002.
25. Древний Египет. Сказания. Притчи / Пер. с древнеег. И.С. Кацнельсона и Ф.Л. Мендельсона. – М., 2000.
26. Древнекитайская философия. Эпоха Хань. – М., 1990.
27. Дьяконов И. М. Урартские письма и документы. М. 1963.
28. История Востока. В 6т. Т. I. Восток в древности / Гл. редкол.: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др. – М.: Вост. лит., 2002.
29. История Древнего Востока: Тексты и документы / Под ред. В. И. Кузищина. – М., 2002.
30. Козырева Н.В. Древняя Ларса. – М., 1988.
31. Коротя С.Г. Великие памятники великих цивилизаций. – М.: Эскмо, 2011.
32. Кузищин В.Н. История Древнего Востока. -2-е изд. Испр. – М., 2003.
33. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – М., 2001.
34. Крадин Н.Н. Кочевники Евразии. Алматы. 2007.
35. Крамер С.Н. История начинается в Шумере. 2 изд. – М., 1989.

36. Крамер С. Н. Шумеры. – М., 2002.
37. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», «ЭксмоЭ-М. 2004.
38. Лёве М. Китай династии Хань. Быт, религии, культура. – М., 2005.
39. Маккуин Дж.Г. Хетты и их современники в Малой Азии. – М., 1983.
40. Малявин В.В. Гибель древней империи. – М., 1993.
41. Оппенгейм А.Л. Древняя Месопотамия: Портрет погибшей цивилизации. – М., 1990.
42. Саггс Х. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. – М., 2004.
43. Хазанов А.М. Кочевники и внешний мир. Алматы. 2000.
44. Хинц В. Государство Элам / Пер. с нем. под ред. и с послесл. Ю.Б. Юсифова. – М., 1977.
45. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Сост. и коммент. А.А. Вигасина. – М., 1997.
46. Циркин Ю.Б. От Ханаана до Карфагена. – М., 2001.
47. Циркин Ю.Б. История библейских стран. – М., 2003.
48. Шифман И.Ш. Ветхий Завет и его мир. – М., 1987.
49. Шифман И.Ш. Угаритское общество XVI-XIII вв. до н.э. – М., 1982.
50. Шифман И.Ш. Культура древнего Угарита. – М., 1987.
51. Якобсен Т. Сокровища тьмы: история месопотамской религии. – М., 1995.

III. Ingliz tilidagi adabiyotlar

1. Armstrong, Karen. Buddha. New York: Penguin Books, 2004.
2. Assmann, Jan. The Mind of Egypt: History and Meaning in the Time of the Pharaohs. Trans. Andrew Jenkins. New York: Henry Holt and Company, 2002.
3. Briant P. From Cyrus to Alexander. A History of the Persian Empire. Winona Lake, 2003.
4. Bryce T. The Kingdom of the Hittites. 2nd ed. Oxford, 2005.
5. Crawford, Harriet. Sumer and the Sumerians. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
6. Cambridge History of Iran. V. 2. The Median and Achaemenian Periods. Cambridge, 1985.

7. Csikszentmihalyi, Mark. *Readings in Han Chinese Thought*. Indianapolis and Cambridge: Hackett Publishing Company, 2006.
8. David, A. Rosalie. *Religion and Magic in Ancient Egypt*. New York: Penguin Books, 2002.
9. Di Cosmo, Nicola. *Ancient China and Its Enemies: The Rise of Nomadic Power in East Asian History*. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
10. Dundas, Paul. *The Jains*. 2d ed. New York.: Routledge, 2002.
11. Ebrey, Patricia Buckley. *The Cambridge Illustrated History of China*. Cambridge: Cambridge University Press. 1999.
12. Forbes Th. B. *Urartian Architecture*. Oxford, 1983.
13. I.E.S. Edwards. *The Cambridge ancient history Part I*. Cambridge. 2008.
14. I.E.S. Edwards. *The Cambridge ancient history Part II*. Cambridge. 2008.
15. Shaw I. *The Oxford History of Ancient Egypt*. Oxford. 2003.
16. Leick, Gwendolyn. *Mesopotamia: The Invention of the City*. New York: Penguin Books, 2001.
17. Leick, Gwendolyn. *The Babylonians: An Introduction*. New York: Routledge, 2003.
18. Nissen H. J. *The Early History of the Ancient Near East*. Chicago-L., 1988.
19. Possehl G. L. *The Indus Civilization. A Contemporary Perspective*. Delhi, 2002.
20. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka. "World history: patterns of interaction". Oxford University Press. England 1994.
21. S. W. Bauer. *The History of the Ancient World_ From the Earliest Accounts to the Fall of Rome*-W. W. Norton & Company. 2007.
22. *The Indo-Aryans of Ancient South Asia / Ed. G. Erdosy*. Berlin, 1995.
23. Wolpert, Stanley. *A New History of India*. 7th ed. Oxford: Oxford University Press, 2004.
24. Zimansky P E. *Ecology and Empire: the Structure of the Urartian State*. Chicago, 1985.

Mundarija

| | |
|--|-----|
| 1-mavzu. Qadimgi Sharq tarixiga kirish: Manbashunosligi va tarixshunosligi | 4 |
| 2-mavzu. Qadimgi va ilk podsholik davrida Misr..... | 12 |
| 3-mavzu. O'rta podsholik davrida Misr..... | 24 |
| 4-mavzu. Yangi va So'nggi podsholik davrida Misr..... | 31 |
| 5-mavzu. Qadimgi Mesopotamiya..... | 55 |
| 6-mavzu. Babil podsholigi..... | 68 |
| 7-mavzu. Qadimgi Ossuriya..... | 86 |
| 8-mavzu. Qadimgi Xett davlati..... | 99 |
| 9-mavzu. Qadimgi Frigiya va Lidiya davlatlari..... | 113 |
| 10-mavzu. Qadimgi Urartu..... | 122 |
| 11-mavzu. Finikiya..... | 142 |
| 12-mavzu. Qadimgi Yamxad..... | 149 |
| 13-mavzu. Mitanni davlati..... | 151 |
| 14-mavzu. Qadimgi Falastin, Isroil-Yahudiy davlati..... | 155 |
| 15-mavzu. Qadimgi Elam davlati..... | 166 |
| 16-mavzu. Qadimgi Midiya..... | 168 |
| 17-mavzu. Ahamoniylar davlati..... | 170 |
| 18-mavzu. Parfiya davlati..... | 191 |
| 19-mavzu. Qadimgi Hindiston | 196 |
| 20-mavzu. Kushonlar imperiyasi..... | 223 |
| 21-mavzu. Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning vujudga kelishi | 230 |
| 22-mavzu. Xunlar imperiyasi..... | 247 |
| Glossariy..... | 253 |
| Adabiyotlar ro'yxati..... | 255 |

D.J. Urakov, A.G.Xolliyev, S.I. Gabrielyan, R.N.Tursunov,
O.A.Maxmudov, A.A.Rozakov, A.A.Biykuziyev,
B.B.Xaynazarov, R.X.Djurayev, N.Kenjayeve, D.X.Ziyayeva,
G.K.Otarbayeva, J.E.Turekulova

JAHON TARIXI

BIRINCHI TOM

Birinchi qism

darslik

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: F. Xolsaidov

Texnik muharrir: Q.Mamiraliyev

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.

"Times New Roman" garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 17. Nashr bosma tabog'i 16,25.

Adadi 200 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.

